

MANSURXO‘JA XO‘JAYEV

SHERMUHAMMADBEK QO’RBOSHI

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKYENT — 2008

Mas’ul muharrirlar:

Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori,
professor, O’zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi.
Qahramon Rajabov, tarix fanlari doktori.

Taqrizchilar:

Ilhom Saidov, tarix fanlari doktori, professor.
Sotimjon Xolboev, tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Shodmon Hayitov, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Xo‘jaev, Mansurxo‘ja.

Shermuhammadbek qo‘rboshi: (Tarixiy, hujjatli, badiiy-publitsistik qissa) Mansurxo‘ja Xo‘jaev;
Mas’ul muharrirlar: R.Shamsutdinov, Q.Rajabov. — T.: Sharq, 2008. — 304 bet.

... Yaqin-yaqingacha “bosmachi” va “qo‘rboshi” degan tushuncha bizning tasavvurimizda “bosqinchi”, “talonchi”, “o‘g‘ri” va hokazo qabilida shakllantirilgan edi. — Afsus, ming afsuslar bo‘lsin! Holbuki, qo‘rboshilar millatning chin fidoyilari, haloskorlari, jon fidolari ediki, buni ancha kech, harqalay, kech bo‘lsa ham anglab yetdik, inshoollo.

Ehtirosli yozuvchi, jonkuyar publitsist Mansurxo‘ja Xo‘jaevning mashhur Shermuhammadbek qo‘rboshi haqidagi ushbu tarixiy, hujjatli badiiy-publitsistik qissasi qalbimiz kutubxonasining nodir kitoblaridan biriga aylanadi, albatta.

BBK.84(5O’6)

ISBN 978-9943-00-331-6

© «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2008.

O‘zbekiston Respublikasi
Mustaqilligining 17 yilligiga
bag‘ishlayman.
Muallif

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Ahmad Al-Farg‘oniy tavalludini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlar yuzasidan Quva va Farg‘ona shahriga tashrif buyurib, keng jamoatchilik bilan qilgan suhbatlaridan birida istiqlol bayrog‘ini baland ko‘targan, milliy ozodlik kurashiga, qurolli harakatga bosh bo‘lgan sarkardalardan Madaminbek va Shermuhammadbeklarni eslab o‘tgan edilar. Chunki haqqoniy tariximizni, yangi tarixni yaratishda buyuk istiqlolimiz yo‘lida kurashgan ulug‘ zotlar, ma’rifatparvaru adiblar, qo‘mondonu lashkarboshilarining hayot yo‘li, faoliyati, taqdirini bilish, ularning betimsol ijtimoiy-siyosiy qiyofasini tiklash, bor haqiqatni hozirgi va kelajak avlodga yetkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom Karimov so‘zi bilan aytganda xalqimiz o‘sha mustabid sovetlar tuzumi davrida biri «qizil askar», biri «bosmachi», biri «qulqoq», biri «komissar», yana biri «mushtumzo‘r», yana qay biri «yo‘qsil» deb guruhlarga ajratib tashlangandi. «Bo‘lib tashla, so‘ngra hukmronlik qil» shiorini amalga oshirish uchun eng makkor, qabih usullar ishga solinib, bir millat vakillarini bir-biriga qarshi qayrash, adovat va nizo urug‘ini sochish, shu yo‘l bilan istiqlolchilar safini bo‘lib yuborish, ularni alohida-alohida qirg‘in qilish siyosati amalga oshirilgan edi. **«Shu bois, — deb ko‘rsatdi yo‘lboshchimiz, — ota-bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to‘g‘ri tushunishga harakat qilishimiz lozim»**¹. Islom Karimov ta’kidlaganidek, «bundan bir yuzu o‘ttiz yil muqaddam xalqimiz milliy mustaqilligi va tarixiy davlatchiligini yo‘qotib, mustamlaka asoratiga tushib qolgan edi. Shu davr mobaynida ajdodlarimiz, millatimiz mashaqqatli sinov va kurash yo‘llarini bosib o‘tdi»². O‘zbekistonning sovetlar davri tarixi ana shunday mashaqqatli, og‘ir sinov va kurash yo‘llaridan iboratdir. Bu deyarli o‘rganilmagan tarixiy davr 1918—1934 yillar — xalqimizning Vatan, millat ozodligi yo‘lida olib borgan milliy urushi, istiqlolchilik harakati. Sho‘ro tuzumi bu davr o‘rganishini qat’iy man qilgan edi. Aksincha bu ozodlik kurashini bostirishga qaratilgan sovetlarning bosqinchilik urushlari tarixi madh qilingan, tarix bir tomonlama bitilgan, g‘oliblar tarixi bitilgan holda mag‘lublar tarixi kafanga o‘rab berkitib qo‘yilgan edi. Biroq oyni etak bilan yopib bo‘lmanidek yaqin o‘tmishimizdag‘i ana shu istiqlol uchun kurashni tarixdan o‘chirib bo‘lmaydi. Har bir voqeа, hodisa, jarayon, xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin, xoh adolatli, xoh razolatli bo‘lsin, ularning barchasi ustidan vaqt, tarix o‘z hukmini chiqaradi. Shuningdek, har bir siyosiy, harbiy, mafkuraviy arbob, omma, xalq yetakchisi darajasiga ko‘tarilgan shaxs garchand jisman yo‘q bo‘lsa ham, baribir ular haqidagi bor haqiqat aytilishi zarur. Bunday shaxslar tarix uchun hamisha barhayotdir. Ulardan yangidan-yangi avlodlar ibrat va bahra oladi, ularga taqlid qiladi, yaxshilari bilan faxrlanadi, yomonlardan nafratlanadi. Qolaversa, tarix shaxssiz bo‘lmaydi. Har bir tarixning egasi bo‘ladi. Egasiz tarix tarix emas. Shu nuqtai nazardan qaralganda bizning ona tariximizning ko‘pdango‘p sahfalari, tarixiy voqealarini va ularning qahramonlari hali-hanuz o‘rganilganicha yo‘q. Tariximizning ana shunday kemtik qirralaridan biri 1918—1934 yillarda Vatan, millat ozodligi, erku hurriyat uchun olib borgan mardonavor qurolli kurash tarixidir.

Bu qadar jozibali, salohiyatli, salobatli, katta ko‘lamli, favqulodda mazmunli, qudratli, ayni vaqtida ziddiyatli, ammo mislsiz qahramonlik ko‘rsatgan, ham talafot ko‘rgan, ko‘plab qurbanlar bergen va kurash 16 yil davom etgan milliy-ozodlik kurashidek tarixiy voqeа jahon tarixida na XIX asrda, na XX asrda yuz bergen. Bu buyuk milliy kurash betakrordir. Sovet hokimiyyati bu harakatni bostirish uchun

260—270 ming askar, zamonaviy qurollar bilan ish olib bordi. Yuz minglab yurtdoshlarimiz jon fido etdi, bir milliondan ziyod vatandoshlar xorijga chiqib ketdi, 1935—1939 yillarda o‘n minglab mahalliy aholi “bosmachilar”ga qo‘shilganlikda, yordam bergenlikda, xayrixoh bo‘lganlikda yoki ular haqida ma’lumot bermaganlikda ayblanib, Sibir, Uzoq Sharq, Shimolga surgun qilindi. Ayrim xorijdagi ma’lumotlarga qaraganda, O’rta Osiyo mintaqasida jami 5 million 600 ming kishi bu yo‘lda qurban bo‘lgan.

Bu hayot va mamot uchun kurash jarayonida xalq orasidan ko‘plab jasur sarkardalar, qo‘mondonlar, qo‘rboshilarining butun bir avlod yetishib chiqdi. Shaxobiddin Yassaviyning “Turkiston achchiq haqiqatlari” kitobida 114 qo‘rboshi haqida ma’lumot keltirilgan. Ular orasida Farg‘ona vodiysida kichik va katta Ergashlar, Muhammad Aminbek (Madaminbek), Shermuhammadbek, Omon Pahlovon, Jonibek Qozi, Mahkam Xoji, Isroilbek, Ahmad Polvon, Rahmonquli, Islom Pahlavon, Xorazmda Junaidxon, Zarafshon vodiysida Mulla Abdulqahhor, Jo‘ra Amin, Murod Meshkob, Mitan Polvon, Sharqiy Buxoroda Ibrohimbek Laqay, Davlatmandbek va boshqalar bor. Bu zotlarning har birini maxsus tadqiq qilish lozim. Sho‘rolar davrida ularning barchasiga xalq dushmani degan tamg‘a yopishtirilgan, ular haqida biror og‘iz ijobjiy so‘z aytishning mutlaqo imkonni bo‘lmagan, aksincha, ular keragicha yomonga chiqarilgan, chin tarix o‘rnini yolg‘on tarix egallagan edi.

Buyuk istiqlolimiz tarixni haqqoni yoritish uchun keng imkoniyatlar ufqini ochib berdi. Bunday bo‘lishini o‘sha yomonotliqqa chiqarilgan “bosmachilar”, sarkarda, lashkarboshilar, qo‘rboshilarining o‘zlar oldindan bashorat qilganlar, qachonlardir yurt qizil imperiya sirtmog‘idan qutulib, mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tishlariga qat‘iyan ishonganlar. Bu o‘rinda Nyu-Yorkda yashayotgan Davronbekning shaxsiy arxividan olgan bir hujjatga murojaat qilish joizdir. Shermuhammadbekning o‘g‘li Davronbekdan olingen bu hujjatda 1927 yili Sha’bon oyining birinchi-uchinchini kunlarida Qobul shahridagi Alimardon bog‘ida butun Farg‘onadan, Turkistondan muhojir bo‘lib borib qolgan “bosmachilar”, qo‘rboshilar, ponsodlarning Shermuhammadbek raisligida andijonlik Abdulhay Maxdum kotibligida yig‘ilish o‘tkazilgan. Unda 1917—1924 yillarda Farg‘ona vodiysiagi istiqlol urushi haqidagi esdaliklar umumlashtiriladi, vodiyyidan chiqqan qo‘rboshilar, lashkarboshilar nomlari hamda Shermuhammadbek muhorabalaridan, tarjimai holidan lavhalar keltiriladi. Shahid ketgan yuzlab istiqlol kurashchilari zikr etiladi. Ular xotirasi lavhasiga mana bu so‘zlar bitilgan:

“Qabringdan rohat topsun Farg‘ona shahidlari, yosh Farg‘ona mujohidlari, qahramonlari. Yashasun millat qahramonlari. Qabringda rohat topsun Farg‘ona shahidlari. Istiqlol tarafdarlari! Mavh ulsun kommunizm. Oh, Farg‘ona!

Qabringda rohatda bo‘l, Farg‘ona shahidlari! Nomlaringni bir kun xotirlaydilar. Sizlarga duolar o‘qiyimiz. Vatan avlodlarina ibrat etarmiz qahramon millat yigitlari!”

Ha, buyuk istiqlol tufayli milliy ozodlik urushi ishtirokchilari, qo‘rboshilar, lashkarboshilar, qo‘mondonlarning hayot yo‘li, faoliyati, taqdirini bilish, ularning unutib bo‘lmas ijtimoiy-siyosiy qiyofalarini tiklash, ular haqidagi bor haqiqatni kelgusi avlodlarga yetkazish olimlarimiz, ziyorolarimizning burchidir. Ana shunday xayrli, ibratli ishga qo‘l urganlardan biri Mansurxo‘ja Xo‘jaevdir.

Mansurxo‘ja Xo‘jaevning tariximizning achinarli, hasratli, armonli, lekin sharaflı, qahramonona sahifasini bitishga, bu ishga hissa qo‘sishga jazm qilgani ham ibratlidir. Uning **“Shermuhammadbek qo‘rboshi”** nomli tarixiy, hujjatli, badiiy-publisistik badiiy qo‘lyozma asari buning yorqin misolidir. Shermuhammadbek to‘g‘risida taqdim qilingan bu asar Andijon Davlat universiteti Tarix fakultetida **“Istiqlol va tarix”** ilmiy seminari va **“Meros”** nomli xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg‘ armasining qo‘shma yig‘ilishida muhokama qilindi va nashr etish uchun tavsiya etildi. Bu asar boshdan-oyoq chuqur vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ulari bilan to‘lib toshgan, uni o‘qir ekanmiz, o‘sha suronli, fojiali, lekin qahramonona tarix ko‘z o‘ngimizdan birma-bir o‘tadi.

Muallif voqelikning asl mohiyatini keng va atroflicha yoritgan. Asarda chuqur tahlillar, qiyoslashlar, o‘xshatishlar mavjud. Muallif sovet zamonida yaratilgan kitoblar, maqolalar, badiiy

asarlar, harbiy sarkardalar xotiralari, gazeta va jurnallar, radio eshittirishlari, televedeniya ko‘rsatuvlari materiallarini qunt va sinchkovlik bilan o‘rganib, xilma-xil qarashlar, talqinlarni tahlil qilib, ayni vaqtda shaxsan o‘z fikrlarini har jihatdan asoslab bera olgan. Ko‘plab tarixiy adabiyotlar, badiiy asarlarda Shermuhammadbek haqidagi soxta, buzilgan, tuhmatdan iborat fikrlarni dalilu ashayolar, aqlan, mantiqan yondashuvlar vositasi ila rad qilib, o‘zining tadqiqoti natijalarini sodda, lo‘nda, xalq tilida mohirona bayon eta olgan. Asarning ko‘plab bu kabi ijobiy, ibratlari jihatlari borki, ularni muhtaram o‘quvchi ilg‘ab oladi. Kitob juda ham o‘qishli, ravon tilda yozilgan.

Ozodlik va mustaqillik uchun qalbda Vatan tuyg‘usi, qo‘lda qurol bilan dushmanga qarshi beayov kurashgan, sarkarda, qo‘mondon Shermuhammadbek haqida tarixiy badia yaratildi. Asar keng kitobxonlar uchun, ayniqsa, hozirgi yosh avlod uchun nihoyatda zarur va u xalqimizni milliy g‘oya, mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalashdek muqaddas ishga munosib hissadir.

Mansurxo‘ja akani 1995 yilda Parijda uchrashib, do‘splashib qolgan mashhur olim Lyus’en Keren ga ramziy ma’noda o‘xhatgim keladi. L.Keren aslida yershunos mutaxassis edi. U yangi yerlarni o‘zlashtirish va melioratsiyalash oqibatida atrof muhit ekologik holatining o‘zgarishi masalasi bo‘yicha xizmat safari bilan 1961 yili Mirzacho‘lga kelgan. Shunda u 40 yoshda edi. Samarqand va uning maftunkor tarixiy obidalarini, ayniqsa, Temuriylar me’morchilik san’atini ko‘rib, Amir Temur haqidagi rivoyatlarni eshitib, unda Sohibqiron shaxsiyatiga hurmat va qiziqish g‘oyat ortadi. O’sha davrda Temur shaxsiyatiga bo‘lgan tuhmatlar, humatsizliklardan nafratlanadi. Mavzuni chuqur o‘rganishga astoydil kirishadi. Temurga bo‘lgan hurmat uni kasbini o‘zgartirishga olib keldi. Temur haqida maqolalar, kichik-kichik asarlar yozdi. Uning “**Tamerlan yoxud Temur xoqon saltanati**” kitobi katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. G’arbu Sharqqa tarqaldi. Bu ish uchun unga doktorlik unvoni berildi. 1996 yili Lyus’en Keren Amir Temurning 660 yillik tantanasida qatnashdi. Prezidentimiz Islom Karimov unga “Do‘sistik” ordenini topshirdi. U hozirda Sarbonna universiteti professori.

Xullas, qo‘lingizdagi kitob uzoq yillar mobaynidagi mashaqqatli izlanishlar, og‘ir, lekin sharafli, xayrli mehnat natijasidir. U har bir yosh va katta o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi.

Rustambek Shamsutdinov,

Bobur nomidagi Andijon Davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori, O’zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Meros” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg‘armasi raisi

BOLALIK XOTIRALARIMDAN

Qalbimiz siyosat va mafkura tamg‘asidan xoli bolalik chog‘larimiz ... Hafta sayin maktabimizga “bosmachilar” haqida filmlar olib kelishar, tarix, adabiyot darslarida “bosmachilar”ning “mudhish” qilg‘uliklari haqida so‘zlashar, xullas, ongimizda “bosmachi” degan salbiy siyemoni yaratishga harakat qilishar edi. Biroq nima uchundir norasida qalbimiz, ongimiz, “bosmachi” siyemosini qabul qila olmas, urush-urush o‘ynagan paytlarimizda ikki jahhaga: “oqlar-qizillar” va hokazo guruhlarga bo‘linsakda, o‘yinimizda qizillar-bosmachilar guruhi bo‘lmash edi...

O’sha kuni maktabda shu mavzuda yana bir film, adashmasam, “Ravot qashqirlari” namoyish etildi. Baribir yosh bolamiz-da, uyga kelib:

— Qizillar bosmachilarini ana unday qilib urdi, mana bunday qilib qirib tashladi, deb yuboribman. Bu tarixiy voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, zarur paytda ularga madad qo‘lini cho‘zgan otam rahmatlikning ranglari bir o‘zgarib, holi qolgan paytimizda atrofda kimsa yo‘qligiga ishonch hosil qilib, shunday degan edilar:

— O‘g‘lim, ular bosmachilar emas. Rusiyadan kelib, bu yurtni bosib, boyliklarimizni o‘z yurtlariga tashib ketgan qizillar, islom dinining dushmanlari bo‘lmish bolshavoylar bosmachidir. Ammo, bu gaplarni senga aptyapman xolos, birov eshitib qolsa, hammamizni zambarak og‘ziga qo‘yib otib tashlaydilar... Bir oz sukut saqladilar.

— Kuz kunlarining birida, — davom etdilar otam,— o‘z odamlarim bilan Marg‘ilondan qaytayotgan edik. Nogoh, oldimizni o‘n chog‘lik yigit to‘sib chiqib, otdan tushishimizni talab qildi. Otdan tushdik. Ularning sardori:

— Biz Shermuhammadbekning yigitlarimiz. Otlaringiz jihod yo‘lida xizmat qiladi, — dedi-da, otlarimizni olib, yigitlari bilan bir tomonga qarab yo‘l oldi. Biz yalang cho‘lda jonimiz omon qolganiga shukurlar qilib, yo‘lni yayov davom ettirdik. O’n chaqirimcha yo‘l bosgach, taxminan yuz kishilik guruhga duch keldik. Ularning sardorlari bizni to‘xtatib, so‘roqqa tutdilar. Bo‘lgan voqeani ro‘yi-rost aytib berdik. Bizni o‘z otlariga mingashtirib, uch chaqirimcha naridagi bir qo‘shga olib bordilar. Qo‘sh o‘rtasidagi chodir oldida qurollangan soqchilar turar edi. Ko‘p o‘tmay bizni ichkariga, Shermuhammadbek oldiga olib kirdilar. Qotmadan kelgan, baland bo‘yli, yelkador, yaktagidan jundor ko‘kragi ko‘rinib turgan, qalmoqi qalpoq kiygan, mauzer taqqan Bek: — Kelinglar, dasturxonga o‘tinglar, — deb siperish qildi. Dasturxonda kuydirilgan qaymoq, mevalar bor edi. Non sindirilib, bir kosadan ayron berildi. Bo‘lib o‘tgan ishdan xabardor qilingan ekan, tanovul asnosi: — Siz bovachcha (boyvachcha demoqchi), o‘sha odamlarni ko‘rsangiz taniysizmi, — dedi. — Albatta, ko‘rsam taniyman, — dedim. Suhbatimiz uch soatga yaqin davom etdi. Suhbat pirovardida: — Bizda bunday qaroqchilik bo‘lmaydi, bilib qo‘ying bovachcha! — dedi. So‘ngra esa: — Odamlaringiz ichida bizga xayrixohi bo‘lsa, bir-ikki nafarini bersangiz, — deb qo‘shib qo‘ydi.

Nihoyat dasturxonga fotiha qilib tashqariga chiqdik. Qarshimizda boyagi o‘n nafar otliq bizga baqrayib turar edi.

— Bovachcha, otlaringizni olgan shularmi?

— Ha.

Shermuhammadbek ularga qarata: — Otdan tush hammang. Turkiston, Farg‘ona uchun, or-nomus, dini-islam uchun kurash olib borayotgan bir paytimizda tuprog‘imizni bosqinchilardan ozod qilish o‘rniga nomimizni sotib, talonchilik qilib yurganlarga o‘lim! — deya hayqirdi.

Ne ko‘z bilan ko‘rayki, boyagilarning boshlig‘i bir imo bilan otib tashlandi. Qolganlari yig‘lab, kechirim so‘rab, astoydil tavba qildilar.

— Bovachcha, otlaringizni olib, yurtingizga bemalol boravering. Yo‘lda aziyat chekmaysiz. Odamlaringizni ham oling, men sizni sinamoq uchun odam so‘ragan edim.

Yigitlarim menga sodiq, nimaki buyursam, qulqoq qoqmay bajarishadi. Biroq, ularni bu yerda qoldirish uchun buyruqning o‘zi kifoya qilmaydi, ularning dil “rizosi kerakmikan”, deb ko‘ngildan

o‘tkazib turganimda yigitlarimdan ikkisi – Begmat va Xolmat oldimga keldilar:

— Xo‘jayin... biz rozimiz....

Shermuhammadbek mammunligini yashirolmay, quchoq ochib xayrasharkan, so‘z qotdi: Siz, akangiz Muhammad Said Yunusxo‘ja bilan Ergashbek, Islom polvonlarni ot-ulov, ozuqalar bilan ta‘minlab turganingizdan xabarimiz bor. Bizning har bir g‘alabamiz sizlarning qo‘llashlaringiz tufaylidur. Bu uchrashuvni bizga Alloh nasib etdi. Siz bilan do‘sit, jigmoid bo‘ldik, ko‘rishguncha hayr. Bizni duo etib turing, eshon.

Begmat milliy-ozodlik kurashi yo‘lida shahid bo‘ldi. Shermuhammadbek Afg‘onistonga o‘tib ketgach, Xolmat qaytib kelib, menga yana o‘ttiz to‘rt yil xizmat qildi...

Bu orada ushbu satrlar muallifi ham esini tanib, oqu qorani ajratadigan bo‘lib qoldi. Xonodon a’zosi bo‘lib qolgan, milliy-ozodlik harakatining jonli tarixiga aylangan Xolmat buva Shermuhammadbek, Madaminbek, boshqa qo‘rboshilar haqida ko‘p narsalarni aytib berdi. Shermuhammadbek besh vaqt namozni kanda qilmaydigan, taqvodor kishi edi. Hatto, otdan tushgandan so‘ng ham tahoratni yangilab olar edi. Bek doim o‘z yigitlariga ta‘kidlar edi: — Bu yurt ne-ne avliyolar, allomalar, sohibqironlar yurtidir. Ularning ruhini bezovta qilishga, yurtni oyoqosti qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Keyinchalik o‘zim qo‘rboshilar haqida ko‘plab kinolar ko‘rdim, kitoblar o‘qidim. O‘qiganlarim ta’sirida Shermuhammadbek—Madaminbek munosabatlari haqida Xolmat buvaga savol berdim.

— U Madaminbekni hurmat bilan tilga olar edi. Shermuhammadning aytgan so‘zları dilimga muhr-lanib qolgan: — Afsus, Madaminbek o‘ldirildi. U sotqin emas edi, u mening jasur safdoshim edi. Hali uning o‘limini ham dushmanlar bizdan ko‘rishadi. Biroq, Alloh barchasiga shohid... Madaminbek uchun ham hali jang qilamiz...

Xullas, mакtabda bizga nima o‘qitishmasin, qanday kino ko‘rsatishmasin, tariximiz, milliy-ozodlik harakatimiz, shonli qo‘rboshilarimizga hurmat ruhida o‘sib ulg‘ayganimizdan mammunman.

Shu vatan farzandi, shu yurt fuqarosi ekanmiz, uning tarixini o‘rganish ham zarurat, ham zavq, ham burchdir. Allohgа shukrki, qaysi kasbda bo‘lishimiz, qaysi soha mutaxassisi ekanligimizdan qat’iy nazar, bizga ushbu zavq va burchni ato etdi.

Milliy-ozodlik harakati tarixini o‘rganar ekanmiz, dastlab o‘sha vaqtida topilishi eng oson bo‘lgan manbalar: darsliklar, vaqtli matbuotda e’lon qilingan maqolalar, fuqarolar urushi ishtirokchilarining esdaliklari, akademik nashrlar hamda qizil komandirlardan Nikitinning “Qo‘qon voqeasi”, Kalmikovning “Qur‘on va mauzer”, M.Polikovskiyarning “Madaminbekning tugatilishi”, Aziz Nialloning “Uyg‘ongan Sharq” va boshqa qator asarlar hamda romanlar bilan tanishishga to‘g‘ri keldi. Bu kitoblar mualliflari tilida “bosmachilar harakati” deb nom olgan milliy-ozodlik harakatimiz qay darajada haqqoniq, qanday ruhda yoritilganligi barchaga ma’lum, sharhlashning hojati bo‘lmasa kerak. Keyinchalik, qayta qurish va istiqlol yillarda Alisher Ibodinov, Hamdam Sodiqov, Ibrohim Karim, Jo‘raxon Muhammad kabi o‘nlab olim, yozuvchilarining bu mavzudagi asarlari bilan tanishib chiqdik.

Shuningdek, chet el safarlarimiz asnosida muhojir vatandoshlarimiz, usmonli turk va ovruco adiblari, muarixlarining mazkur mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlarini ko‘rib chiqishga muvaffaq bo‘ldik.

Bu asarlarning mahorat bilan, ilmiy dalillar, arxiv hujjatlari asosida yozilganligi, ularning katta zahmat, bedor tunlar evaziga yaratilganligini his etgan va ularning mualliflariga qo‘limiz ko‘ksimizda ehtirom izhor etgan holda shuni ham ta‘kidlab o‘tishga mas’ulmizki, ularning ko‘pchiligidagi ham qay darajadadir biryoqlamalik sezilib, asar yaratilgan davrning mafkurasi ufurib turadi. Mualliflarning ba‘zilari bilan bu borada ochiq so‘zlashganimizda, ular – “ha, endi o‘zingiz yaxshi bilasizku...” kabi siperishlarni keltiradilar.

Ushbu, ta‘bir joiz bo‘lsa, qoniqmaslik hissi, shuningdek, milliy-ozodlik kurashi ishtirokchilarining yorqin xotirasi, ular oldidagi burchimiz tarix changalzorining o‘tish qiyin bo‘lgan so‘qmoqlariga qadam bosishga, ozodlik kurashining eng sobitqadam rahbarlaridan biri Shermuhammadbek timsolida Farg‘ona vodiysi milliy-ozodlik harakati tarixi borasida baholi qudrat qalam tebratishga chorladi.

Ba’zilar, — ha endi bu sohaga ancha-muncha qo‘l urilgan, takrorning hojati bormikan? deb o‘ylashlari mumkin. Ularga: Iskandar, Chingizxon, Amir Temur, Napoleon haqida o‘nlab asarlar yozilgan, biroq ularning siy whole="1">mosini har kim har xil talqin etgan. Biz ham o‘z shuurimiz, o‘z talqinimizdagi Shermuhammadbek hamda uning ortidagi ozodlik jangchilari siy whole="1">mosini qo‘ldan kelgancha yaratsak ne ajab? Zamonamiz qalam ahli tomonidan bu borada bundan ham zo‘rroq, bundan ham haqiqiyroq, ilmiy dalillarga asoslangan asarlar yaratilishiga tilakdoshmiz. Ne baxtki, tariximizni ro‘yi-rost yozsa bo‘ladigan zamonlar keldi.

Mutasaddi ilmiy tashkilotlar, olim-ulamo, adibu udabolar meni ma’zur tutsinlar-u, ilmiy va badiiy adabiyotda, hatto entsiklopediya kabi mo‘tabar nashrlarda bu murakkab davrda kurash olib borgan ajdodlarimizga ikki qatorgina joy berilmaganligi odamni ajablantiradi. Sovet davrini-ku tushunamiz, mustaqillik davrida ham bu holat davom etib kelganligi kishini tang qoldiradi.

Bugun Prezidentimiz ma’naviyatning uzviy qismi bo‘lmish jonli tariximizni yoshlarga yetkazish zarur ekanligini ta’kidlab turgan bir paytda ozodlik harakati tarixi yetarli darajada yoritilmay kelinayotganligini qanday izohlash mumkin? Yosh avlod muqaddas Vatanimizga munosib tarzda hayot kechirmog‘i va tafakkur etmog‘i, moziydan saboqlar chiqarib, O‘zbekiston kelajagini ta’minalashga intilmog‘i zarur. Mustaqil O‘zbekistonning 130 yillik mustamlaka davr tarixini o‘rganayotgan yoshlarimizda ota-bobolarimiz mustabid tuzumga qarshi yetarlicha kurashmagan ekan degan noto‘g‘ri fikr uyg‘onishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

To‘g‘ri, jadidchilik, milliy-ozodlik harakatini, uning namoyondalarini yoritishga jur’at etgan fidokor olimlar: tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Andijon Davlat Universiteti kafedra mudiri Rustambek Shamsutdinov, O‘z FA Tarix instituti bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabovlarning jasorati va chekkan zahmatlariga tahsinlar aytish o‘rinli. Ularning kitoblari o‘zining xolisligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, atoqli yozuvchi, marhum Shukur Xolmirzaevning “Qora kamar” sahna asarida o‘ynalgan bir epizod hamon ko‘z o‘ngimdan ketmaydi; bolsheviklar o‘lkada sun’iy ocharchilik yuzaga keltiradilar, xalqni iqtisodiy jihatdan ezadilar. Ayni paytda, xalqni o‘zlariga og‘dirish uchun yerlarni kambag‘allarga bo‘lib bera boshlaydilar. Bunga ongi yetmagan xalq — “ana, bolshavoylar bizning boshimizni silab, yer berdilar” deb boshi ko‘kka yetadi. Shunda Davronbek qizillardan biri sardorga “o‘zingni yeringni o‘zingga bersa shunchalar domdiraysanmi, muncha aldanasan, bu gumrohlar o‘ylamaydilarki, berilgan yerlar Rossiyadan poezdga ortib olib kelingan emas, o‘zimizning yerimiz-ku!”

Meni qo‘lga qalam olishga undagan omillardan biri ushbu epizod bo‘lsa ajab emas.

Kitobni yakunlash arafasida Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat—engilmas kuch” degan asarini o‘qib, kitobimga yanada mas’uliyat bilan yanada jiddiy qarash kerakligini anglab yetdim. Xususan, Prezident kitobidagi quyidagi so‘zlar juda katta rag‘bat bo‘ldi.

“Har qaysi milliy qadriyatlarni o‘z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoni o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi.

Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o‘rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e’tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Jumladan, mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag‘onlar paytida zulm va zo‘ravonlik qurban ni bo‘lgan, istiqlol yo‘lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo‘yish, ularning el-yurt ozodligi yo‘lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o‘rganishni aynan ana shunday ma’naviy negizda yo‘lga qo‘yganimizni qayd etish zarur”¹.

Muhtaram kitobxon, ushbu bitigimizni qalb to‘lg‘og‘i asnosida qog‘ozga tushgan tarixiy badia sifatida qabul qilgaysiz.

MILLIY-OZODLIK KURASHI TARIXIDAN LAVHALAR

Rusianing Sharqqa hamlasi Oltin O’rda parchalanib, rus knyazliklari yagona markazlashgan davlatga birlashgan XVI asrdayoq boshlandi. Hijriy 911 (melodiy 1505) yilda Moskva knyazligi Oq O’rdaga hujum boshladi. Oq O’rda xoni bu hujumni qaytarib, dushmanni Moskva Kremligacha quvib bordi. Mazkur kitob uchun ma’lumot to‘plab yurganimda Qo‘qon o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari Shayboniyalar davlati asoschisi Muhammad Shayboniyxonning Oq O’rda xoni Muhammad Aminxonga ushbu g‘alaba munosabati bilan yuborilgan muboraknomasidan bir parcha topib berishdi. Bu Shayboniyxon qalamiga mansub quyidagi to‘rtlik edi:

*Islom boshingga toji-torak bo‘lsun,
Yoring tun va kun Tangri taborak bo‘lsun.
O‘rus kofirini qirmishsan o‘g‘lum,
Senga g‘oziylik muborak bo‘lsun.*

Keyinchalik esa, o‘ruslarning tolei baland kelib, bir necha asr mobaynida Qozon, Qrim, Edil bo‘ylari, O’rol, Sibiriya va Uzoq Sharq, qozoq dashtlarini istilo qildilar va O’rta Osiyo xonliklariga jiddiy xavf sola boshladilar. Qo‘qon xonligini bosib olish 1853 yildan boshlandi. Xalq vatan mudofaasiga ko‘tarildi. Yovning tahdidi hatto bu dunyo ishlaridan qo‘l siltagan qalandarlarni ham oyoqqa turg‘azdi. Qalandarlar jaxr aytib jangga kirar ekanlar. O’sha paytdagi muarrixlar bu jaxrlardan ayrimlarini yozib qoldirgan ekanlar. Qo‘qon o‘rmon xo‘jaligini ma’naviyat ishlari bo‘yicha mutasaddisi Yahyouxon Dadaboev shulardan bir necha namuna topib keldi:

*Ayo do‘stlar, yurtimizga raqib keldi,
Jangga kirgil, sen jannati bo‘lay desang.
Qilich-xanjar, miltig‘ini taqib keldi,
Jangga kirgil, sen jannati bo‘lay desang.*

*Shaharlarni, qal’alarni bir-bir oldi,
Oq masjidu Turkistonga yo‘lin soldi.
Yo‘llarida xaroba-yu lahad qoldi,
Jangga kirgil, sen jannati bo‘lay desang.*

*Saroylaru kulbalarni ayladi xok,
Bu ishlarni ko‘zim ko‘rib, yuragim chok.
Ey yoronlar, garchi bilsang o‘zingni pok,
Jangga kirgil, sen jannati bo‘lay desang.*

*Yodingda tut, sen xoh qari, xohi sabiy,
Xubbil vatan minal iymon debdur nabi.
Shahidlarning shafoatin bergay rabbiy,
Jangga kirgil, sen jannati bo‘lay desang.*

*Vatan uchun jang qilmoq ulkan savob,
Ag‘yor o‘qiga o‘q ila bergil javob.
Ozodlikning tug‘-bayrog‘in qilgil tavob,
Jangga kirgil, sen jannati bo‘lay desang.*

*Sen o‘zingni el-yurtga chin farzand desang,
Yurt qo‘rishga tayyorman harchand desang.
Xoja Asror so‘zini gar pand desang,
Jangga kirgil, sen jannati bo‘lay desang.*

Biroq, harbiy ishda, texnikada, qurol-yarog‘da Ovrupo mamlakatlaridan ancha orqada bo‘lgan, dushmanga qarshi birlasha olmagan xonliklar Rusiya imperiyasi zarbasiga tob berolmay, ularning asoratiga tushib qoldilar. Yuqoridaq jaxr matnining muallifi, Dukchi Eshonning safdoshi Xoja Asror xalifa xalqni milliy-ozodlik kurashiga chorlar ekanlar, xonliklarning yengilishi sabablarini ham ko‘rsatib o‘tadilar:

*Ayo do‘stlar, so‘zim tinglab, fikr qiling,
Sizga arzim aytib nido qildim mano.
Gar so‘zlarim ma’qul bo‘lsa zikr qiling,
Haq ishiga jonim fido qildim mano.*

*Vo darig‘o, Turkistonim mag‘lub bo‘ldi,
Hukamolar yurt qurolmay taslim bo‘ldi.
Bul saboqlar barchamizga ta’lim bo‘ldi,
Bul ta’limdan sizni ogoh qildim mano.*

*Xon-amirlar boshi birda qovushmadi,
Yovga qarshi bir anjuman qurishmadi.
Donolarning so‘zlariga kirishmadi,
Shul boisdin eldin ajrab qoldim mano.*

*Hukamolar el dardidan forig‘ bo‘ldi,
Ma’rifatdin uzoq ketib johil bo‘ldi.
Yo‘l ko‘rsatgan alar uchun botil bo‘ldi,
Oqibatda yov ilkiga tushdim mano.*

*Yo alhazar, yurtimizni o‘rus oldi,
Jismimizga, ruhimizga kishan soldi.
Diyda qilib, ko‘zlarimiz yoshdin qoldi,
Yaratgandan madad tilab qoldim mano.*

*Obi-diyda qilgan bilan ma‘vo topmadim,
Baloni daf etarga da‘vo topmadim.
Tek turmoqni o‘zimga ravo topmadim.
Ma’rakai maydon bo‘lib chiqdim mano.*

*Vatan uchun shahid bo‘lmoq qutlug‘ o‘lim,
Kurashmoqdin o‘zga hech bir yo‘qdir yo‘lim.
Ozodlikning yarog‘ini tutdi qo‘lim,
Shahodatni taqdirimga ko‘rdim mano.*

*O’zlarini sher bilgan erlar, yoronlar,
Najot yo‘lin topmagan gumroh-sarsonlar.*

*Qo‘lingga yaroq ol, do‘sstar, yoronlar,
Hurlik uchun jangga da’vat etdim mano.*

Tarixiy adabiyotlarni ko‘zdan kechirsangiz, Rusiya imperiyasi Qo‘qon xonligini osongina qo‘lga kiritganday taassurot paydo bo‘ladi. Yo‘q, xonlik osonlikcha taslim bo‘lgan emas, o‘z qudrati, salohiyati, darajasida jang qilgan, qarshilik ko‘rsatgan. Taassufki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, kuchlar, harbiy salohiyat, quronish texnikasi jihatidan tomonlar teng emas edi. Shunday bo‘lsada, bu ozodlik kurashining o‘z qahramonlari yetishib chiqdi. Ular zamonaviy o‘t ochar quronlarga ega bo‘lgan dushmanga qarshi o‘q-yoy, qilich va pilta miltiq bilan jang qilib, qahramonlik namunalarini ko‘rsatdilar. Ularning ichida eng fidokori, so‘zsiz, Alimquli Mingboshi (Muhammad Yunus Toyyibning asarida “Aliquli” shaklida keladi) edi. U vatan mudofaasini tashkil eta oldi, dushmanga nisbatan murosasizligi bilan mashhur bo‘ldi. Toyyib o‘zining “Aliquli amir lashkar jangnomasi” asarida bu haqda shunday yozadi: “Amir lashkar shunday dedilar: — Agar bu musolahani qilsak (sulh tuzsak — M.X) hamma odamlar amir lashkar va shig‘ovul degan ikki mal‘un o‘z oroyishi va ayshishratlarini ko‘zlab, bu qadar musulmonlarni olovga tashlab sulh tuzdilar. Agar bular g‘ayrat va himmat qilsalar, hammamiz g‘azotga otlanib, bul tarafi O‘runburg‘, ul tarafi Sibiriyog‘acha olar erduk deb, tirik bormiz o‘zimizg‘a va o‘lg‘animizdan so‘ngra farzand va nabiralarimizg‘a la’natini yuborsalar kerak.”

Shuningdek, dushmanga qarshi Qanoatshoh Otaliq, Yoqubbek (keyinchalik Sharqiy Turkiston hukmdori), Otabek Noib, Sherli Mingboshi, Niyozaliboy, Jomador To‘qsoba, Muhammad Ali, Mulla Isxoq (Po‘latxon), Iso Avliyo, Abdurahmon Oftobachi, Abdullabek va boshqa sarkardalar fidokorona jang qildilar. Qo‘qon xonligining mashhur davlat arboblaridan bo‘lmish Shohi Qo‘shbegining nabirasi, Shodi Mingboshining jiyani Muhammad Ali Oqmasjid qal’asi dorug‘asi (komendanti) edi. 1856 yilda ruslar shaharni qamal qilgan paytda u o‘z qo‘l ostidagi sarbozlari bilan bir necha kun o‘q-dorisi tugagunicha qahramonona jang qilgan. Ruslar uni sarbozlari bilan qal’a ichida portlatib yuborganlar.

Rusyaning mo‘ljali, Ovro‘po mamlakatlari, xususan Buyuk Britaniya tomonidan kutilishi mumkin bo‘lgan norozilikni e’tiborga olgan holda, O‘rta Osiyo xonliklarini bo‘ysundirgach, ularni yarim mustamlaka nufuzida ushlab turish edi. Biroq Qo‘qon xonligi fuqarolari tomonidan ko‘rsatilgan qattiq qarshilik, uni yarim mustamlaka holida tutib turish mumkin emasligini ayon qilib qo‘ydi. Rusiya hukumati shu bahonada xonlikni tugatib, uning hududini Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo‘shib oldi, illo, milliy-ozodlik harakatini endilikda “isyonchilik”, “qaroqchilik” tarzida baholab, uni bostirish uchun “huquqiy” asosga ega bo‘ldi.

Shunday bo‘lsada, milliy-ozodlik harakati to‘xtamadi. Bu harakat, ayniqsa, Rusiya hukumatining “Yangi qo‘shib olingen yerlarni o‘zlashtirish” dasturi asosida hamda hukumatga tayanch sifatida vodiya kazaklar va mujiklarni ko‘chirib kelib, eng unumdar yerlarga joylashtirilishidan so‘ng yanada avj oldi. Bu kurashga “Dukchi Eshon” degan nom bilan mashhur bo‘lgan Muhammad Ali Xalifa, Xoja Asror Xalifa, Darveshxon, Yetimxon, Qamchibek Olimbek o‘g‘li, “Qorasoch Eshon” laqabli Muhammad Qosim Avliyo, Shokirjon, Azlar Eshon va boshqalar rahbarlik qildilar. Xoja Asror Xalifa milliy-ozodlik kurashini muvofiqlashtirish, markazlashtirishga harakat qilgan bo‘lsada, ayrim yo‘lboshchilarning ortiqcha g‘ururi, ongsizligi bunga yo‘l bermadi. Oqibatda bu alohida-alohida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarning tez fursatda bostirilishiga olib keldi. Biroq to‘xtatib qo‘ya olmadi. Tar-qoq harakatlar o‘chib-yonib, nihoyat, 1916 yilgi ommaviy xalq qo‘zg‘oloniga ulanib ketdi.

Sovetlar davrida “bosmachilik harakati” deb nom olgan milliy-ozodlik harakati sardorlari: Katta va Kichik Ergash, Raxmonqul, Islom Polvon, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo‘ja va boshqalar bu kurashning 1916 yilgacha bo‘lgan bosqichi doshqozonida pishib yetildilar va maydonga tushdilar. Ularning aksariyati “o‘g‘ri”, “talonchi”, va shunga o‘xshash tavqi la’nat bilan ayblanib, hibsga olindilar va Sibiriyaga surgun qilindilar. Ular rus ishchisi Petrovdan emas, balki hayotdan, bir-birlaridan saboq olib, 1917 yil fevral inqilobi munosabati bilan vatanga qaytib, kurashni davom

ettirdilar.

TURKISTON MUXTORIYATI

1917 yil fevral inqilobidan so‘ng hokimiyat tepasiga kelgan vaqtli hukumat Rusiyaning rus bo‘limgan xalq va mamlakatlariga katta huquqlar bergen bo‘ldi. Chekka o‘lkalarda jonlanish yuz berdi. Turli milliy tashkilot, uyushma, firqalar tashkil topa boshladи. “Shuroyi Ulamo”, “Shuroyi Islomiya”, “Ittihod va taraqqiy”, Turon adami markaziyat firqasi (Federalchilar firqasi), Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar hamda bolsheviklar ta’siridagi “Musulmon mexnatkashlari soyuzi” shular jumlasidandir.

Shu yil yoz oylarida Davlat dumasiga saylov oldidan nomzodlar ko‘rsatish uchun ro‘yxatlar tuzildi, bolsheviklar ta’siridagi nomzodlar 4-ro‘yxatga, mustaqillik tarafдорлари esa 8-ro‘yxatga qayd etildilar. Ro‘yxatlar tuzilgach, saylovchilar bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Qo‘qon Jome’ masjidida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda har ikki ro‘yxat tarafдорлари o‘rtasidagi munozara qon to‘kilish bilan yakunlandi. Shu kundan e’tiboran xalq og‘zida bolsheviklar tarafдорлари “to‘rtinchilar”, mustaqillik tarafдорлари esa “sakkizinchи” deb nom oldilar. Qismat va vaqt to‘lqinlari “sakkizinchи” degan nomni oqizib ketdi, biroq, “to‘rtinchи” degan nom ulkan xarsangdek daryo o‘zanida, ya’ni odamlar xotirasida hali-hali saqlanib qolgan.

Turkistonni mustaqil, juda bo‘limganda muxtoriyatli davlatga aylantirish fikri XX asr boshlaridayoq jadidlar va ma‘rifatparvarlarning “gap” ziyofatlarida asosiy mavzuga aylangan edi. Biroq, podsho oxrankasi (siyosiy politsiyasi) dan cho‘chib, bu fikrlarni qog‘ozga tushirmagan edilar. Fevral inqilobidan so‘ng bu haqda jiddiy bosh qotira boshladilar. “Turk adami markaziyat (federalchilar) firqasining maromnomma (dastur)ida bo‘lajak muxtoriyatli hukumatning tuzilishi, faoliyati aniq belgilab berildi. Bu dastur zamonasining eng xalqchil, demokratik dasturlaridan biri ekanligi tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etildi. Dasturni tuzishda Qo‘qondan Kamoliddin qozi Rahmonberdi o‘g‘li, Obidjon Mahmud o‘g‘li, Andijondan Mullo Nuriddin a’lam, Mirzo Abduqodirbek, Iskobildan Mirodil Mirzo Ahmad o‘g‘li, Toshkentdan Munavvar qori Abdurashid o‘g‘li, Samarqanddan mulla Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa ko‘zga ko‘ringan jadidlar ishtirok etdilar. Maskov bilan aloqador savdogarlar va jadidlar muxtoriyatli hukumat tuzish borasida muvaqqat hukumatning fikrini olishga harakat qildilar. Ularning hukumatdagi tanishlari bu masalani yaqin orada o‘tkazilishi kutilayotgan, Rossiya taqdirini hal etishga vakolati bo‘lgan Ta’sis majlisiga qo‘yishni maslahat berdilar. Agar Ta’sis majlisi bo‘lib o‘tsa, Rossiya Ovro‘poning ilg‘or mamlakatlari izidan borib, ularning idora usulini qabul qilar, “proletariat diktaturasi” haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas edi. Buni tushunib yetgan Lenin boshliq bolsheviklar va sotsial revolyutsiyachilar (eserlar) firqalari Ta’sis yig‘ilishi chaqirilguncha hokimiyatni qo‘lga olishga harakat boshladilar va 1917 yil 25 oktyabr (7 noyabr)da bunga erishdilar ham. Ishchi-dehqon hukumatining eng dastlabki yuridik hujjatlari sulh va yer xaqidagi dekretlar edi. Bir necha kun o‘tib, 15 noyabrda esa Rossiya Xalq Komissarlar Soveti raisi Lenin va Millatlar ishlari bo‘yicha xalq komissari Stalin imzo chekkan “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi” e’lon qilindi. Unda jumladan, shunday satrlar bor:

1. “Xalq komissarlari Soveti Rossiya millatlari haqidagi masala bo‘yicha o‘z faoliyatiga quyidagilarni asos qilib olishga qaror qildi:

2. Rossiya xalqlarining ajralib chiqish va mustaqil davlat tashkil etishgacha bo‘lgan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi.

3. Barcha milliy va milliy-diniy imtiyozlar va cheklanishlarni man etish huquqi...”

Inqilob (to‘ntarish) rahbarlari, jahon afkor ommasi e’tiborini chalg‘itish maqsadida ushbu bayonnomani e’lon qilib qo‘yib, uning asosida millatlarning ajralib chiqib ketishidan qo‘rqib, bir necha kun o‘tgach ajralmaslikni so‘rab “Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga murojatnomasi”sini e’lon qilishga shoshildilar. Ular shu tariqa murojaat qiladilar:

Rus ishchilarining yagona orzu-umidi tinchlik (sulh) haqidagi bitim tuzilganidan so‘ng butun dunyodagi mahkum millatlarga yordam berish va ularni hurriyatga erishtirishdan iboratdurd...

Rossiya musulmonlari: Volga tatarlari, qirg‘izlar, Sibir va Turkiston sartlari, Kavkaz turklari va tatarlari, chechenlar, Shimoliy Kavkaz xalqlari hamda rus podsholari, zolimlari tomonidan butun masjidlari va minbarlari buzilib tashlangan, din va urf odatlari oyoqosti qilingan xalq va millatlar, biz sizlarga murojaat qilamiz. Sizlarning diningiz, urf-odatlaringiz, milliy va madaniy muassasalarining bunday buyon har qanday tajovuzdan himoya qilinadi. O‘z milliy xayotingizni tom ma’noda eminerkin tashkil etishingiz mumkin, bu sizning haq-huquqingizdir. Shuni bilingki, sizlarning va butun Rossiyada yashaydigan millatlarning haq-huquqlarini inqilob va Sho‘rolar himoya va mudofaa qiladi. Bu inqilob va uning hukumatiga yordam etingiz. Do‘sstar! Biz ko‘targan bayrog‘imiz bilan har bir mahkum millatga hurriyat olib kelamiz. Musulmonlar! Biz sizlardan moddiy va ma’naviy yordam kutib qolamiz”.

Bu hujjatlarga ishonganlar ham bo‘ldi, ishonmaganlar ham ko‘proq bo‘ldi. Biroq, qonun kuchiga ega bo‘lgan bu hujjatdan foydalanib qolish kerak. Bunday imkoniyat keyin yana bo‘ladimi-yo‘qmi? Bu masalaga oydinlik kiritish uchun “Sho‘roi Ulamo” firqasi peshqadamlaridan bo‘lmish Shoahmedov Petrogradga yuboriladi. U “Musulmonlar o‘z mustaqil davlatini tuzishi mumkin” degan xabar topib keladi. 12 noyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan turli musulmon guruhlarining birlashgan maslahat qurultoyi shu asosda “Hokimiyatning askar, ishchi va dehqon deputatlari Soveti qo‘liga o‘tishi munosabati bilan Turkiston o‘lka musulmonlari s’ezdi butun Turkistonning 98 foizini tashkil qiluvchi 10 million jon musulmonlar Rusiya inqilobi va’da etgan ozodlik, tenglik va birodarlik asosida milliy-madaniy o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega deb topadi” mazmunida qaror chiqardi. Shu tariqa Turkistonda muxtoriyatli hukumat ta’sis etish harakati boshlanadi.

Biroq, Markaziy Ijroiya qo‘mitasida, hukumatda birorta mahalliy millat vakili bo‘lmagan Toshkentda bolsheviklarning ta’siri kuchli edi. Shu tufayli erksevar kuchlarning nigohi Qo‘qonga, bir vaqtlar xonlik poytaxti bo‘lib turgan, 300 dan ortiq masjid, ellikka yaqin madrasa, oltita markaziy bozor, o‘nlab tarmoq bozorlari, o‘ttizdan ziyod sanoat korxonasi, 11 bank, o‘nlab savdo uylari, shirkatlarga ega bo‘lgan, adabiyot, san’atda muhit va maktablar yaratgan yetmish besh ming aholiga ega Xo‘qandi Latif tomon intildi.

1917 yil 26 noyabrda Qo‘qoning paxta birjasi binosida (eski teatr binosi o‘rnida) 4-o‘lka musulmonlari favqulodda s’ezdi bo‘lib o‘tdi. S’ezdda poytaxti Qo‘qon bo‘lgan Turkiston Muxtoriyatli hukumati tashkil topganligi e’lon qilindi. Muxtoriyat boshqaruvi organi Turkiston xalq boshqaruvi (54 kishi), Turkiston vaqtli kengashi (32 kishi) va hukumatdan iborat edi.

Hukumat raisligiga “Alash O’rda” firqasining rahbari, muhandis Muhammadjon Tinishboev saylandi. Ko‘p o‘tmay, hukumat ichidagi ayrim kelishmovchiliklar tufayli Tinishboev iste’fo beradi va uning o‘rnini huquqshunos Mustafo Cho‘qay egallaydi. Chor hukumatining ofitseri Shomilbek uning o‘rinbosari, Islom Shoahmad o‘g‘li adliya vaziri, Potelyaxov – oziq-ovqat vaziri, Ubaydullaxo‘ja – harbiy vazir, Chanishev – bosh qo‘mondon, Said Nosir Mirjalil o‘g‘li – xazinachi etib saylandilar. Muxtor jumhuriyatning yangi hukumati ommaviy safarbarlik e’lon qilib, milliy armiya tuzishga kirishdi. Hukumat tarkibidagi 54 kishidan 36 nafari yerli tub aholi vakillari, qolganlari ovro‘paliklar edi. Demak, chinakam baynalmilal hukumat tuzildi, mahalliy xalq vakillari V.I.Leninning ko‘rgazmalariga qat’iy amal qilib, o‘z taqdirlarini o‘zlarini belgilashga kirishdilar. 26 dekabrda Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan musulmon ishchi va askar vakillarining I favqulodda s’ezdi, bolsheviklarning qattiq qarshilik ko‘rsatishlariga qaramay, Qo‘qon Muxtor hukumatini yoqladi va V.I.Leninga quyidagi matndagi telegrammani jo‘natdi: “Turkiston musulmonlari ishchi va askar deputatlari I favqulodda s’ezdi qabul qilgan qarorni Sizga ma’lum qilib, Turkistonni halokat yoqasiga keltirib qo‘yuvchi tartibsizlik, qo‘sh hokimiyatchilikning oldini olish maqsadida o‘lkada hokimiyatni Vaqtli Turkiston muxtor hukumatiga topshirish to‘g‘risida Turkiston Xalq Komissarlari Sovetiga Rossiya demokratik respublikasining Oliy hokimiyati nomidan ko‘rsatma berishingizni so‘raymiz”.

Muxtoriyatli hukumat “El bayrog‘i” gazetasini nashr etadi, moliya ishini muvofiqlashtirish uchun 30 million so‘mlik zayom chiqaradi, o‘z milliy armiyasini yaratishga kirishadi, xalq militsiyasini tashkil etadi. Militsiya boshlig‘i lavozimiga Ergash Qo‘rboshi tayinlanadi. Shu o‘rinda Ergash Qo‘rboshi nomi bilan bog‘liq bir masalaga munosabat bildirib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi: tarixdan ma’lumki, tinchlik, ozodlik harakati jabhasida Ergash nomli ikki shaxs faoliyat ko‘rsatgan. Ularning har ikkisi xam Qo‘qonning Bachqir deparasidan. Biri Katta Ergash, ikkinchisi Kichik Ergash degan nom bilan mashhur. Bizga tanishish nasib etgan barcha manbalarda militsiya boshlig‘i lavozimiga Katta Ergash tayinlanganligi ta’kidlangan holda, turk jurnalisti Ali Bodomchi qalamiga oid “1917—1934 yillarda Turkistonda milliy-istiqlol harakatlari va Anvar Poshsho” asarida, hukumat e’lon qilingandan bir necha kun keyin Qo‘qon qo‘rboshisi Kichkina Ergashbek Ijroiya qo‘mitasining qarori bilan poytaxt “Qo‘qon” jandarmi qo‘mondoni va militsiya mudiri etib tayinlanadi”, degan yozuvni uchratamiz. Bu ma’lumotni uchratgach, manbalarni yana bir bora ko‘zdan kechirib chiqishga to‘g‘ri keldi. Va nihoyat, mahalliy manbalarga suyanib, Ali Bodomchi bir oz yanglishgan deb hisoblayman, hamda otam Muhammad Said shuningdek, bugunda yuz yoshni qarshilagan Jo‘raxon To‘ra otalarning guvohlik berishlariga qaraganda ham yuqoridagi fikrimizning to‘g‘riligiga yana bir bor amin bo‘lamiz.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi va boshqaruv tizimi turli adabiyotlarda turlicha yoritiladi.

Muxtoriyat tashkil topgan kunlardan boshlaboq sovetlar unga qarshi shiddatli hujum boshladidi. Hujum moliya jabhasida boshlandi: Turkiston Xalq Komissarlari Soveti Turkiston muxtoriyatiga aloqador va unga hayrixoh bo‘lgan boylarning mol-mulkularini musodara etish haqida topshiriq berdi. Qo‘qon soveti raisi Babushkin muxtoriyatni beshigidayoq bo‘g‘ib tashlash maqsadida Farg‘ona va Toshkentga murojaat qilib, “shaharni himoya qilish” uchun harbiy yordam so‘radi. Skobelev (hozirgi Farg‘ona) shahri hokimi Doriomedovning qarshiligiga qaramay, Farg‘ona soveti qarori bilan shahar harbiy drujinasi boshlig‘i K.Osipov 120 askar, 4 zambarak, 4 pulemyot bilan Qo‘qonga yetib keldi. Ko‘p o‘tmay Samarqand, Qizilqiya drujinalari shaharga kirib keldi. Shahar ichida muxtoriyatchilar bilan bolsheviklar o‘rtasida jang boshlangach, 18 fevralda Turkiston o‘lkasi harbiy komissari 26 yoshli Ye.Per’filev shahar temir yo‘liga 11 eshelon piyoda, otliq va artileriya qismlari bilan kirib keldi. Konibodom bekatida ularga arman dashnoqlari otryadi qo‘sildi. O’zlarini Dashnoqlar deb atashgan, 1915 yilda turk-arman qirg‘ini sababchilaridan biri, Dashnaktsutyun millatchi partiyasining bir qismi Turkistonga kelib o‘rnashadi. 1918—1920 yillarda Armanistonda hokimiyatni egalladi. Karaks va Ervanda musulmonlarni qirg‘in qildi. Bolshavoylar 1918 yilda shulardan foydalanib, birgalikda Qo‘qonda, umuman vodiyya qirg‘in o‘tkazdi. Natijada istiqlolchilarga qarshi kurash niqobi ostida tinch aholidan 35.000 kishi qirib tashlandi, mol-mulki esa talon taroj qilindi. Turor Risqulov, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jaev, Nizomiddin Xo‘jaev kabi rahbarlarning talabi bilan 1919 yil 16 iyulda Turkiston MIK buyrug‘i bilan bu partiya tarqatib yuboriladi va quolsizlantiriladi. Armanistonda ham bu partiya 1921 yilda taqiqlangan.

19 fevral kuni Ergash Qo‘rboshiga ultimatum yuborilib, uch soat ichida quroq-yarog‘ni tashlab, taslim bo‘lish talab etiladi. Ergash qo‘rboshi bu talabni bajarmasligini bildirib, rad javobi yubordi. Ye.Per’filev barcha zambaraklardan Qo‘qon aholisi ustiga o‘t ochishni, shu jumladan, yondiradigan snaryadlardan foydalanishni buyurdi. Eski shahar tamomila vayron bo‘lib, o‘t ichida qoldi. Uning buyrug‘i bilan ro‘para kelgan odamni otib tashladilar, koshonayu obidalar vayron qilindi. Do‘konu banklar talon-taroj qilindi. Ayniqsa, arman dashnoqlari xonadonlarga bostirib kirib, cholu kampir, bolalarni ham ayamadilar, bolalarni joduga solib qirqdilar. Turkiston xalqining ashaddiy dushmani deb nom olgan A.T.Karavaytsev o‘z esdaliklarida “arman dashnoqlari qirg‘inni haddan oshirib yuboribdi”, deb yozishdan boshqa iloji topolmaydi.

20 fevral kuni vayron bo‘lgan shaharga piyoda qo‘sishnlar va dashnoq jangarilar kirib keldilar. Xalqning o‘sha kungi ahvolini tasvirlashga til ojizlik qiladi. Xonadonlar talandi, ayollar zo‘rlandi, erkaklar o‘ldirildi. Dashnoqlar miltiq o‘qini “ayab”, odamlarni qilich bilan chopib, pichoq bilan bo‘g‘izlab tashlar edilar. Yaxshisi, ushbu mudhish voqealariga so‘z beraylik. O‘sha paytdagi

dahshatli voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan muxbir Boris Olginskiy shahar ichida yurib, “Qo‘qon voqealari” nomli reportaj tayyorlagan va “Znamiya svobodы” gazetasining 23 fevral sonida chop ettirgan. Quyida undan ayrim parchalarni keltiramiz:

RUS MUALLIMINING HIKOYASI

Rus-tuzem maktabining muallimi, urush davomida o‘z oilasi bilan eski shaharda yashab turgan kishi urushayotgan musulmonlarning tinch rus aholisiga munosabatlari haqida shunday hiqoya qiladi:

“Bizning uy, ya’ni, mening oilam va muallimalar yashab turgan uy eski shaxar hududida edi. Sartlar bizning xonadonimizga uch marta kirdilar va bu yerda rus soldatlari yoki armanilar bor-yo‘qligini tekshirdilar. Bizning betaraf ekanligimizga ishonch hosil qilgach, sartlar bizni bezovta qilmay qo‘ydilar, bizda yegulik qolmaganligini bilganlaridan so‘ng bizga sut va obinonlar keltirib berdilar”.

DOKTOR DOMOGAROVNING FOJIALI O’LIMI

5 fevral (eski hisob bilan M.X) tush paytida eski shaharga rus “qizil xoch ekspeditsiyasi” tashkil etildi. Uning tarkibiga vrachlar, sanitarlar va shafqat hamshiralari kirar edi. Ushbu dasta harbiy-inqilobiq qo‘mitadan ruxsatnama oldi va vaqtincha yarash paytidan foydalanib, eski shaharga kirib bordi hamda uning chetida ko‘p sonli yarador sartlarga yordam ko‘rsatishni boshladi. Bu dasta kelguncha yarador sartlar tibbiy yordam yo‘qligidan ayanchli holga tushgan edilar. Bu sanitar dastasining ish faoliyati vaqtida ular joylashgan bino eski shahar tomon hujumga o‘tgan rus soldatlari tomonidan shiddatli o‘qqa tutildi. Ba’zi sartlar yaralangandilar. Doktor Domogarov bir qo‘lida Qizil xoch bayrog‘ini, ikkinchi qo‘lida ruxsatnomani baland ko‘targan holda soldatlar qarshisiga chiqdi va shu ondayoq o‘ldirildi.

TO’S-TO’POLON

7 fevral (eski hisob bilan – M.X.) — Qo‘qon tarixida eng dahshatli kun. Bo‘ysunmay qo‘ygan soldatlar va qizilgvardiyachilar, avboshlar va mayda burjuaziya nimani olib ketish mumkin bo‘lsa, talon-taroj qilishga otildilar. Talonchilikda, ayniqsa, arman dashnoqlari alohida jonbozlik ko‘rsatdilar. Eski shaharda barcha do‘konlar, savdo firmalari, rastalar, banklar, uylar talandi. Banklar va savdo firmalaridagi temir sandiqlar buzilib, pullar o‘g‘irlandi. Talonchilar narsalarni aravalarga yuklab, qal’aga va vokzalga yuborar edilar...

FOJIA MANZARALARI

Qo‘qonda dahshatli manzara namoyon. Eski shaharning uchdan bir qismi tom ma’noda yakson etilgan. Barcha yerda to‘p-to‘p murdalar. Ularning ko‘pchiligi kuyib ketgan. Qo‘qonning ruslar yashaydigan qismi ham anchayin vayron bo‘lgan.

Keltirilgan barcha zararlarning umumiy miqdorini aniqlash, albatta qiyin. Qo‘qonda bir necha o‘n ming odam boshpanasiz, kiyim-kechaksiz qolgan. Shaharning yarmidan ko‘pi yonib kulga aylangan.

9—10 fevral’ kunlari murdalarni yig‘ishtirish boshlandi, biroq tugallangani yo‘q. Eski shahardan arava-arava murdalar olib chiqib ketildi. Qurbonlar sonini hisoblab chiqish imkonini bo‘lgani yo‘q. Xomcho‘tga ko‘ra ruslardan yuztagacha kishi o‘lgan, yuzdan ortiq kishi yarador bo‘lgan. Sartlardan bir necha ming kishi halok bo‘lgan...

AHOLI O’RTASIDAGI XAVOTIRLIK

Urush tamom bo‘ldi. G’oliblar jo‘nab ketdilar. Mag‘lublar esa shahar ko‘chalari yoki qishloq bo‘ylab daydib yuribdilar, yoki xarobalar va kul tepalar uzra ma’yus izg‘ib yuribdilar. Rus aholisi

xotirjam bo‘lishi mumkin edi, ammo ular tahlika va xavotirlik ostidalar.

Qo‘qonda istiqomat qiluvchi ruslar bu yerda qolish xavfli ekanini his etmoqdalar. Qo‘qondan jo‘nagan dastlabki poezdlar to‘lib-toshib ketgan, keyingi poezdlar ham shu ahvolda jo‘naydilar.

Qo‘qon endi murdalar shahridir. U xuddi mog‘or va murda hidi anqib turgan lahadga o‘xshab qolgan...

SULH

Urushlar tarixidan ma’lumki, ba’zi fotih va sarkardalar o‘zga bir mamlakatga urush boshlashdan oldin tuzilajak sulh bitimining loyihasini tayyorlab qo‘yar ekanlar. Shu jumladan, Qo‘qon urushi yakuniga yetgach, sulh tuzish ishiga kirishildi. Bunday sulh to‘g‘rirog‘i, sulh bitimi bitilgan qog‘oz sovetlarga kerak edi. Bu urushda sovetlar to‘liq g‘alaba qozondilar. Sirasini aytganda ular bilan sulh tuzadigan tomonning o‘zi yo‘q edi, illo, muxtoriyat hukumati a’zolarining ba’zilari qochib ulgurgan, ko‘pchiligi Skobelevda qatl etib bo‘lingan edi. Musulmon aholining salomat qolgan aksariyati qishloqlarga qochib chiqib ketgan edi.

Sulh muzokaralari aslida 9 fevralda boshlangan bo‘lib, bolsheviklarga katta madad kuchi yetib kelgach, to‘xtatib qo‘yildi. Mana endi sulh zarur bo‘lgan paytda ular qochib ketishga ulgurmagan ayrim qo‘qonlik va atrof qishloqlik, boshqa shaharlik oqsoqollarni zo‘rlab olib kelib, sulh tuzishga kirishib ketdilar. Ular oqsoqollarni oldindan tayyorlab qo‘yilgan sulh bitimini imzolashga majbur etdilar.

SULH MUOHADASI (AHDNOMASI), 1918 YIL (9) 22 FEVRAL'

To‘qnashuvlardan so‘ng Turkiston muxtoriyati vaqtli hukumatining qurolli kuchlari inqilobiy qo‘shinlar tomonidan yanchib, tarqatib yuborilganligi, tinch aholi esa ishchi-soldat va dehqon deputatlari Sovetiga itoatgo‘ylik izhor etganligi ma’lum bo‘ldi. Rozenbax ko‘chasidagi Rus-Osiyo banki (hozirgi paxta bank) binosida sulh konferentsiyasi boshlandi. 1918 yil (9) 22 fevralda Qo‘qon harbiy-inqilobiy qo‘mitasi raisi Mesxi, Qo‘qon shahar boshqaruv idorasi delegatlari Nekora va Yurevskiy, ishchi-soldat va dehqon deputatlari Skobelev soveti va Skobelev davlat dumasi delegatlari Antonov va Doriomedov, ishchi-soldat va dehqon deputatlari Andijon sovetidan Salaev va Danishevskiy, sotsialist-revolyutsionerlar firqasi O‘lka soveti delegati Tolovan; Qo‘qon shahrining musulmon aholisi vakillari: Sarmozor dahasidan — Muhamadamin Normuhammedov, Qobiljon Muhammadg‘oziev, Eshonbobo Oxunjonov, Kataq‘on dahasidan — Fayzimuhammad Do‘stmuhammedov, Qurbonxo‘ja Yodgorxo‘jaev, Teshaboy Yunusboev; Marg‘ilon dahasidan Karomiddin G‘iyosiddinov, Mirobiddin Mirhamzaev, Eshonxonboy Xo‘jaev; Xo‘jand dahasidan—Mulla Abduqodir, Mulla Ahmadmirzaev, Abdurahmon Hamroqulboev, Rahmonali Yusufalimirzaevlar ishtirokida, Yurevskiy raisligi, B.D.Doriomedov kotibligida quyidagi sulh muohadasi tuzildi;

1. Aholi O‘lka Xalq Komissarlari Soveti va barcha mahalliy sovet muassasalarini tan oladi.
2. Sovet hokimiyatining yozma ruxsatnomasi bo‘limgan barcha aholi: musulmonlar ham, ruslar ham qurolsizlantiriladilar.
3. Tortib olingen qurollar Farg‘ona viloyatining qo‘shinlari qo‘mondoni belgilagan muddatda va belgilagan joyga topshiriladi.
4. Aholi qonli voqealarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan barcha tashkilotchilari, shuningdek, qurollangan to‘dalarning boshliqlari va a’zolarini hukumatga ushlab berish majburiyatini oladi.
5. O‘lkaga maxfiy ravishda qurol olib kelish va tarqatish, qurolli qo‘zg‘olonga tayyorlanish sifatida baholanadi va inqilobiy qonunlar asosida qattiq jazolanadi.
6. Aholi, harbiy va sovet hokimiyati talablariga muvofiq, butun imkoniyati bilan hayotni izga tushirishga ko‘maklashadilar.

7. O’lka Xalq Komissarlari Soveti fuqarolar urushi paytida xonavayron bo‘lgan eng qashshoq aholiga yordam ko‘rsatadi.

8. Mazkur muohadaning amaliyoti Turkiston o‘lkasining barcha yeriga daxldordir.

Ushbu muohadanini imzolash bilan sulu konferentsiyasining faoliyati to‘xtamaydi.

Uning barcha hujjatlari ishchi-dehqon deputatlari Qo‘qon sovetiga beriladi.”

Yevropaliklar ichida ham muxtoriyatga, yerli xalqqa xayrixohlar yo‘q emas, biroq ozchilikni tashkil qildi. Chunonchi, mazkur sulu konferentsiyasiga kotiblik qilishga majbur bo‘lgan Skobelev dumasi boshlig‘i V.D.Doriomedov “Znamya Svobody” gazetasi orqali shunday deydi: “Rus bolsheviklari hech qanday muxtoriyatni tan olmadi va mazlum xalqlar o‘z huquqlari va taqdirlarini haqiqatdan o‘zlarini belgilamoqchi bo‘lganlarida bunga yo‘l qo‘ymadi...”

Har holda Turkiston muxtoriyati izsiz ketmadi, jahon jamoatchiligidagi muhokamaga sabab bo‘ldi. Sovet rahbarlari Turkistonga muxtoriyat berish zarurligini his etdilar, biroq, haqiqiy emas, qo‘g‘irchoq muxtoriyat berish harakatiga tushdilar. I.V. Stalin Turkistonning o‘sha davrdagi rahbarlaridan bo‘lmish I.Tobolina xabar qilib, musulmonlar orasida ish olib borishni kuchaytirish, musulmon proletariatini musulmon burjuaziyasidan ajratib olish va musulmon sovetlari tuzishni topshirdi.

1918 yil aprel oyida Turkiston O’lka Sovetlarining beshinchi s’ezdi bo‘lib o‘tdi. Unda Turkiston muxtoriyati masalasi ko‘rib chiqildi. V.Lenin va I.Stalin s’ezdga quyidagicha telegramma yuboradi: “Sovetlar asosidagi sizning o‘lka muxtoriyatingizni Xalq Komissarlari Soveti qullab-quvvatlaydi.”

30 aprel kuni Moskvaning favqulodda komissari P.Kobozev tomonidan taklif etilgan, RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etish haqidagi deklaratsiya deputatlar tomonidan qabul qilinadi.

Ha, Turkiston xalqlari tomonidan muxtoriyat olish uchun boshlangan harakat sovetlarning qattiq qarshiligiga duch keldi. Olamshumul voqeа bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan beshigidayoq bo‘g‘ib tashlandi va uning o‘rniga sovet avtonomiysi o‘rnatildi, xalqdan ayovsiz o‘ch olindi. Bu esa milliy-ozodlik kurashi yong‘inini keltirib chiqargan uchqun bo‘ldi.

FARG‘ONADA MILLIY-OZODLIK KURASHINING BOSHLANISHI

Muxtoriyatli hukumat yanchib tashlangach, sovetlar tinch aholidan o‘ch olishga kirishdilar. Dashnoqlar Qo‘qonni talab bitirgach, Namangan, Andijon, Marg‘ilonga yopirildilar. Turkiston ASSRdagi ayrim kishilar ularning vahshiyliklarini tekshirib, chora ko‘rish uchun maxsus tergov komissiyasini tuzish talabini qo‘ydilar. Biroq, hukumatning o‘sha davrdagi rahbarlaridan biri Tobolin “aholidan bu haqda yozma ariza tushgani yo‘q” deb talabni rad etadi va shu tariqa ularning navbatdagi beboshliklari uchun yo‘l ochib beradi.

1917 yilda tashkil topgan ishchi-askar va dehqon deputatlari soveti, aslini olganda ishchi va dehqonlardan emas, balki tirikchiligining tayini yo‘q sayoq, muttaham, talonchi va beboshlardan iborat ekanligi rahbarlarga ma’lum bo‘lsada, ularga xuddi shunday odamlar kerak bo‘lganligi uchun bu holdan ko‘z yumib yurardilar. Bu betayinlar “eski dunyoga qarshi kurash” shiori ostida masjid-madrasalarni berkitdilar, qozilar va ulamolar hibsga olindi. Hatto, “Marg‘ilonda sovet xokimiyatining vakillari musulmonlarning muqaddas kitoblari bo‘lmish Qur’onni yoqib yubordilar; Andijondagi Jome’ masjidi qizil armiya otryadlarining qo‘nalg‘alariga aylantirildi.”

Qizil askarlar namoz o‘qib o‘tirganlar ustiga bombalar tashladilar. Boylar yoppasiga hibsga olindi va mol-mulkulari musodara etildi. 1918 yil yozida Leninga suiqasd uyuştirilgach, o‘tkazilgan qizil terror to‘lqini Farg‘onaga ham yetib keldi. Oq do‘ppi kiyagan, salsa o‘ragan, belbog‘iga pichoq osgan kishilarni, boylarni, ulamolarni salotlar. “Siz ablahlar Leninga suiqasd qildingiz!” deya hibsga olardilar. Moskva qaerda-yu, Farg‘ona qaerda?

Xo‘jalik-iqtisodiyot borasidagi beboshliklarchi? “Yer haqida”gi dekret bahonasida yerlar musodara

etilib, odamlar zo‘rlik bilan kommunalarga birlashtirila boshlandi. Kosiblarning do‘konlarigacha tortib olindi. Dehqonning kuniga yarab turgan otlar armiya ixtiyoriga olindi, ustiga-ustak, Markazning “oziq-ovqat razvyorstkasi” degan kompaniya e’lon qilinib, dehqonlar ko‘z qorachig‘iday asrab yurgan urug‘lik donlarigacha tortib olina boshlandi.

Ushbu omillar, ayniqsa, muxtoriyat tufayli xalqdan yirtqichlarga o‘ch olinishi sabr kosasiga tomgan oxirgi tomchi bo‘lib, xalqning qahr-g‘azabini toshirib yubordi. Xalq qo‘zg‘aldi! O‘z nomusi, dini, oilasi, yeru-mulki, vatanini dinsiz bolsheviklardan himoya qilish uchun qo‘zg‘aldi. Dashnoqlar va bebosh qizil askarlardan o‘z qishloqlari, oilalarini saqlash uchun joylarda o‘z-o‘zini himoya qilish guruhlari tashkil topa boshladи. Ularga hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, Sibir va qamoqxona azobini tortgan, jang-jadal ko‘rgan, yo‘lboshchilik uchun salohiyatga ega bo‘lgan yigitlar sardor etib saylana boshladilar. Bunday guruhlarni sovetlar “bosmachilar” deb atay boshladilar. U paytlarda milliy-ozodlik harakati jangchilari degan ibora ishlatilavermas, ulamolar ularni mujohidlar, g‘oziyalar, lashkari islom degan atamalar bilan atab, oddiy xalq esa ularni yigitlar, falonchining yigit der, “yigit” atamasi “navkar” va “jangchi” atamasi bilan qorishib ketgan edi. Biror kishi ushbu ozodlik jangchilari safiga qo‘shilmoqchi bo‘lsa, uydagilariga “Men falonchiga yigit bo‘lib ketyapman” deya e’lon qilar edi.

Mazkur guruhlarning sardorlari esa, “qo‘rboshi” deb atalgan. Bu atama tariximizning turli bosqichlarida turlicha izohga ega bo‘lgan:

1. Qal‘a (shahar) qo‘riqchilari boshlig‘i.
2. Oq podsho davrida: shahar, uezdning mahalliy aholidan iborat politsiyasi boshlig‘i.
3. Fevral inqilobidan so‘ng: shahar-uezd militsiya boshlig‘i.

Qo‘rboshilarning ayrimlari, masalan, Ergash, Madaminbek ham milliy-ozodlik kurashi boshlanmasdan oldinroq shu unvonga ega edi.

Oktyabr to‘ntarishi va Turkiston muxtoriyati halokatidan so‘ng Turkistonda birinchilardan bo‘lib milliy-ozodlik harakati bayrog‘ini ko‘targan zot, so‘zsiz, Ergash qo‘rboshi hisoblanadi.

Katta Ergashbek ham, Kichik Ergashbek ham Xo‘qandning Bachqir deparasidan. Bachqir xalqi azaldan o‘z jangovarligi bilan atrof qishloqlar aholisidan farq qilib turadi. Bachqirliklar Qo‘qon xonligi davrida urushlar holatida xalq lashkari—qoracherikning eng zarbdor kuchlari hisoblangan. Shuningdek, taxt uchun kurash asnosida taxt da‘vogarlari bachqirliklardan ko‘p marotaba foydalanganlar. Soxta Po‘latxon bosh ko‘tarib chiqqanda ular yoppasiga Po‘latxonga yigit bo‘lganlar. Xudoyorxonning ukasi, Marg‘ilon hokimi Sultonmurodbek Marg‘ilondan Qo‘qonga qochib kelib, Miyon Hazratning hovlilariga yashiringan paytda uni bu yerdan chiqarib olishga hech kimning yuragi dov bermaganda, uni bachqirliklarga bu dargohdan yulib olib chiqib keta olganlar. Ergashbeklar mana shunday jangovar muhitda tarbiya olib, o‘zлari ham jangari yigitlar bo‘lib yetishdilar. Haqsizlikka chiday olmaydigan bu o‘t yigitlar yo‘qsullar, kamsitilganlar tarafini olib, mirshablar, politsiya, amaldorlar bilan ko‘p olishdilar.

Birinchi jahon urushi boshlanib, Rossiya birin-ketin mag‘lubiyatga uchray boshlagach, asrlar mobaynida istilo qilingan yerkarning mazlum xalqlari paytdan foydalanib, ozodlik urushi boshlashidan, u holda ikki frontda jang qilishga to‘g‘ri kelishidan cho‘chigan Oq podsho ma’murlari chet o‘lkalar, jumladan, Turkistonda ko‘zga ko‘ringan, bo‘lajak ozodlik urushlarida yo‘lboshchilik qilishi mumkin bo‘lgan kishilarni yo‘qotish, qamash, Sibir qilishga kirishdilar. Ular Ergashbeklarni ham odam o‘ldirishda ayblab, Sibirning uzoq Turuxan o‘lkasiga surgun qildilar. Mustaqillikgacha bo‘lgan tarixiy va badiiy adabiyotlarda ham Ergashbek odam o‘ldirish, ot o‘g‘irlashda ayblanib yo‘llarda qaroqchilik qilib qamalganligi yoziladi.

Sibirsha surguni Ergashbek va ular qatori boshqa viloyat va deparalardan yuborilgan jasur yigitlarga katta hayot maktabi vazifasini o‘tadi. Bu yerda mahalliy aholidan ko‘ra hukm qilinganlar, harbiy asirlar, siyosiy mahbuslar, jinoyatchilar hamda Ergashbek kabi ehtiyyot yuzasidan surgun qilinganlar ko‘proq edi. Bu yerning o‘z qonunlari mavjud bo‘lib, “yashash uchun kurash” tamoyiliga asoslangan. Yashash uchun kurash mifiktabini o‘tagan kishilar hayotining achchiq chuchugini totish, shaxs sifatida

toblanish bilan bir qatorda, ko‘pchilikning qalbi qotib, ayrimlarniki tosh-metinga aylanib, inson qonidan seskanmaydigan darajaga borib qolar ekan. Bu xususiyat, to‘liq bo‘lmasada, bizning yigitlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Mazkur xususiyat insonga fazilat baxsh etmasada, uning jangchi, kurashchi bo‘lib yetishishida bir oz ahamiyati bordek. Kitobxon bizni to‘g‘ri tushunishini so‘raymiz, qattiqqo‘llik, shafqatsizlikni oqlamoqchi emasmiz. Biroq tarixdan ma’lumki, yumshoq ko‘ngil, rahmdil kishilardan yirik sarkarda va fotihlar chiqqan emas.

Xullas, bizning ergashbeklar ham “yashash uchun kurash” maktabini o‘tab, shu maktab saboqlari asosida soqchilarini mahv etib, ularning quroq-yarog‘ini olib, 1915 yil oxirida bir amallab Bachqirga qochib keladilar. Ularning qaytishi xabari tezlik bilan tarqalib, depara qishloqlari ahli, ularning ziyyaratiga kelib ketadilar. Yuragida o‘ti bor, sarguzashtlab bir qancha yoshlar Ergashbeklar safida bo‘lishni xohlab, o‘z yonlariga olishlarini so‘raydilar. Shu tariqa ular qisqa muddatda yuzga yaqin yigitga ega bo‘ldilar. Ushbu yigitlar ichidan eng saralari, chunonchi, bibiubaydalik Eshmuhammadbek, o‘rganjilik Mulla Umar, naymanchalik Oybola va boshqalar Ergashbekdan fotiha olib o‘zlariga yigit to‘plab, o‘z deparalarida harbiy kuchga aylandilar.

Ko‘p o‘tmay, front orqasidagi ishlarga mardikor olinishi munosabati bilan 1916 yil qo‘zg‘alonlari boshlandi. O‘tgan asrning oltmishinchi yillarida ham Ergash qo‘rboshining ba‘zi safdoshlari hayot edi. Shulardan biri Sarimsoqboy Xudoyorovning eslashicha, Ergash qo‘rboshi ham bu qo‘zg‘alonda o‘ttizga yaqin yigitini bilan ishtirot etib, Yangiqo‘rg‘on volostnoyi (volost politsiya uchastkasi boshlig‘i) ni va ikki mirshabni yo‘q qilgan. Qo‘zg‘alon bostirilgach, Oqtovga chiqib ketgan, oqpodsho taxtdan ag‘darilgach, yana Bachqirga qaytgan ekan.

Qo‘qonda muxtoriyatlari hukumat tashkil topgach, uning harbiy mutasaddilari Asadulla Xo‘jaev va Chanishevlar ehtiyyotkorlik bilan ish ko‘radilar. Ularning ehtiyyotkorligi hukumatning “Sho‘royi Islomiya”, “Sho‘royi Ulamo” firqalariga mansub a‘zolarida norozilik uyg‘otadi. Farg‘onadagi milliy-ozodlik harakatining ma’naviy g‘oyaviy rahbarlaridan bo‘lmish tasavvuf shayxi, Naqshbandiya suluki shayxul-mashoyixi Fazl Miyon Qudrat Hazratlari, hukumat a‘zosi Kamol Qozi va boshqa ulamolar tashabbusi bilan Ergash Qo‘rboshi Muxtoriyatlari hukumat militsiya boshlig‘i-qo‘rboshilik lavozimiga taklif qilinadi.

Hokimiyatni qo‘lga olish uchun, avvalo, qal’ani egallash shart edi. Xudoyorxon o‘rdasining tashqi qismiga 1876—1878 yillarda qurilgan qal’a mustahkam istehkom bo‘lib, davr talablariga to‘liq mos kelardi. Ergashbek, yakkama-yakka jang, o‘q otish, qilich solish, dala jangi borasida bir oz tajriba ortirgan bo‘lsada, mustahkam qal’ani zabit etish darajasida harbiy taktika va strategiya ilmiga ega emas, bundan tashqari uning qo‘lida to‘p-zambaraklar ham yo‘q edi. Shu tufayli bir necha hamla bilan ham qal’ani olishga muvaffaq bo‘la olmadi. Bu orada bolsheviklarga katta madad kuchi yetib kelib, shaharni to‘p, pulemyot, miltiqlardan yalpi o‘qqa tutish boshlandi. Ergash Qo‘rboshi shaharni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ldi va Bachqirga kelib, yigit to‘play boshladi. Bir necha oy davomida yigitlar addadi ikki yarim mingga yetdi. Atrof deparalarning taqdiri Ergashbeknikiga o‘xshash jasur, tashkilotchi sardorlari: Yaypan (Qorayozibobo)dan Islom Polvon, Oltiariqdan To‘ychi Polvon va Sulton G’oziboy, Beshariqdan Hamdam Xoji, Kistako‘zdan Abdulahad Mahsum, So‘xdan Yorbek ota, Voruhdan Usmon dev o‘z yigitlari bilan kelib qo‘sildilar. Ergashbek ularni qabul qilib, fotiha berib, o‘z hududlariga qo‘rboshi etib tayinladi.

Tarixchi olim Qahramon Rajabovning yozishicha, 1918 yil boshlarida Katta Ergash Qo‘rboshi qo‘l ostida 20 tadan 2000 tagacha yigitni bo‘lgan 70 ta qo‘rboshi qizillarga qarshi 50 marotabandan oshiq zarba berib, g‘alabaga erishganlar. 1918 yil kuzi arafasida uning qo‘sishlari soni 24,0 mingtani tashkil etgan edi. Ergash eshon bo‘lgani uchun joylarda islam shariati nomidan ish yuritardi.

Qizillar bilan dastlabki to‘qnashuvlar mart oyidayoq boshlandi. Qo‘qonni talab, mazaxo‘rak bo‘lib qolgan bir guruh armani dashnoqlar va qizil gvardiyachilar qishloqma-qishloq bosqinchilik qilib, Bibiubayda yaqinidagi Palaxon qishlog‘iga yetib keldilar va uyma-uy yurib talonchilikni boshladilar. Bundan xabar topgan Eshmuhammadbek o‘z yigitlari bilan bebosh to‘daga qarshi jangga kiradi.

Qishloq erkaklari ham Eshmuhammadbekka yordamga chiqadilar. Ular birgalikda beboshlarni qirib tashlaydilar, 13 kishi jangda o‘ldiriladi, besh oltiasi qochib qolishga ulguradi, to‘rttasi asir olinadi. Eshmuhammadbek ham oltita qurban beradi. Eshmuhammad Ergashbekka chopar yuborib, bo‘lgan voqeani eshittirib qo‘yadi. Ertasi kuni Qo‘qondan Sinit sin boshliq jazo otryadi yo‘lga chiqadi. Otryadda 320 jangchi, ikki pulemyot va bitta dala to‘pi bor edi. Ergashbek ham jazo otryadi yuborilishini oldindan his etib, o‘scha paytda qo‘lida mavjud bo‘lgan 300 yigit bilan Bachqirdan chiqib keladi. Sinit sin otryadi Bibiubayda yaqinidagi chakalakzorda Eshmuhammadbek pistirmasiga duch keladi. Jang ayni qizigan paytda har ikki tomonga yordam yetib keladi: Bachqirdan Ergashbek, Qo‘qondan esa D.Ye.Konovalovning temiryo‘l qizil gvardiyasi jangga kiradilar. Jang Ergashbek foydasiga hal bo‘lib, Konovalov va Sinit sin qolgan-qutgan yigitlari bilan Qo‘qonga quruq qaytishga majbur bo‘ladilar. Shu tariqa, katta-kichik janglarda Ergashbekning obro‘yi yanada oshib, yigitlari miqdori bir necha barobar ko‘payib, nihoyat shu yil mart oyida Bachqirda bo‘lib o‘tgan ulamolar va milliy-ozodlik harakati kuchlari qurultoyida Katta Ergashbek Amiral Muslimin (musulmonlar amiri) etib saylanadi. Shundan so‘ng ko‘p o‘tmay Ergash Qo‘rboshi Chustni zabit etadi.

Ergash Qo‘rboshi Farg‘ona vodiysidagina emas, balki butun Turkistonda ozodlik bayrog‘ini birinchi bo‘lib ko‘tagan kurashchi edi. U 1918 yilda ham eng qizg‘in faoliyat ko‘rsatgan qo‘rboshidir. 1919 yilda bo‘lib o‘tgan janglardan birida u yarador bo‘ladi – qizil meraganlardan biri jang asnosi uning boshiga o‘q uzadi. Ergashbek boshidan qo‘ymaydigan salsa uning hayotini saqlab qoladi, biroq salsa o‘q zARBini yumshatsada, har holda jarohat qoldiradi. Tabiblar peshonadagi o‘qni bir amallab olib tashlashga muvaffaq bo‘ladilar. Ushbu jarohat ta’siridanmi, yoki boshqa sabablarga binoanmi, har holda Ergash Qo‘rboshining shundan keyingi faoliyati bir oz sustlashadi, o‘zi ham odamovi, sustkash, parishonxotir, bo‘lib qoladi. Safdoshlarining guvohlik berishicha, kechagi bergen buyrug‘i esdan chiqib, ba’zan uning aksi mazmundagi buyruqlarni beradigan, o‘z xonasiga kirib olib, uzoq vaqt bir nuqtaga tikilib o‘tiradigan bo‘lib qoladi. Biroq, shunda ham qurolini tashlamadi. Bir necha bor sovetlar bilan sulk tuzdi.

MADAMINBEK

Madaminbek (Muhammad Aminbek) Ahmadbek o‘g‘li 1892 yilda Marg‘ilonning So‘qchilik kasabasida qashshoqlanib qolgan bekzodalar xonodonida tug‘ilgan. Madaminbek Farg‘ona qo‘rboshilarini ichida eng mashhuri bo‘lib, uning haqida qator kitoblar ham bitilgan. Madaminbek yoshligida otasiga yordam berib, yog‘ochdan turli buyumlar yasab sotib yurdi, keyinchalik bozorda hammollik, do‘kondorlik, karvonlarda sarbonlik qildi. Umuman u hayot maktabining dastlabki bosqichini bozorda o‘tadi. Savodi tuzuk bo‘lganligi uchun savdogarlar, zakunchilar, amaldorlar doiralariga ham kirib bordi. U o‘ita bo‘y, kelishgan, mo‘ylablari o‘ziga yarashgan, so‘zamol, “Marg‘ilonning do‘ppisini chakkaga dol qo‘yan, beqasam to‘nni yelkaga tashlagan, baland poshna etik kiygan chapani yigit”, safdoshlari ichida eng o‘ktami edi. Jamiyatda shunday bir qonuniyat bor — kishining obruyi oshib, do‘stlari qay miqdorda ko‘paysa, uning dushmanlari ham doim yetarli bo‘ladi. Ana shu hasad Madaminbekni Sibirga surgun qildi.

Madaminbek 1918 yil boshlarida Marg‘ilon militsiyasi boshliqligiga tayinlanadi. Muxtoriyat tugatilib, Qo‘qon qonga botirilgach, Madaminbek o‘z qo‘l ostidagi uch yuz yigit bilan milliy-ozodlik harakati yo‘liga o‘tadi. U Toshloq qasabasidagi G’orbuvo qishlog‘ini o‘ziga qarorgoh qilib olib, qizil gvardiyachilar bilan dastlabki janglarini boshlab yuboradi. Keyinchalik, G’orbuvo Shermuhammadbek ixtiyorida qoldirib, qarorgohini Baliqchiga ko‘chiradi. Baliqchi vodiyning qoq markazi bo‘lib, ikki ulug‘ daryo: Qoradaryo va Norin qo‘shilib, Sirdaryo hosil bo‘ladigan joydir. Bu kasaba vodiyning to‘rt yirik muzofoti — Qo‘qon, Namangan, Andijon, va Marg‘ilon hududlari o‘zaro tutashgan, butun vodiyni nazorat qilib turish mumkin bo‘lgan, muhim strategik ahamiyatga ega joy edi.

Madaminbek vodiyning turli yerlariga odam yuborib, ular orqali aholiga o‘z maqsadlarini: avvalo

Farg‘onani, keyinroq, Alloh nasib etsa, butun Turkistonni bolsheviklar zulmidan ozod qilish, shariat oyoqosti qilinmaydigan jamiyat qurish, buning uchun esa qo‘lga qurol olib kurashish lozimligini tushuntirdi va kurashga da’vat etadi. Tez orada uning qo‘shini 4000 kishiga yetib qoldi. Unga Bاليقشیدан Boytuman hoji, Nayzaqayrag‘ochdan Solih Mahsum, Oq yerdan Qozoqjonbek, Qorako‘l- dan Hoshim polvon, Buloqboshidan Mulla Juman, Valikdan Mirkarimboy, Nurulla Mahsum, Abdullajon, Uchqo‘rg‘ondan Nazriddin Mingboshi, Loshmondan To‘xtaboy Ponsod, Qumariqdan Boltaboy Qo‘rboshi, Yozyovondan Yusuf Polvon, Qoratepadan Qurbonboy, Varzikdan Abdullajon Mahsum o‘z yigitlari bilan kelib qo‘shildilar.

Madaminbek o‘zining o‘sib borayotgan qo‘shinida beboslik, talonchilik va boshqa salbiy holatlarning oldini olish uchun qozi va muftiyalar yordamida maxsus Nizomnomada tuzadi. Nizomnomada milliy-ozodlik kurashining g‘oyaviy yo‘li, maqsad va vazifalari bayon etiladi, hamda asosiy qismida kurash ishtirokchilariga qo‘yilgan talablar ko‘rsatiladi. Chunonchi:

- behudaga qon to‘kmaslik;
- o‘z hududida tinchlik-osoyishtalikni ta’minalash;
- talonchilik bilan shug‘ullanmaslik;
- shariat hukmlari bo‘yicha ish tutish va h.k.

Madaminbek yangi qo‘shilgan har bir qo‘rboshini mazkur Nizomnomada bilan tanishtirib, unga amal qilish uchun imzo qo‘ydirib olgan. Afsuski, bu muhim hujjat moziy qa’rida qolib ketdi. Uning biror nusxasi na arxivlarda, na odamlar qo‘lida saqlanib qolgan. Bu hujjatning mavjudligi haqida unga o‘zi ham imzo chekkan rishtonlik Abdusattor Kosatarosh marhum padari buzrukvorimizga so‘zlab bergen ekan.

Madaminbek qo‘shinidagi yigitlar jasur, g‘oyaga sodiq jangchilar bo‘lsalarda, ularning aksariyati umrida pichoq, bolta-tesha, ketmon va panskashadan boshqa qurol ishlatmagan, jang ko‘rgan bo‘lsada, katta harbiy operatsiyalarda ishtirok etmagan, jang taktikasidan bexabar bo‘z yigitlar edi. Mahalliy millat vakillari ichida harbiy mutaxassislar yo‘q hisobi. Shu tufayli Madaminbek o‘ylab-o‘ylab sobiq podsho Rossiya armiyasi zabitlaridan foydalanishga qaror berdi, illo, vodiyya qizil hokimiyatni tan olmagan, ularga qo‘shilmagani uchun ta’qibga uchragan harbiy mutaxassislar yetarli edi. Ular ham mavjud hokimiyatga qarshi kurashishni xohlar, vodiyning ruslar ko‘proq istiqomat qiladigan sharqi qismida (Jalolobod, O‘zgan) o‘z qo‘shinlarini tashkil etgan, bunday imkoniyat bo‘lmagan boshqa joylarda esa payt poylab yotar edilar. Madaminbek ularning huzurlariga odam yuborib, umumiyl dushman, ya’ni, bolsheviklarga qarshi hamkorlikda jang qilish, birlashishni taklif qildi. Milliy-ozodlik harakati asosan islom bayrog‘i ostida ish ko‘rayotganligi rus ofitserlarini cho‘chitib turardi. Shu tufayli Madaminbek o‘z qo‘shinida diniy erkinlik e’lon qildi. Shundan so‘ng Osipov, general Muxanov, polkovnik Belkin (Kornilov), keyinchalik esa, Sharqiy Farg‘onada tarkib topgan krest’yanlar armiyasi qo‘mondoni general Monstrov unga qo‘shiladilar. Birinchi bo‘lib esa qizil armiya tarkibidagi maxsus Pomir otryadi qo‘shilgan edi. Bu otryad urushlarda chiniqqan, tog‘ sharoitida jang qilishga mohir yigitlardan iborat bo‘lib, “Bo‘ri galasi” degan nom orttirgan. Unga shtabs-kapitan Plotnikov boshchilik qilgan. O‘zi aslida qirg‘iz bo‘lib, ruslar ichida tarbiya olgan va polkovnik darajasiga erishgan Sulaymon Kuchukov esa o‘z bo‘linmasi bilan bek qo‘shiniga kelib qo‘shildi. Rus ofitserlari Madaminbek qo‘shini shtabini boshqarganlar, yigitlarga zamonaviy jang usullarini o‘rgatganlar.

Madaminbekning dastlabki janglari Marg‘ilon atroflarida, so‘ngra esa Namangan va Bاليقчи oralig‘idagi Jiydakapa qishlog‘ida bo‘lib o‘tdi. Bu jangda dastlabki xiyonat sodir etildi: Plotnikov boshchiligidagi Pomir otryadi qizillar bilan yarashish maqsadida ularga xat jo‘natganligi ma’lum bo‘lib qoldi. Qo‘rboshi Boytuman hoji buni sezib qolib, Madaminbekka xabar beradi. Madaminbek yetib kelib, otryadni qurolsizlantiradi. Biroq Plotnikovning buyrug‘i bilan qurshovdagagi qizil gvardiyachilar Namangan tomon chekinishga muvaffaq bo‘ladilar.

Keyingi janglar esa muvaffaqiyatlari o‘tdi. Madaminbek Markaziy Farg‘onaning qishloq hududlarida o‘z hokimiyatini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Marg‘ilon shahri, garchi uning qo‘l ostida bo‘lmasada,

bu yerga bemalol kelib ketadigan bo‘ldi.

Madaminbekning dovrug‘ini yoygan katta, shiddatli janglar asosan 1919 yilda bo‘lib o‘tdi. Yil boshida u eng katta kuch — Safonov boshchiligidagi 20 ming kishilik jangchisi bo‘lgan Skobelev (xozirgi Farg‘ona) shahriga hujum qildi. Hujumning to‘satdan bo‘lganligi dushmani gangitib qo‘ydi. Ko‘cha janglariga tob berolmagan qizil gvardiyachilar garnizon qal’asiga bir amallab kirib oladilar. Madaminbek qal’ani qamal qilish foydasizligini, tez orada butun vodiyidan qo‘shinlar yordamga yetib kelishini oldindan bilgan holda, turmaga hujum qilib bosmachilikda ayblangan bir qancha kishilar va rus ofitserlarini ozod qildi hamda Farg‘ona qo‘shinlar qo‘mondoni M.V.Safonevni asir oladi.

Skobelev jangi sovet qo‘shini, uning boshliqlari uchun katta saboq bo‘ldi. Ular, o‘z qarshilarida betartib, tarqoq to‘dalar emas, balki yaxshi uyushgan, salohiyatlari sarkarda qo‘mondonlik qilayotgan muntazam armiya turganligini his etdilar.

Madaminbekning dastlabki muvaffaqiyatlari uning obro‘-e’tiborini oshirdi. Musulmon lashkarboshilarining navbatdagi qurultoyida harakati sustlashgan Katta Ergash Qo‘rboshi o‘rniga Madaminbek “Amir Al Muslimin” etib saylandi. Xafa bo‘lgan Ergash Qo‘rboshi qurultoy qaroriga bo‘ysunmasligini e’lon qildi va o‘z holicha, hech kimga itoat qilmay kurashni davom ettirishni ma’lum etdi. Obro‘-e’tibor bilan birgalikda hasadguylar ham ko‘paydi. Uning qo‘l ostida jang qilayotgan To‘ychi, Qoraboy, Xolxo‘ja va yana ularga o‘xhash bir necha qo‘rboshilar qanday qilib bo‘lsada, Madaminbekning o‘rniga o‘zlar o‘tirishni, amiral muslimin bayrog‘ini o‘zlar tutishni orzu qilar edilar va bu yo‘lda yashirin yo‘l tutganlar.

1919 yil 22 oktyabrda Pomirning Irkeshtom (Ergashtom) ovulida Madaminbek rahbarligida Farg‘ona Muvaqqat hukumati tuzildi. Madaminbek hukumat raisi va bosh qo‘mondon qilib tayinlandi. 1920 yil fevralida sovet qo‘shinlari Madaminbek, Shermuhammadbek qo‘shiniga qarshi o‘nlab samolyot, bronepoezd, katta miqdordagi to‘p pulemyotlar bilan hujumga o‘tdi. Harbiy tashabbus qo‘ldan ketganligini his etgan Madaminbek o‘z qo‘shini, yigitlarini saqlab qolish maqsadida yarash muzokaralarini taklif etdi, hamda u bilan diviziya boshlig‘i Veryovkin-Raxalskiy o‘rtasida 1920 yil 6 martda Skobelev shahrida yarash bitimi imzolandi. Taslim bo‘lganlarni avf etish haqidagi sovet hukumatining qarori chiqqan bo‘lsada, bolsheviklar tomonidan o‘ldirilgan Madaminbek o‘limining ertasi kuniyoq boshqa istiqlolchilarni ham shafqatsiz qirish boshlandi.

XOLXO‘JA ESHON

Milliy ozodlik jabhasida ot surgan eng yirik, zabardast qo‘rboshilardan biri Xolxo‘ja Eshon edi. Muammoga oid ko‘plab tadqiqotlarda Xolxo‘ja Eshon eng yovuz, johil qo‘rboshi sifatida ta’riflanadi. Hatto sovet tarixchilari va adiblariga aksil jahhada turgan Shahobiddin Yassaviy kabi mualliflar ham uning salbiy xislatlaridan ko‘z yuma olmaydilar. Faqat turk yozuvchisi va jurnalisti Ali Bodomchining Turkiston Qo‘rboshilari mavzusidagi turkum maqolalaridagina u ijobjiy shaxs sifatida qalamga olinadi.

Xolxo‘ja Eshon shunday mashhur shaxs bo‘lgani bilan, uning 1917 yilgacha bo‘lgan hayoti haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Manbalarda, uning O’shlik ekanligi, Sharqiylar Farg‘onada faoliyat ko‘rsatganligi, ayrim janglari tafsiloti yoziladi, xolos. Shuningdek, manbalarda Xolxo‘ja Eshon Madaminbek fojiasining bosh qahramoni sifatida qalamga olinadi.

Xolxo‘ja Eshon 1918 yil oxirlarida o‘z yigitlari bilan Madaminbek qo‘shining tarkibiga kiradi va o‘z mintaqasida faoliyat ko‘rsatadi. Fe’l-atvori, qarashlari boshqacha bo‘lgan bu ikki qo‘rboshi o‘rtasida ko‘pgina gap-so‘zlar bo‘lib o‘tdi. Madaminbek Xolxo‘jani intizomsizligi, axloqqa zid ayrim qilmishlari uchun bir necha oy qamatib qo‘yadi, sazoyi qildiradi. Bu esa Eshonda bir umrlik kek uyg‘otadi.

Nima bo‘lganda ham, Xolxo‘ja Eshon zabardast, qizil gvardiyachilarga bir necha marta qaqqhatgich zarbalar bera olgan kurashchi edi.

Shuningdek, xalq milliy ozodlik kurashining boshlang‘ich davrida yuqorida o‘qiganingizdan tash-

qari yana bir qancha yirik qo‘rboshilar maydonga chiqdilar.

Andijondan Parapi qo‘rboshi boshchiligidagi Yunusbek, Isroilbek, Mahkam Hoji, Oxunjon, Mulla Abdurazzoq, Qozoqboy, Mirza tog‘a qo‘rboshilar.

O’shdan Xolxo‘ja Eshon boshchiligidagi Sohib qori, Yo‘lchibek, Tesha ofitser, No‘monbek, Mulla Umrzoq, Said Ahmadbek, Yo‘ldosh polvon;

Namangandan Omon Polvon qo‘l ostidagi Rahmonqulibek, Yo‘ldosh Chatoq, Sotvoldi Qozi, Ro‘zimuhammadbek, Hoji To‘rabek, Boytumanbek;

O’zgandan Jonibek Qozi qo‘l ostidagi Shamsibek, Jamol, Qodir, Muhammad Ibrohimbek qo‘rboshilar.

Oloydan Muhiddinbek qo‘l ostidagi Yangiboy Amin, Usmon Mingboshi, Bekmurod, Sarkor Ota, Mulla Siddiq, Nurmuhammad Mingboshi kabi qo‘rboshilardir.

Endi, kitobimizning bosh qahramoni Shermuhammadbek haqida qalam yuritar ekanmiz, avvalo, uning bosh qarorgohi bo‘lmish G’orbuvo qishlog‘i haqida ma’lumot berib o‘tishni lozim topdik.

G’ORBUVO

Marg‘ilonning Toshloq deparasida, uning cho‘lga ulanib ketgan eng chetida joylashgan bu qadimiyligi qishloq bir tarafi ekinzorlar, boshqa tarafi esa qamishzor va changalzorlar bilan o‘ralgan, o‘sha davr o‘lchami bo‘yicha o‘rtacha bir aholi maskanidir. Qishloqning qadimiyligini uning yaqinida joylashgan qal‘a va rabotning tekislanib, deyarli yer bilan bitta bo‘lib ketgan vayrona qoldiqlaridan bilsa bo‘ladi. Uning atrofida Shilva, Amazon, nariroqda esa Yakkatut, Bo‘ston, Yakkabed va boshqa qishloqlar joylashgan.

XX asr boshlarida G’orbuvo rasmiy jihatdan Farg‘ona viloyat Marg‘ilon uezdi, shahar atrofi uchastkasining Yakkatut volostidagi Ramazon qishloq tarkibida turgan. Asrning boshlarida aholi ro‘yxatiga ko‘ra, G’orbuveda 172 xonodon mavjud bo‘lib, 132 xonodon o‘z xususiy yer mulkiga ega bo‘lgan, qirq xonodon esa yersiz hisoblangan. Aholisi esa 686 kishidan iborat bo‘lib, shundan 393 nafari erkak, 293 nafari ayol edi. Qishloq Marg‘ilon shahridan 20 chaqirim, Gorchakova temiryo‘l stantsiyasidan 16 chaqirim masofada joylashgan. Ushbu mashhur qishloq nomi milliy-ozodlik harakati aks ettirilgan barcha manbalarda uchraydi. Uni tarixchi va yozuvchilarimiz Karbobo, G’arbobo tarzida qalamga olib keldilar. Xalqda esa u G’orbuvo degan nom bilan mashhur. Rus tilida yozilgan manbalarda, bu tilda “G” tovushi bo‘lmaganligi tufayli Garbaba shaklida yozib kelishdi.

Qishloqdan bir oz narida shu deparadagi uch-to‘rt qishloq uchun umumiy hisoblangan katta bir qabriston bor. Uning o‘rtasidagi bir tepalik etagida G’orbuvo ziyoratgohi joylashgan...

Sovet hokimiyati yillari edi. Xizmat safari yoki sayri-sayohat yuzasidan Leningradga har borganimda u yerlik tanish bilishlarni bir-bir yo‘qlab qo‘yar edim. Navbatdagi safarlarimdan birida harbiyda birga xizmat qilgan bir zabit do‘stimnikida bir-ikki soat mehmon bo‘ldim. U sidqidil xizmati uchun Leningrad harbiy okrugi shtabiga o‘tkazilgan edi. Uning xotini sharqshunos bo‘lib, tasavvuf tarixi bilan shug‘ullanar ekan. Choy ichib o‘tirganimizda Lyudmila Borisovna (xotinining ismi sharifi shunday edi) savol berib qoldi:

- Marg‘ilon shahri siz yashaydigan shahardan uzoqmi?
- Yo‘q, unchalik uzoq emas, eng yaqin yo‘ldan yurilsa, yetmish kilometr ham chiqmaydi.
- O‘sha Marg‘ilon yaqinida Garbobo degan joyni eshitganmisiz?

— Ha, u joy haqida ko‘p eshitganman va o‘qiganman. U joy “bosmachilar” urushi davrida (u vaqtarda milliy-ozodlik kurashi degan ibora har joyda ham tilga olinavermas, faqat eng yaqin, ishonchli do‘stlar davrasidagina pichirlab aytildi) antisovet kuchlarining yirik qarorgohi bo‘lgan. Nima siz ham bu urush tarixi bilan qiziqib qoldingizmi? Bilishimcha, sohangiz boshqa edi shekilli.

— Yo‘q-yo‘q, bu joyning “bosmachilar” urushi davriga oid tarixi meni qiziqtirgani yo‘q. Bilasizmi, men o‘zim universitetda ishlasmam ham, ishim yuzasidan arxivlar, ilmiy kutubxonalarda ko‘p bo‘laman.

Saltikov-Shchedrin nomli xalq kutubxonasining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida chamasi o‘ntacha jildda (papkada) yirtiq-sirtiq qog‘ozlar saqlanadi. Ular turli kitoblardan tushib qolgan alohida varaqlar, bir qismi yirtilgan turli hujjatlardir. Ular shu tufayli ilmiy inventar hisobiga kiritilgan. Sharqshunoslarning ba‘zilari bu papkalarga hazil tariqasida “turfa qog‘ozlar papkalar” deb nom qo‘yib olganlar, shunisi qiziqliki, asosiy jamg‘arma materiallarida topilmagan ayrim faktlar va ma’lumotlar ayni ushbu papkalardan chiqib qoladi. Shu tufayli sharqshunoslar o‘z ishlari jarayonida, albatta, ularni ham ko‘zdan kechirib qo‘yadilar. Men ham shu papkalarni titib o‘tirib, Qo‘qon xonlaridan bo‘lmish Norbo‘tabekning bosh vaziri Xonxo‘ja tomonidan Marg‘ilon viloyati Toshloq deparasidagi G’orbuvo qishlog‘i yaqinida joylashgan Xoja Pirmuhammad Qalandar mozoriga berilgan vaqf mulki haqidagi “Vaqfnoma” deb nomlanadigan hujjatning bir parchasini topib oldim. Hujjat chamamda to‘rt buklangan holatda qaerlardadir uzoq saqlangan. Vaqt o‘tishi bilan buklov chizig‘idan yirtilib, mazkur papkaga uning to‘rtadan bir qismigina tushib qolgan. Qalandarlik sohasi mening ilmiy ishimga yaqin bo‘lganligi uchun bu qalandarning shaxsi haqida ma’lumot izladim. Aynalib-o‘rgilib, kichik, uzuk-yuluq ma’lumotni yana shu papkalarning biridan topdim. Ma’lumki, Turkiston va Eronda avliyolar, zohidlar, obidlar, shayxlar va qalandar-darveshlar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan umumiyy nomi “Tazkirat ul avliyo” bo‘lgan asarlar (avliyolar haqida yodnomalar) yaratilgan. Bu asarlarning ayrim varaqlari ham mazkur parishon qog‘ozlar papkasiga tushgan ekan. Ushbu varaqlarning birida Xoja Pirmuhammad Qalandar shaxsi haqida kichik bir ma’lumot bor ekan. Ma’lum bo‘lishicha, Xoja Pirmuhammad XVIII asrning birinchi yarmida Farg‘onada yashab o‘tgan bo‘lib, “Qodiriya” sulukiga mansub zot ekan. Garchi u yoshligiga qaramay, ilmda, tariqatda shayxlik darajasiga yetishib qolgan bo‘lsada, qalandarlik jubbasini tashlamagan ekan. U XVIII asrning qirqinchchi yillarda qalmoq bosqinchilari bilan bo‘lgan janglarda asir olinib, qatl qilingan ekan. Bu qalandar shaxsi haqida boshqa hech narsa topa olmadim.

Bu borada so‘z ochishimdan maqsad shu ediki, siz rahbar odamsiz. Xizmat yuzasidan vodiyya ko‘p yursangiz kerak. Shu ulug‘ odam (agar shunchalik ulug‘ bo‘limganda, xonning vaziri uning qabriga g‘amxo‘rlik qilarmidi?) haqida xoh yozma, xoh og‘zaki ma’lumot qo‘lingizga tushib qolsa, menga bir nusxa jo‘natishingizni iltimos qilgan bo‘lar edim. Xayolimdan ko‘tarilmasligi uchun qalandarning nomini bir parcha qog‘ozga yozib berdi.

Leningraddan qaytgach, taqdir meni Qo‘qonning katta qabristonidagi xonaqohlardan birida istiqomat qilib turgan Haydarquli Qalandar bilan uchrashfirmaguncha Lyudmila Borisovnaning iltimosini qoniqtiradigan biror bir ma’lumot topishni nasib etmadi. U kishi xaqida menga do‘sstarim darak berib – “qalandarlar tarixini hech kim Haydarquli buvordan ko‘p bilmasa kerak” – dedilar. Darhaqiqat, Haydarquli Qalandar tasavvuf tarixini, qalandarlar hayotining katta bilimdoni ekan. Bir umr qalandarlik qilib, 1960 yillarda faoliyatning bu turi taqiqlangach, qabristondan nonini topib yeb yurgan. Shu kishini uyga olib borib, mehmon qilgach, Xoja Pirmuhammad Qalandar shaxsi, u kishi dafn etilgan G’orbuvo mozori haqida so‘radim. U kishi menga butun bir afsona so‘zlab berdiki, kitobimiz mavzusi G’orbuvo emas, milliy-ozodlik harakati bo‘lganligi tufayli, uning qisqa bayoninigina keltirib o‘tishga to‘g‘ri keldi.

Xalq og‘zaki ijodi antiqa bir ro‘yo: unda afsona, ilohiy kuch, sehr aralashmagan birorta syujet topish qiyin. Shu tariqa, G’orbuvo rivoyati ham afsonaviy unsurlardan holi emas.

G’ORBUVO AFSONASI

Roviylar andoq rivoyat qilurlarkim, Xo‘qand shahrida Xoja Pirmuhammad ismli bir qalandar istiqomat qilur edi. O‘zi maxdumzodalardan (Maxdumi A’zam avlodlaridan) bo‘lib, Allohga ishqni nihoyatda otashin erdi, “Xu” (“Xu”—Allohning tasavvufdagi nomi) deganda dimog‘idan otash chiqur edi. Samarqand Daxbedida tariqat yo‘lini o‘tab, irshodnomaga ham olgan, tariqatda xalifalik darajasiga yetgan. Xotuni va go‘dak bolasi qorachechakdan vafot topgach, qalandarlik jubbasini kiyib, xonaqohga

chiqib ketgan erdi. O‘zi nihoyatda ko‘rkam, xushsurat yigit bo‘lib, qancha-qancha boyu-boyon, bek-amirlar odam qo‘yib, o‘z qizlarini peshkash qilsalarda, rad etgan erdi.

Zamoniki keldi, Chinmochin mamlakatiga qo‘shti bo‘lib yashab turgan jung‘or xalqi yerlari Chinmochin tomonidan bosib olina boshlandi. Jung‘orlar oldiniga Ili, Yettisuv, Oqsuv, Qoshg‘ar tomonlarga qabila-qabila bo‘lib bosib keldilar. Keyinroq esa Talas va Qoshg‘ar orqali Farg‘onaga ham kirib keldilar. Farg‘ona xalqi mudofaa kurashiga qo‘zg‘aldi. Xo‘qand xoni Abdulkarimbiy qo‘shtin to‘plab, shaharlarni qo‘riqlashga yubordi.

Qalandarlar ham bu kurashdan chetda turmadilar, Ular bir qo‘lda aso, bir qo‘lda qilich tutib, xalq lashkariga qo‘shtidilar. Xoja Pirmuhammad ham xonaqohni tark etib, qo‘liga qurol oldi.

Jung‘orlar ham mo‘g‘ullarga o‘xshab, har qanday holatda: yaylovdan-yaylovga ko‘chishda ham, urush holatida ham urug‘ aymoq, bola-chaqasi bilan yurar, erkaklari oldingi safda bo‘lsa, xotin-bola chaqalari qo‘shtin orqasidagi o‘g‘ruq (oboz) da kelar edi.

Jung‘or qo‘shtining bir qismi Yozi-Yobon orqali Marg‘inonga yaqinlashib qoldi. Mudofe’lar (mudofaachilar) ularning yo‘lini to‘sish uchun chiqdilar. Marg‘inondan uch-to‘rt tosh masofada qattiq janglar boshlanib ketdi. Jung‘or qo‘shtining bu qismiga jung‘or xonlaridan birining bevasi Chechek Xotun boshchilik qilar edi. Eri Ili yonidagi janglarda halok bo‘lgach, erining o‘rniga jung‘or xoqonining ruxsati bilan shu xotin o‘tirgan edi, zero, Chechek xotun o‘zining salohiyati, jangovarligi bilan erkaklardan qolishmas, hatto ulardan o‘tib tushar edi. Eri halok bo‘lgach, unga ko‘plab jung‘or xonlari, hatto xoqonning ukasi ham talabgor bo‘ldilar, biroq ularning birortasiga ham yuragi jiz etmadi. O‘lgan eridan ham ko‘ngli to‘lgan emas. Uning nazaridagi, orzusidagi er nafaqat botir, kuchli, jangovar, balki axloqli, go‘zal, ilmli bo‘lishi kerak edi.

Chechek xotun ba’zan o‘zi ham jangda qatnashar, ba’zan biror tepalikka chiqib olib, o‘sha yerdan turib jangni boshqarardi. Janglardan birida Chechek xotun Xoja Pirmuhammad bilan to‘qnash kelib qoldi. Malika Xojani ko‘rdu-yu o‘zini yo‘qotdi: Xojaning ko‘zlaridan, yuzlaridan nuri ilohiy to‘g‘ri malikaning qalbiga yo‘l topib kirib, o‘zining fikri-xayolidagi, orzusidagi erkak ishqida qovjirab yotgan yuragini alanga oldirib yubordi. Beixtiyor ko‘ksidan qalqoni, qo‘lidan qilichi tushib ketdi. Ko‘zi tinib, gandirakladi, gandiraklaganda boshidagi dubulg‘asi ham yumalab ketib, kokillari parishon bo‘ldi. Xoja uning ayol ekanligini, qo‘lidan quroli tushib ketganini ko‘rib, qilich ko‘targan qo‘llarini pastga tushirdilar. Shu payt dovul chalinib, har ikki qo‘shtin qilichini qiniga solgancha o‘z qarorgohiga qaytdi. O‘sha paytdagi janglar halol, mardona bo‘lib, dovul chalib jangga kirilar, dovul chalib jang to‘xtatilardi. Dovul ovozi kelishi bilan dushman boshi ustida o‘ynagan qilich qayta qinga tushishi, raqibini bo‘g‘ib turgan jangchi uning tomog‘idan changalini bo‘shtishi shart edi. Ushbu jangda Chechak xotunning qayin singlisi Zeberdet ham ishtirok etgan bo‘lib, u ham Xoja Pirmuhammadni bir ko‘rishda oshiqlib qoldi. Uning eri jung‘or xoqonining tumanboshilaridan bo‘lib, qari, ko‘rimsiz kishi edi. Zeberdet unga xizmatlari uchun mukofot tariqasida berilgan, eridan qoniqmag'an juvon boshqa ko‘rkam, yoshroq lashkarboshilar bilan don olishib yurar, buni ko‘pchilik bilsada, eri bilmas edi, xolos.

Ertasi kun jangga dovul cholingach, Chechek Xotun o‘z lashkarboshilar bilan bir do‘ng ustiga chiqib, Xoja Pirmuhammadni ularga ko‘rsatib;

— Anovi jangchini yaxshilab tanib olinglar va cheriklaringizga tayinlanglar-ki, uni o‘ldirib qo‘yishmasin. Bir amallab ozor yetkazmay asir olinglar.

Ko‘p o‘tmay Chechek Xotunning xos navkarlaridan bir nechtasi uchi sirtmoq qilingan arqonlarini tayyorlab, jang qizib turgan joyga, Xoja Pirmuhammadga yaqinlashib bordilar. Arqon tashlashda jung‘orlarning oldiga tushadigani kamdan-kam topilsa kerak. Navkarlar har tomonidan Xojani o‘rab kelib, baravariga arqon tashladilar. Xoja besh-ohti sirtmoq ichida qimirlamay qoldilar. Navkarlar Xojani arqon bilan sirmab, qarorgohga yetkazib kelib, bir o‘tovga qo‘ydilar va poyloqchilikka turdilar. Jang nihoyasiga yetib, dovul chalingach, Chechek Xotun Xojani banddan bo‘shtirib, o‘z chodiriga oldirib keldi va mehmon qildi. Bu mehmondorchilikda Chechek Xotun o‘z maqsadini bayon etmadi.

Ikkinchi, uchinchi kuni ham og‘iz ochmadi. Xoja o‘z karomatlari vositasida ushbu mehmondorchilik maqsadini anglab tursalarda, sirboy bermay o‘tiraverdilar. Bu orada Chechek Xotun qo‘shinining qolgan qismi ham yetib kelib, jangda g‘alaba qozonib, Marg‘inon qo‘shinining katta bir qismini asir oldilar. Qo‘shinining qolgan-qutgan, sog‘ qolgan kichik bir qismi Marg‘inonga chekindi.

Chechek xotunda ko‘chmanchi, yarim yovvoyi xalq ayollarining aksariyatiga xos bo‘limgan iffat, uyalish hissi bor edi. Ushbu iffat Xojaga sevgi izhor qilishga yo‘l bermay, malikani iztirobga solar edi. Malikaning Nurmuhammad Oxund nomli bir dono uyg‘ur mirzosi bo‘lar edi. Ilojsizlikdan qiyalgan malika nihoyat Oxundga qalb sirlarini ochib, uni elchilikka (u payt sovchilar ham elchi deb aytilar edi) taklif qildi. Boshqa jung‘or hukmdorlaridan katta farqi bo‘lgan Chechek Xotunni hurmat qiladigan Nurmuhammad Oxund taklifini qabul qildi. Malika Oxundga Xojaning har qanday talabi bo‘lsa rad etmay, qabul qilish lozimligini tayinladi. Asirliking to‘qqizinchi kuni Xojani yana malikaning chodiriga olib kirdilar. Oxund darxol maqsadga o‘tmasdan, diniy-dunyoviy ishlar, tariqat masalalaridan suhbatlashib o‘tirdi. So‘ngra asta-sekin maqsadga yaqinlashib, malikaning dil izhorini bayon etdi. Xoja bir oz sukut saqlab turib, shunday dedilar:

— O’zingiz o‘ylab ko‘ring, Oxun aka (bizning o‘lkalarda uyg‘ur millatiga xos barcha kishilarga “Oxun aka” deb murojat qilinadi), vatanim xavf ostida turgan bir paytda, quroldosh sheriklarim asirlik azobini chekib yotgan bir holatda uylanish haqida so‘z bo‘lishi mumkinmi? Yana, u ayol bosqinchilarning kattalaridan biri, ustiga-ustak g‘ayridin bo‘lsa...

Parda ortidan suhbatni tinglab turgan malika navkar orqali Oxundni chaqirtirib olib, nimalarnidir uqtirdi. Ko‘p o‘tmay Oxund yana Xojaning oldilariga chiqib, malikaning qarorini eshittirdi.

— Agar siz malikani nikohingizga olishga rozi bo‘lsangiz, urush harakatlari to‘xtatiladi, asirlar ozod qilinadi, malika dinimizni qabul qilib, muslima bo‘ladi, o‘z qo‘l ostidagilarni ham islomga da’vat qiladi...

Ularni shu so‘zda qo‘yib, endi voqeani boshqa joydan tinglang. Xojaga oshiqu beqaror bo‘lib qolgan Zeberdet xon xonadoni a‘zosi huquqidan foydalaniib, bir necha marta Xoja band bo‘lib turgan o‘tovga kirib, Xojaga sevgi izxor qildi. Uning qanday ayol ekanligini karomat kuchisiz ham sezib turgan Xoja rad javobini berdilar.

Xojani malikaning chodiriga olib kelishgach, Zeberdet hech kimga sezdirmay, chodir atrofini o‘rab olgan chohga tushib, chodir etagining bir chetini ko‘tarib, gap poylab turdi. Nihoyat, Xojaning:

— “Undoq bo‘lsa, ya‘ni, bosqinchilar qo‘shinining bir qismi urush harakatini to‘xtatib, sheriklarim banddan xalos bo‘lishsa, g‘ayridin ayol va uning qo‘l ostidagi minglab kishilar islomni qabul etar ekanlar, malikaning taklifini qabul qilishdan o‘zga ilojim yo‘q, roziman”, — degan so‘zlarni eshitgach, o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi, rashk o‘tida to‘lg‘onib-yondi.

Malikada dini islomga kirish fikri bir qancha vaqt oldinroq paydo bo‘lib, Nurmuhammad Oxunddan bir oz ta’lim olgan ekan. Xojaning roziliklarini eshitgach, boshiga katta ro‘molni chodira qilib, “Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhi”, deganicha parda ortidan chiqib keldi. Oxund va Xojaga yengil ta’zim qilib, cho‘kka tushib o‘tirdi hamda “La ilaha illalohu Muhammadin Rasululloh”, deya kalima qaytarib, muslima bo‘ldi. Uchalalari maslahatni bir joyga qo‘yib, urushni to‘xtatish, asirlarni ozod qilish, xoqonlikdan ajralib chiqish hamda fuqarolarni islomga kiritib, tinch mehnat bilan shug‘ullanishga o‘rgatish, shundan so‘nggina nikoh harakatini qilishga kelishib oldilar. Shundan so‘ng Xoja o‘z o‘tovlariga qaytdilar. Asirlar shu ondayoq banddan bo‘shatilib, ozod qilindi. Chodirdagi suhbatni eshitib, umidini o‘zgan Zeberdet oxirgi marta o‘z baxti uchun harakat qilish maqsadida Xoja bilan izma-iz u kishining o‘tovlariga kirib keldi. Xoja yana uning sevgisini rad qilganlaridan so‘ng so‘radi:

— Mening Chechekdan qayrim kam? Husnda ham, mavqe‘da ham undan baland bo‘lsam balandmanki, aslo past emasman.

— Afting balki go‘zaldir, biroq axloqing go‘zal emas, tiling ham, diling ham, qilib yurgan ishlaring ham pok emas. Qo‘y, o‘zingni ortiqcha urintirma, men seni aslo qabul qilolmayman. So‘zim qat’iy.

Zeberdet oxirgi chorani qo‘llab ko‘rdi—echinib, o‘zining kelishgan badani bilan Xojani rom etmoqchi bo‘ldi. Biroq Xoja yerga qarab, istig‘for aytib o‘tiraverdilar. Zeberdetning alami, qahrig‘azabi junbushga kelib, kiyanganicha o‘tovdan otlib chiqib ketdi.

Ayol uchun rad etilgan sevgidan ham qattiqroq haqorat bo‘lishi mumkinmi? Bu qahru g‘azab, bu alam, bu rashk, bu o‘ch olish tuyg‘usi Zeberdetni shu zahotiyoy otga o‘tkazib, Jung‘or xoqoni qarorgohi sari boshladi. U kechasi bilan ot yeldirib, quyosh chiqqan mahalda xoqon qarorgohiga kirib bordi va o‘z sarguzashtidan boshqa barcha bo‘lib o‘tgan ishlarni xoqonga yetkazdi. Xoqon qahr g‘azabga to‘lib, ming kishilik xos navkarlarini Chechek Xotun qarorgohiga yubordi. Navkarlar Chechek xotun va Xoja Pirmuhammad qalandarning qo‘l-oyoqlarini bog‘lab, xoqon huzuriga yetkazib keldilar. Xoqon ularni shaxsan o‘zi so‘roq qilib, nihoyat ularga o‘z qarorini e’lon qildi:

— Ikkaloving ham bizning dinimizga qaytasizlar. Shundagina sizlarni kechirib to‘ylaringga o‘zim bosh bo‘lamen. Bu yigitning yaxshi jangchi ekanligini eshitdim. Uni o‘zimga tumanboshi qilib olaman. Aks holda sizlarni oldin qiyonoqqa solib, so‘ngra qatl ettiraman.

Chechek Xotun va Xoja o‘z dinlaridan qaytmasliklarini e’lon qildilar. Jallodlar ularni qiy nab, qattiq azobga soldilar. Shunda ham ular ahdlardan qaytmadilar.

Xoqon turli gazanda va darrandalarni boqishga ishqiboz bo‘lib, elchilar va savdogarlar vositasida dunyoning turli burchagidan har xil ilonlarni oldirib kelib, parvarish qilar, qaerga bormasin, o‘zi bilan olib yurar edi. U ilonlariga o‘z qo‘li bilan xo‘rak bera turib, kallasiga bir fikr keldi. Bir joyga mustahkam o‘tov tiktirib, uning ichiga Xojani va Chechek Xotunni oldirib kirdi. So‘ngra o‘z sevimli maxluqlaridan bir qismi—Hindistondan keltirilgan bo‘g‘ma va ko‘lvor ilonlardan bir nechasini o‘tovga kiritib:

— Qani o‘sha senlar sodiq bo‘lgan Allohlaring senlarni mana bu ilonlardan qutqarib olarmikan?— dedida, o‘tovning har tomonini mustahkam qilib berkittirib tashladi.

Ilonlar o‘rtada o‘tirgan Xoja va Chechek Xotunga yaqinlashib kela boshladilar. Xoja cho‘kkalab o‘tirib Qur‘on tilovatini boshlab yubordilar. Xojaning nafas (ovoz)lari shunday shirin, tilovat shunday hazin va ohangdor ediki, ularni bo‘g‘ish, chaqish uchun yaqinlashib kelayotgan ilonlar beixtiyor o‘z joylarida to‘xtab, tilovat ohangiga mast bo‘lib, shu ohangga moslab tebrana boshladilar. Oradan bir soat o‘tar o‘tmas xoqon bir necha navkarini o‘tovga yubordi:

“Borib xabar olinglarchi, ilonlarim ularni yeb bo‘ldimikan?”

Navkarlar kelib ko‘rdilarki, ularga hech qanday shikast yetmagan. Ilonlar Qur‘on tilovati sehrida tebranib turibdilar. Navkarlar xoqon huzuriga qaytib, ko‘rganlarini so‘zlab berdilar. Xoqon: “Obbo, ularning tangrisi ilonlarimni ham yo‘ldan urib, o‘ziga og‘dirib olibdida, ulardan ham voz kechishim kerak” — deb o‘ylab, lashkarboshilarni to‘plab, shunday farmon berdi:

— Chechek o‘tirgan o‘tovni qo‘mib yuboringlar. Har bir cherik bir qalqondan tuproq olib kelib, o‘tov yoniga, ustiga to‘ksin!

Qo‘sishin harakatga tushib, har bir cherik o‘z qalqoniga tuproq to‘ldirib kelib, o‘tov atrofiga, ustiga to‘ka boshladi. Ko‘p o‘tmay o‘tov ustida bir tepalik hosil bo‘ldi.

O‘tov ko‘mib tashlangach, o‘lim muqarrar ekanligini sezgan Chechek Xotun Xojadan so‘radi:

— Endi nima qilamiz?

— Sabr, — dedilar Xoja.

Shu payt, nogahon ko‘zlarini uyqu eliddi. Xoblarida bobokalonlari Maxdumi A’zam Hazratlari namoyon bo‘lib, shunday taskin berdilar:

— E, farzand, umidsizlikka tushmanglar, sizlarni o‘ldirish, yeish uchun o‘tovga kiritilgan ilonlar sizlarning xaloskorlaringiz bo‘ladilar. Faqat, birozgina sabr qilasizlar.

Bir qancha muddat o‘tgach ilonlar harakatga kelib, ulardan biri Xojaning etaklaridan tishlab, o‘tov eshigi sari boshladi. Ilonning maqsadini karomat kuchi bilan anglagan Xoja eshikni ochdilar. Ilonlar eshik og‘zidan boshlab tashqariga yo‘l qaziy boshladilar. Ko‘p o‘tmay, tepalikning etagiga qarab odam engashmay yursa bo‘ladigan g‘or shaklidagi lahim ochildi. Xoja tashqariga chiqib atrofga razm

soldilar: qop-qorong‘u, atrof kimsasiz. Xoja va Chechek Xotun lahimdan chiqayotib, ilonlarga qaradilar. Ilonlar ishora bilan shu yerda qolib, shu tepalikni makon tutajaklarini bildirdilar. Xoja va Chechek Xotun tashqariga chiqib, yulduzlarga qarab Xo‘qand yo‘lini aniqlab oldilarda, yo‘lga tushdilar.

Ular Xo‘qandga yetib kelgach, to‘g‘ri hukmdor Abdulkarimbiy o‘rdasiga kirib bordilar. Xon bilan uchrashib, bo‘lgan voqealarni so‘zlab berdilar. Abdulkarimbiy asirlikdan bo‘shatilib, qaytib kelgan bir qancha jangchilardan bu voqeanning boshlanish qismini eshitgan edilar. Qolgan qismini ularning o‘zidan tinglagan xon yoqa ushlab, ularga tahsin, Allohga hamd-sano o‘qidilar va mirzolarni chaqirib, bu voqeani yozib olishga buyurdilar.

Ko‘p o‘tmay shayxulislom Xoja Pirmuhammad Qalandar va Chechek Xotunni nikohlab qo‘ydilar. Xoja yana qo‘llariga qurol-yarog‘ olib jung‘orlarga qarshi jangga kirdilar. Nihoyat Abdulkarimbiy boshchiligidagi Farg‘ona xalqi jung‘orlarni vatan hududidan haydab chiqardilar.

Vaqti soati yetgach, Chechek Xotun bu foni dunyo bilan vidolashdi. Vasiyatiga ko‘ra uni o‘sha o‘zlar yaxshi bilgan tepalik ostidagi o‘tov ichiga dafn etdilar. Xoja Pirmuhammad ham zohidlik yo‘liga kirib, tarki dunyo qilib, shu g‘orni o‘zlariga makon tutdilar. Allohga omonatlarini topshirganlarida vasiyatlariga ko‘ra muridlari u zoti bobarakotni shu g‘or ichiga, Chechek Xotun yoniga dafn etdilar. Ularni ozod etgan ilonlarning avlodlari esa bir umr ushbu muqaddas mozorning qo‘riqchilari bo‘lib qoldi. Garchi, mozor rasman “Xoja Pirmuhammad Qalandar mozori” deb nomlansa-da, xalq lafzida, bu sun’iy g‘or ichida avliyoning qabri mavjudligi tufayli “G‘orbobo”, “G‘orbuvo” deb ataladigan bo‘ldi...

Qissani yozib olgach, marhum padari buzrukvorimga ko‘rsatdim. U zot mozor haqida o‘z ko‘rganlarini so‘zlab berdilar. Ilgari, qishni istisno qilganda, yil bo‘yi vodiya sayil qilish mumkin bo‘lgan ekan. Sayillar mashhur mozor va qadamjolarda navbatil bilan o‘tkazilar, jumladan, yoz pallasida Arslonbob, Shohimardon, O’sh, Safed Bulonda, kuz va bahorda tekislikdagi boshqa muqaddas joylarda o‘tkazilgan. Shu jumladan, ayni navbahorda G‘orbuvida ham katta sayil o‘tkazilib, vodiying turli joylaridan ziyyoratchilar kelar ekan. Otamiz ham yosh yigitlik chog‘larida G‘orbuvgaga bir necha marta borgan ekanlar. G‘orbuvo sayilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shu ekanki, ziyyoratchilar bu yerda ilon boqish jarayonining guvohi bo‘lar ekanlar: har kuni ertalab va kechki payt mozor xizmatchilari g‘or og‘ziga katta sopol tog‘ora qo‘yib, bir savat nonni mayda burdalab, tog‘araga solishar, ustidan to‘ldirib sut quyishar va tomoshabinlarga murojaat qilib, uzoqroqqa borib turishlarini so‘rashar ekan. Bir oz vaqt o‘tgach, g‘or ichkarisidan bir qancha ilon chiqib, tog‘aradagi sutga ivigan nonni yeb, vishhillashganicha yana g‘orga kirib ketar ekanlar. Ziyyoratchilar yaqin atrofdagi qishloqlar ahlidan:

— Bu ilonlar sizlarga ziyon yetkazmaydilarmi? — deb so‘raganlarida, ular: — Yo‘q, ular g‘ordan tashqariga chiqishmaydi. Shu paytgacha birovni ilon chaqqanini bilmaymiz. Qaytaga, ular shu deparani turli ins-jins, balo qazodan himoya qilib turishadi — deb javob berar ekanlar.

Shuningdek, Mavlud oylarida ham bu yerda bir kunlik sayil bo‘lib, katta izdihom bilan Mavludi Sharif o‘qilgan. Ushbu marosimda deparaning barcha qorilari ishtirok etar ekanlar. Yana bir sayil Iydi-Qurbanning ikkinchi kuni o‘tkazilgan. Yaqin-o‘rtada istiqomat qilib, qurbanlikni niyat qilib qo‘yan o‘ziga to‘q kishilar so‘yiladigan jonliq va masalliplarni shu yerga olib kelib, qurbanlikni shu yerda o‘tkazar, atrof qishloqlar aholisi ham undan bahramand bo‘lardi.

Tepalik yonidagi xonaqohda yilda bir marta “Zikri Sa‘mo” (ko‘pchilik bo‘lib, ovoz chiqarib Allohnini yod etish) o‘tkazilar, unga vodiying eng yaxshi zokirlari (zikr o‘quvchilari) taklif qilinar ekan.

Dadamiz rahmatli keyinroq, o‘ttizinchchi yillar oxirida qandaydir bir xizmat bilan u yerga borganlarida butunlay boshqa manzarani ko‘rdilar; g‘orning og‘zi berkilib ketgan, sayilgohdagi qo‘shxona (ziyyoratchilar qo‘nadigan joy) lar va choyxonalar, oshxonalar buzilgan, ilgarigi fayz, ma’naviy jo‘shqinlikdan asar ham qolmagan ekan. O‘sha yerlik bir tanishlarining aytishicha, milliy-ozodlik harakati bostirilgach, g‘oliblar, ya’ni sovetlar bu harakat ishtirokchilarini surgun qilish, otib

tashlash, qamoqqa tiqish bilan kifoyalananmay, mazkur harakat bosh qarorgohidan ham o‘ch olishga qasd qilganlar. Qishloq ahlining yarmidan ko‘pi bosmachilikda yohud bosmachiga bospana bergenlikda, uni yashirganlikda, u bilan hamkorlik qilganda ayblanib, jisman yo‘q qilingan, bu yerdagi man‘aviy hayot tayanchi bo‘lmish mozor katta zambaraklardan o‘qqa tutilgan, tepalik to‘p o‘qi vositasida ko‘chirib tashlangan, sun’iy g‘orning ochiq qolgan kichik bir qismiga esa tuproq tashlanib, berkitib yuborilgan ekan.

Vodiyyadagi milliy-ozodlik harakatining eng yirik markazlaridan, qarorgohlaridan, tayanch nuqtalaridan biri bo‘lmish G’orbuvo ana shunday joy edi.

Muhtaram kitobxon, shu yerda bir oz mavzudan chiqib ketgan bo‘lsakda, tarixga bo‘lgan ushbu ma’naviy sayohat kitob mundarijasiga unchalik zarar yetkazmagan bo‘lsa kerak deb hisoblaymiz.

Milliy-ozodlik harakatining vodiyyadagi eng qizg‘in o‘chog‘i, boshqaruv markazi bo‘lmish muqaddas G’orbuvo go‘sashi, uning qadimdan qolgan qo‘rg‘oni, minglab shahidlarni o‘z bag‘riga olgan tepaliklari bilan bog‘liq xotiralar asta-sekin odamlar yodidan o‘cha bordi. Balki bu borada Vaqtning o‘zagina emas, balki, loqaydlik, sho‘rolar davridagi mafkura ta’siri ham faoliyat ko‘rsatgandir. Nima bo‘lganda ham, bu tabarruk zaminning ahamiyati unutilib, tirikchilik ko‘yida yurgan mahalliy aholi uning muqaddas bo‘lmish tuprog‘idan g‘isht va guvalaklar quyishga tushib ketdilar. Agar taqdir bu go‘saga ajoyib inson, asli tagi Toshloqning Varzak kentidan bo‘lmish, falakning gardishi bilan hozirda Istanbulda istiqomat qilib turgan, yilda bir bor kelib, Vatan tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo qilib surguchi vatandoshimiz, o‘sha suronli-dolg‘ali yillarda kent sardori bo‘lmish Asomiddin Mingboshining nabirasi Sobir Sayxon Xolmatxon o‘g‘lini bizga yo‘llamaganda, kim bilsin, bu azim tepalikdan nom-nishon qolarmidi?

Vatan ishqisi, vatanparvarlik hissi, aslida, hech kimga begona emas. Biroq bu ishq Vatan tuprog‘idan ayri yurgan kishilarda kuchliroq bo‘lishi tabiiydir. Sobir Sayxon vatanga har bir tashrifida bu muqaddas go‘sani ziyorat qilmay qo‘ymaydi. U navbatdagi tashriflaridan birida bu holatni ko‘rdi-yu, joni hiqildog‘iga kelib, darhol bong urdi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi bosh muharriri, mashhur yozuvchi, Ahmadjon Meliboev va boshqa jonkuyar ziyolilar, fidoyilar yordamida xalqqa, tegishli tashkilotlarga murojaat qilib, bu go‘sani na faqat milliy-ozodlik harakati, balki xalqimiz, vatanimiz tarixi bilan bog‘liq noyob yodgorlik ekanligini tushuntirdi, bu joylarni o‘z holicha saqlab qolish, uni xalqimiz, ajnabi y mehmonlar, sayyoohlар uchun ochiq havodagi muzeyga aylantirish g‘oyasini ilgari surdi va shu yo‘l bilan saqlab qolishga muvaffaq bo‘lindi.

Mazkur kitobni yozish uchun olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, bu tabarruk joy Sobir Sayxon shaxsi uchun ham begona emas ekan:

Birinchidan, Sobir Sayxon bobosi Asomiddin Mingboshi, garchan rasman podsho Rossiysi hukumati mansabdori bo‘lsada, xalq ozodligi harakatining boshida turgan kurashchilardan biri ekanligi ayon bo‘ldi. U kishi 1916 yil voqealaridan keyinroq Shermuhammadbekka ikkita beshotar miltiq va o‘q-dori tutqazib, qo‘llab-quvvatlagan, ozodlik kurashiga oq fotiha tilagan edi. Tadqiqotimiz mobaynida Shermuhammadbekka dastlabki qurolni tutqazgan kishi shaxsi haqida boshqa ma’lumotlarga ham duch kelgan bo‘lsakda, qurolni birinchi bo‘lib aynan Asomiddin Mingboshi bergenligi dalillar bilan isbotlandi.

Ikkinchidan, taqdir Sobir Sayxonni Shermuhammadbek xonadoni bilan tutashtirganligi ham ma’lum bo‘ldi: Shermuhammadbekning ukasi Toshmuxammadbek tomonidan jiyani bo‘lmish Xolmuxammadbekka Sobir Sayxon qayin og‘a bo‘lar ekan.

Ushbu yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ikki omil bo‘limgan taqdirda ham bu muqaddas maskan Sobir Sayxon uchun begona emasligi ayondir. U Vatanga alohida muhabbat bilan xorijdagi o‘zbeklar ichida yaqqol ajralib turadi. Uning Vatanga muhabbatini asarlarida, O‘zbekistonning tarixi va bugungi kuni haqida yozgan maqolalaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

SHYERMUHAMMADBYEK

Tazkiramizning Shermuhammadbekka bag‘ishlangan qismiga yetib kelganimizda qalamimiz uzoq vaqt to‘xtab qoldi. Shu bobga kelganimizda qanday qiyin mavzuga daxl etganligimizni tushunib yetdik. Bu mavzu go‘yo o‘tib bo‘lmas qalin, yovvoyi changalzor. Ba’zi tarixchilar, yozuvchilar, jurnalistlar ushbu mavzuda qalam tebratishga chog‘lanib, changalzorga duch kelib, undan o‘tishga biror chora topa olmay, orqaga qaytib ketganlari bizga ma’lum bo‘lsada, qalb da’vati bilan bu mavzuga qo‘l urib, o‘zimiz ham ushbu changalzorga duch kelganda boshimiz juda qotib qoldi. Bunday changalzorlardan o‘tishning ikki yo‘li bor: biri — bolta va qilich bilan qurollanib, duch kelgan buta va daraxtni kesib, yo‘l ochib borish; ikkinchisi esa so‘qmoq qidirish. Bizga ana shu yo‘l ma’qul kurindi. Illo, so‘qmoq qaergadir olib boradi.

Shermuhammadbek mavzusining qiyinligi, murakkabligi, chigalligi shundan iboratki, avvalo, unga bo‘lgan munosabat qutbiydir.

Kurrai zaminda ikkita qutb bor: biri musbat, ikkinchisi manfiy. Kishilik jamiyati, ayniqsa, sovet xalqi har bir narsani ushbu ikki qarama-qarshi qutb tarozusida o‘lchashga o‘rganib qolgan. Bu ikki qutbning o‘z tunsi ham bor: musbat qutb oq rangda, manfiy qutb qora rangda ifodalanadi. Oraliq rang yo‘q.

O‘zbekistonda sovet davrida Shermuhammadbek siymosi tim qora rangda ifodalanib kelindi. Xorijda, ayniqsa, Turkiyada yaratilgan asarlarda esa bu siymo, bir-ikki muallifni hisobga olmaganda, qordek oppoq rangda ifodalanigan.

Shuningdek, Shermuhammadbek milliy-ozodlik harakatining eng sobitqadam namoyandalardan biri bo‘lishiga qaramay, ochig‘ini aytish kerak, xalqimizda uning siyosiga yaxshi munosabat shakllanmagan. Aksariyat odamlar bilan suhbatlashganingizda, Shermuhammad degan nomni tilga olsangiz, “Kim u?” — deb so‘rashadi. Agar Ko‘rshermat desangiz darhol tushunishadi.

Mavzu chigalligining yana bir jihat shundaki, Shermuhammadbek eng mashhur kishilardan bo‘lgani holda, uning kelib chiqishi, hayoti va faoliyati, ayniqsa, faoliyatining 1918 yilgacha bo‘lgan davri haqida ma’lumot nihoyatda kam, borlari ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Shermuhammadbek haqida asarlar yaratgan xorijiy mualliflar uning o‘zi va ukasi Nurmuhammadbekdan magnit tasmasiga yozib olingan ma’lumotlar va mazkur aka-ukalar tomonidan yozilgan kundalik daftarlarga suyanganlar. Ushbu asarlarning ayrimlari bilan tanishish bizga nasib etdi va biz bu asarlarga tanqidiy yondoshish zarurligini darhol his etdik.

Gap shundaki, mazkur asarlarning bosh qahramoni Shermuhammadbek bo‘lgani uchun mualliflar uning xizmatlarini bo‘rttirib yuborganlar, milliy-ozodlik harakatida qizillar ustidan qozonilgan har bir g‘alabani ham unga nisbat bergenlar, boshqa nomdor qurboshilar uning soyasida qolib ketganlar. Shuningdek, bu asarlarda Shermuhammadbekning kurashchi sifatidagi faoliyati kamida bir yil oldinga surib yuborilgan. Fikrimizcha, mazkur asarlarga asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan kundalik daftarlari xorijdagi tarixchilar va adiblar taklifi bilan XX asrning ikkinchi yarmida yozilgan. Aka-ukalar uni yozish asnosida bir-ikki yilga adashgan bo‘lishlari ehtimoldan uzoq emas. Bu manbalarga ishonilsa, Shermuhammadbek 1917 yildayoq milliy-ozodlik harakatining bayroqdori sifatida maydonga chiqadi. Vaholanki, asosiy manbalarning guvohlik berishicha, bayroqdarlik Shermuhammadbekka 1919—1920 yillarda, Madaminbekning tanazzuli boshlangan paytda nasib etgan.

... 1874 yil. Xo‘qand xonligida taxt uchun kurashning ayni qizigan pallasi. Xudoyorxonga qarshi kayfiyatda bo‘lgan guruhlar uni taxtdan ag‘darib, o‘rniga Xo‘qand xonlari sulolasidan bo‘lgan yuvosh, itoatkor biror xonzodani o‘tkazib, uning nomidan yurt so‘rash harakatiga tushadilar. Shunday guruhlardan biri Samarqandda mashhur hukmdor Sayyid Muhammad Olimxon (Xo‘qand taxtida 1798—1810 yillarda davr surgan) ning nabirasi, 1845 yilda qisqa muddat taxtda o‘tirish nasib etgan Murodxonning o‘g‘li Po‘latxon istiqomat qilib turganidan xabar topadilar va uni olib kelish uchun vakillar yuboradilar.

Biroq, tasavvuf yo‘liga kirgan, hokimiyat uchun qiziqmagan Po‘latxon rad javobini beradi. Vakillar u yerdan noumid bo‘lib qaytayotib, Toshkandga tushadilar va u yerda tashqi ko‘rinishi Po‘latxonga

o‘xshab ketadigan, asli Farg‘onaning O’xna qishlog‘idan bo‘lgan Ishoq degan bir nosfurushni uchratib, Farg‘onaga olib keladilar va uni Po‘latxon degan nom bilan oq kigizga o‘tkazadilar. Bundan xabar topgan Xudoyorxon unga qarshi ishonchli vazirlari Abdurahmon Oftobachi va Iso Avliyo boshchiligidagi qo‘sishin yuboradi. Otasi – Musulmonqulni qatl ettingani uchun ichida Xudoyorxoniga kek saqlab yurgan Abdurahmon Oftobachi soxta Po‘latxonga qo‘silib ketadi va Iso Avliyoniga ham qo‘silihiga majbur etadi. Abdurahmon Oftobachi qo‘sini tarkibida Marg‘ilonning Toshloq deparasidan bo‘lgan Qo‘shoqbek Panjaboshi (ellik kishidan iborat dasta boshlig‘i) ham xizmat qilar edi, u ichki kurashlar boshlanishi munosabati bilan poytaxtga, xon ixtiyoriga yuborilgan edi. Bir tomonidan taxt uchun kurash, ikkinchi tomonidan Rusiya istilochilariga qarshi kurash bilan band bo‘lgan Abdurahmon Oftobachi 1875 yilda o‘z ixtiyori bilan, ruslarga taslim bo‘ladi. Xonlik qo‘sib olingach, garchi Oftobachining o‘zi Rusiyaga surgun qilinsada, uning qo‘l ostidagi jangchilar jazoga tortilmay qoldilar. Qo‘shoqbek Panjaboshi harbiy xizmatdan bo‘shab, o‘z qishlog‘iga qaytdi va xizmati evaziga berilgan yerida dehqonchilik qilish bilan shug‘ullana boshladi. Birinchi xotinidan bir necha qiz, ikkinchi xotinidan esa besh nafar o‘g‘il farzand ko‘rdi. Ularga Toshmuhammadbek, Ro‘zimuhammadbek, Tojimuhammadbek, Shermuhammadbek va Nurmuhhammadbek deb ism berdi. To‘rtinchi o‘g‘il Shermuhammadbek 1892 yilda tavallud topdi. Aka-ukalar qishloq mакtabida o‘qib, bir oz xat-savod chiqargach, madrasa tahsilini ixtiyor etmadilar. Ikki katta o‘g‘il uncha-muncha dehqonchilik bilan shug‘ullansalarda, kichiklari bu ishga qayishmadilar. Ular yerga ursa ko‘kka sapchiydigan, sarguzashttalab, jangovar yigitlar bo‘lib yetishdilar. Ular o‘z atroflariga o‘zlariga o‘xshagan bir nechta yigitlarni to‘plab, karvonlarni, omborlarni, korxonalarini va boshqa mulk shakllarini qo‘riqlash, qozoq dashtlari va Qoshg‘ardan qo‘y olib keladigan katta savdogarlarning suruвларини беxatar olib kelish kabi yarim harbiy xizmatlarni qilib yurdilar.

XIX asrning oxirlariga kelib kurrai zaminning ovrupoliklar tomonidan kashf etilgan qismi – Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya yirik imperialistik davlatlar Buyuk Britaniya, Rossiya, Frantsiya tomonidan taqsimlanib bo‘lgan, ikkinchi darajali davlatlar: Germaniya, Italiya, Yaponiya bu taqsimotdan anchayin quruq qolgan edilar. Shuningdek, Ovruponing o‘zida bo‘lib o‘tgan urushlar oqibatida Germaniya, Italiya, Avstro-Vengriya hudud va huquq tomonidan qisib qo‘yilgan edi. Sanoati, iqtisodiyoti rivojlanish yo‘liga o‘tgan, biroq xomashyo bazalari va jahon bozoridan benasib qolgan bu alamzada davlatlar tarixiy haqiqatni tiklash, xomashyo bazalari va bozorlarni qayta taqsimlanishini talab qilib, urush chiqarish uchun bahona qidirib turardilar. 1914 yilga kelib shunday bahona ham topila qoldi: Avstro-Vengriya valiahdi shahzoda Frants Iosif Saraevo shahrida otib o‘ldirildi. Shundan so‘ng tarixda Birinchi jahon urushi deb nom olgan katta urush boshlanib ketdi. Buyuk Britaniya, Frantsiya, Rossiya bir tomon bo‘lib jang boshlab yubordilar.

Rus armiyasi jahonning eng qudratli armiyalaridan biri hisoblansada, bu urushda unga omad kulib boqmadi. Rossiya imperiyasi harbiy va iqtisodiy jihatdan urushga tayyor emasligi ravshan bo‘lib qoldi. Janglar Bolqon, Polsha hududlaridan tez orada Rossiya hududiga ko‘chdi, ya’ni Germaniya, Avstro-Vengriya va Italiya kuchlari Rossiya hududiga bostirib kirdi. Mamlakatning rusiy zabon aholisi yalpi tarzda armiyaga chaqirilib, front orqasidagi ishlar: front uchun zaruriy barcha narsani yetkazib berish, front ehtiyoji uchun daraxt kesish, yo‘llar, temiryo‘llar qurish, telegraf uzatmalarini o‘tkazish; shuningdek frontdagi ikkinchi darajali ishlar: o‘q-dori, oziq-ovqat, dori-darmon tashish, loshmonlik (murdalarni jang maydonlaridan olib chiqib dafn etish) kabi yumushlar uchun ishchi kuchi yetishmay qoldi.

Rossiya Markaziy Osiyon bosib olib, u yerda Turkiston General-gubernatorligini tashkil etgandan so‘ng, bu o‘lka aholisi ikkinchi darajali hisoblangani, shuningdek, mazlum mustamlaka aholisi qo‘liga quroq berishdan cho‘chib, o‘lka aholisidan mutazam armiyaga odam olmas edi. Biroq, do‘ppi tor kelib qolgach, general-gubernatorlik aholisini front orti hamda frontdagi ikkinchi darajali ishlarga jalb qilish haqida podshoh farmoni e‘lon qilindi. Ushbu farmonni bajarish nizomiga ko‘ra, bir necha xonadondan bittadan sog‘lom, front ishi uchun yaraydigan, o‘n to‘qqiz yoshdan qirq besh yoshgacha bo‘lgan erkak

front ishlariga olinadigan bo‘ldi. Mazkur nizomda shunday “engillik” berildiki, ro‘yxatga tushgan kishi o‘zi bormaydigan bo‘lsa, o‘z o‘rniga boshqa begona kishini mardikorlikka yollab jo‘natishi mumkin edi. Bu voqeanning “Mardikorlik voqeasi” deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan.

Safarbarlik dexqonchilik ishlari ayni qizigan payt—mayning oxiri, iyunning boshlariga to‘g‘ri kelib qoldi. Uzoq vaqtlardan beri hech qanday urush yoki boshqa ishlarga safarbar etilmay kelgan xalq uchun o‘z oilasidan bir kishini uzoq o‘lkalarga, o‘lim muqarrar bo‘lgan frontga, yoki qiyinchiligi darajasi bo‘yicha frontdan kam bo‘lman Sibir o‘rmonlariga daraxt kesish uchun yuborish og‘ir tuyuldi. Buning ustiga, mahalliy mutasaddi mahkamalarda safarbarlik bahona, tanish-bilishchilik, poraxo‘rlik holatlari boshlandi. Ya’ni uezd, volost idoralari xodimlari, amin va oqsoqollar o‘z tanish-bilishlarini, pora bergenlarni ro‘yxatga kiritmay, ularning o‘rniga oddiy fuqarolarni, xonadon tirikchilagini ko‘tarib turgan kishilarni yozib yubora boshladilar. Bu hol xalqning sabr-kosasini to‘ldirdi. Safarbarlikka qarshi norozilik harakati boshlanib, ko‘p joylarda qo‘zg‘olonga aylanib ketdi.

Shunday qo‘zg‘alonlardan biri Toshloqda bo‘lib o‘tdi. Atrof qishloqlar aholisi oqib kelib, volost boshqarmasi binosini o‘rab oldilar. Odamlar safarbarlik bekor qilinishini, ro‘yxatlar adolatsizlik asosida tuzilganligi uchun ularni yoqib yuborishni talab qilib chiqdilar. Volost boshlig‘i Abdurahmon Bo‘lis aholiga nasihat boshladi:

— Aziz fuqaro! O‘zingizni bosing, ko‘pga kelgan to‘y ekan, bu ham o‘tar-ketar. Bizga ham oson tutmang, biringiz ko‘zim bo‘lsangiz, biringiz qoshim. Qandoq qilayki, shu ro‘yxatni tuzishim kerak ekan. Xudo o‘z panohiga olsa, o‘g‘illaringiz, erlaringiz omon-eson qaytishar...

Odamlar uni ortiq so‘zlatgani qo‘ymadilar, har tomondan savol shaklidagi po‘pisalar, xitoblar, talablar yangradi:

- Nega pulga sotildingiz, bo‘lis?
- Nega ro‘yxatga falonchi boyning, amin-oqsoqollarining o‘g‘illari kirmay qolibdi?
- Olib chiq ro‘yxatni!
- Bizning bolalarimizga kuni qolgan oq poshshoning uyi kuysin!

Shu payt uezd hokimi ehtiyyot shart uchun yuborgan bir necha politsiyachi va mirshablardan iborat bir guruh yetib kelib qoldi. Mahalliy tilni biladigan politsiyachi xalqqa qarata do‘q urdi:

- Olomon, tarqal!
- Tarqalmaymiz, — deya yakdil javob berdi olomon,— ro‘yxat bekor bo‘lma guncha hech qayoqqa ketmaymiz!

Bir paranji yopingan ayol politsiyachining oldiga borib:

— Hoy o‘ris to‘ra, yaxshilikcha yakka-yolg‘izimni ro‘yxatdan o‘chirasammi? – deb do‘q qilgan bo‘ldi.

— Yo‘qol, sartning qanjig‘i! – deya politsiyachi ayolni miltiq qo‘ndog‘i bilan turtib yubordi. Bu turtki olomonning qo‘zg‘olishiga ham turtki bo‘ldi. Olomon ichidan 20—30 yosh-yalang otilib chiqib, politsiyaga hujum qildilar. Ular ichida Shermuhammadbek va uning aka-ukalari ham bor edi. Ular politsiyachi va mirshablarni urib yiqitdilar. Qo‘llaridagi miltiq, bellaridagi qilichlarini tortib oldilar. Qolgan ishni olomon saranjom qildi. Politsiyachilar va amaldorlarni do‘pposlab bir oz hovurdan tushgan olomon birin-ketin tarqalib ketdi. Shermuhammadbek aka-ukalari va bir qancha yigitlar bilan kaltak yeganlarni o‘rnidan turg‘azib, ust-boshini qoqib volost idorasiga olib kirdilar va ro‘yxatlarni berishni talab qildilar. Kuch ular tomondaligini bilib to‘rgan bo‘lis ro‘yxatlarni olib berdi. Shermuhammadbek ularga:

— Agar mana shu men bilan birga bo‘lgan yigitlardan birortasiga biror narsa bo‘lsa, senlardan ko‘ramiz— hammangni ichagingizga osamiz, — deb po‘pisa qilib ogohlantirib qo‘ydi va ro‘yxatni tashqariga olib chiqib, yoqib yubordi.

Garchi, birinchi kungi to‘polonda odam o‘lman bo‘lsada, viloyat harbiy gubernatori tomonidan jazo otryadi yuborildi. Jazo otryadi boshlig‘i bo‘lis va amaldorlardan kechagi to‘polon ishtirokchilarini ko‘rsatishni so‘radi. Ular, qasam va Shermuhammadbekning po‘pisasidan qo‘rqib, hech kimni aytib

bermadilar. Otryad boshlig‘i qishloqqa hujum boshladi, duch kelgan hovlidagi erkaklarni sudrab chiqib, bo‘lis idorasiga qamadi. Bu holni ko‘rgan qishloq va depara yigitlari duch kelgan narsa bilan qurollanib, jazo otryadi qarshisiga chiqdilar. Jang boshlandi. Shermuhammadbek va uning sheriklari kechagina tortib olingan miltiq va qilichlarni ishga soldilar. Biroq, yaxshi qurollangan, harbiy ta’lim ko‘rgan otryadga bas kelish qiyin edi. Oxir oqibat jazo otryadi qishloqqa o‘t qo‘yib, bir qancha odamni jangda o‘ldirib, bir qanchasini asir olib Skobelevga qaytib ketdi, o‘zi ham bir necha sallotini talafot berdi. Shermuhammadbek va uning sheriklari jang oxirlaganda qariyalarning buyrug‘i bilan G’orbuvu tomon chekinib, uning chakalakzorlaridan panoх topdilar.

Bir necha kun o‘tgach Shermuhammadbek aka-ukalari va bir necha sherigi bilan qishloq masjidi imomi va nufuzli kishilaridan fotiha olib, kurash yo‘liga kirdilar. Ular yonlariga yana bir necha bo‘z yigitlarni olib, Toshloqqa borib volost politsiyasining idorasiga to‘satdan hujum qildilar va qamoqqa olingan sheriklarini ozod qildilar. Qishloqqa yana jazo otryadi kelishining oldini olish maqsadida yigitlar ozod qilinganlar bilan birgalikda Yozyovonga chiqib ketdilar. Shu tariqa Shermuhammadbek 1916 yilda milliy-ozodlik harakati jabhasiga ilk qadamini tashladi. Mardikor olish voqeasi va uning oqibatlari yigitlarga katta maktab bo‘ldi. Ularda mustamlakachilarga qarshi nafrat hissi uyg‘ondi. Bu voqealar Shermuhammadbekning keyingi hayot yo‘lini belgilab berdi. U o‘zining oz miqdorli yigitlari bilan hukumat korxonalari, omborlari, harbiy postlariga hujumlar uyushtirib turdi. Bu hujumlar, avvalo, mustamlakachilardan qandaydir o‘ch olish vositasi bo‘lsa, ikkinchidan, talab ketilayotgan boyliklarning bir qismini bo‘lsada, xalffa qaytarish, uchinchidan esa, o‘zingizdan qolar gap yo‘q, qandaydir darajada tirikchilik manbai ham edi, zero, o‘z oilalari, qo‘lidagi yigitlarini ovqatlantirish, kiydirish, yigitlarning quroл-yarog‘ini ta’minalash kerak, axir, har doim boylardan kelgan yordam hisobiga yashab bo‘lmaydiku.

Turkiston bosib olingach, Farg‘ona vodiysi Rossiyaning asosiy paxta xomashyo bazasiga aylandi. Xom ashyoning katta bir qismi rus, yahudiy va mahalliy paxtafurush boylar tomonidan bevosita Rossiyaning sanoat mintaqalariga olib borib sotilar, yana bir qismi esa dehqonlardan, shirkatlar tomonidan yig‘ishtirib olinardi. Shirkatlarning faoliyati shunday ediki, erta bahorda shirkat paxtakor dehqonlar bilan shartnomalar tuzar edi. Bo‘nak naqd pul, ishlab chiqarish vositalari hamda bug‘doy, qand, gazlama kabi natura shaklida berilar edi. Hosil topshirilgach, shartnomma bo‘yicha to‘loving qolgan qismi berilardi. Hosil juda arzon baholanar, bu ta‘bir joiz bo‘lsa, kuppa-kunduzi qilingan qaroqchilikka o‘xshab ketar edi. Shunday bo‘lsada, dehqon bunga ko‘nishga majbur edi, zero, bahorda berilgan bu narsa bilan kuzga yetib olish, kuzda shartnomma bo‘yicha olingan mablag‘ esa qishni o‘tkazishga yarab turardi. Bu hol Shermuhammadbekka o‘xshab xalqni o‘ylaydigan yigitlarning hamiyatiga tegar, qandaydir chora ko‘rishga da‘vat etar edi. Ayniqsa, urush boshlanib, paxta xomashyosiga ehtiyoj kuchayib, jahon bozorida paxtaning narxi keskin oshib ketgan holda shirkatlar tomonidan narxlarning hamon past darajada to‘lanishi yigitlarning g‘azabini yanada oshirib yubordi. Shunday shirkatlardan biri G’orbuvodan o‘n besh chaqirim masofada joylashgan Akbarobod qasabasida edi. Shirkat ombori juda boy bo‘lib, unda toy-toy paxtalar, bug‘doy, qand-shakar, gazlama, kiyim-kechak, ro‘zg‘or buyumlari va turmush uchun yaroqli boshqa ashyolar saqlanardi...

1917 yil sentyabr oyi boshlari edi. Shermuhammadbek o‘z yigitlarini mozor xonaqohi yonidagi takyaga to‘pladi. Shu deparalik bir necha ahli ilm va oqsoqollarni ham taklif qildi. Jamoat jam bo‘lib, bir piyoladan choy ichilgach, Shermuhammadbek ahli ilmga murojaat qildi:

— Taqsirlar, domla pochchalar, biz o‘z vaqtida o‘qiy olmadik, madrasa tuprog‘ini yalay olmadik, shu tufayli ayrim ishlarimizni shariatga mos kelish-kelmasligini bilmaymiz, bu borada sizlarning fatvo va maslahatlariningizga doimo muhtojmiz. Shu xususda bir maslahatli ish chiqib qoldi, hammalarining yaxshi bilasiz, Akbarobodda o‘ruslarning paxta yig‘ib oladigan shirkati bor. Arzimagan haq evaziga dehqonning hosilini ko‘tarasiga olib, Rusiyaga olib ketadi. Men besh-oltita dehqonni u yerga yuborib, paxtaning xarid narxini oshirishni talab qilishlarini so‘radim. Ular shirkat idorasiga borib, shu talabni qo‘ydilar. Shirkat kattalari ularga shartnomani pesh qilib: “— Mana sizlar barmoq bosgan shartnomma.

Undan bir miri ham oshirmaymiz. Chidasangiz shu. Agar o‘zboshimchalik qilib hosilni topshirmsangiz, bahorda berilgan bo‘nakni ikki hissa qilib undirib olamiz” deyishibdi. Xo‘sh aytinzlarchi, biz borib dehqonlarning haqqini undirib bersak, agar ular yaxshilig‘cha bermasa, kuch ishlatib tortib olib bersak, shariatga to‘g‘ri keladimi?

Ahli ilm sukutga cho‘mdi. Ha, bek og‘ir masala qo‘ydi. Nihoyat, oqsoqollardan biri sukutni buzzdi:

— Bek, meni ma’zur tutasiz, nima bo‘lganda ham qanchadan-qancha dehqonlar qo‘l uchida bo‘lsa ham, shu shirkatdan olgan haqqi evaziga kun kechirib turibdi...

Yana bir oz sukutdan so‘ng, uch-turt yil burun madrasa tahsilini tugatib kelib masjidda imomga noiblik qilib turgan Jaloliddin Maxsum katta yoshli ulamolardan so‘zlashga ruxsat so‘raganday, ularning yuzlariga bir qarab oldi-da, so‘z boshladi:

— Har bir muslim va mo‘“minga ma’lumki, Allohning amrisiz daraxtdan bir barg uzilib tushmaydi. Alloh shu fikrni, ya’ni dehqonlarning haqqini olib berishni ko‘nglimizga solibdimi, demak bu Allohning amridir. Qur’oni karimda keladiki, asta’di billoh: — “Al ma’muru ma’zurun” ya’ni, buyurilgan odam uzrlikdir. Bir odam bir ishni yuqoridan, aytaylik, arshia’lidan berilgan buyruqqa ko‘ra qilayotgan bo‘lsa, uning ishi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, uzrlikdir.

Toshloqlik Zakariyo A’lam uni qo‘llab-quvvatladi:

— To‘g‘ri, har bir ish Allohning amri bilan bo‘ladi. Biroq, Alloh bandalariga amr bilan bir qatorda ixtiyor xam berib qo‘ygan. Qur’oni majidning yana bir joyida Alloh Subhona va taolo shunday vahiy beribdi, asta’di billoh: — “Yo Dovudu, inno ja’alnaka xalifatan fil-arzi, fahkum baynan-nosi bil-haqqi”. Ya’ni — kim, : — “Ey Dovud, biz seni yer yuziga xalifa qildik, endi sen odamlar orasida o‘zing bilib haq bilan hukm yurit.”

— Bu shirkatning qilib yurgan ishlaridan mening ham xabarim bor, — deya davom ettirdi qo‘shni qishloq imomi, — shirkatning mutasaddilari suv tekinga olinayotgan paxtaning orqasidan shu tariqa boyib ketdilarki, bosar-tusarlarini bilmay qoldilar. A’uzu billahi minashshaytonir rojim, bismillahir rohmanir rohiym: “Izo tovatara alo ahadikum an ni’amu fal-yabki alo nafsihi faqad salaka g‘ayra tariqis-solihin”, ya’ni: “agar birortangizga ne’matlar birma-bir kelaversa, bas, ul kishi o‘z holiga yig‘lasin, chunki u yaxshi odamlar yo‘lidan yurmayotgan ekan”. Demak, masala ravshan. Asta’di billoh: “Izo zaxara al-xaqqu lam yabqa maahu g‘ayruhu”. Ya’nikim: “Haqiqat ravshan bo‘lgan vaqtida boshqa narsalarga o‘rin qolmadi”.

Shermuhammadbek ahli ilmdan shu tariqa fotiha olgach, yaxshi tayyorgarlik ko‘rib, bir necha kundan so‘ng Akbaroboddagi shirkatga to‘satdan hujum qildi. Shirkat kattagina, yaxshi qurollangan otryad tomonidan qo‘riqlanardi. Hujum yarim tunda va to‘satdan bo‘lganligi uchun u yerdagi sallotlar esankirab qoldilar, zero, shirkat tashkil topgandan beri hech qanday kuch bu yerga hujum uyushtirmagan edi. Shermuhammadbekning yigitlari qora tunda shirkat binosini o‘rab oldi. Qorong‘uda bir-birlarini otib qo‘ymaslik uchun barcha yigitlar bilaklariga oq latta bog‘lab oldilar. Bir necha yigit bu yerga ikki-uch kundan beri dehqon qiyofasida kirib chiqib, jooning tuzilishini puxta o‘rgangan hamda bu yerdagi itlarga suyak berib, o‘zlariga royish qilib olgan edilar. O’sha yigitlar bir tugunchada itlarga yemish olib, shirkat binosining orqa tarafidagi pastroq devordan oshib tushdilar. Hididan tanigan itlar vovullamasdan ularning oldiga bordi. Ular tugunni yechib, itlarga nasibasini bergach, pisib borib, mudrab o‘tirgan darvozabonni tappa bosdilar. Og‘ziga latta tiqib, kamariga osilgan kalitni olib, darvozaning yog‘sirab qolgan oshi-moshiqlari “qiy-qiy” deya ovoz chiqarib, harbiy soqchilardan bir nechasini uyg‘otib yubordi.

Ular – Stoy, kto idiot? (To‘xta, kim kelyapti?)

— Stoy, strelyat budu (To‘xta, otib tashlayman) deganlaricha miltiqqa yopishdilar. Shermuhammadbek yigitlari ochilishga ulgurgan darvozadan qiyqirgancha otilib kirib keldilar. Ana shu qiyqiriq sallotlarni esankiratib quydi. Otishma boshlandi. Yigitlar tez harakat qilib, bir necha sallotni yer tishlatdilar. Qolgan sallotlar yarim chala kiyingancha kazarmadan chiqib kelayotganlarida asir olindilar. Yigitlar barcha sallotlarni kazarmaga qamab, eshikni qulflab qo‘ydilar. Shunda so‘ng

ombor hovlisida turgan bir necha Qo‘qonarava hamda o‘rislarning mujik aravasiga o‘lja olingen qurolyarog‘, oziq-ovqat mahsulotlari, gazlama va boshqa buyumlarni yuklab, G’orbuvoga qaytdilar. Shu deparadagi amin va oqsoqollarni chaqirtirib kelib, ularning boshchiligidagi o‘ljani depara qishloqlariga taqsimlab berdilar. Mahsulotlarning bir qismini va qurol yarog‘ni Shermuhammadbek o‘z yigitlari uchun olib qoldi.

Oziq-ovqat, gazlama va boshqa ro‘zg‘or uchun zaruriy buyumlarni aholiga tarqatish xalq sayiliga aylanib ketdi. Illo kechagi jang bu yaqin o‘rtada mustamlakachilar ustidan qozonilgan birinchi g‘alaba edi.

Shermuhammadbek sayil kayfiyatidan tezda chiqib oldi, zero oldinda katta xavf-xatar kutib turibdi. Hukumat bunday beboshlikni e’tiborsiz qoldirishi mumkin emas. Bugun bo‘lmasa ertaga jazo otryadi yetib keladi, shunga tayyor turish kerak. Jazo otryadi, tabiiyki, ishni Akbaroboddan boshlaydi, beboshlikni kim qilganligini aniqlaydi, shundan so‘nggina bu tomonga kelishi mumkin. Dushman bu yerga yetib kelishini kutmay, Akbarobod yaqinida tor-mor qilish kerak, yoki, uning yo‘lini boshqa bir usul bilan to‘sish kerak. Akbarobod yaqinida Vladikino temiryo‘l bekat joylashgan. Otryad o‘sha joygacha poezdda kelishi aniq. Demak, bekat va unga olib keladigan temiryo‘lni buzish kerak.

Ertasi Shermuhammadbek Vladikino temiryo‘l bekatiga kuppe-kunduzi to‘satdan hujum uyushtirdi. Bu yerda o‘ttitzacha sallot bor ekan. Ulardan o‘n beshtasi asir tushdi, qolganlari Akbarobodga qochdi. Shermuhammadbek bekatdagagi qurol-yaroqlarni o‘lja olib, temiryo‘lning bir qismini buzib bo‘lgach, yo‘l bo‘yiga pistirma qo‘yishni mo‘ljalladi. Biroq qattiq jala yog‘ib unga imkon bermadi. Shundan so‘ng o‘ljalarini olib, asirlarni ozod qo‘yib, G’orbuvoga qaytib ketdi.

Ikki-uch kun mobaynida rus ma’muriyatiga qarshi o‘tkazilgan, muvaffaqiyat qozongan bu ikki hujum rus harbiy ma’muriyatini hushyor torttirdi. Bunday beboshlikning oldi olinmasa, ular kengayib, mustamlaka tuzumiga qarshi urushga aylanib ketishi xech gap emas. Ertasi kuniyoq Skobelevdan G’orbuvo sari jazo otryadi yo‘lga chiqdi. Harbiy ma’murlar bu “beboshliklar” kimlar tomonidan amalga oshirilganligini aniqlab ulgurgan edilar.

Shermuhammad “mehmonlar” ni yaxshi kutib olish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rdi. Yigitlar ichida Bahrom Farang degan yigit bor edi. U bir necha yil Marg‘ilon va Skobelevdagi zavod-fabrikada o‘ris masterovoylar bilan ishlab, ulardan turli kasb-hunarlarini o‘rgangan, mardikorlikda ham bo‘lgan, bo‘sh vaqtida o‘zicha har xil narsalar ixtiro qilib yurar, shu hunarlarini, qo‘li gulligi tufayli “Farang” (evropalik) degan laqab orttirgan edi. Ayniqsa farangning tayyorgarligi zo‘r bo‘ldi. Temiryo‘l bekatidan G’orbuvoga olib keladigan yo‘l qabriston yonidan o‘tgan bo‘lib, Shermuhammadbek yigitlarini qurollantirib shu yerga joylashtirdi.

Jazo otryadi yaqin yetib keldi. Otryad razvedkasi oldinroq kelib Shermuhammadbekning yigitlari qabristonda joylashganligini aniqlab ketdi. Otryad boshlig‘i Poruchik Kravchenko otryadni qabriston sari boshlandi. Otishma boshlandi. Qulay pozitsiyaga: qamishlar va chakalak orasiga, chuqurliklarga, ariqlar ichiga o‘rnashib olgan yigitlar birin-ketin sallotlarni qulata boshladilar. Sallotlar bunga javoban ikkita pulemyotni ishga soldilar, jang qizib ketdi. Yigitlar qulay joyda bo‘lishganliklariga qaramay, yarim doira hosil qilib otayotgan ikki pulemyot dahanidan chiqqan daydi o‘qlar ularni qamishzor, chakalakzor ichida ham topib borib, bir qancha yigitlarni shahid qildi. Yigitlarning o‘q-dorilari tugab borardi, shu tufayli ular faqat mo‘ljalga olib, oz-oz ota boshladilar, buni sezgan poruchik “ura” deb hayqirganicha hujumga boshlandi. Shu payt qabrlardan oq sharpalar qalqib chiqa boshlandi. Sallotlar oldiniga jang qizig‘ida bunga uncha e’tibor bermadilar. Oq sharpalar harakatga kelgandagina sallotlarning ko‘zi ochilib vahimaga tushdilar, ko‘z oldilarida dahshatli hodisalar ro‘y bera boshlandi: qabrlardan kafanga chulg‘ongan arvoхlar chiqib, qo‘llarini oldinga cho‘zgancha, go‘yo duch kelgan odamni o‘z qulochlariga olmoqchi bo‘lib, sallotlar tomon havoda suzib kela boshladilar. Sallotlar ichida mujiklardan chiqqan irimchilari ko‘proq edi. Ular qo‘llaridagi qurollarini tashlab, — “Sgin privedenie, sgin v preispodnyu (yo‘qol arvoх, jahannamga daf bo‘l) degancha cho‘qina boshladilar. Irim-sirimga ishonmaydigan dovyurakroq ba’zi sallotlar o‘zlarini yo‘qotmay arvoхlar tomon miltiq va

pulemyotdan o‘t ochdilar. O‘t ochishga ochdilaru o‘zları ham dahshatga tushdilar — arvoхlar o‘qdan yiqilish o‘rniga og‘iz va ko‘zlaridan o‘t chaqnab, tutun purkay boshladilar. Poruchik va boshqa zabitlar har qancha do‘q po‘pisa qilmasin, sallotlar quollarini tashlagancha orqaga qarab qocha boshladilar. Shu qochishlaricha bekatga borib qoldilar.

Ertasi kuni mayitlarni yig‘ishtirib, dafн etib, sallotlar tashlab qochgan qurol-yaroqlar (shu jumladan, ikki pulemyot) va o‘q-dorilarni yig‘ishtirib olishgach, o‘z-o‘zidan tantana boshlanib ketdi. Tantana qahramoni, albatta, Bahrom Farang edi. Yigitlar kechagi jang oldidan Farang tomonidan ogohlantirib qo‘yilgan, Farang ularga — jang vaqtida nimaki ko‘rsangiz qo‘rqmang, vahimaga tushmang, hatto shayton yoki arvoх ko‘rsangiz ham, — degan edi. Shunda ham yigitlarning ko‘pchiligi qo‘rqib, “Lo havlo valo quvvato...” deb kalima o‘girishga tushgan edi. Endi o‘sha yigitlar va qishloqlar ahli kechagi voqealardan zavqlanib kulib, farangni gapga solishar, bu tomoshani qanday qo‘yanligini so‘rab surishtira boshladilar. Farang oldiniga bir oz tarang qilib turdi-da, yigitlar yalinishga o‘tgach, og‘zidagi nosni tuflab, mo‘ylovini burab so‘zga tushdi va:

— Jangdan bir kun oldingi maslahatda jang qabriston yaqinida bo‘lishini bilgach, kallamga bir fikr keldi. Fikrni kallamda pishirib olgach, bekning qarorgohiga kirib, so‘zlab berdim. Bek avval peshonasini tirishtirib, ro‘yxush bermaganday bo‘ldi. Asta chiqib ketdim. Yarim soat o‘tar-o‘tmas menga odam yuborib chaqirtirdi va fikrimni boshqatdan aytishni so‘radi. Aytdim. — Mayli, tayyorlanaver, ammo o‘zimizning yigitlarni oldindan ogohlantirib qo‘y, tag‘in sallotlardan oldinroq qo‘rqib qochib qolishmasin, — dedi. Shundan so‘ng besh-oltita chaqqon, qo‘lidan ish keladigan bolalardan yonimga olib, ish boshlab yubordim. Bekning ijozati bilan tunov kuni Shirkatdan olib kelingan o‘ljalar ichidan doka, chilvir, miltiq dori oldim, qishloqdan oshqovoq va uvada yig‘dirib keldim. Yigitlarga buyurib, tollardan yo‘g‘on-ingichka novdalar kestirdim. Novdalarni bir-biriga ko‘ndalang bog‘lab, odam shakliga keltirdim, chilvir vositasida ularga ikkitadan, chilvirni tortsa qimirlaydigan qo‘l qildim. Uni doka-kafanlik bilan o‘radim. Oshqovoqlarning uchini olib tashlab ichini o‘yib oldim. So‘ngra uvadani maydalab, miltiq dori qo‘shib, mijg‘ib aralashtirdim, uni oshqovoq — kalla ichiga bosib soldim va tayyor bo‘lgan kallani asosiy novda uchiga o‘rnatdim. Kechga tomon ularni qabristonga olib borib, yigitlarga bittadan tarqatdim. Yigitlar bu arvoхlarni ushlab, qabrлar orqasiga yashirinib, shay bo‘lib turdilar. Bekdan ishora bo‘lgan paytda o‘zim bitta arvoхni ko‘tarib, emaklab sallotlar tomon siljidim, emaklash asnosida chilvirni tortib, qo‘llarni harakatga keltirdim, boshqa yigitlar uchun bu ishora bo‘ldi va ular ham men kabi harakat qilib, dushman tomon asta-sekin siljib kela boshladilar. Sallotlarning ba’zilari arvoхlarga o‘t ochganlarida oshqovoqlar ichiga o‘q kirib miltiq dori aralashgan uvadalar yonib-tutay boshladi. Bo‘lgan ish shu, u yog‘ini o‘zlarigiz yaxshi bilasizlar, — deganicha yana nosqovog‘ini qo‘liga oldi.

Jazo otryadi shu qochganicha qaytib qorasini ko‘rsatmadи. Ba’zi yigitlar o‘zlaricha buni hukumatning qo‘rqib qolganidan deb bildilar. Biroq Shermuhammadbek katta to‘qnashuvlar bo‘lishini his etar va mudofaa choralariga kirishishi kerakligini fahmlab turardi. U yigitlarini ishga solib, depara aholisini hasharga chaqirib, tayyorgarlikni boshlab yubordi. Qishloq atrofini aylantirib choh qazdirdi, ba’zi joylarga chib (yog‘och va shox-shabbadan yasalib, yonib ketmasligi uchun loy bilan shuvalgan to‘siq) bostirdi. O‘q-dori saqlash uchun yerto‘la shaklida ombor qurilib, o‘q tekkanda yonib ketmasligi uchun ustiga tuproq tortib, suvab qo‘yildi. Yigitlar uchun yotoq uylar, otxonalar, hashakxonalar, oshxona va omborlar qurildi. Mardikorlikda bo‘lgan, jang ko‘rgan yigitlar boshqa yigitlarni qishloq atrofidagi yalangliklarga olib chiqib, harbiy mashq o‘tkazadigan bo‘ldilar. Umuman, G’orbuvo yirik bir harbiy istehkomga aylantirildi.

Erishilgan qator g‘alabalar haqidagi xabarlar atrof deparalarga yetib bordi. Atrofdan yigitlar kelib, o‘zlarini askarlikka qabul qilishlarini so‘ray boshladilar. Yangi yigitlar uchun qurol-yarog‘ topish kerak. Jazo otryadi qaytib qorasini ko‘rsatmay qo‘ygach, Shermuhammadbek ham hukumatga yana bir zarba berish, ham qurol-yarog‘, oziq-ovqat, o‘lja olish maqsadida Marg‘ilon va Skobelev oralig‘ida joylashgan Beglar (Ma’ruf qishloq degan nomi ham bor) degan joyga hujum qilish rejasini tuzdi. Bu

yerda rus boylariga qarashli ip-yigiruv fabrikasi,sovun zavodi va yog‘-moy zavodi mavjud bo‘lib, urush sharoiti bo‘lgani uchun bu korxonalar hukumat jandarmeriya qo‘shini tomonidan qo‘riqlanardi.

Shermuhammadbek yigitlari u yerga yarim kechada bostirib borishdi. Farg‘ona viloyatidagi eng yirik harbiy tayanch – Skobelev garnizoni bu yerdan atigi ikki chaqirimgina masofada joylashganligi uchun xotirjamlik hukm surar, birovning yurak dovlab bu tomonlarga hujum qilishi mumkinligi hech kimning xayoliga kelmagan. Shu tufayli fabrika-zavodlar soqchilar, hatto navbatda turganlari ham bemalol uyquni urib yotishardi. To‘satdan bo‘lgan hujum Shermuhammadbekning g‘alabasi bilan yakunlandi: g‘aflatda yotgan soqchilar tappa bosilib, qurolsizlantirildi. Faqat, kazarmada yotgan jandarm-soldatlar ichkaridan pulemyot va beshotar miltiqlardan o‘q uzib besh-oltita yigitni nobud qildi. Qurol-yarog‘lar yig‘ib olindi, fabrikalar omborlari ship-shiydon qilinib, G‘orbuvoga jo‘natildi.

Skobelevdagagi rus garnizonidan nimagadir darak bo‘lmadi, vaholanki o‘q ovozlari u yerga ham yetib borgan bo‘lishi kerak edi. Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, garnizonning asosiy kuchlari harbiy dala mashqlari uchun adirga chiqib ketgan ekan. Bu holatni Shermuhammadbek o‘z xufiyalari orqali oldindan bilgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas.

Shermuhammadbekning shu davrdagi, ya’ni o‘z faoliyatini boshlagandan to 1918 yil bahorigacha olib borgan kurashini tom ma’nodagi milliy-ozodlik kurashi deb baholanishiga hali erta edi. Uning bu kurashida, yuqorida bir oz eslatib o‘tilganidek o‘zgacha jangovarlik hissi, salohiyati, g‘ayratini qaergadir, nimagadir sarflash, rus ma’muriyatining qitig‘iga tegish, ya’ni, o‘t bilan o‘ynashishday sarguzasht hissi, jang-jadal orqali tirikchilik o‘tkazish hissi kuchliroq edi. Vatanni tom ma’noda ozod qilish hissi unda asta-sekinlik bilan shakllana boshladи. U siyosatga anchayin beparvoroq edi. Shu tufayli u oktyabr to‘ntarilishiga ham, Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati ta’sis etilishiga ham unchalik e’tibor bergani yo‘q. Keyinchalik muhojirlikda yashab yрганida bu boradagi fikrlari o‘zgargan: jurnalistlarga bergen intervyularida bu haqida shunday degan edi:

— Inqilob bo‘lgani bilan, muxtoriyat bo‘lgani bilan nima o‘zgarar edi? Har ikki holda ham baribir o‘risning qo‘l ostida qolaverar edik-da.

Shu tariqa 1918 yil bahorida Farg‘onada milliy-ozodlik harakatining yalpi kurashi boshlanguncha Shermuhammadbek mavjud tuzum, Rossiya hukmiga qarshi o‘z holicha, o‘z bilganicha kurashib yurdi.

IKKI QO’CHQOR

Muhtaram kitobxon sezib turgan bo‘lsa kerak, bu ikki qo‘chqordan biri Madaminbek, ikkinchisi Shermuhammadbek. Bu ikki ulug‘ zotni qo‘chqorga tenglaganimiz uchun avvalo ularning ruhlari oldida uzrlimiz.

Farg‘ona vodiysida bolshevism balosiga qarshi kurashgan milliy-ozodlik harakatining eng yirik ikki sardori – Muhammad Aminbek va Shermuhammadbekning o‘zaro munosabatlarni yoritish juda qiyin, nafaqat qiyin, balki mashaqqatdir. Yoritish dedik. “Yoritishdan oldin o‘zing bu muammoning tagiga yetdingmi, mohiyatini angladingmi?” deb so‘rang. Ushbu mavzuda olib borilayotgan ishning eng katta muammosi ham shu. Ushbu satrlarni yozish payti kelguncha ham bu muammoning mohiyatini to‘liq anglab yetdik, deya olmaymiz. Balki, ushbu asarimizni yoritish ishi shu paytgacha cho‘zilib ketayotganiga ham shu sababchi bo‘lsa kerak.

Ushbu mavzu bo‘yicha topib o‘qish nasib etgan barcha manbalarni qayta-qayta ko‘zdan kechirib, tahlil etar ekanmiz, bu ikki zotning o‘zaro munosabatlari nihoyatda chigal, muammolarga boy ekanligini ko‘ramiz. “Ular do‘st edi. Oxirigacha shu do‘stlikka sodiq qoldilar”, degan satrlar yozilgan manbalarni deyarli uchratmadik. Tahlil qilar ekanmiz, ba’zan kitobimiz so‘z boshisida keltirilgan bir necha jumla, ya’ni, otamizning xizmatchisi Xolmat Boboning og‘zidan eshitganimiz: Shermuhammadbekning Madaminbek haqidagi gaplariga ham ishongimiz kelmay qoladi.

Buning ustiga, ularning o‘zaro munosabatlarni yorita oladigan manbalarning o‘zi juda oz, borlari ham ularning yaxshi munosabatlari foydasiga emas. Bizning o‘lkalarda mavjud deyarli barcha

asarlarda bu ikki shaxs bir-biriga qarshi qo‘yiladi. Chet ellik tadqiqotchi va mualliflar esa ularning o‘zaro munosabatlariga dazmol urib, silliqlab ta’rif berishadi. Biz esa, barcha manbalarni qiyoslab, tahlil etib, o‘z talqinimizni yozaverayligu ular o‘rtasidagi munosabatni hal etishni eng oliv hakam — Allohga havola etaylik.

Yuqorida tasvirlaganimizdek, Madaminbek Qo‘qon voqealaridan so‘ng ozodlik kurashi yo‘liga kirib, Marg‘ilon militsiyasidagi lavozimidan voz kechib, o‘z qo‘l ostidagi yigitlar bilan Marg‘ilondon chiqib ketgan va o‘zi tug‘ilib o‘sigan Toshloq deparasidagi G’orbuvoga borib o‘rnashdi. G’orbuvoni Shermuhammadbek ham makon tutib, uni mustahkam harbiy istehkomga aylantirish uchun bir qancha ishlarni amalga oshirganligi kitobxonlar yodida bo‘lsa kerak.

Shermuhammadbek Madaminbekni hurmat va ehtirom, katta ziyofat bilan kutib oldi. Ular Toshloqdan G’orbuvoga kelaverishdagi yo‘l ustida uchrashdilar. Ikkalalari ham otdan tushib, bir-birlarining istiqbollariga piyoda yo‘l bosib kelib, quchoqlashib, uch marta ko‘krakni ko‘krakka bosib ko‘rishdilar. Bir-birlarining qo‘rboshi va ponsodlari bilan qo‘l berib ko‘rishgach, otlarga minib qishloqqa kirib borishdi. Hal qiluvchi suhbat ziyofat oxirida bo‘lib o‘tdi:

Madaminbek: — Hozir qancha yigitingiz bor, Bek?

Shermuhammadbek: — O‘zim bilan muntazam ellikta. Qolganlari o‘z tirikchiligi bilan band. Zarur vaqtida tez fursatda ularni to‘play olaman. Jami besh yuzdan oshadi.

M: — Ha, eshitganim bor, sizda intizom, tashkiliy ish juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu jihatdan muntazam qo‘shin darajasiga yetgansiz. Bu yerda barpo etgan mudofaa istehkomizingiz ham chakana emas. Harbiy ta’lim olgan qo‘mondondan kam emassiz.

Sh: — Ta’limni yaratganning o‘zidan oldik shekilli. Birinchi muallim hayot va zarurat deyishadi-ku.

M: — Xo‘sh, bek, endi nima qilamiz? Hammamiz Ergashbekka o‘xshab o‘z holimizcha kurashib yuraveramizmi? Yoki birlashamizmi?

Sh: — Albatta, birlashishimiz kerak. Yakka otning changi chiqmas.

M: — Juda soz. Sizdan xuddi shu so‘zlarni kutgan edim. Do‘st tanlashda adashmabman. Ana endi bitta ulug‘ karvon bo‘ldik. Agar yo‘q demasangiz, shu karvon tizginini o‘z qo‘lingizga olsangiz.

Sh: — Ehtiromingiz uchun qulluq, Bek. Tizgin sizniki, siz butun Farg‘onaga taniqli odamsiz. Undan tashqari sizda Sibir tajribasi, militsiya boshlig‘i tajribasi, katta janglar tajribasi bor.

M: — O‘zingizga ham qulluq, Bek. Modomiki shunday ekan, o‘zaro kelishib, vazifalarni bo‘lib olaylik. Siz mening birinchi muovinim bo‘lasiz. Vaqtি kelsa, sharoitga qarab, mustaqil ish yuritasiz. O‘z harakat hududingiz bo‘ladi.

Sh: — Ma’qul. U holda ish yuritadigan hududlar masalasini ham kelishib olsak.

M: — Chamamda tez orada butun Farg‘ona kurash jabhasiga aylanadi. Bachqirda bo‘lib o‘tgan qurultoydagi kelishuvga ko‘ra Qo‘qon muzofotida Ergashbek va uning qo‘l ostidagi qo‘rboshilar ish yuritadilar. Bu tomonlar bizniki. Harakatni bo‘shashtirmaslik uchun bir-birimizga posangi bo‘lib harakat qilamiz, ya’ni siz bir hududni olasiz, men bir hududni olaman. Zarurat tug‘ilib qolsa, bir-birimizga yordamga kelamiz, bolshavoylarning kattaroq qo‘shini bilan to‘qnash keladigan bo‘lsak, birgalikda harakat qilamiz. Men shimoliy va sharqiy muzofotlar: Namangan, Baliqchi, Andijon, Jalol-obod, O’shda harakat qilsam, siz Marg‘ilon, Chimyon, Vodil, Quva, Uchqo‘rg‘on, Shahrixon, Qizilqiya, Oloy kabi joylarni o‘z tasarrufingizga olsangiz. Men G’orbuvoga kelib-ketib tursam-da, ko‘proq Baliqchida, agar Alloh nasib etsa Namanganda bo‘laman. G’orbuvo ko‘proq sizning tasarrufingizda bo‘ladi. Ma’qulmi?

Sh: — Ma’qul.

Ular bu suhbatni alohida xonaga chiqib o‘tkazgan edilar. Kelishib olishgach, ziyofatdagi o‘z joylariga qaytdilar. Osh yeb bo‘lishgach, fotiha o‘qilmasdan oldin Madaminbek shunday dedi:

— Bek, avval bir-birimizni g‘oyibona bilar edik. Mana, Allohnинг inoyati bilan do‘stlashib, kelishib ham oldik. Agar muvofiq ko‘rsangiz, shu do‘stligimizni Qur’oni karim bilan mustahkamlab olsak.

— Ayni muddao bo‘lar edi.

Qo‘qondan, Miyon Qudrat hazratlari nomlaridan vakil bo‘lib kelgan Avliyoxon To‘ra Qur’oni Karimni olib, ikkala qo‘rboshi o‘rtalariga qo‘ydilar va: — Men aytgan so‘zlarni takrorlaysizlar,— deb buyurdilar:

Biz kim, Allohnning bandalari, Muhammad Mustafо Salollohi Alayhi Vasallamning ummatlari, Imom A’zam raziallohi anhuning qavmlari bo‘lmish Muhammadaminbek Ahmadbek o‘g‘li va Shermuhammadbek Qur’oni Karimni shafe keltirib ahdlashamiz shu mazmundakim, biz Allohnning karami va inoyati bilan bir umr bir-birimizga do‘st bo‘lib qolamiz. Barcha shaxsiy va umumiy ishlarni bir-birimiz bilan bamaslahat olib boramiz. Bir-birimizdan yordam qo‘lini ayamaymiz. Bir-birimizni aslo yomonlamaymiz, bir-birimizni doim himoya qilamiz. Bir-birimizga xiyonat qilmaymiz. Agar ahdimizni buzsak, Alloh – taoloning shafoatidan benasib bo‘laylik. Omin, Allohu akbar.

Ahd so‘zları aytildi, Avliyoxon To‘ra Qur’oni Karimni Muhammadaminbekka uzatdilar. U kitobni tavob qilib, ko‘ziga surtib, labiga bosdi va Shermuhammadbekka uzatdi. Shermuhammad ham shu tariqa tavob qildi. Shundan so‘ng qorilar tilovat qilib, Avliyoxon To‘ra fotiha o‘qigach, ziyofat ahli o‘rindan turib, joy-joyiga tarqaldi.

Madaminbek shu kech G’orbuvoda tunab qoldi. Ertasi kuni ikkala sardor G’orbuvoni yana bir aylanib, mudofaa istehkomlarini yana bir bor sinchiklab ko‘zdan kechirdilar. Uni yanada mustahkamlash, ayrim joylarini qaytadan qurish borasida maslahatlashib oldilar. Agar Alloh taolo qo‘llab-quvvatlab, vatanni o‘ris bolshevoylardan ozod etsalar, o‘zlarining asosiy tayanch nuqtalaridan bo‘lib qolajak G’orbuvoda qurilajak zamonaviy qal’a o‘rnini ham mo‘ljallab qo‘ydilar.

MAXFIY UCHRASHUV

Bu voqeani bizga otam rahmatlikning qadrdonlaridan biri, sobiq chekist so‘zlab bergen edi. Suhabatimiz sovet davrida bo‘lib o‘tganligi bois, suhabatdoshim bu voqeani ovoza qilmaslikka, ayniqsa, o‘zining nomini tilga olmaslikka bizdan qatiy va’da olgan edi. Hozir zamon boshqa bo‘lib, mazkur chekist olamdan o‘tib ketgan bo‘lsada, va’damizni buza olmadik va hikoyamiz bayonida uni shartli nom bilan Kimsanboy deb atadik.

...1919 yil bahori. Turkiston ASSR Sog‘lijni saqlash xalq komissari, Farg‘onada tinchlikni ta‘minlash bo‘yicha favqulodda komissiya a’zosi Turor Risqulov yana Farg‘onada paydo bo‘ldi. Chekaning Turkistondagi barcha bo‘limlariga shaxsan Dzerjinskiydan Turor Risqulovning har bir bosgan qadamini kuzatish haqida maxfiy buyruq kelgan edi.

TUROR RISQULOV SHAXSI XAQIDA

Turor Risqulov 1894 yil 14 dekabrda Verniy uezdi Sharqiy bo‘lisida ko‘chmanchi chorvador oilasida tug‘ildi. 1917 yilda bolsheviklar partiyasi a’zoligiga qabul qilindi. 1918 yil Avliyoota (Taroz) uezdi soveti raisligiga saylandi. 1918—1919 yillarda Turkiston ASSR sog‘lijni saqlash xalq komissari va Turkistonda ocharchilikka qarshi kurashuvchi Markaziy komissiya boshlig‘i. 1919 yilda Turkiston KP Musulmonlar byurosi raisi, Farg‘ona vodiysidagi vaziyatni o‘rganish va barqarorlashtirish favqulodda komissiya a’zosi. 1920 yilda Turkiston MIK raisi, RKP (b) 1-s’ezdi (1920 y.) delegati. 1921—1922 yillarda RSFSR Millatlar xalq komissarligi kollegiyasi a’zosi va xalq komissari o‘rinbosari, 1922—1924 yillarda Turkiston ASSR XKS raisi, RKP (b) M.K. O’rta Osiyo byurosi a’zosi. 1924—1925 yillarda Kominternda bo‘lim mudiri o‘rinbosari, Kominternning Mo‘g‘ulistonndagi vakili. 1926—1937 yillarda RSFSR XKS raisi o‘rinbosari. O’rta Osiyon Rossiyanidan ajratib, mustaqil turkiy davlat tuzish yulida jonbozlik ko‘rsatgan eng sobit qadam arboblaridan biri T.Risqulov 1937 yil 21 mayda Moskvada hibsga olinib, 1938 yil 8 fevralda otuvga hukm qilinib, ikki kundan keyin otib tashlangan. (1956 yil 8 dekabrda reabilitatsiya qilingan).

Turor Risqulov qaysi lavozimda ishlagan bo‘lsada, har doim O’rta Osiyo xalqlari manfaati yo‘lida

xizmat qildi. Uning “Inqilob va Turkistonning tub aholisi” kitobi bugungi kunda ham juda nodir asar hisoblanadi.

...Risqulovni Farg‘onada kuzatib yurish Kimsanboy va uning odamlariga topshiriladi. Kimsanboy, ta‘bir joiz bo‘lsa, Risqulovning soyasiga aylanib, har bir bosgan qadamini nazoratsiz qoldirmaydi.

Risqulov Qo‘qonda taftish olib borayotgan paytda taftish bahonasida vodiyning obro‘li kishilaridan biri, Rishtonning sobiq mingboshisi Shokir Noibni so‘roqqa chaqiradi. Komissiya sobiq paxtachi boy Vad‘yaevning xususiy uyi, hozirgi hokimiyat joylashgan binoning bir qanotida ish olib borar edi. Shokir Noib kelgach, Risqulov kotibni choy damlab kelishga buyurib, deraza va eshiklarni mahkamlab yopib, Shokir Noib bilan qaytadan ko‘rishdi. Komissiyaning yaqin bir yillik faoliyati mobaynida ular ko‘p marta uchrashib, bir-birlarini yaxshi bilib olgan va qadron bo‘lib qolgan edilar. Ko‘rishib bo‘lgach, Risqulov vaqtini g‘animat bilib (kotib choy damlab kelib qolishi mumkin edi), kirish so‘zisiz muddaoga ko‘chdi:

— Taqsir, men muhim bir masala yuzasidan Madaminbek bilan so‘zlashib olishim kerak, bu uchrashuv, albatta, o‘ta maxfiy holda o‘tishi shart. Buning iloji bormi?

— Bu juda qiyin ish.

— Masala vatanimizning hayot-mamoti bilan bog‘liq.

— Ya’ni?

— Ya’ni, kurashni hamkorlikda olib borish masalasini hal etishimiz kerak.

— Oldindan biror va’da bera olmayman. Bek sizga ishonmasligi mumkin.

— Tushunaman. Mana, siz bilan yaqin bir yildan beri tanishmiz. Mening kim ekanligimni yaxshi bilib oldingiz, nazarimda. Bekka meni o‘zingiz qay darajada bilsangiz, shu darajada ta’riflab ko‘ring.

— Mayli, aytib ko‘raman.

— Unda, bekning rozi yoki rozi emasligini menga qanday yo‘l bilan bildirasiz?

— Xo‘sh, buning uchun bir oz vaqt kerak bo‘ladi. Bugun dushanba bo‘lsa, yanagi dushanbadan shanbagacha kutasiz. Shu kunlar ichida sizga bir yigit ariza olib kelib, “Meni Shokir Noibdan himoya qiling” deydi. Bu rozilik alomati bo‘ladi. Yigitga bir so‘z aytmay chiqarib yuborasiz va meni yana so‘roqqa chaqirasiz.

— Ma’qul.

Shu so‘zini aytib, Risqulov eshik va derazalarni ochib yuborishi bilan kotib choy ko‘tarib kirdi. Kotibni choy bahonasida chiqarib yuborib, eshik-derazalarni berkitgan Risqulov bu xona ostida yerto‘la borligi, yerto‘lada chekist Kimsanboy o‘tirganini xayoliga ham keltirgan emas edi.

Shartlashganday yigit kelib ketgach, Risqulov yana Shokir Noibni so‘roqqa chaqirdi. Yana kotibga choy buyurib, noibga savol nazari bilan qaradi. Noib ham vaqtini g‘animat bilib, gapning po‘stklassini aytди:

— Favqulodda komissiya a’zosidek katta bir odam uch-to‘rt soat ko‘rinmay qolsa, sovetlar shuhaga tushmaydimi?

— Savolningizni tushundim. Komissiyada menga sodiq, ishonchli ikkita-uchta yigit bor. Ularni olib, biror voqeani joyida taftish qilish bahonasida bir kun sovetlar diqqat e’tiboridan holi bo‘lishim mumkin.

— Unday bo‘lsa, payshanba kuni Oltiariqqa borasiz. Oltiariq soveti binosi qarshisidagi choyxona oldida baqqolning do‘koni bor. Do‘kon oldida odam yo‘q paytini poylab, baqqoldan popiris olasiz va:

— “Popirisning pulini Madaminbek to‘laydi”, deb aytasiz. Shundan so‘ng nima qilish, qachon qaerga borishni baqqol aytadi...

Risqulov Shokir Noibni xonadan kuzatib qo‘ygach, yerto‘lada o‘tirgan Kimsanboy o‘yga toldi. Nima qilish kerak? U chekada xizmat qilib kelgan bir yil mobaynida bolsheviklarning haqiqiy qiyofasini bor bo‘yi bilan ko‘rib, kirdikorlarini bilib bo‘lgan edi, zero, tuzumning eng qora qilmishlari cheka boshchiligi va ishtirokida amalga oshar edi. Cheka xizmatidan o‘lib yoki yuqorining tavsiyasi bilan partiya ishiga o‘tib qutulmasa, osonlikcha chiqib ketib bo‘lmash edi (keyinchalik juda shishib

ketgan maxfiy xizmat apparati tinchlik o‘rnatalishi munosabati bilan bir oz qisqartirilib, xodimlarning bir qismi xo‘jalik sohasiga o‘tkazildi. Kimsanboy ham bir shahar kommunal xizmati boshliqligiga tayinlanib, shu bahona cheka changalidan chiqib ketdi) yuqoridagi sabablar tufayli sovetlardan sovib, milliy-ozodlik harakatiga ichidan xayrixoh bo‘lib yurgan Kimsanboy bu bo‘lib o‘tgan uchrashuv va undan keyin yuz beradigan voqealarni boshliqlarga bildirmaslikka ahd qildi. Biroq xizmat vazifasini o‘tash asnosida Risqulovni kuzatishni davom ettirish shart.

Alqissa, Risqulov Oltiariqqa borib, baqqolga shartlashilgan so‘zlarni aytdi. Baqqol unga boshdan-oyoq, nazar solib chiqqach, so‘radi:

— Qirg‘izcha kiyimingiz bormi?

— Bor.

— Shomdan keyin qirg‘izcha kiyinib, mana shu choxonaga kiring. Choyxonachiga bang (nasha va ko‘knoridan tayyorlangan kayf qiluvchi modda) buyurib, to‘g‘ridagi hujraga kirib ketavering...

Risqulov orqasiga qaytgach, baqqol do‘konning pardasini tushirib, choxonaga kirib ketdi. Shu zahoti choxonadan bir yigit ko‘chaga burildi. Do‘kon yonida bir arava turgan edi. Yigitning ishorasi bilan arava joyidan qo‘zg‘aldi. Arava to‘xtagach, unga ortilgan beda g‘arami ichidan bir yigit chiqib, choxonona atrofini aylanib chiqdi. Ko‘chani aylanib o‘tib, choxonaning orqa tomonini topdi va orqa eshik bor ekanligiga ishonch hosil qilib, xotirjam bo‘ldi.

Shomdan so‘ng Risqulov choxonaga kirdi. Uni hujraga olib kirdilar. Hujrada o‘tirgan yigit orqa eshikni ochdi. Tashqarida bir otliq yigit ikki otning jilovini ushlab turar edi. Havoni bulut bosgan, ko‘chalar tim qorong‘u, ikki qadam naridagi narsani ko‘rib bo‘lmaydi. Yigitlar bir necha ko‘chani aylanib, Risqulovni bir hovliga olib kirib ketdilar. Ulardan yigirma-o‘ttiz qadam orqada kelayotgan ikki otliqdan biri ot ustidan o‘zini boyagi hovli uylaridan birining tomiga oldi va atrofga alanglab, mo‘ri yoniga bordi.

Hovliga kirkach, yigitlar Risqulovning yon-verini tintib, qurol yo‘qligiga ishonch hosil qilishgach, darvozaxona biqinidagi mehmonxonaga olib kirdilar. Xona to‘rida Madaminbek choy ichib o‘tirar edi.

— Assalomu alaykum.

— Va alaykum assalom.

— Uchrashuvga rozi bo‘lganingizdan xursandman.

— Sizdan boshqa arbob yoki o‘ruslar taklif etganda aslo rozi bo‘lmas edim. Xo‘sh, bizda nima gapingiz bor?

— Siz aqlli odamsiz, shuning uchun gapni aylantirib o‘tirmay, po‘stkallasini aytib qo‘yaqolay. Men yaqinda Moskvada bo‘ldim, Lenin bilan uchrashdim. O‘rtamizda shunday gap bo‘ldi:

— Vladimir Illich, bizga muxtoriyat bering.

— Turkiston shundoq ham muxtoriyatli respublika-ku, sizga yana qanday muxtoriyat kerak?

— Haqiqiy muxtoriyat, Vladimir Illich, haqiqiy muxtoriyat.

— Nima, u haqiqiy emas deb o‘ylaysizmi?

— Men o‘ylasam-o‘ylamasam, haqiqiy emas. Axir boshqaruv mahkamasi to‘qson foiz mahalliy bo‘limgan millatlar vakillaridan iborat bo‘lgan muxtoriyatni muxtoriyat deb bo‘ladimi?

— Hm... aytganday, o‘tgan yili Kobozev Toshkentga borib, bu masalani hal qilib kelgan ediku.

— Kobozev borganda boshqaruv yuz foiz mahalliy bo‘limgan millatlar qo‘lida edi. O‘zgarish atigi o‘n foiz bo‘ldi, xolos.

— Xo‘sh, yana qaysi jihat bilan haqiqiy emas?

— O’sha boshqaruv apparati harbiy kuch yordamida xalqni ezib turibdi. Ko‘p qon to‘kilmoqda.

— Qon to‘kilishga o‘zingizdan chiqqan, nima deb atalardi, ha, bosmachilar aybdor emasmi?

— Vladimir Illich, ular bosmachi emas, ular o‘z milliy-diniy huquqlarini talab qilib chiqqan kishilardir.

— Turor Risqulovich, chamamda o‘zingiz ham chakana millatchiga o‘xshamaysiz, hazil, hazil. Gap bunday. Kuni kecha Kuybishev bilan gaplashdim. Turkistonda vaziyat jiddiy. Iloji boricha tinchlik,

osoyishtalik o‘rnatmasak bo‘lmaydi. U yerda tinchlik o‘rnatilmas ekan, haqiqiy muxtoriyat haqida o‘ylashga vaqt erta. Sizlar u yerda tinchlik o‘rnatilishiga erishing. Shundan so‘ng Turkiston masalasini sovetlarning navbatdagi s‘ezdi kun tartibiga kiritaylik. O‘ylaymanki, tinchlik o‘rnatilar ekan, Turkistonga katta huquqlar bilan muxtoriyat berilmasligiga bizda hech qanday asos yo‘q.

— Lenin bilan o‘rtamizda ana shunday gaplar bo‘lib o‘tdi, — deb so‘zini yakunladi Risqulov, nima bo‘lganda ham xalq qonining to‘kilishiga chek qo‘yishimiz kerak.

— Men o‘sha Leniningizga ishonqiramay turibman.

— Men ham juda ishonib yuborganim yo‘q. Har holda, tinchlik o‘rnatilsa, xalqqa yaxshi emasmi?

— Har bir xalqqa o‘z huquqini o‘zi belgilash va‘dasini berib turib, Qo‘tonni qonga botirmaganda, balki unga ishonib, qurolni tashlash haqida o‘ylashimiz mumkin edi.

— Ha, mening ham ishonqiramay qolganimga ayni Qo‘qon voqeasi sabab bo‘ldi. Lekin shuni ham aytish kerakki, Qo‘qonda qon to‘kilishiga, bir tomondan muxtoriyat hukumatining xatosi ham sababchi. Agar, ular qal’aga hujum uyushtirmaganlarida, qizillar qon to‘kish uchun sabab topa olmagan bo‘lar edilar.

— Xo‘sh, ular bizni nima qilsa-qilaversinu biz qarab o‘tiraverishimiz kerakmi?

— Hozir vaziyat bir oz o‘zgarganini nahotki sezmayotgan bo‘lsangiz? Olib borilgan taftishlar asosida xalqqa jabr-zulm qilgan rahbar, xodim va harbiylar ishdan olindi, hukumat xalqqa, ayniqsa, dehqonlarga yordam bermoqda. Xalq keyingi vaqtda sovetlarga bir oz ilidi. Shu ketishda ketsa, asosiy tayanchingizdan ayrilib qolishingiz hech gap emas.

— Kurashni boshlab qo‘ydik, orqaga yo‘l yo‘q endi.

— Yo‘l bor. Agar astoydil xohlansa, yo‘l topiladi. Vaziyatni to‘g‘ri tushuning, bek. Sovetlarda kuch ko‘p. Shu kunlarda Frunze Orenburgda Dutovga qarshi hujum boshladi. Orenburg yo‘li ochilib qolsa, ularga harbiy kuch, qurol-yarog‘, o‘q-dori oqib kelishini ko‘ring. Qirilib ketish hech gap emas. Kuchimizni, xalqimizni asrashimiz kerak. Tinch yo‘l bilan, bir amallab haqiqiy muxtoriyatga chiqib olaylik. Kuch yig‘aylik, yigitlarimizni harbiy ishga o‘rgataylik. Ana shundan keyin mustaqillik uchun harakat boshlashimiz mumkin bo‘lar. O‘sma kunlarda yigitlarimiz kerak bo‘ladi.

— Xo‘sh, urushni to‘xtatishning yo‘li qanday bo‘ladi?

— Suh, faqat suh. Hozirgi sharoitda, sovetlarning kuchi ozroq paytda suh tuzilsa, biz uchun foydali shartlarni qo‘yishimiz mumkin. Orenburg yo‘li ochilib, sovetlarga Rossiyadan katta madad kelgach, suh shartlari ruslar foydasiga o‘zgarishi mumkin.

— Meni-ku, bir amallab ko‘ndirishingiz mumkindir. Biroq boshqa qo‘rboshilarni ko‘ndirish qiyin, ba‘zilarini mutlaqo ko‘ndirib bo‘lmaydi.

— Siz boshlab beravering, axir bu kurashda eng asosiy sardor o‘zingiz-ku, ishonamanki, hammasi bo‘imasada, ko‘pchilik qo‘rboshilar sizdan o‘rnak oladilar.

— Hozircha bir narsa deya olmayman. Yaxshilab o‘ylab ko‘rish kerak...

Shundoq ham oxirlab qolgan suhbat shu yerga yetganda bulutlar tarqalib, to‘lin oy qalqib chiqdi. Bundan xavotir olgan Kimsanboy noiloj tomdan tushishga majbur bo‘ldi...

Madaminbek va Risqulov o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan suhbat milliy-ozodlik harakati kuchlarining qo‘li baland kelib turgan paytda ro‘y bergen edi. Shu boisdan Madaminbek suh borasida qo‘rboshilarning fikrini bilishga urinib ham ko‘rmadi. O‘zi ham suh tuzish fikridan juda yiroq edi. Faqat, to‘kilayotgan qon uni bezovta qilar, vijdonini azobga solar, hatto tushlarida ham qon to‘kishlar sahnasi o‘ynalar edi.

AJDODLAR RUHI MADADKOR

Roviyalar andoq rivoyat qiladilarki, qadim o‘tgan zamonda, bundan bir necha ming yil ilgari gullab-yashnagan bir vodiyya bir qabila umrguzaronlik qilar edi. Qabila erkaklari chorvadorlik bilan shug‘ullanar, temir eritishar va undan turli buyumlar yasashar, xotinlari esa ekin ekishar, namat bosishar, gilam to‘qishar, umuman barchasi mehnat qilib, mehnatning rohatini ko‘rishar edi. Kunlardan

birida yarim yovvoyi sahroyi xalqlardan birining bir nechta odami yo‘qolgan yilqi uyurini izlay-izlay vodiya kelib qoladilar. Vodiyiliklar ularni mehmon qilib, kuzatib qo‘yadilar. Sahroyilar o‘z qo‘sh (vaqtincha yashaydigan joy) lariga kelib, vodiyni bosib olish, u yerni doimiy yaylovga aylantirish, erkaklarini qirib tashlab, xotin va qizlarini o‘zlariga xotin qilish fikriga tushadilar va katta kuch bilan vodiya bostirib keladilar.

Vodiyiliklar mardona jang qiladilar. Janglarda nafaqat jangchilar, balki qabila yoppasiga ishtirok etadi. Umrlarida urush ko‘rmagan vodiyiliklar yarim yovvoyi, beshikdag'i bolasidan tishi tushgan choligacha jangchi bo‘lgan sahroyilarga bas kela olarmidi? Xotinlar tirik qo‘lga tushmaslik uchun jon-jahdlari bilan jang qildilar. Jangda barcha vodiyiliklar halok bo‘ldilar. Kechasi jang maydoniga bo‘rilar kirib keldilar. Mag‘rur, haromdan hazar qiladigan bo‘rilar o‘liklarga qiyo boqmay, jang paytida egasiz qolib, u yoqdan bu yoqqa chopib yurgan otlarni ov qildilar. Ashina nomli ona bo‘ri bir otni ta’qib qilib kelayotgan edi, o‘liklar orasidan qimirlagan bir kishini ko‘rib qoldi. Bu og‘ir yarador bo‘lgan norg‘ul bir yigit edi. Ashina uning kiyimidan tishlab sudraganicha yo‘lga tushdi. Uzoq yo‘l bosib, bir g‘orga yetib bordi. Yigitni g‘orga olib kirdi. Uning jarohatlarini tili bilan yalab, tozaladi, g‘or devorlarida qotib qolgan mumiyoni kemirib olib kelib, jarohatiga bosdi, toshbaqanining kosasida suv olib kelib ichirdi, xullas, parvarish qilib, yigitni oyoqqa turg‘azdi. Ashina yana bir yaralangan jangchi ayolni topib keldi. Uni ham davoladi. Ayol Turk Urfa avlodidan bo‘lib Shahzoda Antinning qizi ekanligini, bu sahroyilar urushda Urfa shohini mag‘lubiyatga uchratib bu qizni olib kelgan, ammo sahroyilarning lashkarboshisi bu ajoyib so‘lim mamlakatni mag‘lub etgandan keyin bu qizga uylanishga o‘zi ahd qilgan, ammo taqdir taqozosi bilan uning hozirgidek qonga belanib qolgani, bu kimlar tomonidan sodir etilgani faqat Allohga ayondir.

Xullas, har ikkisida o‘zaro mehr uyg‘ondi. Yillar o‘tdi, ulardan to‘qqiz nafar o‘g‘il farzand tug‘ildi. Yigit ulardan biriga ona bo‘ri hurmati yuzasidan Ashin deb ism quydi. Yigit oilasi va ona bo‘ri vafot etgach, voyaga yetgan mazkur to‘qqiz farzand turli tomonlarga tarqalib ketdilar. Ular har biri biror qabilaga borib, istiqomat qilib, qabila boshliqlari qizlariga uylandilar. Ulardan tarqalgan avlodni umumiy nom bilan “turk” deb, har qaysi farzanddan tarqalgan urug‘ni esa o‘sha farzand nomi bilan atadilar. Shu tariqa, Ashin nomli farzanddan tarqalgan urug‘ Ashin urug‘i deb nom oldi. Urug‘ a‘zolariga yangi tug‘ilgan paytda turli ismlar qo‘yilsada, urug‘ boshlig‘ida, albatta, Ashin degan ot qo‘yilar edi. Ha, Ashina bo‘rining odam bolalariga mehr ko‘rsatib o‘limdan olib qolganligi butun bo‘rilar sulolasiga voqif bo‘ladi. Bu avlodlar ham bo‘rilarga keyinchalik yaxshilik qiladilar.

Afsonadan haqiqatga o‘tadigan bo‘lsak, turkiy xalqlar ichida Ashin urug‘i mavjud bo‘lgan. Turkiy xalqlar tarixiga bag‘ishlangan barcha manbalarda bu urug‘ eslatib o‘tiladi. Milodiy eranining IV—V asrlarida bu katta urug‘ning bir aymog‘i Farg‘ona vodiyisiga kelib o‘rnashib qoladi va IV—VII asrlarga kelib bu yerda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Manbalarning xabar berishicha, VI asr oxirida Farg‘ona hukmdori bo‘lgan Ashin chinliklar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgach, uning o‘rniga qizi Ashina Shuniy o‘tiradi. Bu oqila, go‘zal, jangovar ayol shu qadar mahorat bilan yurt so‘rab, shunday jasoratlar ko‘rsatadiki, Chin imperatori u bilan hisoblashishga majbur bo‘lib qoladi, sulk tuzadi va bu ayolga chinakam hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Davrlar o‘tishi bilan, o‘zbek xalqining shakllanishi jarayonida ashin urug‘i ham singib ketadi.

1919 yilni ko‘rgan mo‘ysafidlar afsonaga o‘xshab ketadigan bir voqeani so‘zlab berishgan. Bu voqeal shunday dong taratganki, tog‘lar va vodiyilar oshib, turkiy xalqlar yashaydigan barcha joylarga tarqalgan. Hatto usmonli turk adiblari ham bu voqeani o‘z asarlariga kiritganlar.

1919 yilga kelib, aholisining katta qismi turkiylar bo‘lgan Farg‘ona vodiyisi xalqi bosqinchilarga qarshi milliy-ozodlik janggi olib borayotgan bir paytda, ashinlarning ona avlodi bo‘lmish bo‘rilar, go‘yo ona bo‘ri Ashina ruhining chaqirig‘iga binoan o‘zlarining uzoq tutingan avlodlariga madadga keladilar: vodiyining tog‘li yerlarida yashaydigan bo‘rilar qizil askarlar kazarmalariga va rus mujiklar yashaydigan qishloqlarga gala-gala bo‘lib hujum qiladilar. Kimningdir otini, kimningdir chorvasini bo‘g‘zidan oladilar. Bu voqealning hayratlanarli jihat shuki, bo‘rilar o‘sha atrofda istiqomat qilib

turgan turkiy xalqlarga zarar yetkazmaydilar.

Bu voqeani shunday izohlash ham mumkin: ma’lumki, ruslar, ayniqsa askar va zabitlar ovga ishqiboz xalq. Ular hojat bo‘lsa-bo‘lmasa ov qilaverib, hududdagi, yovvoyi jonzotlarga qirg‘in keltirganlar, ya’ni, bo‘rilarning rizq nasibasini qirqqanlar. Oqibatda och bo‘rilar ularning o‘zlariga va chorvalariga hujum qilishni boshlaganlar. Shunday bo‘lsada, turkiy aholining bu hujumdan chetda qolishi yana ajdodlar ruhi madadga kelganligi haqidagi fikrga undaydi.

XOLXO‘JA ESHON PARVOZI

Xolxo‘ja Eshon ham Ergashbek va Madaminbekka o‘xshab Sibirda ruslarning jabr zulmini, chamamizda, ulardan ham ko‘proq tortganlardan edi, zero, uning ruslarga nafrati o‘la-o‘lguncha kuchaysa-kuchaydiki, susaymadi. Uning uchun barcha ruslar: ular xoh jandarm bo‘lsin, xoh Sibirda unga azob bergen jinoyatchilar bo‘lsin, xoh marja (o‘sha paytlarda bizda rus ayollarini shunday atashar edilar) bo‘lsin, xoh oddiy mujik bo‘lsin, xoh bolshevik bo‘lsin, barobar edi. Shu tufayli uning janglari ko‘proq aholisi ruslardan iborat hududlarda bo‘lib o‘tdi. Xolxo‘ja Eshon faoliyat ko‘rsatayotgan, hozirgi paytda Janubiy Qirg‘iziston deb atalayotgan hududda, xususan Jalolobod, Moylisuv, Ko‘kyong‘oq, Qurshobda rus aholisi istiqomat qiladigan katta-katta qishloqlar, qo‘rg‘on (posyolka)lar bor edi. Jalolobod shahrining esa aksariyat aholisi ruslardan iborat bo‘lgan. Jalolobod va uning atrofidagi ruslar yaxshi uyushgan jamoalar bo‘lib, ularning hatto o‘z armiyasi (o‘zini-o‘zi himoya qilish dastalari) ham mavjud bo‘lgan. Jalolobodlik ruslar mahalliy aholi bilan ancha yaqin, Mingtepadagiga o‘xshab mahalliy aholiga unchalik jabr o‘tkazmasalarda, Xolxo‘ja Eshon uchun ular baribir “o‘ris kofir” hisoblanardi. Shu boisdan, 1919 yil bahori va yozida qo‘rboshilarning birlashgan kuchlari O’sh, Jalolobodga hujum qilganlarida eng jonbozlik ko‘rsatgan qism Xolxo‘ja Eshon qo‘shini bo‘ldi.

Yigitlari ko‘paya borib, 1919 yilga kelganda 3000 nafarga yetdi va vodiya Ergashbekni hisobga olmaganda, kuch jihatidan uchinchi yirik harbiy tashkilotga aylandi. Jalolobodning So‘zoq, Xonobod; O‘shning Aravon, Buloqboshi, Tuyaka kentlarida erishgan g‘alabalarini uning obro‘sini yanada oshirdi.

1919 yil bahorida Baliqchida har uchala qo‘rboshining birlashgan kuchlari qizillar qurshovida qoldi. Bu o‘sha yildagi eng yirik janglardan biri sifatida tarixga kirdi. Ozodlik kuchlari boshida katta talafot berdilar. Qurshovdan chiqishning birdan-bir yo‘li botqoqlik edi. Madaminbekning buyrug‘i bilan Xolxo‘ja Eshon qanday qilib bo‘lsada, botqoqlik orqali qurshovdan chiqib, dushmanha orqa tomonidan hujum qilish harakatiga tushdi. Botqoqdan chiqish yo‘lini, Sibirda bunday joylardan yuraverib pishib ketgan Madaminbek va Xolxo‘ja Eshon bamaslahat hal etdilar. Yigitlarning bir qismi shu yerdagi to‘qaydan shox-shabba to‘plashga qo‘yildi. Shox-shabba bog‘larini uzun, ingichka yog‘ochlar vositasida bir-biriga ulab, katta to‘shamalar tayyorladilar, bu to‘shamalarni ham bir-biriga ulab, botqoq ustiga yotqizdilar. Xolxo‘ja Eshon yigitlari tunda ushbu to‘shama ustidan o‘tib, qurshovni yorib chiqdilar va qizillarni orqa tomonidan o‘rab oldilar. Bu tomonda ham qamishzor, sholikor va baliqchilarning ko‘pgina kapalari bor ekan. Ko‘p o‘ylab o‘tirmay, o‘t qo‘ydirib yubordi. Qizillar bir tomonidan olov, bir tomonidan ozodlik jangchilari qurshovida qoldilar, faqat shimol tomonagi yo‘l ochiq edi. Ularning uddalaganlari shu yo‘l orqali qochib qoldilar, qolganlari asir tushdilar. Mo‘lgina o‘lja: 700 ta beshotar miltiq, ikki kichik dala zambaragi, to‘rtta pulemyot, shunga yarasha o‘q-dori har uch qo‘rboshi o‘rtalarida taqsimlandi. Asirlar masalasini hal qilishga kelganda Shermuhammadbek yana Madaminbek bilan tortishib qolishini oldindan his etib, o‘z yigitlari bilan G’orbuvoga qaytib ketdi. Bir yarim mingdan ziyod asirning uch yuzdan ortig‘i arman dashnoqlari ekan. Madaminbekning yigitlari ichida dashnoqlarning mudhish qilmishlariga guvoh bo‘lganlar ham bor ekan. Ular qasd olish payiga tushganlarida, Madaminbek ularni to‘xtatib, sabr qilishni buyurdi. Bu jangning qahramoni Xolxo‘ja Eshonning katta qarshiligi, yalinib-yolvorishiga qaramay, dashnoqlardan boshqa barcha asirlar qo‘yib yuborildi. Dashnoqlar esa sud qilindi. Aybnomani boyagi guvoh yigitlar o‘qidilar. Sud

haqiqiy bo‘lishi uchun Madaminbek o‘z maslahatchisi Nansbergni oqlovchilikka tayinladi. Nansberg: — Bu kazzoblarga faqat iblisgina advokatlik qilishi mumkin. Men oqlovchi sifatida ularga chiqariladigan o‘lim hukmini to‘rt pora qilish (o‘tmishda shunday jazo chorasi bo‘lgan: mahkumning oyoq-qo‘llarini to‘rt otga bog‘lab, to‘rt tomonga tortilgan) orqali emas, otib o‘ldirish chorasi orqali amalga oshirishni so‘rashim mumkin xolos, — deb so‘zini qisqa qildi. Sud ularga o‘lim hukmini chiqardi. Madaminbek ijroni Xolxo‘ja Eshonga va boyagi guvohlarga topshirib, o‘z yo‘liga qarab ketdi. Guvohlar o‘z ko‘rganlarini — bir vaqtlar dashnoqlar o‘qni tejash maqsadida aholini turli usullar bilan qiynab o‘ldirganliklarini so‘zlab berdilar. Xolxo‘ja Eshon ham shu yo‘lni tanladi. Dashnoqlarning bir qismini so‘yib, bir qismini bo‘g‘ib, qolgan bir qismini tiriklayin oyoq-qo‘lini bog‘lab Sirdaryoga uloqtirdilar. Qadim o‘tmishda, ma’jusiylik davrlarida odamlardan yiliga qurbanlik olib turadigan ko‘hna Sayxun anchadan beri bunday mo‘l qurbanlikni ko‘rmagan edi...

Shu tariqa Xolxo‘ja Eshon Farg‘onadagi eng yirik sardorlardan biriga, eng murosasiz, eng qahrli ikki qo‘rboshi (Shermuhammadbekdan keyin) dan biriga aylandi.

IXTILOFNING KUCHAYISHI

Ikki ulug‘ sardor o‘rtalariga o‘tgan yiliyoq shayton alayhila’na tomonidan qo‘yilgan devor astasekinlik bilan ko‘tarilib bordi. Baliqchi jangidan so‘ng Madaminbek to‘planib qolgan muammolarni bartaraf etish, kelgusi muhim vazifalarni belgilab olish maqsadida Jalolobodning So‘zoq kasabasida yirik qo‘rboshilar ishtirokida kengash o‘tkazdi. Shermuhammadbek bu yig‘ilishga bormay, ukasi Nurmuhhammadbekni yubordi. Ko‘riladigan masalalarning eng asosiysi qo‘rboshilar o‘rtalaridagi munosabatlarni ko‘rib chiqish, nish urib kelayotgan ixtilofga barham berishdan iborat bo‘lsada, Shermuhammadbek ishtirokisiz bu masalani hal etish mumkin bo‘lmadi. Xolxo‘ja Eshon Madaminbek itoatida bo‘lsada, unda Shermuhammadbekka moyillik bor edi. Eshon majlisda har ikkalasi o‘rtasidagi ko‘zga ko‘rinmas to‘sqliarni bartaraf etish, ular orasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi zarurligini ta‘kidlab, bu borada o‘zi vositachi bo‘lishi mumkinligini bildirdi.

Ikkinchi muhim masala Sharqiy Farg‘onadagi rus qishloq va kentlarida yashab turgan aholi bilan munosabatlarini amiqlashtirib olishdan iborat bo‘ldi. O‘tgan hikoyalaramizdan ma‘lumki, bu yerlardagi rus aholisi o‘ziga to‘q dehqon (mujik), yer egalari, kazaklar, iste‘fodagi zabitlardan tashkil topgan. Ular ham yangi tuzumga itoat qilishni xohlashmasdi, biroq, mahalliy aholi bilan murosada bo‘lsalarda, o‘zlarini oliv tabaqa hisoblab, takabburlik otiga mingan edilar. Ko‘pchiligi harbiylardan iborat bo‘lgan, kattagina kuch hisoblangan bu kishilar ilgari chor Rossiyasining bu o‘lkadagi tayanchi hisoblanar edi. Bolsheviklar ham ularni o‘zlariga og‘dirib olib o‘z tayanchlariga aylantirish uchun urinib kelayotgan bo‘lsalarda, bunga muvaffaq bo‘lmagan edilar. Qo‘rboshilarning o‘tgan yilgi hujumlari ularni sovetlar bilan bir oz yaqinlashishga majbur qildi. Sovetlar bu rus qishloqlari aholisini qayta qurollantirishga erishdi. Xolxo‘ja Eshon mazkur rus qishloqlariga hujum qilib, sovetlarni tayanch kuchidan mahrum qilishni taklif etdi. Boshqa qo‘rboshilar uni qo‘llab-quvvatlab, ba‘zilari:

— Qachongacha boylarimizga tirik tovon bo‘lib yuramiz? Agar boy rus qishloqlariga hujum qilsak, ko‘plab qurol-yarog‘, oziq-ovqat mahsulotlarini o‘lja qilishimiz mumkin, — degan fikrni ham bildirdilar.

Madaminbek esa mazkur rus aholisi timsoldida kattagina qurol-yarog‘ zaxirasiga, salohiyatli harbiylarga ega, kommunistik hujumga qarshi bo‘lgan qudratli bir kuchni ko‘rar hamda ular bilan ittifoq tuzib, bu manfur tuzumga tezroq zarba berishni orzu qilardi. Bu fikrni bayon etganda Xolxo‘ja Eshon o‘tirgan joyida bir sakrab tushdi, boshqa qo‘rboshilar qovoqlarini solganlaricha yerga qarab qoldilar.

— Bek, — dedi nihoyat Xolxo‘ja Eshon, — o‘zimiz dini islom yo‘lida jang qilayotgan g‘oziyalar bo‘lsak, endi o‘ris-kofirlar bilan og‘iz-burun o‘pishamizmi?

— Biz nafaqat dini islom, balki vatan ozodligi yo‘lida ham jang qilayotganligimizni unutmang,

Eshon. O’ris mujiklar ham bolshavoylarga qarshi. Dini islomning eng katta dushmani ham bolshavoylar.

Ular bilan ittifoq bo‘lsak, bolshavoyni tezroq yengamiz, demak, musulmonlarning qoni ham kamroq to‘kiladi. Bilganingiz — “o‘ris kofir”. Endi sizlar ham mundoq kallani ishlatishni, atrofga razm solishni o‘rganinglar-da axir. Bolshavoy kofirga qarshi o‘zining millatdoshini jangga sola olsak, nimasi yomon?

Qo‘rboshilarning og‘zilariga suv solib, yerga qarab olganliklari qarshi fikr aytishdan ko‘ra samaraliroq bo‘ldi. Madaminbek bu borada so‘zlash hali bir oz ertaligini anglab, yon berdi. Majlis rus kentlariga qarshi jang boshlashga qaror qildi.

Yig‘ilishdan bir necha kun o‘tkazib, mazkur qaror asosida Jalolobod atrofidagi rus qishloqlari tomon yo‘l oldilar. Madaminbek jang boshlashdan oldin oq ruslarning kattalariga vakil yuborib, qizil armiya bilan ittifoq tuzmaslikni, ularga yordam bermaslikni talab qildi, aks holda o‘rtada qon to‘kilishi mumkinligi haqida ogohlantirdi. Oq ruslar: — “ biz bilan ishlaring bo‘lmisin”, — degan mazmunda javob qaytarishdi. Shundan so‘ng Madaminbek jangni boshlashga buyruq berdi.

Ruslar oldin qo‘rboshilardan zARB yeb, keyingi janglarga yaxshi tayyorgarlik ko‘rganliklari, sovetlar tomonidan qurol-yarog‘ va o‘q dori bilan yaxshi ta‘minlanganliklari jang asnosida ma’lum bo‘ldi. Shunday bo‘lsada, bir kecha-kunduzlik jangdan so‘ng ozodlik kuchlari qo‘li baland kelib, ruslar tang ahvolga tushib qoldi. Ular elchi yuborib, jangni to‘xtatib turishni, o‘zaro to‘planib, maslahatlashib olishlari uchun muhlat berishni so‘radilar. Madaminbek qo‘rboshilar bilan maslahatlashib, muhlat berilishiga rozilik bildirdi. Jang boshlangan paytda oq ruslar qizil ruslardan yordam so‘rab ulgurgan ekan. Jang to‘xtatilgandan bir oz vaqt o‘tgach, Namangan tomonidan katta harbiy qism yordamga yetib keldi. Shiddatli janglardan so‘ng ozodlik kuchlari katta talafot berib, Suzoqqa qarab ot burdilar. Chekinish paytida qo‘rboshilar o‘rtasidagi aloqa uzilib qoldi. Shu kunlarda Shermuhammadbek o‘z yigitlari bilan So‘zoqdan bir tosh narida bo‘lgan Qo‘qonqishloqqa kelib tushadi. Chekinayotib, Shermuhammadbekning Qo‘qonqishloqda ekanidan xabar topgan Xolxo‘ja Eshon va Nurmuhhammadbek aloqa uzilganligi bahonasida Shermuhammadbekka borib qo‘sildilar. Madaminbek qo‘l ostidagi boshqa bir qancha qo‘rboshilar bilan So‘zoqqa chekinadi.

“Bosmachi”larning kattagina bir qismi Qo‘qonqishloqda ekanligidan xabar topgan qizil qo‘shin qo‘mondonligi shu tomonga hujum boshlaydi. Janglar goh u tomon, goh bu tomonning ustunligi bilan bir necha kun davom etadi. Nihoyat, qizillar tob bera olmay Andijon tomonga chekinadi. Shermuhammadbek mazkur qism tamoman yanchib tashlanmaganligi, ular Andijondan madad olib, qayta hujum boshlashlari mumkinligini his etib, O’sh tomonga tartibli ravishda chekinadi. O’shliliklar Shermuhammadbekni ulug‘ mehmon sifatida kutib oladilar. O’shlik boylar uni ziyorat qilib, ot-ulov, oziq-ovqat bilan ta‘minladilar. Islom lashkari safiga qo‘shilishni istagan besh yuzdan ortiq yigitni Shermuhammadbek Xolxo‘ja Eshon ixtiyoriga berdi.

Shermuhammadbekning maxfiy xizmati Andijondan O’sh sari katta harbiy qism yo‘lga tushganini aniqlagach, u dushmanni chalg‘itish uchun chalkash bir yo‘nalishda safarga chiqdi. Harbiy tilda bu “reyd” deb aytildi. Manaq qishlog‘iga yetganda ularning yo‘nalishini qizil askarlar yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib qolib, qisqa muddatli jang bo‘lib o‘tdi. Qizillar yana Andijon tomon chekindilar. Manaqda bir oz nafas rostlagan, Shermuhammadbekni Aravon xalqi izzat-ikrom bilan kutib oldi: oyog‘i tagiga qo‘y, novvos va ot so‘yildi. Yigitlar bu yerda uch kun mehmon bo‘ldilar. Aravonliklar uni mehmondorchilik dasturxonidan tashqari, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan siyladilar. To‘rtinchi kuni Xolxo‘ja Eshon O’shga, Shermuhammadbek esa Buloqboshiga ravona bo‘ldilar. Bu yerda bir kun dam olib, Qalmoq qishlog‘i tomon yurdi. Bu yerda to‘satdan to‘xtab, uning iziga tushgan qizilgvardiyachilarga zarba berdi. Nihoyat, yana aylanma yo‘llar bilan yurib G’orbuvoga qaytdi.

KREST’YANLAR ARMIYASI

Jalolobod janglari asnosi So‘zoqqa chekingan Madaminbek o‘z qo‘l ostidagi ko‘rboshilarning bu yerga yig‘ilishini bir necha kun kutdi. Kichik qo‘rboshilar birin-ketin turli yo‘llar orqali So‘zoqqa yetib keldilar. Biroq, Xolxo‘ja Eshon bilan Nurmuhhammadbekdan darak bo‘lmadi. O‘z voqeana vislari orqali ularning Shermuhammadbekka borib qo‘shilganligi, u yerda bo‘lib o‘tgan janglar tafsilotini eshitdi. Voqealarni tahlil qilar ekan, milliy-ozodlik harakati jabhasida Shermuhammadbek, Xolxo‘ja Eshon va Nurmuhhammadbekdan iborat o‘ziga qarshi bo‘lgan uchlar ittifoqi shakllanayotganligini his etdi, hamda buning oldini olish vaqtি o‘tganligini anglatdi. — Mayli, — deb o‘ziga taskin berdi Madaminbek, — mana bu oq ruslarning ishini hal etayin, u yog‘i bir gap bo‘lar.

Madaminbekning oq ruslar bilan kurashi bir necha oy davom etdi. U bir necha rus qishlog‘ini bosib olib, Jalolobod shahrini ishg‘ol etish uchun tayyorgarlik ko‘rayotgan paytda oq ruslar ham astoydil harakatga tushib qoldilar. Oq ruslarning komandirlari “Har bir qishloqda tashkil etilgan o‘z-o‘zini himoya qilish dastalarini birlashtirib, rus qishloqlarida umumiyo safarbarlik e’lon qilib, kattagina harbiy qo‘shilma tuzish zarur”, degan taklif bilan Andijon revkomiga qilgan murojaatiga keskin rad javobini olishadi, illo, mazkur komandirlarning tub maqsadi, o‘z harbiy qo‘shilmalarini tashkil etib olgach, “bosmachilar”dan o‘zini himoya qilish, asosiy esa, bolsheviklarga qarshi kurash olib borib, dastlab Farg‘ona vodiysida, so‘ng esa, butun Turkistonda hokimiyatni qo‘lga olishdan iborat edi.

Bu paytlarda Toshkentda yuqori martabali sobiq rus armiyasi zabitlaridan iborat “Turkiston harbiy tashkiloti” tashkil topib, sovetlarga qarshi yashirin kurash olib borayotgan edi. Farg‘ona bolsheviklar partiyasi yetakchisi Bildin murojaatga rad javobi bergach, oq komandirlar mazkur tashkilotning faol a’zosi, Turkiston ASSR harbiy komissari Osipovga murojaat qildilar. Bolsheviklarning ashaddiy dushmani bo‘lgan, keyinchalik isyon ko‘tarib, o‘n to‘rt Turkiston komissarlarini qatl etgan Osipov ularni qo‘llab-quvvatlab, Farg‘ona vodiysida rus krest’yanlar armiyasi tuzishga ruxsat beradi. 1919 yil 5 may kuni Jalolobodda oq ruslarning yig‘ilishi (s’ezdi) o‘tkazilib, “Rus krest’yanlar armiyasi” tuzilganligi tantanali tarzda e’lon qilinadi. Mazkur s’ezdda armiya qo‘mondonligiga yirik boy va yer egasi Monstrov saylanadi, shtab boshlig‘i etib general Muxanov tayinlanadi. Monstrov shu kuniyoq vodiying ruslar yashaydigan doirasida Krest’yanlar armiyasiga yalpi safarbarlik e’lon qiladi.

OQ RUSLAR BILAN ITTIFOQ

Krest’yanlar armiyasi rivojlangach, uning qo‘mondoni Monstrov fursatni g‘animat bilib, faol harakat boshladidi. Dastlab, ruslar istiqomat qiladigan qishloq va qo‘rg‘onlarda sovetlarni tarqatib yuborib, o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Ko‘p o‘tmay O’sh shahriga hujum qildi. O’sh shahrida qizillarning kichik bir garnizoni bor edi, xolos. Ikki kunlik qamaldan so‘ng O’sh egallandi, biroq uni uzoq ushlab turolmadilar. Qizillar Andijon va Iskobildan qo‘shin tortib kelib, shaharni qaytarib oldilar.

Madaminbek bir necha marta ittifoq tuzish taklifi bilan Monstrovga vakil yubordi. Monstrov dastlab bu takliflarni rad etdi, g‘ururi yo‘l bermadi. — Podumaesh (O’ylab qaragina), — dedi u,— bir aziat (osiyolik), basmachi, zamonaviy harbiy ilmdan juda uzoq bir galaning boshlig‘i menga ittifoq tuzishni taklif qilsa-ya.

Lekin, uning “shonli” qo‘shini qator mag‘lubiyatlarga uchragach, mahalliy aholining xayrixohligiga erisha olmagach, ittifoq tuzish zarurligini tobora his qila boshladidi. Buning ustiga, rus qishloqlaridagi mujiklarning ko‘philagini dehqon armiyasiga olib, jang-jadal bilan band bo‘lib qolgach, qizil armiya qo‘mondonligi qismlari ichidagi bir qancha bebosha askar va zabitlarga, o‘zbekcha qilib aytganda xudo berib qoldi. Ular rus qishloqlariga yopirilib borib, mujiklarinig uylariga kirib, ovqatini yeb, arog‘ini ichib, xotinlari va qizlari bilan maishat qilish yo‘liga o‘tib oldilar. Bu holat mujiklarning nafsoniyatiga teva boshladidi. Ular Monstrovdan qizillarning jilovini tortib qo‘yishni talab qildilar. Nihoyat, Madaminbekka nisbatan adovatni yumshatishga, uning rus qishloqlariga qilgan hujumlaridan ko‘z yumishga to‘g‘ri keldi. 1919 yil iyul oyi oxirida Madaminbek va Monstrov o‘rtalarida elchilar vositasida muzokaralar boshlanib, 22 avgustda ular o‘rtasida bitim tuzildi.

Bu vaqtida Madaminbek ixtiyorida yetti ming nafar, Monstrov ixtiyorida esa uch ming besh yuz nafar atrofida askar bor edi. Bitimga muvofiq, askari miqdori ko‘p bo‘lgani uchun birlashgan qo‘shinga Madaminbek bosh qo‘mondon, Monstrov bosh qo‘mondon o‘rribosari, general Muxanov shtab boshlig‘i vazifalarini egalladilar. Ruslar ichida yuqori malakali harbiy mutaxassislar ko‘proq bo‘lgani tufayli, shtabning uchdan ikki qismi rus zabitlaridan iborat qilib tuzildi.

Ittifoq bitimi tuzilib, uning sharafiga berilgan ziyofat o‘tishi bilan harbiy harakatlarga kirishildi. Birlashgan qo‘shin janub sari yurib, birin-ketin qishloqlarni zabt etib, sentyabr oyi boshlarida O‘sh shahrini egalladi. 24 sentyabr kuni Irkishtom (Ergashtom) qal’asi qo‘lga kiritildi. Irkishtom qal’asi Farg‘ona vodiysi bilan Sharqiy Turkistonni bog‘lovchi shu nomdagi dovon etagida joylashgan bo‘lib, muhim iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo‘lgan istehkomdir. Bu qal’aning olinishi Farg‘ona va Qashg‘ar orqali chet elga chiqish imkoniyatini berar edi. Shu tufayli qal’a olingan kuni bu yerda muvaqqat Farg‘ona hukumati ta’sis etildi. Mansab-vazifalar quyidagicha taqsimlandi:

Madaminbek — hukumat raisi va bosh qo‘mondon;
Monstrov — hukumat raisi o‘rribosari, yer ishlari vaziri;
General Muxanov — harbiy vazir va shtab boshlig‘i;
Nansberg — ichki ishlar vaziri;
Hakimjon Azizzonov — moliya vaziri.

Hukumat tarkibi 16 musulmon va 8 musulmon bo‘lmagan kishilardan tashkil topgan edi. Turkiya, Afg‘oniston, Ozarbayjon bilan diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yildi.

Qo‘qonda muxtoriyatli hukumat tuzilishi vodiy xalqiga ilhom berib, ayrim joylarda aholi rus-bolshevik hukumatini tan olmaganligini isbotlash maqsadida mazkur joyni boshqarish uchun o‘zlaricha mingboshi, qo‘rboshi saylab ola boshladilar. Quva xalqi ham bu harakatdan chetda qolmay, Umarali degan kishini o‘zlariga mingboshi etib sayladilar. Bu “o‘zboshimchalik” albatta, ishchi-dehqon-soldat deputatlari Quva sovetining hamiyatini qo‘zg‘otdi. Sovet o‘z qo‘lidagi soldatlar va Quva korxonalarida ishlaydigan ishchilarni qurollantirib, Umaraliga qarshi harakat boshladi, Umarali G’orbuvoga xabar yuborib, yordam so‘radi. Shermuhammadbek yigitlarni otlantirib Quvaga yetib borganida jang ayni qizigan payt edi. Shermuhammadbek tashqaridan, Umarali ichkaridan hujum qilishib, tun bo‘yi jang olib borishdi. Har ikki tomonlar ham ko‘plab qurban berdi. Nihoyat, jang qo‘rboshilar foydasiga hal bo‘ldi. Temiryo‘l bekti vayron etilib, temir izlar qo‘porib olindi.

Ko‘p o‘tmay Shahrixondan chopar kelib, u yerda harakatda bo‘lgan Yusufjon qo‘rboshining maktubini topshirdi. Maktubdan ma’lum bo‘lishicha, Shahrixon garnizoni askarlari aroqxo‘rlik balosiga mubtalo bo‘lib, aroqqa pul topish uchun xalqni talab, mol-mulkini tortib olayotgan ekan.

Bu paytda Madaminbek ham G’orbuvoda edi. U Shermuhammadbekni Yusufjon qo‘rboshiga madad berish uchun yubordi. Bu safar ham to‘satdan hujum qilingani uchun g‘aflatdag‘i garnizonni yengish ancha oson ko‘chdi. Jang oxirlab qolganda Shermuhammadbekning beshotar miltig‘i lo‘kidoni (zavtori) yaxshi ishlamay qoldi. Shermuhammadbek miltiqni yaqinroq ushlab, lo‘kidonni tekshirib turgan edi, lo‘kidon yana ishlab qolib, o‘q otilib ketdi. Boshqa miltiqlar kabi, beshotar qo‘ndog‘i ham yelkaga tirab turib otish uchun, yarim oy shaklidida tugallangan bo‘ladi. Lo‘kidon ishlab ketib, o‘q otilgach, tepki zarbidan yarim oy shaklidagi qo‘ndoqning bir uchi Shermuhammadbekning chap ko‘ziga tegdi va uni otdan ag‘darib yubordi. Yigitlar uni darhol yerdan ko‘tarib, ko‘zini qiyiqcha bilan bog‘lab, otga mindirib G’orbuvoga yetkazib keldilar. Madaminbek fursatni o‘tkazmay uni Bاليqchiga olib ketdi. Bu yerda mashhur rus anarxisti M.A.Bakuninning do‘sti va safdoshi, o‘z qarashlari uchun bu yerga surgun qilingan salohiyatli vrach Yevlampiy Fyodorovich Bogorodov istiqomat qilar, mahalliy aholi bu qiyin nomni talaffuz qilolmay, uni “Lampa do‘xtir” deb atashar edi. Madaminbek Shermuhammadbekni to‘g‘ri Lampa do‘xtirning ham istiqomatgohi, ham ish kabineti bo‘lgan kulbasiga olib keldi. Lampa do‘xtir kerakli muolajani qilib, boylab qo‘ygach, o‘ziga savol nazari bilan qarab turgan Madaminbekka qarata kallasini silkitib, najot yo‘qligini bildirdi.

— Endi nima bo‘ladi?

— Yashaydi, biroq bu ko‘zi endi ko‘rmaydi.

Uch-turt kunlik muolajadan so‘ng, Madaminbek Shermuhammadbekni G’orbuvoga eltid qo‘ydi. Shundan beri Shermuhammadbekka uning dushmanlari “Ko‘rshermat” degan nom qo‘yib oldilar. Taassuflar bo‘lgayki, keyinroq “Ko‘rshermat” degan nom “Shermuhammadbek” degan nomni xalq lafzidan siqib chiqarayozdi. Yuqorida keltirilganidek, “Ko‘rshermat” demasa uni birov tanimaydigan bo‘lib qoldi. O’shandan beri Shermuhammadbek ko‘ziga ko‘zband bog‘lab yurdi. Keyinroq esa, uning qo‘siniha harbiy mutaxassis sifatida kelgan turk zabitlari unga qora ko‘zoynak sovg‘a qildilar.

Shermuhammadbekning g‘ayrat-shijoati uni to‘sakda ko‘p yotishga qo‘ymadi. Ikki-uch kundan keyinoq u o‘rnidan turib ketib yangi yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Yangi yurishning sababchisi Xolxo‘ja Eshonning maktubi edi. Maktubda Mingtepada rus mujiklarining beboshligi haddan oshganligi tufayli, birgalashib ularning tanobini tortib qo‘yish taklif etilgan edi.

Farg‘ona mamlakatining qadimiyy poytaxtlaridan bo‘lmish Ershi shahri azaldan ozodlik kurashi o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Milodiy eradan avvalgi II asrda Xitoy Parkanga (xitoy tilida Davon) katta qo‘siniha yuborgan. Qo‘siniha Ershini bir necha oy qamal qilib ham ololmagan. Keyinchalik poytaxt boshqa shaharga ko‘chirilib, asta-sekin Ershi nomi unut bo‘lib ketadi. Uning o‘rnida Mingtepa qad rostlaydi. Mingtepa milliy-ozodlik kurashi qahramoni Muhammad Ali Xalifa (Dukchi Eshon) makon tutgan joydir. 1892 yili Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni bostirilgach, rus hukumati bu yerga yana mujiklarni ko‘chirib keltirdi. Mingtepaliklarning aksariyati qo‘riq va adirga ko‘chirildi. Mingtepa yonida va uning kattagina qismi o‘rnida vujudga kelgan rus posyolkasi Marhamat degan nom oldi. Bu yerga ko‘chirib keltirilgan mujiklar asosan kazaklar, jinoyatchi unsurlardan iborat bo‘lib, ular butun bir deparada o‘zlarini qadimdan qolgan aholi-yu mahalliy kishilarni kelgindi o‘rnida ko‘rib, hokimiyatni o‘z qo‘llariga olgan edilar. Bu yerda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon ma’murlarning yodidan chiqmaydigan voqeа bo‘lgan edi. Shu sababdan, yana shunday harakatlar boshlanib qoladigan bo‘lsa, harakatni uchqunlik holidayoq o‘chirish uchun bu yerga ko‘chirib keltirilgan mujik niqobidagi bosqinchilar tish tirmog‘igacha qurollantirildi. Yangi hukumat, ya’ni sovetlar ham bu mujiklarni o‘z tayanchi o‘rnida ko‘rib, ularning beboshlik-bezoriliklariga panja orasidan qaraydigan bo‘ldi.

Bu o‘ziga xos rus “armiyasi” dastlab Xolxo‘ja qo‘rboshi yigitlari bilan to‘qnashdi. Mingtepa Xolxo‘janing qarorgohlaridan biri Aravonga yaqin joylashgan bo‘lib, “mujik”lar Xolxo‘ja yigitlari bilan janjal chiqarishga harakat qilardi. Xolxo‘ja qo‘rboshi o‘z imkoniyatlarini ko‘rib chiqib, yakka o‘zi mujiklarning adabini berib qo‘yishga kuchi yetmasligini bildi va ularga qarshi birgalikda kurashish uchun G’orbuvoga maktub yozgan edi. Ko‘p o‘tmay o‘zi ham yigitlari bilan bu yerga yetib keldi.

1918 yil 23 mart kuni Shermuhammadbek va Xolxo‘ja Eshonning birlashgan kuchlari takbir aytib Mingtepa ustiga yurdi. Peshinga borib Mingtepa o‘rab olindi. Janglar oqshomgacha davom etdi. Nihoyat, ruslar tob bera olmay elchi chiqardilar va omonlik tiladilar. Shermuhammadbek ularga shunday javob qaytardi: “Qurol-aslahalarni yig‘ishtirib topshirasiz, bolshavoy o‘ris askarlariga bundan buyon yordam bermaysiz, tortib olingen yerkarni qaytarib berasizlar, talab olingen, mana bu qog‘ozga ro‘yxati yozilgan mol-mulkarni bizga qaytarib berasizlar. Shundagina hayotingizni saqlab qolaman”.

Elchilar bu shartlarni qabul qilishga majbur bo‘ldilar. Mujiklar qurollarini tashlab, jami 400 ga yaqin miltiq, qilich, xanjar, to‘pponcha, shunga yarasha o‘q-dori, mahalliy aholidan tortib olingen mol-mulk (ot, mol-ko‘y, uy jihozlari va h.k) ni olib kelib topshirdilar. Bir qancha mujiklar Marhamatni tark etdi.

O‘ljalar taqsimlanib berildi, ot va chorva, ashyolar egalariga qaytarildi. Qurol-yarog‘ va o‘qdorining bir qismi Xolxo‘ja Eshonga berildi. Shermuhammadbek Xolxo‘jani O’shga kuzatib, o‘zi G’orbuvoga qaytdi.

Shu tariqa, qator muvaffaqiyatlari janglar natijasida Madaminbek va Shermuhammadbekning obro‘si ko‘tarilib bordi. Ayniqsa, hukumat qanoti ostida, bosar-tusarini bilmay qolgan mujiklarning tanobini tortib qo‘yilishi bu obro‘ni yanada oshirib yubordi. Hatto, xalq ichida yaxshi nom qozonmay yurgan

Xolxo‘ja Eshon nazarga kirib qoldi.

Umuman, Qo‘qonda muxtoriyatli hukumatning yanchib tashlanishi, xalqning qonga botirilishi oqibatida kelib chiqqan milliy-ozodlik kurashi 1918 yil mart oyidan boshlab qanot yozib, deyarli butun vodiyni qamrab oldi. Sovet hokimiyati katta garnizonlarga ega bo‘lgan shaharlardagina saqlanib qoldi. Bu harakatga o‘n chog‘li yirik qo‘rboshilar rahbarlik qildilar:

— Vodiyning markaziy va sharqi qismi Madaminbek boshchiligidagi bir qancha hududlarga bo‘linib:

- Marg‘ilon muzofoti Shermuhammadbek tasarrufida;
- Andijon Parpibek qo‘rboshi tasarrufida;
- Namangan Omon Polvon tasarrufida;
- O’sh Xolxo‘ja Eshon tasarrufida;
- Oloy Muhiddinbek tasarrufida;
- Qurama muzofoti Rahmonquli qo‘rboshi tasarrufida turdi.

Boshqa qo‘rboshilar o‘z hududlariga qarab, yuqorida nomlari keltirilgan yo‘lboshchilar bilan kelishib ish ko‘rar edilar. Hozircha kurash qo‘rboshilar foydasiga hal bo‘lib turibdi. Biroq sovetlar ham anoyi emas, ularga tinimsiz ravishda Toshkent, Samarqand tomonlardan yordam, qizil gvardiyachilar qismlari va qurol-yarog‘, o‘q-dori kelib turibdi. Ozodlik jangchilarining qurol-yarog‘i hozircha yetarli bo‘lsada, kelajakning g‘amini yeb turish kerak. Shu o‘rinda ularning qurollanishi borasidagi ayrim fikrlarga munosabat bildirib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Sovet tarixshunosligi va badiiy adabiyotlarda bosmachilarni chet el, aniqrog‘i, inglizlar qurol bilan ta’minlab turganligi ko‘p ta’kidlanadi. Go‘yo qo‘rboshilar kelajakda — mustaqil Turkiston davlati tashkil topganda uning yer osti boyliklari, paxtasini inglizlarga berish sharti bilan ulardan eng zamonaviy qurol-yarog‘lar olib turgan, bu qurol-yarog‘lar Afg‘oniston va Qashqar orqali yetkazib berilgan emish. Hatto, adabiyotlarda “bosmachi”lar ishini boshqarib, ularga qurol-yarog‘ yetkazib berib turgan ingliz josusi, emissari siymosi ham yaratilgan. Bir kitobda u Deyli, boshqasida Keyli, keyingisida Beyli va yana shu qofiyali nomlar bilan qalamga olinadi. Biz bu da’volarni yuz foiz yolg‘onga chiqarishga haqli emasmiz. Ayrim qo‘rboshilar xorijdan oz-moz chet el qurolini olganligi haqida gap-so‘zlar yuradi, biroq muayyan bir qo‘rboshining muayyan bir chet el josusi bilan aloqada bo‘lganligi, undan muayyan miqdorda qurol-yarog‘ olib turganligi xaqidagi hujjatli ma’lumotni ko‘p yillar qidirib, topishga muvaffaq bo‘la olmadik. Adabiyotlarda qalamga olingan mashhur mauzerlar, beshotar miltiqlar barchasi sovetlar bilan bo‘lgan janglarda qo‘lga olingan o‘ljalardir, hozircha qurol yetib turibdi, biroq, kurash jabhasi kengaysa qurol-yaroqda ehtiyoj ortadi. Keyin nima bo‘ladi? Umuman, kelajakda nima ishlar qilish kerak? Kundan-kun kuchayib borayotgan ozodlik harakatini qanday boshqarish kerak? Hamma o‘z holicha harakat qilaversinmi, yoki qandaydir boshqaruv markazi kerakmi? Agar harakat markazdan boshqariladigan bo‘lsa, rahbar kim bo‘ladi? Bunday savol va muammolarni hal etish uchun yirik qo‘rboshilarini bir joyga to‘plab, anjuman o‘tkazish ehtiyoji yaqqol sezilib qoldi. Bachqirda bo‘lib o‘tgan yig‘in haqida yuqorida bir eslatib o‘tilgan edi. Endi bu mavzuga bir oz chuqurroq, kengroq nazar solib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi.

BACHQIR QURULTOYI

Bu voqealarni, ya’ni Bachqirda o‘tkazilgan qurultoy tafsilotini unda ishtirok etgan kishilarning (ulardan ba’zilari chekistlar edi) yozma va oltmishinchchi yillarda bizga so‘zlab bergen og‘zaki xotiralari asosida shuurimizda tiklashga harakat qildik, zero, u paytlarda milliy anjumanlarda bayonnomaga (protokol) yozish urf bo‘lgan emas edi.

1918 yil 29 mart, juma kuni Bachqir qishlog‘i erta tongdan sayil tusini oldi. Ko‘chalar favqulodda ozoda, yo‘llar chetidagi xarobroq uylar devorlari sholcha, palak to‘sib yashirilgan, Ergash qo‘rboshining qarorgoh-qo‘rg‘oni hamda qishloq boylarining tashqari hovlilarida qo‘ylar so‘yilib,

qozonga bosilgan, dasturxonlar tuzalgan, qishloqdagi barcha tandirlarga olov qalangan. Ergashbekning va qishloqning yigitlari xizmatga shay bo‘lib turibdilar. Ayrim qo‘rboshilar va ajratilgan maxsus kishilar qishloqqa kiraverish joyga mehmon kutgani chiqib ketishgan. Ergash qo‘rboshi esa kechayoq yetib kelgan Shokir Noib, Abdulla Zakunchi va boshqa mehmonlar bilan bo‘lajak qurultoy masalasida maslahatlashib o‘tiribdi.

Uzoq-yaqindan taklif qilingan mehmonlar birin-ketin yetib kela boshladilar. Mehmon kutuvchilar qo‘rboshilar va yuqori martabali mehmonlarni Ergashbekning qo‘rg‘oniga, ularning yigitlarini esa qo‘ra (hovli) larga kuzatib keldilar. Taomlar tayyor bo‘lsada, taomilga ko‘ra, eng hurmatli mehmonlar oyog‘iga qo‘ylar so‘yildi. Peshin yaqinlashgach, barcha mehmonlar tahorat olib, qishloqning jo‘me masjidiga o‘tdilar. Juma namozi imom-xatibligiga eng hurmatli mehmon Miyon Qudrat Hazratlari o‘tdilar. Juma namozidan so‘ng qo‘rboshilar o‘z yigitlariga ehtiyyot shart har qanday voqeaga tayyor holda qarorgohga yaqinroq joyda turishni tayinlab, qo‘rg‘onga kirib ketdilar. Ergashbek o‘z qo‘rboshilariga qurultoyda qatnashmay, qishloqni muhofaza etishni topshirdi.

Qurultoyni Miyon Qudrat Hazrat boshlab, Allohga hamd, payg‘ambar (s.a.v)ga sano o‘qiganlaridan so‘ng shunday dedilar:

“— Aziz farzandlarim, mujohidlar, ushbu anjumanda o‘tirib, Farg‘onaning har xonasidan kelgan sizlarday g‘oziyalar, yurt ozodligi uchun alam bog‘lagan (bayroq ko‘targan) azamatlarni bir joyda baqamti holda, ko‘rib ko‘z yoshlarimni tiya olmayabman. Bunday anjuman, yurt ozodligi, islom bar-qarorligi yo‘lida birlashish uchun harakat necha asrlarki, bo‘lmagan edi. Agar bu harakat o‘rus kofirlar endi-endi bostirib kelayotganda bo‘lganida, balki ajdodlarimiz yurtni ularga berib qo‘ymagan bo‘lur edilar. O‘ruslarning kirdikorlari barchamizga ma’lum: eng yaxshi yerlarimizni tortib oldilar, boyliklarimizni tashib ketmoqdalar, dini islomni, garchi taqiqlamagan bo‘lsalarda, uni ichidan buzishga harakat qildilar va ma’lum darajada bunga erishdilar ham. O‘rusning yangi chiqqan toifasi bolshavoylar esa muqaddas dinimizni butunlay yo‘q qilishni o‘zlariga maslak qilib olganlar... Xayriyatki, Allohga shukrlar bo‘lsinki, kech bo‘lsada ko‘zlarimiz ochildi, dinimizni, yurtimizni ozod qilish uchun mardi maydonlar bor ekan, o‘rtaga chiqishdi.

Bu kungi yig‘ilishimizdan maqsad, avvalo, birlashish, bir yoqadan bosh chiqarish yo‘larini qidirishdir. Bo‘linganni bo‘ri yeydi, ayrliganni ayiq. O‘rusga qarshi Qo‘qon, Buxoro, Xorazm hukmdorlari o‘z boshiga harakat qildi, ularga birlashib harakat qilish maslahatini bergen kishilarning gapiga qulq solmadilar, oqibatda osongina dushman ilkiga tushdilar. Kimki, mingta, ikki mingta, boringki uch mingta yigit bilan yurtni bolshavoydan ozod qilaman desa, xom o‘ylabdi. O‘rusiya oq podsho vaqtida, garchi keyingi urushda omadi kelmasada, harbiy qudrati yuksak mamlakat edi. Ushbu harbiy qudrat endi bolshavoylarga meros bo‘lib o‘tdi. Turkiston hukumati (muxtoriyati)ning bir hafta-o‘n kun ichida yo‘q qilinishi bunga dalildir. Ergashbek o‘zicha, Madaminbek o‘zicha, Shermuhammadbek o‘zicha harakat qilgani bilan bunday katta kuchga bas kelishi qiyin. Barcha qo‘rboshilarimiz, barcha yigitlarimiz birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib kurashga kirilsa, inshoollo, bolshavoylarni yurtimizdan haydar, o‘z ko‘nglimizdag davlatni qura olamiz. Yo‘q, “har kim o‘z teshasini o‘zi chopsin” qabilada ish qilamiz deydigan bo‘lsak, taxta o‘qlog‘ni vaqtida yig‘ishtirishga to‘g‘ri keladi, illo shu kungacha to‘kilgan va bundan keyin to‘kiladigan qon behuda ketishi aniq. Shunday ekan, xammamiz bir rahnamo qo‘li ostida birlashuvimiz shart”...

O‘tirganlar ichidan: “— Eshonbuvo, rahnamolikka o‘zlarি borlarku,” — degan ovozlar keldi.

— Biz ham sizlarning boshingizni qovushtirib, doim duolaringizda bo‘lamiz, — deb javob berdilar Hazrat,— biroq ilmi harbni yaxshi biladigan, sizlar bilan yonma-yon turib jang qiladigan rahnamo, to‘g‘riroq‘i, sardor, amir zarur. Toki u qattol dushmanga bas kela oladigan bahodir, jasur, zakovatli kishi bo‘lsin....

So‘zni Marg‘ilondan kelgan vakil, muxtoriyatl hukumatning arboblaridan biri, diniy va dunyoviy masalalarni yaxshi biladigan Mirodilboy davom ettirdi:

“ — So‘zning boqiysi hazratim bayon qildilarki, hech qaysimiz bu bayonga bir so‘z qo‘sha

olmaymiz. Shuning uchun so‘zdan amalga o‘tsak. Bu yerga jam bo‘lgan muhtaram sardorlarimizning aksariyatları umumiylar bilan yigitlardir. Shuni ta’kidlab o‘tishni istar edimki, saylov o‘tkazishdan oldin har bir kishi o‘zining ichki tuyg‘usi bilan suhbatlashib, o‘z imkoniyatlarini, o‘z salohiyati darajasini chamalab olsin, davrada o‘zidan kuchliroq odam borligini his etsin, unga yon berib, mardlarcha ish tutsin. O‘ziga-o‘zi, “menga berilgan imkoniyatlardan foydalanib, ozodlik kurashiga rahbarlik qila olamanmi? Agar eplay olmasam, mening aybim bilan behuda o‘lib ketgan shahidlar mendan ro‘zi mahsharda o‘z xunini talab qilmaydimi” degan savolni bersin. Ha, birodarlar, amirlashkarlik nihoyatda mas’uliyatlari ish. Unga berilgan imkoniyat Vatanimizga, kurashimizga berilgan yagona imkoniyatdir. Bunday imkoniyat ikkinchi marta berilmaydi. To‘g‘risini aytishga majburman, bizda “o‘zim bo‘lay”chilik kasalligi bor. Bu mudhish kasallik ko‘zlarimizga pardatortib, mas’ul vazifaga o‘zimizdan munosibroq nomzodni ko‘rishga imkon bermaydi. Bu kasallikning safrosini o‘z vaqtida quritib, saylovga holis bo‘laylik. Bunday qilmas ekanmiz, tarix bizni kechirmaydi, tarix kechirsa ham Alloh kechirmaydi”...

Tashkiliy masalani Ho‘qand qozikaloni Kamol qozi olib bordi:

— Mana muhtaram g‘oziyalar, hazratim va Mirodilboy gapning sirasini aytdilar. Endi shu gaplarni saboq sifatida qabul qilib, tanangizda chuqur o‘ylab ko‘rib, so‘ngra munosib odamni nomzod qilib ko‘rsatishingizni so‘rayman.

Nomzod ko‘rsatish kutilganidek bo‘ldi: har bir yirik sardorning qo‘rboshi va ponsodlari o‘z rahnamolarining nomzodini ko‘rsatdilar:

- Ergashbek bo‘lsin;
- Madaminbekdan boshqa kishi bu ishni eplolmaydi;
- Shermuhammadbek munosib;
- Omon Polvon bo‘lsin;
- Parpibek bo‘la qolsin...

Hayhot! Qachon qutilamiz bu kasallikdan? Nomzodi tilga olinganlar ichida Omon Polvongina o‘z nomzodini Madaminbek foydasiga qaytib oldi, xolos. Bahs qizigandan-qizib, ish hatto bir-birlariga o‘dag‘aylashgacha borib yetdi. Bu holga chiday olmagan Miyon Qudrat Hazrat va Kamol Qozi yig‘lab yubordilar. Hazrat yig‘laganlari ko‘yi o‘rinlaridan turdilar:

— Hoy-hoy bo‘talarim, nimalar bo‘lyapdi? Shuncha gaplar havoga uchdimi? Shayton yo‘ldan urdimi? Shaytonga hay bering!

Qo‘rboshi va ponsodlar uyalib, yerdan ko‘z uzolmay qoldilar. Nihoyat, Qorayozibuvolik Islom Polvon o‘rnidan turdi:

— Eshonbuvo! Bu yerda o‘tirganlar ko‘pchiligidan sizning muridlaringizmiz. Bizni ma’zur tutadilar, qizishib ketdik. Bizning pirimiz ekanlar, nomzodni o‘zlar ko‘rsatsinlar, biz shunga bo‘yinsunaylik.

O‘tirganlar ichidan:

- To‘g‘ri aytynapti polvon.
- Boshdan bosh shunday qilishimiz kerak edi.
- Hazrat o‘zlar munosib odamni ko‘rsatsinlar,— degan xitoblar yangradi.

— Rahmat, farzandlarim, — dedilar hazrat,— menga qolsa, hammalaringiz ham amirlashkarlikka munosibsizlar. Eng munosiblaringiz Ergashbek bilan Madaminbek. Shulardan birini tanlasak nima deysizlar?

— To‘g‘ri, deya ma’quilladi jamaot.

Kamol Qozi yana raislikni qo‘lga oldi:

— Unday bo‘lsa, hammangiz o‘rningizdan turingiz. Ergashbekni ko‘rsatuvchilar mening o‘ng tarafimga, Madaminbekni ko‘rsatuvchilar chap tarafimga o‘tsinlar. Mirodilboy, siz ularni sanab, hisobini oling.

Odamlar o‘rnilaridan turib, ikkiga ayrila boshladilar. Ba’zilar boshini qashlagancha o‘rtada bir oz

turib qoldilar. O’ngdan-chapga, chapdan-o‘ngga o‘tib olganlar ham bo‘ldi. Jami oltmishto‘rt odamdan o‘ttiz uchtasi o‘ng tarafga, o‘ttiz bittasi chap tarafga o‘tgani ma’lum bo‘lgach, Kamol Qozi Ergash qo‘rboshiga xitob qildi:

— Ergashbek, amiralmusliminlik va amirlashkarlik sizga muborak bo‘lsin!

Qozining ishorasi bilan yigitlar oq kigiz olib keldilar. Barchalari hovliga chiqdilar. Ikki yigit katta bir oq qo‘chqorni olib kelib so‘ydlilar. Qonini kigizning bir chekkasiga tekizdilar. Shundan so‘ng ulamolar Katta Ergashbekni kigizga olib o‘tdilar. Ko‘pchilik bo‘lib kigizning to‘rt tomonidan ko‘tarib, davrani to‘qqiz marta aylanib chiqdilar. Kigiz yerga tushirilgach, hozir bo‘lganlar Ergashbekni muborakbod etib, tavob ayladilar.

Shundan so‘ng qurultoy raisligini Katta Ergashbek o‘z qo‘liga olib, vazifalarni taqsimladi: Madaminbek bosh muovin hamda vodiyning sharq tomoniga qo‘mondon etib tayinlandi. Joylardan kelgan qo‘rboshilar o‘z hududlariga sardor bo‘ldilar, so‘ngra o‘zaro aloqa yuritish, oziq-ovqat, o‘qdori, qurol-yarog‘ masalalari muhokama etildi.

Qurultoy majlisi tamom bo‘lgach, barcha ishtirokchilar ziyofatga taklif etildilar.

Shu o‘rinda amiralmuslimin saylash masalasida yana bir bor xorijiy manbalarga munosabat bildirib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Mazkur manbalarda Shermuhammadbekning ukasi Nurmuhhammadbek xotiralariga asoslanib, ayni mazkur qurultoysi Shermuhammadbek amiralmuslimin etib saylanganligi ta‘kidlanadi. Biroq, yuqoridagi yodnomada ko‘rib o‘tkazganimizdek, bu martabaga Katta Ergashbek erishdi.

Mazkur tarixiy qurultoyning ta’sir kuchi uzoq davom etmadni. Boshida bir qancha qo‘rboshilar bosh qo‘mondon bilan aloqada bo‘lib, bamaslahat ish ko‘rib tursalarda, ko‘p o‘tmay yana har kim o‘z bilganicha harakat qilishga o‘tib ketdi. Buning asosiy sabablaridan biri, Ergashbekning Farg‘onadan katta bir hududni qamrab olgan kurashga boshchilik qilishga salohiyati va iqtidori yetmaganligi, yetarli darajada qat’iyat va qattiqqo‘llik ko‘rsatib, jilovni qo‘lda mahkam tuta olmaganligi, yuqorida eslatilganidek, yarador bo‘lgach, faoliyati sustlashib, parishonxotir bo‘lib qolganligida bo‘lsa, ikkinchi asosiy sabab, o‘sha mudhish kasallik – “o‘zim bo‘lay”- chilik deyarli barcha yirik sardorlarni o‘z komiga olganligida edi. Qo‘rboshilar o‘rtasida murosasizlik yuqolishi o‘rniga kuchayib bordi, hatto bu murosasizlik ikki asosiy sardor – Ergashbek va Madaminbek o‘rtalarida qurolli to‘qnashuvgacha olib bordi.

Shunday bo‘lsada, 1918 yilda milliy-ozodlik harakati kuchlari katta g‘alabalarga erishdilar. Bu davrda Sovetlar Rossiyasi harbiy kuchlari juda ko‘p jabhalarda janglar olib bordi. Sharmandali Brest sulhi tuzilib, Germaniya hujumi to‘xtatilgan bo‘lsada, Rossiyaning sobiq ittifoqchilari bo‘lmish Antanta davlatlari hujum boshlab yuborgan, mamlakat ichkarisida esa fuqarolar urushi boshlanib, Kolchak, Yudenich, Denikin, Petlyura, Kornilov va boshqa sarkardalar ichki Rossiyadagi kattagina hududni egallagan edi. Ataman Dutov Orenburgni egallab, Rossiya va Turkiston o‘rtasidagi asosiy yo‘l harakatini to‘xtatib qo‘yanligi tufayli markaziy hukumat Turkistonga yirik harbiy kuch yuborish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Shuningdek, Turkiston ASSR hukumati va joylardagi Sovetlarning shovinistik siyosati, mahalliy hokimiyat organlariga joylashib olgan unsurlarning talonchiligi, axloqsizligi, arman dashnoqlarining beboshliliklariga erk berib, uning saflarini to‘ldirib turdi.

1876 yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, uning asosiy o‘zagi bo‘lmish Farg‘ona vodiysi Turkiston general-gubernatorligining Farg‘ona oblastiga aylantirilgach, yangi ma’muriy markaz bunyod etish ehtiyoji tug‘ildi. Milliy va diniy ruh kuchli bo‘lgan, shuningdek, tabiati sershamsol, bir oz zahkash Ho‘qand harbiy gubernator Skobelevning didiga o‘tirmadi. U Yormozor yaqinidagi qadimiy Sim qishlog‘i o‘rnida zamnaviy shaharcha qurib, viloyat markazini shu yerga ko‘chirdi. Bu shaharcha gubernator nomini olib Skobelev (o‘zbeklar talaffuzida Iskobil) deb atala boshladi. Beshbola, Beklar, Surxtepa, Kanjig‘a, Yormozor, Chekshura qishloqlari oralig‘ida joylashgan bu rus shahrida mahalliy aholi vakillari ham istiqomat qilar edi. Shulardan biri Yormozorlik Hamidjonboyning yetim qolgan o‘g‘li Yodgorboyvachcha Iskobildagi zamnaviy mакtabda o‘qib, tijorat ilmini o‘rgandi va o‘z

salohiyati, sa’yi-harakati bilan katta boylar davrasiga kirib qoldi. Istanbul, Boku, Qozon, Ufa, Ho‘qandda chop etiladigan milliy ruhdagi gazetalarni muntazam o‘qib, ko‘zi ochildi, jadidlar bilan tanishdi... Milliy-ozodlik harakatiga xayrixoh bo‘lgan yuzlab odamni bolsheviklar Marg‘ilonga olib borib, xalqni vahimaga solish maqsadida ko‘kraklariga “bosmachilarning hamtovog‘i” degan yozuv osib, shahar ko‘chalari bo‘ylab sazoyi qildilar va Isqobil qamoqxonasiga qamab qo‘ydilar.

Bu xabar G’orbuvoga yetib kelganda Madaminbek va Shermuhammadbek Chimyon hujumiga tayyorlanib turgan edilar. Chimyon o‘sha davrda Farg‘onaning asosiy neft koni bo‘lib, unda besh mingga yaqin kishi ishlar, konchilarning aksariyati rus, armanilardan iborat, mahalliy aholi vakillari juda oz edi. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan bu kon hamda undan Oltiariqqacha cho‘zilgan neft quvurlari kattagina garnizon va unga bo‘ysunadigan maxsus qismlar tomonidan qattiq qo‘riqlanar edi. Kon ochilgandan beri mahalliy aholining kattagina qismi serhosil yerlardan toshloq adirlarga ko‘chirib yuborildi. Askarlar va kon xodimlari qishloqqa to‘liq xo‘jayin bo‘lib olib, mahalliy aholiga zulm o‘tkazar, sha’niga tegar edilar. Kunlardan birida askarlar va ishchilardan bir guruhi adirga ovga chiqdilar. Ovlari baroridan kelmay o‘sha yerda o‘zları bilan olib chiqqan aroqlarini ichib, mast bo‘lib qishloqqa qaytayotib, yaylovda o‘tlab yurgan qishloq podasiga duch keladilar. “Ovchi”lar podani ko‘rib, o‘zlarining “toptalgan ovchilik nafsoniyat”larini eslab, podani o‘qqa tutadilar. Podachilar hayhaylab yugurib kelganlarida ularga ham o‘q uzadilar. Bu voqealarning sabr kosasiga oxirgi tomchi bo‘ldi. Aholi qo‘liga tushgan narsa bilan qurollanib chiqayotgan paytda bir necha uzoqni ko‘radigan oqsoqollar ularni to‘xtatib, “ — Shoshilmanglar, yigitlar, qo‘limizdagি ketmon pashaxalar bilan yaxshi qurollangan minglab sallotlarga qarshi hech ish chiqara olmaymiz, behuda qon to‘kilgani qoladi, Siddiq boyvachchani kutaylik” — dedilar. Siddiq boyvachcha Chimyon boylaridan bo‘lib, milliy kurashga qo‘shilgan, yashirin tarzda yigit to‘plab, qurol-yarog‘ yig‘ayotgan, o‘sha paytda shunday yumush bilan Mindonga ketgan edi. Chimyonga qaytib, yuz bergen voqeani bilgach, hozirgi o‘zining oz sonli yigitlari va qurolsiz qishloq ahli bilan katta kuchga ega bo‘lgan dushmanga bas kelolmasligini his etib, G’orbuvoga chopar jo‘natib, yordam so‘ragan edi.

Madaminbek va Shermuhammadbek maslahat qilib, o‘zları Chimyonga hujum qilishga, Iskobilga Yodgor boyvachchaga yordam berishga Nurmuhhammadbekni yuborishga qaror qildilar.

20 aprel kuni ikki qo‘rboshining birlashgan kuchlari bir necha yo‘nalish bo‘yicha Chimyonga yo‘l olib, uni o‘rab oldilar. Jangga kirishdan oldin Madaminbek o‘z odati bo‘yicha qon to‘kishning oldini olish uchun Chimyon garnizoni boshlig‘i Yefimovga xat (ultimatum) kirdizib, agar garnizon qurol yarog‘ini topshirib, o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lsa, hech kimning hayotiga zomin bo‘lmasligini, aks holda ayovsiz jang qilishini bildirdi. Yefimov javob xati yuborib, Madaminbekning o‘zini taslim bo‘lishga taklif qildi. Dastlabki o‘qlar uzilgach, Siddiq boyvachcha Mindon yo‘nalishi bo‘yicha hujumga o‘tdi. Jang qizigandan qizidi. Garnizon boshlig‘i Yefimov janglarda pishgan, tajribali, salohiyatli zabit edi. U o‘z ixtiyoridagi otryadlardan birining boshlig‘ini chaqirib shunday buyruq berdi:

— “ChAL-2” (Chimyon — Oltiariq yo‘nalishi) neft quvuri ta’mirlanayotganini bilasan-a?
— Xuddi shunday, o‘rtoq komandir.

— Quvurlari neft qoldiqlaridan tozalangan. O‘z otryading bilan quvur ichiga tushib, Oltiariq tomon emaklab bo‘lsada, yurasan. Birinchi kilometrda quvur olib qo‘yilgan. O‘sha yerda quvurdan chiqib, bosmachilarning orqa tomonidan hujumga o‘tasan. Ko‘proq shovqin-suron qilinglar, dushman sizlarni ko‘pchilik ekan deb o‘ylasin. Qorong‘i tushib qoldi. Hoziroq yo‘l olinglar

— Xo‘p bo‘ladi, o‘rtoq komandir.

Bir soat o‘tar-o‘tmay otryad jangchilari quvurdan chiqib, “Ura” deb hayqirgancha orqadan hujum boshladi. Qo‘rboshilarning yigitlari Oltiariq tomonidan ruslarga yordam kuchi keldi deb o‘ylab, sarosimaga tushdilar. Shermuhammadbek sarosimaga tushmasdan, ichki bir tuyg‘u bilan orqadan hujum qilgan ruslar ko‘pchilik emasligini sezib, bir qism yigitlari bilan qarshi hujumga o‘tdi va ularni qirib tashladi. Sallotlardan bir nechtasi quvurga qaytib tushib, Yefimov oldiga qaytib bordilar va

bo‘lgan voqeani so‘zlab berdilar. Harbiy hiylasi ish bermaganligini ko‘rgan Yefimov oq bayroq ko‘tarishga majbur bo‘ldi.

Ikki sardor o‘rtasidagi birinchi ziddiyat shu yerda tug‘ildi. Madaminbek oq bayroqni ko‘rib, jangni to‘xtatishga buyruq berdi.

Bunga Shermuhammadbek e’tiroz bildirdi:

— Biz xat kiritib, ularni ogohlantirganmiz. Ular ogohlantirishni pisand qilmay, harbiy hiylasi ish bermagandan keyingina bayroq ko‘tardilar. Binobarin jangni davom ettirishga haqlimiz.

— Yo‘q, oq bayroq butun dunyoda tan olingan belgi. Barcha yerda, barcha janglarda oq bayroq ko‘tarilishi bilan jang to‘xtatiladi.

— Butun dunyo bilan nima ishim bor? Dushmanni hozir yanchib tashlamasak, ertaga u kuch yig‘ib bizni yanchib tashlamaydimi?

— Ertalik ishga Xudo razzoq.

— Bek, siz rahmdillik qilyabsiz. Lekin ular, xonasi kelsa, sizga rahm-shafqat qilarmikan? Bu rahmdillingiz bir kuni kelib boshingizga yetmasa, deb qo‘rqaman.

— Peshonada bo‘lsa xudodan ko‘rarman. Biroq, hozir oq bayroqni qonga bulg‘ashni xohlamayman.

— Meni xohlaydi deb o‘laysizda. Bu bayroq qonga belanib bo‘lganku. Agar ular bayroqni jangdan oldin ko‘targanda, shuncha qon to‘kilmagan bo‘lar edi. Mayli, bu safar irodangizga bo‘ysunaman...

Yigitlar qizil askarlarni qurolsizlantrishga boshladilar. 800 ga yaqin miltiq, bir necha pulemyot, shunga yarasha o‘q-dori o‘lja olindi. Yefimov xalqdan o‘ch olmaslikka zabitlik va’dasini bergach, ularni asir olmadilar. Oltiariqqa neft yetkazib beradigan quvurlarni bir necha joydan buzishgach, G‘orbuvoga qaytib ketdilar. Qo‘rboshilar manzilga yaqinlashib qolganlarida Oltiariq stantsiyasiga Iskobildan katta qizil gvardiyachi qism Chimyon himoyasi uchun yetib keldi.

Endi Nurmuhhammadbekning ishlaridan xabar olaylik. Nurmuhhammadbek Iskobil shahri vodiydagi qizil kuchlarning tayanch nuqtasi ekanligini, mudofaa qay darajada tashkil etilishini yaxshi bilgan holda shoshilmay, puxta ish ko‘rishga qaror qildi. “Shahar ko‘rgan” ellik-oltmish chog‘li yigitni bozorchi, dehqon, mardikor qiyofasida shaharga razvedkaga yuborib, u yerga kirib chiquvchilarni tekshiradigan nuqtalar (postlar) qaerlarda joylashganligini, postlarga yo‘liqmay kirish mumkin bo‘lgan joylarni aniqlashni topshirdi. Nihoyat, shaharni tun qorong‘uligi o‘z og‘ushiga olgach, uning ming kishilik qo‘shini bir necha qismga bo‘linib, boyagi razvedkachilar boshlovida shaharga kirib bordilar. Dunyoda it degan o‘ta sezgir bir maxluq bor. Yigitlar chekka mahallalardan o‘tib kelayotganda, begona hidlarni sezgan mazkur mahallalar itlari yoppasiga hurishga tushadi. Ularning ovozini eshitgan boshqa mahallalar itlari ham ularga jo‘r bo‘ldilar. Butun shaharni akillagan, vovullagan tovushlar bosib ketadi. Postlarni shaxsan tekshirib shahar ko‘chalari bo‘ylab yurgan garnizon boshlig‘i Golikov itlarning bu darajada hurishini eshitib, xavotirga tushdi va garnizonni oyoqqa turg‘azdi. Favqulodda komissiya viloyat bo‘limi boshlig‘i ham voqeani anglab, ya’ni qamoqdagilarni qutqarish uchun shaharga dushman kuchlari kiritilganini anglab, o‘z ixtiyoridagi askarlar bilan qamoqxonaga yetib bordi.

Garnizon oyoqqa turgach, ko‘cha janglari boshlanib ketdi. Itlarning hurishi, o‘q ovozlari, shovqinsurondan bedor bo‘lgan iskobililik o‘zbeklarning bir qismi ham qo‘liga bolta, belkurak, pichoq, dastkallak, tayoq va boshqa narsalarni olib, ko‘chaga chiqdilar va qamoqxona sari yurdilar, zero, ko‘plab kishilarning nohaq qamalishi aholining g‘azabini junbushga keltirgan edi.

ChK boshlig‘i qamoqxona boshlig‘iga buyruq berib, Yodgorbek va uning yigirmadan ortiq safdoshlari – qo‘rboshilarga moddiy yordam berib yurgan kishilarni kameralardan oldirib chiqib, qamoqxona hovlisida qatl ettirdi. Ozodlik jangchilari qamoqxonaga yetib kelganda Iskobil xalqi bu kushxonani egallab bo‘lgan edi. Qamoqxonaning barcha eshik va darvozalari lang ochib qo‘yildi. Bu yerda yotganlarning barchasi – mingdan ziyod mahbus ozod etildi. Ularning katta bir qismi Nurmuhhammadbek dastasiga o‘z ixtiyori bilan qo‘shildi. Bu mahbuslar ichida haqiqiy jinoyatchilar ham yo‘q emas edi. Qamoqxonalarni bosib, mahbuslarni ozod qilish birgina Nurmuhhammadbekka

emas, balki ko‘plab qo‘rboshilar tomonlaridan ham amalga oshirilgan. “Tarki odat amri mahol” deganlaridek, shahar va qishloqlarni ozod etish uchun bo‘lgan janglarda guruhga qo‘silib qolgan ayrim sobiq mahbuslar o‘z eski hunarlarini qo‘msab, talonchilik, o‘g‘rilik, zo‘rlash bilan shug‘ullanganlari ma’lum. Madaminbek va Shermuhammadbek bunday jinoyatchilarni juda qattiq jazolaganlari ham ma’lum. Lekin, shunday bo‘lsada, pokiza nomga dog‘ tushirish uchun butun bir ozodlik kurashi mobaynida sodir etilgan bir-ikki jinoyat ham yetib ortadi. Qizil gvardiyachilar va ayniqsa ularga qo‘silib olgan arman dashnoqlari muntazam ravishda talonchilik, zo‘ravonlik bilan shug‘ullanganlari holda milliy-ozodlik harakati safiga yuqoridagi tarzda qo‘silib qolgan yakkamdukkam jinoyatchilarining bir-ikki marta sodir etgan jinoyatlari milliy-ozodlik harakati faoliyatiga dog‘ tushira olmasa ham, gap-so‘zlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, qizil tashviqotchilar ana shunday bir-ikki jinoyatni milliy ozodlik harakatining asosiy faoliyati sifatida ko‘rsatib keldilarki, bu hol hatto mustaqillik davrida ham milliy-ozodlik harakati dolzarb ilmiy publitsistik mavzu darajasiga ko‘tarila olmasligi omillaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Alqissa, Nurmuhhammadbek Yodgorbek va uning yaqin safdoshlarini qutqarishga ulgura olmasa ham, qamoqxonani vayron qilib, mahbuslarni ozodlikka chiqarib, g‘alaba bilan G‘orbuvoga qaytib keldi. Bu hujumning eng ahamiyatli tomonlaridan biri, unda xalq ommasi ishtirok etganligida bo‘lsa, ikkinchisi, qizil kuchlarning markaziga berilgan zarba ekanligidadir.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan jang-jadallar Farg‘ona vodiysidagi milliy-ozodlik harakati yilnomasidan 1918 yilga oid ayrim lavhalar, xolos.

1918 yilning yoz-kuz oylarida kurash qizg‘in davom etdi, qishga borib susaydi. Barcha qo‘rboshilar yil mobaynida o‘z hududlarida ustunlikni ushlab turdilar. Qish ichi har ikki tomon ham kelgusi yil janglariga tayyorgarlik ko‘rish bilan band bo‘ldilar. 1919 yilning erta bahorida janglar yana qizib ketdi va bahorgi-yozgi urush harakatlari milliy-ozodlik kuchlarining ustunligi bilan o‘tdi. Kuzga tomon esa vaziyat sovetlar foydasiga o‘zgara boshladi: bu ketishda Turkistonni qo‘ldan boy berib qo‘yishdan xavfsiragan markaziy hukumat shoshilinch choralar ko‘rishga kirishdi. Turkistondagi vaziyatni o‘rganish, undan xulosalar chiqarish, o‘lkani qo‘lda saqlab qolish hamda milliy-ozodlik harakatiga chek qo‘yish choralarini belgilash uchun Moskvadan katta vakolatlar bilan Turkomissiya (to‘liq nomi Butunrossiya MIK va XKS ning Turkiston ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyasi) yuborildi. Uning tarkibi ashaddiy shovinistlar: M.V.Frunze, V.V.Kuybishev, Ya.E.Rudzutak, Sh.Z.Eliava (rais) va boshqalardan iborat edi. Komissiya har qanday mansabdorni (Turkiston doirasida) ishdan olish, ishga qo‘yish, qamoqqa olish, o‘lim hukmini chiqarish, harbiy qismlar tuzish, urush e’lon qilish, sulh tuzish, favqulodda holat e’lon qilish kabi katta vakolatlarga ega edi. Shu bilan bir vaqtida Toshkentdan Farg‘ona vodiysiga favqulodda komissiya yuborildi. Uning tarkibida Turor Risqulov, Nizomiddin Xo‘jaev, Yusuf Aliev, Husain Ibrohimov kabi mahalliy millat vakillari ham bor edi. Favqulodda komissiyaning asosiy vazifasi: vodiydagi vaziyatni o‘rganish, tahlil va taftish qilish, aholini sovetlardan bezdirib, “bosmachilar” tomon o‘tib ketish omillarini aniqlash va bartaraf etish, qo‘rboshilar bilan sulh tuzishdan iborat deb topildi. Mahalliy millat vakillari, ayniqsa, Turor Risqulov va Nizomiddin Xo‘jaevlar taftishni o‘ta sinchkovlik va qat’iyat bilan olib bordilar. Taftish asnosida mahalliy sovetlar rahbarlari va a’zolari, qizil armiya qismlari, arman dashnoqlari tomonidan xalqqa qarshi sodir etilgan juda ko‘p jinoyatlar aniqlandi (Komissiyaning faoliyati kitobimizning boshlanish qismlarida ham qalamga olingan). Biroq taftish xulosalarini undan kelib chiqqan takliflar Turor Risqulovning o‘ziga nisbatan ayblov xulosasi sifatida ishlatilib, u burjua millatchisi sifatida komissiya tarkibidan chiqarib yuborildi. Shunday bo‘lsada, Turkkomissiya mazkur xulosalar va takliflarni o‘z xizmatlari hisobiga qo‘shib, undan foydalandi. Chunonchi: arman dashnoqlari qurolsizlantirildi va ashaddiylicha qamoqqa olindi, joylardagi sovetlar va revkomlar boshliqlarining aksariyati ishdan olindi, hukumat dehqonlarga urug‘lik, ishlab chiqarish vositalari bilan yordam ko‘rsatajagini e’lon qildi; “bosmachi” va “bosmachiga yordam beruvchi” kabi ayblar bilan qamoqqa olingan tinch aholi vakillarining katta qismi hibsdan ozod etildi.

Turkkomissiya va Favqulodda komissiyaning asl maqsadi – Turkiston va jumladan Farg‘ona vodiysida davom etayotgan milliy-ozodlik harakatini fuqarolar urushiga aylantirish yo‘li bilan bostirish, ya’ni, “sopini o‘zidan chiqarish” edi. Bu borada quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Qo‘rboshilar bilan sulk muzokaralarini yuritish va sulk tuzilishiga erishish. Sulk shartnomasiga quyidagi moddalarni kiritish: — Sovet qo‘mondonligi bilan sulk tuzgan qo‘rboshi va uning yigitlari hech qanday jazoga tortilmaydi.

Qo‘rboshilar va ularning yigitlari, agar xohlasalar, harbiy faoliyatni tashlab, tinch mehnat bilan shug‘ullanishlari mumkin;

Qo‘rboshilar va ularning yigitlari, agar xohlasalar, qurol-yarog‘larini topshirmagan holda o‘z hududlarida tinchlik-osoyishtalikni ta‘minlovchi militsiya qismiga aylantirilishi yoxud qizil armiyaning muntazam qismlaridan biriga aylantirilishi mumkin.

2. Sovet idoralariga yakka holda kelib taslim bo‘lgan kishilarning tinch mehnat bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratiladi, ular mehnat faoliyati uchun xomashyo, kredit yo‘lidagi sarmoya bilan ta‘minlanadi. Sobiq sheriklarining qasd va tajovuzidan o‘zini o‘zi himoya qilishi uchun oti va qurol yarog‘i o‘zida qoldiriladi.

3. Qishloqlarda o‘z-o‘zini himoya qilish otryadlarini tuzish. Bu otryadlarni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlash, agar zaruriyat bo‘lsa, ularga harbiy instruktorlar biriktirish.

4. Sulk tuzgan qo‘rboshilar va ularning yigitlariga, yakka holda taslim bo‘lgan sobiq bosmachilarga hali taslim bo‘lmasa guruhlarga borib, sulk tuzish borasida tashviqot olib borish vazifasi yuklatilsin.

Ushbu vazifalardan ko‘zda tutilgan muddao hech qanday izohga o‘rin qoldirmasa kerak. Bu degani, millat ichida o‘zaro nizo chiqarish, akani ukaga, otani bolaga dushman qilish degani emasmi? Muayyan bir qo‘rboshi sulk tuzgandan so‘ng o‘z yigitlari bilan qandaydir “musulmon diviziysi” polklaridan biriga yoki “musulmon o‘qchi brigadasi” qismlaridan biriga aylanadi. Shundan so‘ng u harbiy harakatlarda ishtirok etishga, o‘zining sobiq safdoshi bo‘lgan boshqa bir qo‘rboshi bilan jang qilishga majbur. Agar shunday qilmasa, urush davri qonunlari asosida tribunalga tortiladi. O‘z sobiq safdoshiga qarshi urushishni istamagan holda majburan maydonga tushdi ham deylik, u xohlasa-xohlamasa, loaqlal o‘zini himoya qilish uchun ham o‘q uzishga, yakkama-yakka olishishga majbur, illo jangning “O‘ldir, aks xolda seni o‘ldiradilar” degan shafqatsiz va yagona qonuni bor. Undan hech kim hech qayoqqa ochib qutula olmaydi.

Ko‘p joylarda rahbarlari yangilangan sovetlar, revkomlar va qo‘mondonlik yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni bajarishga izchillik bilan kirishib ketdilar: tinch aholiga tajovuz qilgan, ularning molini talagan, nomusiga tekkan rahbarlar, xodimlar, komandirlar va askarlar uchun o‘lim hukmi belgilanadi; qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sohalarida shirkatlar tashkil etilib, shirkatlar bilan dehqonlar, hunarmand-kosiblar o‘rtasida har ikki tomon uchun foydali shartnomalar tuzildi. Dehqon va kosiblar shartnoma asosida bo‘nak olib, o‘z iqtisodiy ahvollarini bir oz yaxshilab ola boshladilar; urushda boquvchisini yo‘qotgan oilalar uchun moddiy yordam tashkil etildi; qo‘mondonlik vodiydagi obro‘-e-tiborli kishilarni ishga solib, sulk tuzish imkoniyatlarini o‘rgana boshladilar.

Ko‘p o‘tmasdanoq ushbu ko‘rilgan chora-tadbirlar tizimi o‘z mevasini bera boshladi. Xalqda sovetlarga bo‘lgan sovuq munosabat bir oz yumshadi; milliy-ozodlik kurashi ishtirokchilari saflariga qo‘shilish, ularga moddiy va ma‘naviy ko‘mak berish borasida ikkilanish paydo bo‘ldi. Hukumat tomonidan avf etilgan va moddiy ko‘mak olgan ayrim sobiq kurashchilar milliy-ozodlik kuchlari saflari orasida sovet hukumati bilan yarashish, qo‘rboshilar yarashmagan taqdirda yakka-yakka borib taslim bo‘lish haqida tashviqot yurita boshladilar.

Qo‘rboshilar o‘rtasida ham ikkilanish, taslimchilik kayfiyatları yuzaga keldi. Ayrımları sulk tuzib, qizil armiya safida o‘z sobiq safdoshlariga qarshi janglarni boshlab yubordilar. Eng dastlab sulk tuzgan sardorlar Mahkamxo‘ja, Akbarali, Umarali edilar. Keyinroq ular safiga To‘ychi Qo‘rboshi, Qoravoy Qo‘rboshi, Hamdam xoji Qalandarovlar ham qo‘sildi. Ergash qo‘rboshiday yirik sardor, amirlashkarmusliminning ham sulk borasida muzokaralar boshlab yuborgani va nihoyat, sulk tuzgani

barchani hayron qoldirdi. Ba’zi sulh tuzgan qo‘rboshilar aldanganlarini sezib qolgandan so‘nggina ozodlik harakati lashkarlari safiga qaytdilar. Bir necha marta bu tomongan u tomonga, u tomongan bu tomonga o‘tgan qo‘rboshilar ham bo‘ldi.

Qissadan bir oz oldin ketib bo‘lsada, shuni ta’kidlashimiz joizki, sulh tuzgan qo‘rboshilarning qariyb xammasi o‘zlarining adashganliklarini juda kech angladilar. Yana shuni kuzatamizki, qizil armiya bilan sulh tuzib, uning saflarida milliy-ozodlik lashkariga qarshi jang qilgan qo‘rboshilarning birortasi ham kasal bo‘lib yoki yoshini yashab, oshini oshab o‘lgan emas. Sovet hokimiyati ulardan foydalanib bo‘lgach, deyarli barchasiga turli ayblar taqab, jisman yo‘q qilganlar. Biror tasodif bilan tirik qolganlari esa Stalin qatag‘oni davrida 1937 yilda xalq dushmani sifatida otib tashlandi yoki uzoq begona yurtlarda qamoq jazosini o‘tashga hukm qilindi. Ularning katta qismi lagerlarda o‘lib ketdilar.

AMIRALMUSLIMIN SHERMUHAMMADBEK

Madaminbek oq ruslar bilan ittifoq tuzdi-yu, o‘zining sobiq ittfoqchilaridan ayrılayozdi. Xolxo‘ja Eshondan boshqa qo‘rboshilar Madaminbekning bu qilmishini ochiqdan-ochiq qoralamagan bo‘lsalarda, o‘rtaga sovuqchilik tushdi. Unga bevosita o‘z qo‘li ostida jang qilib kelgan qo‘rboshilar va qirg‘iz qo‘rboshilarigina sodiq qoldilar. Boshqa katta va kichik qo‘rboshilar “Hozir Madaminbekning qo‘shini musulmonlar va g‘ayridinlardan iborat, binobarin, endi u tom ma’noda amiralmuslimin (musulmonlar amiri) bo‘la olmaydi”, — degan xulosaga keldilar.

Sentyabr oyida ular G‘orbuvoda to‘planib, Shermuhammadbekni amiralmuslimin etib sayladilar. Shuningdek, qurultoyda milliy-ozodlik harakati oldida turgan vazifalar yana bir bora aniqlashtirib olindi, kelgusi janglar strategiyasi va taktikasi ko‘rib chiqildi. Bu anjumanda, shuningdek, Madaminbek sha’niga issiq-sovuq gaplar ham aytildi, kimdir uni ochiqdan-ochiq so‘ksa, kimdir taassuf bildirdi, xayrixohlari esa, bir oz so‘z aytishga jur‘at etolmay o‘tirdilar.

Madaminbek va boshqa qo‘rboshilar o‘rtasiga tushgan sovuqchilik hozircha milliy-ozodlik kurashiga salbiy ta’sirini o‘tkazmay turdi. Bir tomongan Madaminbek boshchiligidagi musulmon-rus qo‘shini, bir tomongan Shermuhammadbek rahbarligidagi o‘zbek qo‘rboshilar, bir tomongan Muhiddinbek, Jonibek Qozi kabi yirik qirg‘iz qo‘rboshilar qizillarni ko‘z ochirmay, ketma-ket zafarli janglar olib bordilar.

Bir necha bor harakat qilib sulhga erisha olmagan qizil qo‘mondonlik g‘azabdan o‘zini qaerga qo‘yishini bilmay terror harakatlarini boshlab yubordi. G‘azab o‘ti asosan Shermuhammadbek va Madaminbek kabi sardorlar, ularning tug‘ilib o‘sgan joylari, qarindoshlari hamda ozodlik kurashining ma’naviy markazi bo‘lmish Qo‘qonga qaratildi. Qo‘rboshilarning qarindosh-urug‘lari qisman o‘ldirilib, qisman qamoqqa olinib, surgun qilina boshlandi, ularning mol-mulkulari musodara qilindi. Bu o‘rinda qizil terrorchilar Madaminbek va Shermuhammadbekning Sharqiy Farg‘onada janglar bilan band ekanligidan foydalanib qoldilar.

Bu voqealarni eshitgan Shermuhammadbek o‘zining Marg‘ilondan uzilib ketmaganligini bildirib quyish, xamda o‘ziga kuchi yetmay, himoyasiz qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shni, tanish-bilishlardan o‘ch olishga kirishgan qizillarning yaxshilab adabini berib qo‘yishga ahd qildi. Marg‘ilon atroflariga yashin tezligida qilinadigan hujum rejası ikir-chikirlarigacha puxta o‘ylab tuzildi. Shu kunlarda Shermuhammad qo‘shini adadi olti ming nafarga borar edi. Jang rejasiga muvofiq, mazkur olti ming jangchi quyidagi tartibda taqsimlandi:

- 1000 nafar yigit Dardoqbek qo‘rboshi boshchiligidagi Marg‘ilon uezdida shimol tomongan;
- 1000 nafar yigit Yusuf Polvon boshchiligidagi g‘arb tomongan;
- 2000 nafar yigit Nurmuhhammadbek boshchiligidagi Gorchakovo temir yo‘l bekti tomonga;
- 2000 nafar yigit Shermuhammadbek boshchiligidagi asosiy yo‘nalish, ya’ni Marg‘ilon tomon hujum qiladigan bo‘ldilar.

1919 yil 10-yoki 11 oktyabr kuni qismlar o‘zlariga buyurilgan joylarga yetib borgach, bir vaqtning

o‘zida jang boshlab, Marg‘ilanni o‘rab kela boshladilar. Qizillar qandaydir yo‘l bilan qo‘rboshilarning jangga kirish yo‘llarini bilib olganlar shekilli, shaharda katta qo‘shin to‘pladilar. Shuningdek, Namanganda turgan qismlarga ham ehtiyot shart Marg‘ilon sari yurish buyurildi.

Jang shiddat bilan boshlanib, shu tarzda davom etdi. Bu jangda Shermuhammadbek turkiy xalqlar harbiy san’atidan meros qolgan bir usulni qo‘lladi: bir guruh otliq yigitlar dushmanga juda yaqin borib, qizg‘in jangga kirishib ketdilar. Jang ayni qizigan paytda oldindan tayinlab qo‘ylgan bir necha yigitlar “— Esing bo‘lsa, o‘zingni qutqar”, “qochmagan nomard” deb qichqirishib, otlarini orqaga burib, qochib qoldilar. Ularni ko‘rgan boshqa yigitlar ham otlari boshini burib, tartibsiz holda qocha boshladilar. Ularning orqasidan ponsodlar nomiga “Qayt orqaga nomardlar, itday otib tashlayman” deb po‘pisalar ham qilib qo‘ydilar. Qizillar “basmach qochdi, ura” deganicha yigitlar ortidan changalzorga kirib keldilar. Bu yerda ularni Shermuhammadbek boshchiligidagi pistirma kutib turar edi. Pistirmadagilar qizillarni o‘tkazib yuborib, atrofini o‘rab tutday to‘ka boshladi. Qizil askarlar safi boshida qilich yalang‘ochlab kelayotgan komandir Shermuhammadbek qo‘lidan halokat topdi.

Boshqa yo‘nalishlarda ham qizillarga katta zarba berildi. Jangdan so‘ng barcha qismlar G’orbobo yaqinidagi bir mavzeda to‘plandilar va tartibli ravishda G’orbuvoga qaytdilar. 13-oktyabr kuni Namangandan yuborilgan katta harbiy qism Yozyovon cho‘li orqali kelayotgani ma’lum bo‘ldi. Shermuhammadbek o‘z qo‘shinini ikkiga bo‘lib, bir qismini ehtiyot shart uchun G’orbubo mudofaasiga qoldirdi. Ikkinchi qism bilan esa Yozyovon tomon yo‘l oldi. Har ikki qo‘shin Xonobod qishlog‘i yaqinida to‘qnash keldilar. Janglar to‘xtab-to‘xtab uch kecha-kunduz davom etdi va nihoyat, ozodlik kuchlari g‘alabasi bilan tugadi.

Ayni paytda Qo‘qon tomonda Islom Polvon, Oybola qo‘rboshi va boshqalar, Andijonda Parpibek, Namanganda Rahmonquli va Aliyor qo‘rboshi, Aravonda Xolxo‘ja Eshon, O’zgan va O’sh viloyatlarida qirg‘iz qo‘rboshilar katta g‘alabalarga erishganliklari haqida xabarlar tarqalib turdi.

TAHLIKA

Milliy-ozodlik harakatining 1919 yildagi zafarli yurishi sovetlarni qattiq tahlikaga solib qo‘ydi. Bu yurish o‘chog‘i Farg‘onada bo‘lgan kuchli zilzila Turkiston zaminini qattiq silkitib, uning to‘lqinlari Kreml minoralarini ham zirillatdi.

Vladimir Il‘ich Leninga qilingan suiqasd uni jisman yo‘q qila olmasada, to‘shakka mixlab qo‘ydi. U kasallikning xavfli davri o‘tgandan keyin ham “uy qamog‘i”dan chiqa olmadni, ya’ni, vrachlar unga davlat ishlari bilan shug‘ullanish, o‘qish, yozish, telefon va telegrafdan foydalanishni man etdilar. Biroq, Leninday odamni shundan mahrum qilib bo‘ladimi? U, garchi Sovnarkom majlislarida, mitinglarda qatnasha olmasada, Sovnarkomdagi ish kabineti kaliti undan “tortib” olingan bo‘lsada, Kremlagi kvartirasi va Gorkidagi dala hovlisidan turib mamlakatni boshqarishni tark etmadi. Mamlakat ulkan frontga aylangan va har lahzada taqdiri hal bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir pallada yotib olishni Lenin o‘zi uchun jinoyat hisoblar edi. Vrachlar har qancha taqiqlamasin, u o‘z kun tartibini xuddi ishlab turgan vaqtin holati bo‘yicha belgiladi.

Har kuni erta bilan muolaja va nonushtadan so‘ng uning kotibasi Fotieva ertalabki pochtani olib kelar edi. Pochta gazetalar, maktublar, telegrammalardan iborat bo‘lib, ularni Leninga olib kirishdan oldin Sovnarkom tomonidan maxsus belgilangan kishi avval bir ko‘rib chiqar, frontlardan kelgan noxush xabarlarni ichkari kiritmay, olib qolar edi. Buni bilib qolgan Vladimir Il‘ich “isyon” ko‘tardi: — Menga hayajonlanish mumkin emasmi? — deb so‘radi u o‘z yordamchilari va vrachlardan. — Agar meni hayajondan saqlamoqchi bo‘lsangiz, mendan hech narsani yashirmang. Kasalni ham, sog‘ odamni ham xunuk xabarlardan ko‘ra noma’lumlik, axborotdan mahrumlik ko‘proq hayajonlantiradi”.

Shundan so‘ng pochtani undan yashirmaydigan bo‘ldilar. Fotieva pochta olib kelganda, unga bir ko‘z yogurtirib olgach, “— Farg‘onadan pochta kelmadimi?” — deb albatta so‘rar edi. Mudofaa xalq komissari L.D.Trotskiy, bosh qo‘mondon S.S.Kamenev uning oldiga frontlardagi ahvol haqida axborot

bergani kirganlarida, ularni tinglab bo‘lib, “Farg‘ona frontida nima gaplar?” deb so‘rashni kanda qilmaydigan bo‘ldi. Farg‘ona frontidagi ahvol Vladimir Illich uchun shu darajada ahamiyatli ediki, u kutubxonada O‘rta Osiyo, xususan, Farg‘ona tarixiga, turkiy xalqlar harbiy san’ati tarixiga oid kitoblarni oldirib kelib o‘qishga vaqt topa oldi. Illo, muayyan bir xalqning, muayyan bir mamlakatning tarixini yaxshi bilmay turib, u bilan muomala qilish, uni itoatda tutish qiyinligini juda yaxshi his etar edi.

Vladimir Illichning butun dunyoga mashhur, aforizmga aylanib ketgan “Vostok – delo tonkoe” (Sharq masalasi o‘ta nozik masaladir) degan jumlesi bor. Ba’zi tarixchilar Lenin bu gapni Uzoq Sharqdagi voqealar munosabati bilan aytganligini ta’kidlasalarda, u na faqat Uzoq Sharq, balki, umuman Sharqni, shu jumladan O‘rta Osiyo, xususan Farg‘onani ham nazarda tutgani mubolag‘a emas.

Turkistonni bosib olish fikri dastlab Ivan Grozniyda uyg‘ongan edi. U Qozonni oldi, Sibirning bir qismini bo‘ysundirdi va niyatiga to‘liq yeta olmay o‘lib ketdi. Pyotr I Rossiyani imperiyaga aylantirgach, O‘rta Osiyoni bosib olish, Amudaryoning yuqori oqimi bo‘ylab Hindistonga chiqib borish va bu boy mamlakatni inglizlardan tortib olishni rejalashtira boshladi. Shu maqsadda O‘rta Osiyoga ekspeditsiyalar uyuشتirdi. U ham shum niyatiga yeta olmay o‘lib ketdi. Uning rejasini vorislari bosqichma-bosqich amalga oshirib bordilar. 1735 yilda Rossiyadan Qozoq dashtlari va u orqali O‘rta Osiyoga olib boradigan, Janubiy O‘rol orqali o‘tgan qadimgi savdo yo‘li ustiga, O‘rol daryosi sohiliga yirik va mustahkam bir qal‘a qurildi va unga “Sharq darvozasi” ma’nosida Orenburg (lug‘aviy ma’nosи “Sharqdagi shahar”) degan nom berildi. Bu qal‘a bir necha marta ko‘chirilib, nihoyat, yirik bir shaharga, guberniya markaziga aylandi. Orenburg shahri keyinchalik Turkiston mintaqasini bosib olishda asosiy muhim nuqta, tagzamin (forpost) vazifasini o‘tdi. Temir yo‘llar qurila boshlagach, Moskva — Toshkent temir yo‘li shu shahar orqali o‘tdi. Shu tariqa Orenburg Rossiya uchun O‘rta Osijo kaliti, darvozasi bo‘lib qoldi. Agar Orenburgga bir narsa bo‘lsa, O‘rta Osiyoning Markaz bilan aloqasi taqa-taq to‘xtab qoladi.

Rossiyada fuqarolar urushi boshlangach, yirik kazak qo‘mondoni ataman Dutov Orenburgni egallab, Turkistonni Markazdan ajratib qo‘ydi va bu shaharni deyarli bir yil qo‘lda tutib turdi. Nihoyat, 1919 yil bahorida Orenburgni ozod qilish uchun yirik sarkarda Mixail Vasilevich Frunze qo‘mondonligidagi katta qo‘sish tashlandi, Orenburg fronti tashkil etildi. Ko‘p o‘tmay Frunze Dutovga kuchli zarba berib, shaharni ozod qilishga muvaffaq bo‘ldi. Shahar olingach, u o‘z qo‘sining bir qismini bu yerning mudofaasi uchun qoldirib, katta qismini Turkistonga yubordi va o‘zi bu haqda hisobot berish va kelgusidagi vazifalarni aniqlashtirib olish uchun Moskvaga yo‘l oldi. Uning kelganini eshitgan Vladimir Il‘ich ertasigayot o‘z huzuriga chorladi. Frunzeni g‘alaba bilan tabriklagach, asosiy mavzuga o‘tdi:

- Mixail Vasilevich, nima deb o‘ylaysiz, Turkistonni o‘z qo‘limizda saqlab qola olamizmi?
- Albatta, Vladimir Illich, saqlab qolamiz. Biroq qiyin bo‘ladi.
- Har qancha qiyin bo‘lsada, saqlab qolishimiz shart. Turkistonning, ayniqsa, asosiy paxta bazamiz bo‘lgan Farg‘onaning biz uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini sizga tushuntirishning hojati yo‘q.
- Tushunaman, Vladimir Illich. Hozirgi jahon urushida paxtaga ehtiyoj katta bo‘lgan bir sharoitda barcha urushayotgan davlatlarning ko‘zi Farg‘onaga qadalgan.
- Ha, urush boshlangandan beri Farg‘onadan paxta ololmay qoldik. Paxta bor, biroq bizga yetib kelolmayapti. Bosmachilar uni bu tomonga o‘tkazmayapti. Kuni kecha paxta borligiga ishonch hosil qildik.
- Qanday qilib?
- O’n-o‘n besh kun bo‘ldi, shu xonaga, mening huzurimga Feliks Edmundovich keldi. Dzerjinskiy siz yaxshi bilasiz. U g‘alati bir taklif bilan kelibdi. Eshitganingiz bordir, Qo‘qonda Potelyaxov degan yahudiy yirik paxta magnati (korchalloni) bor edi. U yaqin yigirma yildan beri

Ivanovo, Moskva, Lodz, Krakov va boshqa to‘qimachilik markazlarini paxta bilan ta’minlab kelgan.

— Eshitganda qandoq, Vladimir Illich, axir mening xam asosiy faoliyatim Ivanovoda o‘tgan-ku...

— O’sha Potelyaxov sizga ma’lum Qo‘qon muxtoriyatida hukumat a’zosi bo‘lgan hamda muxtoriyat tor-mor etilgach, qamoqqa olinib, Moskvaga olib kelindi va Lubyankada saqlandi. Uning boy qarindoshlari Dzerjinskiy bilan uchrashib, muzokara yuritishibdi. “— Agar Potelyaxovni ozod qilsangiz, bir eshelon paxta beramiz” deyishibdi. Feliks Edmundovich mendan maslahat va ruxsat so‘rab kelibdi. Men rozi bo‘ldim, chunki paxta bizga nihoyatda zarur.

— Bu gapdan xabarim bor, Vladimir Il’ich, illo, Feliks Edmundovich bilan Samaradan poezdda birga keldik. U paxtani olib, Potelyaxovni ozod qilib ulguribdi. Hatto Feliks Edmundovich uni menga eng zo‘r mutaxassis sifatida ta’riflab, Turkkomissiyaga savdo masalalari bo‘yicha maslahatchi qilib olishni tavsija etdi.

— Oldingizmi?

— Ha, bizga u kabi mutaxassislar ham zarur.

— O’zi bu Qo‘qon muxtoriyatiga zo‘r mutaxassislar to‘plangan ekan, Obidjon Mahmudov deganini olib ko‘raylik. U mazkur hukumatda oziq-ovqat ministri bo‘lgan. O’zining son-sanoqsiz ixtisoslari bilan bir qatorda huquqshunoslik hamda xalqaro munosabatlar ilmini ham shu qadar suv qilib ichib yuborgan ekanki, ChK uni qamoqqa olish uchun hech qanday asos, ilintiradigan biror fakt topolmadidi. Zo‘r mutaxassis sifatida Sovnarkomga paxta savdosi bo‘yicha maslahatchi qilib ishga oldik. Nazarimda Farg‘onadagi sovetlarga qarshi kurashni ham mazkur Potelyaxov va Mahmudovga o‘xshash katta iste’dod egalari boshqarib turibdi.

— Ha, Vladimir Illich, Farg‘onani tinchitish uchun nafaqat keskir qilich, ajal urug‘ini sochuvchi pulemyot, balki o‘tkir zakovat ham kerak bo‘ladi.

— Ana shuning uchun ham yangi tashkil etilgan Turkiston frontiga sizni qo‘mondon etib tayinladik. Siz o‘sha yerda tug‘ilib o‘sgansiz, u yerning shart-sharoitini, turkistonliklarning urf-odatlari, dunyo-qarashlarini, ichki dunyosini yaxshi bilasiz.

— Sifat va fazilatlarimni juda oshirib yubormadingizmi, Vladimir Illich?

— Yo‘q. Turkistonni sizdan boshqa odam eplay olmaydi. Sizga cheklanmagan vakolatlar beramiz. Turkistonni saqlab qolsak bas. Tushunaman, sizga oson bo‘lmaydi, u yerda zudlik bilan tartib o‘rnatish oson emas. Shu tufayli ishni bosqichma-bosqich olib boring.

— Ya’ni?

— Avvalo, risqulovlar tili bilan aytganda, u yerdagi milliy-ozodlik urushini fuqarolar urushiga aylantiring. Ya’ni bosmachilarning boshliqlari bilan sulu muzokaralarini tezlatling. Sulh tuzgach, ularni o‘z sobiq sheriklariga qarshi jangga tashlang. Eshitishimcha, Farg‘onadagi qaroqchilarning ikkita eng zo‘r atamani bor ekan. Birining nomi Madaminbek, ikkinchisining oti nima ediyam.

— Ko‘rshermat.

— Ha, ha, Ko‘rshermat. Ishni o‘shalardan boshlang. Agar ular sulhga ko‘nmasalar, boshqalarini ko‘ndiring. Iloji bo‘lsa, ChK xodimlari yordamida ikkalasi o‘rtasida nizo chiqarishga harakat qiling.

— Vladimir Illich, bu Feliks Edmundovichning idorasiga tegishli ish, men jangchiman. Mening ishim jang qilish.

— Bilaman, Mixail Vasil’evich. Birinchidan, ulug‘ maqsad yo‘lida har qanday vosita o‘zini oqlaydi. Ikkinchidan, siz nafaqat jangchi, balki bizning Turkistondagi noibimizsiz, ya’ni, Turkiston fronti qo‘mondonisiz. Uchinchidan, ChK ning Turkistondagi bo‘linmalari ham sizga bo‘ysundiriladi. Mixail Vasilevich, ko‘nglingizga olmang-u, o‘zingiz aytganday, Turkistonni faqat qilich-u pulemyot bilan saqlab qololmaymiz, turli vositalar, hatto harbiylar nazarida jirkanch tuyulgan vositalardan ham foydalanmasak bo‘lmaydi. Turkistondagi dushmanlarimiz anoyi emas. Ular mashhur sarkarda Temurning avlodlari. Ular, men sizga aytksam, o‘zimizning kolchak, yudinechlardan ko‘ra xavfliroq Kolchak, Yudinechlar rus kishisi, ulardan rus ruhi ufurib turadi. Rus ruhini yaxshi bilganimiz uchun ularni yengish bizga osonroq. Mana o‘zingiz Denikinga bir necha bor zarba berdingiz, Dutovni

yanchib tashladingiz. Turkistonliklar ruhi esa boshqacha, ularni tushunib yetish qiyin. Ularning xattiharakatini oldindan bilib bo‘lmaydi. Shu tufayli, takrorlab aytaman, u yerga sizni, ildizi turkistonlik bo‘lgan kishini yuboryapmiz. Sizga katta ishonch bog‘laganmiz.

— Nima qilar edik, Vladimir Il‘ich, Turkistonning xo‘jayini bo‘lsak bo‘libmiz-da.

— Mana bu — boshqa gap. Sizga muvaffaqiyat tilayman. Sizga qurol-yarog‘, o‘q-dori, harbiy anjomlar, oziq-ovqatni to‘xtovsiz va to‘siksiz yetkazib berish haqida Sovnarkomga ko‘rsatma berdim. U yerdagi ahvol haqida har kuni menga telegraf orqali axborot berib turasiz. Turkistondagi o‘rtoqlarga mendan salom aytasiz. Xayr, yaxshi boring.

Shu tariqa, 1919 yil 11 avgustda maxsus Turkiston fronti tashkil qilindi va unga Mixail Vasilevich Frunze qo‘mondon etib tayinlandi.

QURULTOY

1919 yil 22 noyabrda G’orbuvoda navbatdagi qurultoy bo‘lib o‘tdi. Shermuhammadbek bu qurultoyni “Milliy kurash harbiy majlisi” deb atadi. Monstrov bilan hamkorlikda og‘ir janglar olib borayotgan Madaminbek bu qurultoyning chaqirilishiga qarshi chiqdi va o‘zi unda ishtirok etishdan bosh tortdi. Bosh tortmagan taqdirda ham fursati yo‘q edi.

Qurultoyda ko‘rilgan asosiy masalalardan biri qizil qo‘mondonlik tomonidan sulk tuzish uchun boshlangan harakatlarga munosabat bildirish edi. Shermuhammadbek bu masala bo‘yicha o‘z fikrini bildirib, sulk haqida so‘z bo‘lishi mumkin emasligini, muqaddas kurashni oxirgi tomchi qongacha davom ettirish, sulhga rozi bo‘lgan qo‘rboshilar Vatan xoini sifatida la’natlanishi haqida so‘zлади. Xolxo‘ja Eshon uning so‘zlarini qo‘llab-quvvatladi. Boshqa qo‘rboshilar fikr bildirmadilar. Sulh haqidagi har qanday takliflarni rad etish, biroq muzokaralardan bosh tortmaslik, ruslar bilan muzokaralar olib borish uchun qat’iyatli kishilardan iborat bir hay’at tuzish haqida qaror qabul qilindi.

Ikkinci masala – yana o‘sha, qo‘rboshilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bo‘lib, bu qurultoyda ham uni bartaraf etish iloji ko‘rinmadidi.

Uchinchi masala – tashkiliy ishlardan iborat bo‘ldi. Qo‘rboshilarining harakat mintaqalari aniqlashtirildi va har bir mintaqa qo‘mondonlari qayta tayinlandi.

Bundan tashqari, quyida qarorlar qabul qilindi:

- 1.Qo‘rboshilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hay’at tashkil etish.
- 2.Qizil qo‘mondonlik bilan muzokaralar olib boradigan hay’at tuzish.
- 3.Qizillar targ‘ibotiga qarshi kurashadigan va aksil targ‘ibot yuritadigan guruh tashkil etish.
- 4.Qurol-yarog‘ topish ishlarini yo‘lga qo‘yish.
- 5.Yangi hukumat tuzish uchun tayyorgarlik ishlariga kirishish.

OLOY SAFARI

Qish boshlanishi arafasida qizil qo‘mondonlik milliy-ozodlik kuchlariga hal qiluvchi zarba berish rejasini ishlab chiqdi. Marg‘ilon va Farg‘ona (sobiq Skobelev)ga vodiyning har tarafidan va Toshkentdan yangi kuchlar olib kelina boshlandi. O‘z ayg‘oqchilari vositasida bundan xabar topgan Shermuhammadbek qo‘shinini saqlab qolish maqsadida vaqtincha tog‘larga chekinishga qaror berdi. Oloyning ostonasi bo‘lmish G’ulcha shaharchasida kichik bir garnizon bor edi. Shermuhammadbek bilan Xolxo‘ja Eshon shu tomonga qarab yo‘l oldilar. Garnizon boshlig‘i kuch qo‘rboshilar tomonida ekanligini anglab, jangsiz taslim bo‘ldi. Shu tufayli uni va jangchilarini asir olmay, qo‘yib yubordilar. Bu yerda bir necha kun turilgach, Xolxo‘ja Eshon Novqatga yo‘l oldi. G’orbuvodan G’ulchagacha bo‘lgan yo‘l ustiga qo‘yilgan xabarchilar, qizil qo‘shin Shermuhammadbekni ta’qib etib, izma-iz kelayotganini ma’lum qildilar. Shermuhammadbek mudofaaga hozirlik ko‘rdi. Qizillar uni uch tomondan o‘rab oldilar. Faqat sharq tomon — Oloy yo‘ligina ochiq qolgan edi. Bir necha kunlik jangdan so‘ng qizillar tobora qurshovni siqib kela boshladilar. Buning ustiga, bu yerlar tog‘ etagi

emasmi, qalin qor tashladi.

Shermuhammadbek: — “Kofirlar o‘qidan o‘lgandan ko‘ra tog‘da muzlab qolganimiz afzalroq. Nima bo‘lsa ham xudodan ko‘rdik”, deb Terakdovon tomon chekinishga buyruq berdi. Yog‘ib turgan qor ostida dovon sari yurdilar. Qizillar ham izma-iz kelaverdi. Dam jang qilib, dam ilgari yurib, baland tog‘lar boshlanadigan joydagি Bo‘sag‘a degan qishloqqa yetib keldilar. Bu yerning aholisidan qirqtacha qo‘tos, qorkurak va yo‘l ko‘rsatuvchi olib, toqqa chiqib ketdilar. Azaliy tog‘ hayvoni bo‘lmish qo‘toslar ko‘kragigacha qorga botib, otlar uchun yo‘l ochib borar, ba’zi joylarda qorkuraklarni ishga solishga to‘g‘ri kelardi. Qor qalinligi yetmaganday, yog‘ishi ham tuxtamas, ikki qadam narini ko‘rib bo‘lmasdi. Hatto bu yerlarni yaxshi biladigan yo‘l ko‘rsatuvchilar ham yog‘ib turgan qor dastidan yo‘l topa olmay qoldilar. Ularning aytishicha, Oloy tomonga faqat bitta tor, chuqur dara orqali o‘tish mumkin ekan. Dara topilguncha ko‘p sarson bo‘ldilar. Bir qancha otlar sovuqdan o‘ldi, odamlarning oyoq qo‘llarini sovuq urdi, oziq-ovqat tamom bo‘lib, otlarni so‘yishga to‘g‘ri keldi. Nihoyat, yo‘lboshlovchilardan biri dara yo‘lini topishga muvaffaq bo‘ladi.

“Bosmachilar qor bo‘roni ostida qolib, qirilib ketgandir” deb o‘ylagan qizil askarlar orqaga qaytib ketdilar. Bir qancha vaqt tog‘ma-tog‘ yurgach, Shermuhammadbek yigitlari kichikroq Oloy kentiga – Oloy vodisi markaziga yetib keldilar. Bu yerda dam olib, bir oz o‘zlariga keldilar. Shahidlarni shu yerga dafn etib, Farg‘onaga qaytish harakatiga tushdilar.

JO‘JI KELDI, BO‘JI KELDI

Bu so‘zlar bundan qariyb yetti yuz yil muqaddam chiqqan edi. Chingizzon katta qo‘shin bilan Movaraunnahr va Xorazmga bostirib keldi. Uning eng dahshatli lashkarboshilaridan biri katta o‘g‘li Jo‘jxon edi. Mug‘ullarning qirg‘ini xammaga ma’lum. Qirg‘inda qolgan mahalliy aholi Jo‘ji timsolida barcha bosqinchi mug‘ullarni, ularning kirdikorlarini ko‘rib shunday qo‘shiq to‘qiganlar, bolalarini bo‘ji va jo‘ji bilan qo‘rqtiganlar. Chingizzon tirikligidayoq farzandlari o‘rtasida meros talashish bo‘lishini ko‘zda tutib, o‘zining ulkan davlatini bir necha ulusga bo‘lib, o‘g‘illari o‘rtasida taqsimlab bergen. Xorazm, Volgabo‘yi va ularga tutash yerlar Jo‘jixonga tekkan va Jo‘ji ulusi deb atalgan. Vaqtlar o‘tib Jo‘jixonning bu yerga kelib o‘rnashib qolgan yurtdoshlari mo‘g‘ul va tatarlar islomni qabul qildilar. Mo‘g‘ullar turkiy qavm tatarlar ichiga singib ketdilar. Vaqt kelib, Frunze ana shu tatarlardan iborat katta diviziyani Farg‘onaga tashlaydi. Bu o‘sha, yuqorida aytib o‘tilgan, “sopini o‘zidan chiqarish” siyosati edi. O‘sha paytda qo‘mondonlik rus bo‘limgan xalqlardan tuzilgan harbiy qismlarga, albatta, ruslardan komissar, maxsus bo‘lim boshlig‘i, shtab boshlig‘ini qo‘yar edi. Biroq bu tatarlar ruslarning ishonchiga shu qadar sazovor bo‘lgan ekanki, bu qismlarda birorta rus yo‘q edi; qo‘mondon Yusuf Ibrohimov, harbiy komissar Yoqub Chanishev, siyosiy g‘oyaviy bo‘lim mudiri Yenikeev, siyosiy bo‘lim boshlig‘i Vafo Burnashev, shtab boshlig‘i Muhammad Qosimovlar barchasi tatar va boshqirdlar edi.

Tatar qismlarining keltirilishi Farg‘onadagi milliy-ozodlik harakati uchun juda katta zarba bo‘ldi: ular avvalo, janglarda pishgan mohir jangchilar, qolaversa, turkiy tillarni yaxshi bilgan, mahalliy sharoitga moslashib oladigan, turkiy elatdoshlar edilar. Ulardan asir olingan odamlar qo‘rboshilarning yigitlari ichida tashviqot-targ‘ibot olib borib, ularni taslim bo‘lishga undar edilar. Shundan so‘ng yigitlar ichida taslimchilik kayfiyati paydo bo‘ldi, to‘p-to‘p bo‘lib, yashirinchha sovet organlariga borib, qurollarini topshirish holatlari ko‘paydi.

Tatar diviziyasi askarlari, rasman musulmon sanalsalarda, ko‘philigining imoni mustahkam emas edi. H. No‘monov va S.Ishoqovlarning Yo‘ldosh Oxunboboevga bag‘ishlangan “Ota” nomli romanlarida qiziq bir epizod keltiriladi: Marg‘ilon yaqinidagi deparalardan birining amini “To‘ng‘iz amin” degan laqab orttiradi. Oxunboboev buning sababini yaxshi bilsada, bir kulishib olish uchun uning o‘zidan izoh so‘raydi. Aminning izoh berishicha, o‘sha paytlarda qamishzor — to‘qaylarda to‘ng‘iz ko‘payib, ekinzorlarga zarar yetkaza boshlaydi. Amin bir necha to‘ng‘izni otib, uni nima

qilishini bilmay, oxiri qizil askarlarga yordam tariqasida tatar diviziyasiga olib borib beradi. Buni ko‘rgan askarlar xursand bo‘lib, “ — To‘ng‘iz amin keldi, indi sup jirni bo‘la!” (Amin to‘ng‘iz olib keldi, endi sho‘rvamiz yog‘li bo‘ladi!) deganlar, shu sabab, u shunday laqab ortdirgan ekan.

Tatar qismlari Farg‘onaga tashlangach, ularning Jo‘jixon avlodlari ekanligini bilgan odamlar xotirasiga bundan yetti yuz yil avval aytilgan “Jo‘ji keldi, bo‘ji keldi” degan mungli qo‘shiq kela boshladi.

Tatar diviziysi zARBASINING ASOSIY OG‘IRLIGINI O‘ZIGA OLGAN MADAMINBEK BO‘LDI. TATARLAR DEKABR OYI BOSHIDA KELGAN BO‘LSA, ULAR BILAN MADAMINBEK-MONSTROV QO‘SHINI O‘RTASIDA JANGLAR TO‘XTOVSIZ TARZDA DAVOM ETDI. DASTLAB MADAMINBEK ULARGA KATTA ZARBALAR BERIB, SHOSHIRIB QO‘YDI. SHUNDAN SO‘NG QO‘MONDONLIK TATAR DIVIZIYASIGA QOZOQ VA O‘ZBEK POLKLARIDAN IBORAT YANGI KUCHLAR BILAN YORDAM KO‘RSATDI. SHUNDA HAM MADAMINBEK BO‘SH KELMADI. BUNI DUSHMAN HAM E‘TIROF ETAR EDI. “ — FARG‘ONADAGI URUSHLAR NECHOG‘LI O‘ZIGA XOS, DOIMO HARAKATDA, SHITOB BO‘LGANLIGINI TO‘QNASHUVLAR, JANGLAR, MOJAROLAR VA BUYRUQLAR SHAKLLARI TASDIQLAYDI, HAMMA DARAJADAGI KOMANDIRLARDAN VA BARCHA JANGCHILARDAN U JASURLIK, KURASH SHAROITLARINI BILISH, ENG MUHIMI TASHABBUS VA YANA TASHABBUSNI TAQOZO ETARDI,” — DEB YOZADI O‘Z ESDALIKLARIDA YOQUB CHANISHEV. U YANA ESDALIKLARINING DAVOMIDA “BOSMACHI”LAR FAOLIYATIGA QOYIL QOLGANINI YASHIRMAYDI: “ — BOSMACHILAR JUDA HARAKATCHAN OTRYADLAR BO‘LIB, ULAR BUTUN VODIY BO‘YLAB USTUNLIK QILISHARDI. BA‘ZIDA BIR KECHADA QARORGohlARDAN YUZLAB CHAQIRIM NARIGA KETIB QOLISHSA, KO‘PINCHA QISHLOQLarda OSOYISHTA OSH YEB O‘TIRGAN ODAMLAR HAM BIRDAN CHOPONLARI TAGIDAN QUROLLARINI OLIB, BIZ BILAN BEXOS JANGGA KIRISHIB KETISHAR EDI”. ADIB I BROHIM KARIM “MADAMINBEK” ASARIDA BRONEPOEZD KOMANDIRI BO‘LGAN V.YE. TOKAREVNing E‘TIROFINI KELTIRADI: “BOSMACHILAR NIHoyATDA PUXTA ISH KO‘RIB, KO‘PINCHA QIZIL ARMIYAGA FIRIB BERIB KETISHLARINI E‘TIROF ETISH KERAK... ULAR QIZIL ARMIYANING BO‘SH JOYLARINI BILIB OLIB, TO‘SATDAN HUJUMGA O‘TAR, O‘ZLARI HECH BIR TALAFOT KO‘RMAGAN HOLDA KATTA ZARAR VA ZAHMAT KELTIRARDILAR. BA‘ZI QO‘RBOSHILAR QIZIL ARMIYA TOMONIGA O‘TIB, QUROLLANIB OLGACH, YANA QAYТИB QIZILLARGA QARSHI JANGGA KIRISHIB KETARDILAR”.

1919—20-yil qishi ichidagi to‘xtovsiz shiddatli janglar nihoyat Madaminbekni holdan toydirdi. Tatar diviziysi safi kun sayin to‘ldirib turilgan holda, Madaminbek qo‘shini safi qisqarib boraverdi: Frunze ko‘rgan qat’iy choralar natijasida sovet organlarining mahalliy xalqqa ko‘p sohada yon berishi, taslim bo‘lganlarning avf etilishi va boshqa omillar tufayli mahalliy aholining guruh-guruh bo‘lib kelib qo‘rboshilarga yigit bo‘lishi keskin kamayib ketdi. Yanvar oyiga kelib tatar diviziysi tarkibidagi jonli kuch nufusi 20 ming nafarga yetkazildi. Madaminbek-Monstrov qo‘shinida esa janglardan so‘ng besholti ming jangchi qoldi, xolos.

INTIHONING IBTIDOSI (MAG‘LUBIYAT OSTONASI)

Nihoyat, tatar diviziysining tobora oshib borayotgan kuchlariga Monstrov tob bera olmay qoldi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, u Madaminbek bilan istar-istamas, yakka o‘zi hokimiyatni qo‘lga ololmasligini yaxshi tushunganligi uchungina hamda rus qishloqlariga ozodlik kuchlari tomonidan uyushtirilayotgan hujumlarning oldini olish maqsadidagina qo‘shilgan bo‘lib, hokimiyatni qo‘lga olgach, birinchi navbatda Madaminbekni yo‘q qilishni rejalahtirib qo‘ygan edi. Tatar qo‘shini vositasida sovetlarning qo‘li baland kelayotganligi uning rejalarini puchga chiqardi. Monstrov endi hokimiyatni qo‘lga olishni emas, o‘z jonini saqlab qolishni o‘ylay boshladi. Birlashgan qo‘shinning shtab boshlig‘i general Muxanov harbiy mutaxassis sifatida vaziyatni baholab, mag‘lubiyat muqarrar ekanligini Monstrovga isbotlab berdi va uni qizillar bilan sulh tuzishga undadi. Monstrov Madaminbekdan yashirin tarzda o‘z zabitlarini qizil qo‘mondonlikka yuborib, sulh muzokaralarini boshlab yubordi va 1920 yil 17 yanvarda sulh shartnomasi imzolandi.

Bundan ikki kun muqaddam, 15 yanvarda Madaminbek qizil tatarlarga ikki tomonidan zarba berishni mo‘ljallab, Monstrovga tatarlarni Sharq tomonidan siqib kelishni topshirib, Qorasuvga

jo‘natgan, o‘zi esa Asaka tomondan hujum boshlagan va orqama-orqa zarba berayotgan, dushman bu iskanja o‘rtasidan qanday chiqishini bilmay, shimol tomon chekinishga kirishmoqchi bo‘lib turgan edi. 17 yanvar kuni Monstrov sulhga imzo chekkach, dushmanning sharq tomoni xavfdan holi bo‘lib qoldi va u o‘zining barcha kuchini Madaminbekka qaratdi. To‘rt kun to‘xtab-to‘xtab davom etgan jangdan so‘ng Madaminbek Novkat tomonga chekindi.

Shermuhammadbekning Madaminbekka qarata: “— Siz rahmdil, bag‘ri keng odamsiz. Boshqalarga rahm-shafqat qilasiz-u, ular sizga rahm qilmaydilar. Bu rahmdilligingiz bir kuni kelib boshingizga yetmasa deb qo‘rqaman” deb aytgan bashorati to‘g‘ri chiqdi. Tatar diviziysi Farg‘onaga olib kelingandan beri, Madaminbek ular bilan jang olib borar ekan, “Bu tatarlar o‘zimizning qardoshlarimiz, dindoshlarimiz. Ularni bizga qarshi zo‘rlab jangga solgan bo‘lsalar kerak. Bir kuni insofga kelib qolishar”, — degan o‘y bilan yumshoqroq jang qilar, asir tushib qolganlarini qiyamas, hurmatini joyiga qo‘yib, yaxshi saqlar, hech narsadan qismas, ba’zan esa, qurollarini olib qolib, o‘zlarini qo‘yib yuborar edi. Keyingi janglardan ma’lum bo‘ldiki, tatarlar shiddat bilan, o‘z vatanini, o‘z g‘oyasini himoya etgandek jon-jahd bilan jang qilar, majburan jangga solingen bechoralarga aslo o‘xshamas ekan. Shunda ham Madaminbek ularga Allohdan insof tilab qo‘ya qoldi.

1920 yil 2—3 fevral kunlari Poytug‘ yaqinida milliy-ozodlik kurashi tarixidagi eng yirik, eng shiddatli, eng qonli janglardan biri bo‘lib o‘tdi. O‘ttiz to‘rt soat to‘xtovsiz davom etgan bu xunrezlikda ikkala tomon ham katta talafotlarga yo‘liqdi. Jang mobaynida Yusuf Ibrohimov jangga zaxira polkini tashladi. Shunda ham Madaminbek bo‘sh kelmadı. Bu jangda u o‘z vujudidagi rahmdillik tomirini har qanday og‘riqqa qaramay yulib olib tashlashga majbur bo‘ldi — bu safar u asir olmadı.

Andijondan yana bir tatar polki yetib kelgach, Madaminbek qo‘sini qurshov halqasi o‘rtasida qoldi. Bu halqaning birorta uzuq joyi yo‘q edi. Bir totor jangchisi zavqlanib qiyqirib yubordi: “— Uch yuz oltmis gradus! Polnlyi (to‘liq) uch yuz oltmis gradus! Indi bosmachlar qayga qochib qutulalar!”

Halqa tobora torayib, siqib kela boshladi. Madaminbek bir zum jangdan to‘xtab, yigitlariga murojaat qildi: “— Yigitlar, ukalarim, o‘g‘illarim. Dushman siqib kelmoqda. Men aslo taslim bo‘lmoqchi emas edim, biroq sizlarning hayotingizga ham zomin bo‘lmoqchi emasman. Nima qilaylik? Taslim bo‘laylikmi, yoki o‘limni bo‘ynimizga olib, qurshovni yorib chiqib ketishga harakat qilaylikmi?”

— Taslim bo‘lmaymiz! — deb hayqirdilar yigitlar baravariga, — o‘limni bo‘ynimizga olib qo‘yanmiz. O‘lsak shahidmiz, o‘ldirsak g‘oziy!

Madaminbek bu so‘zlarni eshitib, ko‘zlariga yosh keldi. Qilich tutgan qo‘lini baland ko‘tarib hayqirdi: — Olg‘a yigitlar! Ozod vatan uchun, dini islom uchun olg‘a! Allohu akbar!

Yigitlar ham “Allohu akbar” deganlaricha uning ortidan ot qo‘ydilar. Shu topda ularga — o‘ttiz to‘rt soatdan beri tinim bilmay, uxmlamay, tuz tortmay charchagan, sillasi qurigan ozodlik jangchilariga Alloh o‘zi madadga kelib, ularga kuch-quvvat, shijoat ato etdi. Ular misli ko‘rilmagan shiddat, mardona shijoat bilan jang qilib, ko‘plab dushmanni yer bilan yakson qilib, o‘zlarini ham katta qurbanlar berib, qurshov halqasini yorib chiqib, janub sari olg‘a intildilar.

Qurshov halqasidan sal nariroqda brigada qo‘mondoni Yusuf Ibrohimovning qarorgohi (komanda punkti) joylashgan bo‘lib, uning oldida qo‘mondon o‘z yordamchilari, shtab xodimlari va qo‘riqchi dastasi bilan jangni kuzatib, boshqarib turar edi. Madaminbek o‘zining qurshovni yorib chiqqan yigitlarini boshlab qarorgoh yaqinidan o‘tib ketayotganida qo‘riqchi dastanining pulemyotchisi beixtiyor pulemyot og‘zini ular tomon qaratib, endi gashetka (tepki) ni bosmoqchi edi, Yusuf Ibrohimov uning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi:

— Qo‘y, molay. Strelyat itma (otma). Ular nastoyashiy geroy (haqiqiy qahramon) ikan! Geroylarni uvajat qilish kirak!

Osobiy otdel (ChK ning harbiy qismlaridagi maxsus bo‘linmasi) xodimlari bu voqeani oqizmay-tomizmay Frunzega yetkazdilar. Ibrohimov ushbu so‘nggi jang haqida raport bergani uning qarorgohiga boradi. Frunze raportni tinglab bo‘lgach, so‘radi:

— Yusuf Galievich, pulemyotchingiz Madaminbekka o‘q uzmoqchi bo‘lganda nima uchun uni to‘xtatib qoldingiz?

— Men qahramonlarning qotili emas, muxlisiman, Mixail Vasilevich. Haqiqiy harbiylar va sarkardalar jasur kishilarni, qahramonlarni garchi u dushman bo‘lsa ham hurmat qiladilar!

Frunze g‘azablandi-yu, ammo negadir e’tiroz bildirishga jur’ati yetmadi.

Tatar brigadasining mutassil hujumlari oqibatida Andijon taraflarda jang qilayotgan, hali Madaminbek bayrog‘i ostidan chiqib ketmagan Parpibek va uning qo‘l ostidagi bir qancha qo‘rboshilar qurollarini tashlab, qizillar bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldilar.

Shu tariqa qizil qo‘mondonlik Andijon muzofotini o‘z qo‘liga olgach, navbatdagi hujumni Qo‘qonga qaratdi. Qo‘qon atrofida jang olib borayotgan Islomqul Polvon qizillarga qarshi shiddat bilan jang qildi. Biroq, jaqlar davomida ko‘pgina yigitlaridan ayrılib, vaqtincha Isfara tomon chekinishga majbur bo‘ldi.

Ergash Qo‘rboshining sovetlar bilan tuzgan sulhi mustahkam bo‘lmasa-da, bir qancha vaqt faol harakat qilmay Bachqirda turib qolgani yuqoridagi boblarda bayon etilgan edi. Shunga qaramay, qo‘mondonlik Ergash Qo‘rboshi va uning yigitlarini xavfli hisoblab, o‘rtadan ko‘tarib tashlashga qaror qildi.— Sovet hokimiyatiga qarshi birinchi bo‘lib quroq ko‘targan Ergash Qo‘rboshi bamisol yaralangan bo‘ri, — dedi qo‘mondonlardan biri Safonov,— u jarohatlarining bitib ketishini kutib, kuch yig‘ib yetibdi. Kunlardan birida uyasidan chiqib, to‘satdan hujum qilib qolishi hech gap emas. Shu tufayli uyasida yotgan joyida tappa bosishimiz kerak.

Yanvarning oxirlarida tatar diviziyasining bir polki va Ernest Kujelo baynalminal (internatsional) brigadasi Bachqirni o‘rab oldi. Ergash Qo‘rboshi hali o‘zining jarohatlari ta’sirida yotgan bir payt edi. Yo‘llar ustiga qo‘yilgan yigitlar qizillarning yaqinlashib kelayotgani haqida xabar olib kelishgach, qo‘rboshi mudofaaga tayyorlanish haqida farmon berdi. Yigitlardan bir nechta — ovchilariga qishloqqa ulanib ketgan chakalakzor va qamishzorga borib, ov qilish buyurildi. Omborlarda saqlanib turgan, yog‘langan pulemyotlar va ikkita kichik dala to‘pi olib chiqilib, qarorgoh atrofiga o‘rnatildi. Uy-uylariga javob so‘rab ketgan yigitlarni yig‘ib kelish uchun odamlar yuborildi.

Nihoyat, qizillar qishloq ostonalari yetib kelib, jang boshlab yubordilar. Ular, “Ergashni tappa bosib, olib ketamiz” deb o‘ylashgan edi, biroq o‘ylari xom chiqdi. Jang shiddat bilan ikki kecha ikki kunduz davom etdi. Ergashbekni osonlikcha yanchib tashlashga ko‘zi yetmay qolgan qizil komandirlar Qo‘qondan qo‘shimcha kuch so‘rashga majbur bo‘ldilar. Qo‘shimcha kuchlar yetib kelgach, ularning qo‘li baland kela boshladi. Ergashbek qurshovni yorib chiqish uchun bir necha marta harakat qildi. Buning iloji bo‘lmaqach, ovchi yigitlarga to‘ng‘izlarni to‘qayga haydash haqida buyruq berdi. Ovchilar itlar yordamida chakalakzor ichi bilan to‘ng‘izlarni to‘qay tomon haydadilar. Changalzor ichidan favqulodda baland shovqin, butalarning qarsillashi, qamishlarning shovullashini eshitgan qizillar “Ergash bo‘lsa-bo‘lmasa chakalakzor ichi bilan qochib chiqmoqda” deb o‘ylab, barcha kuchlarini o‘sha tomonga tashladilar va natijada soy bo‘yidagi yo‘l ochilib qoldi. Ergashbek fursatdan foydalananib, soy bo‘ylab yurib, katta chakalakzor orqali Sirdaryoga chiqib oldi va daryodan otda kechib o‘tib, toqqa chiqib ketishga muvaffaq bo‘ldi. Shundan so‘ng u Bachqirga qaytib qadam bosa olmadi, zero, bu yerga bir necha qizil armiya polklari joylashtirildi.

Shu tariqa, 1920 yil boshlanishida zafar ma’budasi vaqtincha qo‘rboshilardan arazlab, qizil qo‘mondonlarga moyillik bildirdi. Shermuhammadbek nafas rostlash uchun Oloyga chiqib ketishga majbur bo‘ldi, Madaminbek katta talafot berdi, uning ittifoqchisi Monstrov qizillarga o‘tib ketdi, bir qancha qo‘rboshilar sulh tuzdilar. Andijon, Namangan, Ho‘qand muzofotlarining katta qismi qizillar nazorati ostida qoldi, go‘yo intihoning ibtidosi yetib kelganday bo‘ldi...

BUXOROYI SHARIF

Shermuhammadbek Oloyda qisqa muddat istiqomat qilib, nihoyat, Qorovul qal’asiga tushib keldi.

Bu qal'a ham G'ulcha va Irkishtom kabi, Farg'onani Koshg'ar va Afg'oniston bilan bog'laydigan yo'l ustidagi muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan istehkom edi, shu tufayli "Qorovul" degan nom olgan. Uni ba'zan "Farg'ona lo'kidoni" ham deb atashadi. Lo'kidon qulflar ichida eng mustahkami va murakkabi bo'lib, unga har qanday kalit tushavermaydi.

Shermuhammadbek Qorovulda istiqomat qilib turgan chog'ida o'zining ishlarini taftishdan o'tkazdi, taftish natijalari asosida turgan vazifalarni yana bir bor aniqlashtirib oldi. Vazifalar esa har qachongidan ham qiyin: yo'lbars, qoplonlar qattiq jarohat olib, maydonda sherning o'zi qolgan, barcha mas'uliyat endi sherning zimmasida.

Taftish natijalari qurol-yarog' yetishmovchiligi muammosini o'rtaga qo'ydi. Mavjud qurol-aslahalarning barchasi bir vaqtlar qizillardan o'lja olingen bo'lib, birin-ketin ishdan chiqmoqda. Qo'l ostidagi qo'rboshilar ham qurol talab qilib turibdilar. Qurultoyda shu masala ko'rulganda, Buxoro amiridan qurol so'rash haqida taklif tushgan edi. Shermuhammadbek qo'rboshilar bilan maslahatlashib, Buxoro amiri Sayid Olimxonga murojaat qilishga qaror berdi va mirzolarga maktub yozishga buyurdi. Bu maktubning bir nusxasi Shermuhammadbekning xotira daftariga tikib qo'yilgan ekan. Uning matnini aynan keltiramiz:

"Zoti shohonamiz hazratlariga!"

Arz va mu'rutzotimiz shuldirkni, Vatanimiz va nomusimizga qarshi bo'lmish dushmanlarimizni yo'q etmoq uchun shu vatan avlodlari o'laroq urushmoqdamiz. Mavjud silohlarimiz (qurol-aslahamiz) yetarli emas, uch ming yigitimiz butunlay qurol-yarog'siz. Amr etsangiz, bu yigitlarni huzuri muboragingizga yuborgaymiz. Yo'q desangiz, bizni qurol-aslaha bilan ta'minlaysiz, deb umid qilib qolamiz.

Hurmatlarimizni arz etib,

Farg'ona lashkari islam raisi

Jahongir Shermuhammad".

Elchilik hay'atiga Shermuhammadbekning ishonchli kishilaridan biri, madrasa ko'rgan savdo karvonlarini boshqarib, muomala ilmini yaxshi o'zlashtirgan, harbiy salohiyati diplomatiyada ham yetuk Toshboltabek Mirzo tayinlandi. Shermuhammadbek unga maktubni topshirar ekan, o'ruslarga qarshi ittifoq tuzish zarurligini amirga og'zaki tushuntirishni tayinladi.

Olti kishilik hay'atni bir guruh yigitlar Oloy va Murg'ob orqali Sharqiy Buxoro chegarasigacha kuzatib borishdi. Buxoroga eson-omon yetib borib, Qo'qon karvonsaroyiga tushishdi. Bir kun dam olib, ertasi Arkka yo'l olar ekanlar, Toshboltabek Mirzo hay'at a'zolaridan biri Xayrulloxon Ponsodga tayinladi: — Xayrulloxon, biz amir huzuriga ketyabmiz-u lekin nimagadir ko'nglim g'ash. Siz ehtiyyot shart Arkka kirmay, tashqarida qoling va unga yaqin biror choyxonada o'tiring. Agar biz kun bo'yи Arkdan chiqmasak, o'z ishingizni o'zingiz bilib qiling.

Elchilar Arkka chiqib bormasdanoq, soqchilarga duch keldilar.

— Kimsizlar? Arkda nima ishingiz bor?

— Farg'onadan kelgan elchilarmiz. Amir hazratlari bilan uchrashishimiz kerak.

— Soqchilar boshlig'i ularga ikki sarbozni qo'shib berdi. Birgalikda Arkka chiqib borishdi. Darvozaxonadagi soqchilar bilan ham savol-javob qilishgach, ularni shu yerdagi supaga o'tkazib, bir kishini ichkari kiritib yubordilar. Ko'p o'tmay ularning istiqboliga a'yonlardan bir kishi chiqib, ularni Qo'shbegining huzuriga boshlab kirdi. Bu shaxs amirning bosh vaziri va Buxoro shahri noibi hisoblanar edi. Elchilar salom berib kirdilar:

— Assalomu alaykum va rahmatullohi va borakatu.

— Va alaykum assalom, kelinglar mehmonlar, Farg'onadan kelibsizlarda? Yaxshi, yaxshi, xo'sh nima arzlariningiz bor?

— Bizni amir hazratlarining huzuri muboraklariga olib kirsalar.

— Amir hazratlarida ne muddaongiz bor?

— Topshiriladurg'on maktubimiz hamda xos gaplarimiz bor.

- Masmuni ne erkan? Qani, maktubni beringizchi.
- Ma’zur tutadilar, qo‘shbegi janoblari, bizga maktubni shaxsan topshirish buyurilgan.
- Sizlar o‘zingizni katta bir saltanat elchisi kabi tutmoqdasiz. Xo‘sh, qaysi saltanat, qaysi hukumatning vakili bo‘lasiz?
- Biz Farg‘ona hukumatining vakillarimiz.
- Biz bunday hukumatni bilmaymiz.
- Hozir bilmasalar, inshoolloh, biror kun quloqlariga tushib qolar.
- Qulog‘imizga tushsa, shu paytgacha tushar edi. Xo‘p mayli, sizlar bilan tortishib o‘tirishga vaqtimiz yo‘q. Hozir amir hazratlari huzuri muboraklariga Kengash yig‘ilishiga kirishim kerak.
- Biz kutib turaylikmi?
- Kengashdan so‘ng Sitorai mohi xossada qabul marosimi bor. Amir hazratlari bugun sizlarni qabul qilishga vaqt topa olmasalar kerak.
- Qachon kelaylik?
- Har ikki-uch kunda bir xabar olib turasizlar-da.
- Qo‘shbegi janoblari, mabodo qo‘polroq gapirib qo‘ygan bo‘lsak, uzrimizni qabul qiladilar. Biroq, vaqtimiz o‘ta cheklangan.
- Amir hazratlarining vaqtłari cheklanmagan deb o‘ylaysizmi?
- Elchilar tortishib o‘tirishning foydasizligini sezib, o‘rinlaridan qo‘zg‘oldilar. Yo‘l-yo‘lakay Ark qarshisidagi choyxonada kutib o‘tirgan Xayrulloxon Ponsodni olib karvonsaroyga qaytgach, bo‘lib o‘tgan gaplarni o‘zlaricha muhokama qildilar:
- Sal katta ketib, qo‘shbegining nafsoniyatiga tegib qo‘ymadikmikan? — dedi hay’at a’zolaridan biri Mulla Yo‘ldosh, — chamamda u bizga o‘chakishib qoldi.
- Shermuhammadbekning “— Yalinmang, yolvormang, Farg‘onaning sha’nini yerga urmang” degan so‘zlarini unutdingizmi?
- Sizlarni kutib choyxonada o‘tirganimda, — deb gapga qo‘shildi Xayrulloxon Ponsod, — Qo‘qondan kelib turg‘un bo‘lib qolgan Sotiboldi Karvon degan bir savdogar bilan tanishib qoldim. Uning aytishi bo‘yicha, Nizomiddin Qo‘shbegini rozi qilmagan odam amirning huzuriga yo‘l topa olmas emish. Balki...
- Yo‘q. Biz muqaddas ish yo‘lida kelgan odamlarmiz. Bu ishimizga pora kabi harom narsani aralashtirishga haqqimiz yo‘q.
- Xullas, ikki-uch bor Arkka qatnab, bir haftadan keyingina amir huzuriga kirishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu safar ham Xayrulloxon Ponsod tashqarida qoldi.
- Elchilar hay’ati kirib, amirga ta’zim bajo qildilar. Amir bunga javoban bir qimirlab, boshini silkitib qo‘ygan bo‘ldi. Nizomiddin Qo‘shbegining ishorasi bilan navbatchi Eshikog‘o elchilarni amirga tanishtirdi. So‘ngra Toshboltabek amirga yana bir ta’zim qilib, maqsadga ko‘chdi:
- Bizni Farg‘ona hukumati raisi, Farg‘ona islom lashkari amiralmuslimini Shermuhammadbek G‘oziy Siz amir hazratlaringiz poyi ostonalarini o‘pish, tavob etish, xizmatingizda bo‘lish, hamda iltimosnomani topshirish uchun bu oliy darborga safarbar etdilar.
- Amiralmuslimin? — ensasi qotib savol berdi amir, — qanday amiralmuslimin? Bu iqlimda bizdan boshqa yana qanday amiralmuslimin bo‘lishi mumkin? Unga bu unvonni kim bergen?
- Farg‘ona ulamolari berishgan, xalq bergen.
- Xo‘sh, bizga nima arzingiz bor?
- Mana bu maktubda bayon etilgan, olampanoh.
- Amir maktubni olib Nizomiddin Qo‘shbegiga uzatdi. Qo‘shbegi “Ko‘rdingizmi, maktub baribir mening qo‘limga tushdi” deganday elchilarga ma’nodor qarab qo‘yib, uni ovoz chiqarib o‘qib berdi.
- Maktubni tinglar ekan, amirning yuzi bo‘zardi, labi gezardi va vahshat bilan so‘radi:
- O’sha “amiralmuslimin”ingiz bizning Rusiya hukumati bilan do‘stona munosabatda ekanligimizni bilmaydimi?

— Ma’zur tutadilar, olampanoh, sizdek islom tayanchi, shariat posboni, musulmonlar amirini o‘rus kofirlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lishingiz mumkin deyishga kim ham jur’at etar edi?

— Og‘zingni yum, mahmadona, senlar bizni Rusiya hukumati bilan urushtirib qo‘yishga harakat qilganlaring yetmaganday, bizni kalaka qilishga ham jur’at etdingmi?

— Olampanoh, hech ham kalaka qilmoqchi emasmiz. O’sha siz bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan Rusiya hukumatining bugun bo‘lmasa ertaga, ertaga bo‘lmasa indin Buxoro va Xivaga yurish qilish, amirlik va xonlikni bekor qilib, ularni butunlay Rusiya tarkibiga qo‘shib olish, qisqasi, har ikki mamlakatni qonga botirishni rejalashtirib qo‘yishganidan xabarimiz bor. Ularni Farg‘onadagi ozodlik urushi to‘xtatib turibdi xalos.

Farg‘onadan tinchimaguncha ular bu tomonga yurish qilishga qo‘rqadilar. Demak, Farg‘onada urush qanchalik cho‘zilsa, sultanatingiz umri shuncha uzayadi. Bizni quroq-aslaho bilan ta’minkor tursangiz, urush ham uzoqqa cho‘zilishi turgan gap. Biz quroq-aslaho so‘rashdan tashqari, o‘rus kofirlarga qarshi birgalikda kurashish haqida siz bilan so‘zlashib olishimiz kerak edi. Olampanoh, hali ham hech gap emas. Vatanni kofirlardan, bolshavoylardan ozod qilish uchun birgalikda kurash olib boraylik. Siz amiralmuslimin, amir lashkari islom bo‘lib g‘azovot bayrog‘ini ko‘taring. Biz—jami ahli Turkiston sizning yigitlaringiz bo‘lib, bayrog‘ingiz ostida jang qilaylik...

— Bas qil! Mirg‘azab!

Salomxonaga mirg‘azab (mirshablar boshlig‘i) kirib, ta’zim qildi.

— Mana bularni zindonband qil! — deb farmon berdi amir.

Mirg‘azab dahlizga chiqib, o‘nta mirshab va sarbozni olib kirib, elchilarni qo‘llarini orqaga qayirib olib chiqib keta boshladи.

— Elchiga o‘lim yo‘q! — deya baqirdi Toshboltabek.

— Senlar elchi emas, bizni Rusiya bilan urushtirib qo‘ymoqchi bo‘lgan fitnachilar. Mirg‘azab, tezroq olib chiq!

— Olampanoh, xudo ko‘rsatmasin-u bir kun kelib sizga do‘st bo‘lgan Rusiya sallotlari sizni ham shu tariqa qo‘lingizni qayirib olib chiqayotganda ko‘zingiz ochilar, kim do‘stu kim dushman, kim fitnachi ekanligini bilib olarsiz...

Ark qarshisidagi choyxonada Sotboldi Karvon bilan choylashib o‘tirgan Xayrulloxon Ponsodning ko‘zi nogohon o‘z sheriklarining qo‘lini qayirib olib ketayotgan sarbozlarga tushdi.

— Nima bo‘ldi ekan? Bularni qaerga olib ketayotgan bo‘lishlari mumkin?

— Biror so‘z yoki harakat bilan amirning g‘azabiga duchor bo‘lishganga o‘xshaydi, — dedi Ark hayotini yaxshi bilib olgan Sotboldi Karvon, — ularni zindonga buyurdilar chog‘i, illo asosiy zindon shu tomonda, Arkdan tashqarida.

— Nima voqeа ro‘y bergenligini qanday bilsak bo‘lar ekan?

— Hozir, bir ilojini qilamiz.

Sotboldi Karvon choyxona xo‘jayinini chaqirib, maslahat so‘radi.

— Buning iloji oson, — dedi choyxona xo‘jayini,— Ark bangilarining chiqadigan vaqtি bo‘lib qoldi, o‘shalardan so‘raymiz.

Ko‘p o‘tmay Arkning quyi va o‘rta darajali mansabdorlaridan bir nechasi chiqib, choyxonaning poyakixonasiga kirib ketdilar. Choyxona xo‘jayini ularga shaxsan o‘zi chilim, bang olib kirib ketib, bir ozdan so‘ng qaytib chiqdi:

— Qabul vaqtida hozir bo‘lgan Mirzo bilan gaplashdim. U salomxonada bo‘lgan gaplarni aytib berdi. Ularning taqdiri nima bo‘lishini ertaga surishtirib — bilib aytib beradi.

Xayrulloxon Ponsod yonidan pul chiqarib “Mirzoning xizmat haqi” deb choyxona xo‘jayiniga uzatgan edi, u pulni olishdan bosh tortdi:

— Qo‘ying, bizga mehmonsizlar. Buxoroda mehmonidan pul olmaydilar. Pulingiz hali o‘zingizga kerak bo‘ladi — deb lutf etdi.

Ertasi kuni choyxona xo‘jayini o‘zining xos hujrasida Xayrulloxon Ponsodni Ark mirzosi bilan

uchrashtirdi. Mirzo qabul vaqtida bo‘lgan gap-so‘zlarni bayon qilib, elchilar noma’lum muddatga zindonband qilinganini so‘zlab berdi va so‘zi oxirida “— Ular hali beri zindondan ozod bo‘lmalar kerak,” — deb qo‘shib qo‘ydi.

Mirzo chiqib ketgach, choyxona xo‘jayini, Sotiboldi Karvon va Xayrulloxon Ponsod “harbiy kengash” qurishdi. Maslahatga ko‘ra, zindondagilardan choyxona xo‘jayini va Karvon xabar olib, osh-suv kiritib turadigan bo‘ldilar. Xayrulloxon Ponsod esa Shermuhammadbek huzuriga qaytib, bo‘lgan voqealarni yetkazdiradigan bo‘ldi.

Farg‘onaga Sharqiy Buxoro va Qorategin orqali qaytish yakka yo‘lovchi uchun xavfli. Shuni nazarda tutib, Ponsod Kogon bekatida poezdga o‘tirdi. Ursatevsk (Xovos) bekatida poezddan tushib, Farg‘ona tomonga yuradigan poezdni kutib turganda qo‘lga tushib qoldi: Toshkentdan vodiya ketayotgan harbiy eshelon bekatga kelib to‘xtadi. Vagondan oyoq yozib olish uchun tushgan kichik komandirlardan biri Xayrulloxon Ponsodni ko‘rib, unga bir oz tikilib turdida, vagonga qaytib chiqib ketdi. Ko‘p o‘tmay qurolli jangchilar bilan tushib, Ponsodni qo‘lga oldi va eshelon qo‘mondoni vagoniga olib bordi.

— Nima gap, Chervyakov, — so‘radi qo‘mondon, — bu odam kim?

— Ko‘rshermatning katta komandirlaridan biri.

— Qanday taniding. Balki o‘xshatayotgandirsan.

— Tanimay bo‘ladimi, o‘rtoq qo‘mondon, bu odam bilan janglarda bir necha bor to‘qnash kelganman. Toshkentga, gospitalga ketishimga ham shu odam sababchi bo‘lgan, — gimnastyorkasini yechib, yelkasidagi chandiqli ko‘rsatar ekan, so‘zida davom etdi, — mana bu chandiq uning qilichi zarbidan.

Qo‘mondon maxsus bo‘lim boshlig‘ini chaqirtirib, Ponsodni unga topshirdi. Maxsus bo‘lim xodimlari uni o‘z vagonlariga olib borib so‘roqqa tutdilar. Xayrulloxon Ponsod shunchalik gapni aylantirib, Chervyakovning da‘volarini rad etishga harakat qilsa ham bo‘lmadi. Uni Toshkentga ketayotgan poezdga olib chiqdilar. Toshkentda bir necha bor so‘roq qilinib, O‘rdada joylashgan garnizon gauptvaxtasiga qamadilar. Ikki oy yotib, bu yerning past-balandini bilib, mahbuslar bilan tanishib, ishonchli odamlar bilan til birikitirib, qochishga tayyorgarlik ko‘rdilar. Nihoyat, garnizonda xizmat qiladigan farroshlar yordamida qochishga muvaffaq bo‘ldilar. Endi poezdga ishonmay, o‘n ikki mahbus toqqa chiqib ketdilar. Ovchilar, cho‘ponlarning yordami bilan Chotqol orqali Oqtovga o‘tib, bu yerlarda faoliyat ko‘rsatayotgan Orzimat Qo‘rboshi qarorgohiga yetib bordilar. Qo‘rboshi ularni mehmon qilib, kiyintirib, qurol-yarog‘ berib, bir qancha yigitlarini hamroh qilib vodiya kuzatib qo‘ydi.

Shermuhammadbek Buxoroda bo‘lib o‘tgan voqealarni eshitib, qattiq xafa bo‘ldi: elchilarning qamalib qolishiga bir qayg‘ursa, amirning elchilarga va umuman, milliy-ozodlik harakatiga bo‘lgan munosabatidan ikki qayg‘uradi.

Bir oz olg‘a ketib bo‘lsada, elchilarning keyingi taqdiri haqida ma’lumot berib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Elchilar zindonband qilingan paytda Afg‘oniston hukumatining muxtor elchisi Abdul Shukurxon Buxoroda edi. Afg‘oniston hukmdori Omonulloxon bu voqeaga taassuf bildirib, elchilarni ozod qilish masalasini amir oldiga qo‘yishni o‘z musulmonlik burchi deb bildi. Abdul Shukurxon Buxoroga qaytadigan vaqt yetgach, Omonulloxon Sayid Olimxonga maxsus maktub yozib, elchiga topshirdi. Shukurxon Buxoroga yetib kelgach, boshqa ayrim hujjatlar qatorida shohning maktubini ham topshirdi. Maktub mazmuni quyidagicha edi:

“Ikki dunyo ko‘rki, Buxoro sultanati hukmdori, musulmonlar amiri, sayyodatmaob Qutb-ud davla Sayid Muhammad Olimxon Bahodurxon binni Sayyid Abdulaxadxon Hazratlariga!

...Amir hazratlari, eshitishimizga ko‘ra, Farg‘ona elchilari sizga nisbatan beodoblikka yo‘l qo‘yib, zindonband bo‘lmish ekanlar. Ularning Sizga nisbatan qilgan beodobligi sababi va tafsiloti bizga qorong‘u bo‘lsada, Sizday adolatpanohning behudaga jazolamasligi bizga ma’lum. Shunday bo‘lsada,

Sizning bizga nisbatan munosabatingiz va hurmatingizdan foydalanib, o‘shal gumroh elchilarning bir qoshiq qonidan kechishingizni hamda o‘z vataniga qaytarishingizni so‘raymiz. Sizga ikki dunyo saodatini tilab, birodaringiz, Afg‘oniston shohi Omonulloxon Barakzoiy”.

Maktub amirga yetib kelganda elchilarining zindonband qilinganiga yetti oy bo‘lay deb qolgan edi. Amir maktubni o‘qigach, o‘ylanib qoldi. U o‘zi Rusiyaga yarim tobe’ bo‘lgan holda, inglizlarday qattol dushmaniga bo‘y bermay o‘z mustaqilligini saqlab kelayotgan mamlakat shohiga hasad qilib, ichichidan uni yoqtirmasada, hozirgi paytda Buxoroni o‘ziga teng ko‘rib, u bilan yaxshi qo‘shnichilik qilib turgan, mabodo boshiga ish tushib, taxtdan ayrilib qolsa, qochib borib panoh topadigan joyning hukmdori bo‘lganligi tufayli Omonulloxon bilan murosa qilishga majbur. Shu tariqa Afg‘oniston shohining aralashuvi bilan ozodlikka chiqqan elchilar yetti oydan so‘ng G‘orbuvoga qaytib keldilar.

SULH

Poytug‘ jangida katta talafot ko‘rgan Madaminbek aylanma yo‘llar bilan o‘zining Baliqchi yaqinidagi Qoraterak qishlog‘ida o‘rnashgan qarorgohiga qaytib keldi. Biroz nafas rostlab, yaradorlarni davolatib, navbatdagi janglarga tayyorlanar ekan, sulhga rozi bo‘lish muqarrar ekanligi fikri-yodidan chiqmay qoldi: — Mana, ikki yildan beri tinimsiz jang olib bormoqda. Xo‘sh nimaga erishdi? Qizillar kun sayin, soat sayin kuchayib bormoqda. Hukumatning keyingi paytlarda ko‘rgan chora-tadbirlari natijasida xalqda ularga nisbatan ilqlik paydo bo‘lib, ozodlik lashkariga kelib qo‘shiluvchilar nihoyatda kamayib ketdi. Qon to‘kishlar behuda ketmoqda. Behuda to‘kilgan qon ro‘zi mahsharda mening va men kabi sardorlarning bo‘yniga tushishi aniq-ku. Endi ham behuda qon to‘kish, xalqning eng sara farzandlarini ko‘ra bila turib jang maydonida qurban etish gunohi azim emasmi?

Madaminbek shunday og‘ir o‘ylar bilan band ekan, qizil qo‘mondonlik sulh tuzish uchun navbatdagi qadamni tashladi. Namanganlik Mulla Abduqahhor sulh tuzish uchun Muhammadaminbek qarorgohiga yuborildi. U yo‘l-yo‘lakay baliqchilik mashhur so‘fiy Tojimuhammad Eshonni vositachi sifatida hay‘atga qo‘shib oldi. Madaminbek mehmonlarni yaxshi kutib oldi. Mulla Abduqahhor unga qo‘mondonlikning sulh haqidagi maktubini topshirdi. Bir hafta o‘tgach, Madaminbek sulh muzokaralarini o‘tkazishga rozi ekanligini qo‘mondonlikka ma’lum qildi.

Frunze sulh muzokaralari olib borishni salohiyatli qo‘mondonlardan biri Veryovkin-Roxalskiyga topshirdi.

Shundan so‘ng sulh muzokaralari boshlanib ketdi. Bir necha uchrashuvdan so‘ng Madaminbek tomonidan sulh shartnomasining quyidagi loyihasi taqdim etildi:

Men, Muhammadaminbek Ahmadbekov, Sho‘ro hukumati oldiga quyidagi talablarimni qo‘yaman:

1. Sho‘ro hukumati Turkiston fuqarolari hayotini yo‘lga qo‘yishda shariat asoslarini saqlab qolib, mehnatkashlarning manfaatlarini himoya etib, ahli islomga mavjud shariat, ya’ni musulmonlarning mahalliy shart-sharoitini hisobga olsa va urf-odatlariga huquq bersa.

2. Otryadimning doimiy qarorgohi Namangan shahri etib tayinlansa.

3. Men boshqa frontlarga chiqarilmasdan, vaqtincha Farg‘ona tasarrufida qoldirilsam.

O‘z qo‘shnim hamda o‘zlarining batamom roziliklarini shaxsan menga izhor etgan qo‘rboshi va a’zolarim bilan birgalikda tantanali qasamyod etamanki, endilikda Sho‘ro hokimiyatini tan olaman hamda uning sodiq xizmatkori bo‘lishga so‘z beraman, uning barcha buyruqlariga amal qilaman hamda quyidagilarni zimmamga olaman:

1. Otryadimda xizmat qilayotgan barcha ruslar to‘la ozod etiladi va xohishlariga binoan otryadimda xizmatda qolishlari mumkin.

2. Shu yilning 13 martidan kechiktirmay, o‘z vakillarim bilan Turkfront Harbiy-Inqilobi kengashi va Turkiston Markaziy hokimiyatiga sodiq ekanligimni bildirish uchun Toshkentga borishga so‘z beraman.

Muzokaralar uzoq davom etdi. Har ikki tomon o‘z shartlarini o‘tkazish, qarshi tomon shartlarining

nufuzini pasaytirishga harakat qildi. Muhammadaminbek bu muzokaralarda o‘zining nafaqat salohiyatli sarkarda, balki o‘tkir siyosatchi sifatida ham namoyon eta oldi. Nihoyat, quyidagi shartnomaga kelishildi:

1920 yil 6 mart,
Skobelev shahri.

Biz, quyida imzo chekuvchilar, birinchi tomondan: Harbiy-Inqilobiy kengash buyrug‘iga asosan, Turkiston frontida harakat qilayotgan 2-Turkiston o‘qchi diviziyyasining boshlig‘i Veryovkin-Roxalskiy va diviziya harbiy-siyosiy komissari Slepchenko; ikkinchi tomondan: Islom qo‘shinining qo‘mondoni Muhammadaminbek Ahmadbekov mazkur bitimni tubandagicha tuzdik:

1. Muhammadaminbek Ahmadbekov o‘z qo‘shini hamda o‘zlarining batamom rozi ekanliklarini izhor etgan qo‘rboshi va xodimlari bilan Sho‘ro hokimiyatini tan oladi hamda uning buyruq va topshiriqlariga amal qiladi.

2. Muhammadaminbek ixtiyorilik asosida o‘z qo‘l ostidagi qo‘shini va qurol-aslahalarini saqlab qoladi hamda Turk brigadasi tarkibiga kiradi.

3. Muhammadaminbek Ahmadbekovning doimiy qarorgohi Toshloqda bo‘ladi hamda vaqtinchalik boshqa frontlarga safarbar etilmasdan, Farg‘ona hududida tinchlik-osoyishtalikni saqlash ishida ishtirot etadi.

4. Muhammadaminbekning otryadida xizmat qilib kelgan rus millatiga mansub kishilar o‘zlarini ozod hisoblaydilar va ixtiyorli ravishda uning qo‘l ostida xizmatni davom ettirishlari mumkin.

5. Muhammadaminbek Ahmadbekov shu yilning 13-martidan kechiktirmay, o‘z vakillari bilan birga Turkiston Markaziy hokimiyatiga sodiq ekanligini bildirish hamda kelajakdagい vazifalarni belgilab olish uchun Toshkentga boradi.

6. Muhammadaminbek o‘z qo‘li ostida bo‘lgan va gapi o‘tadigan qo‘rboshilarni Sho‘ro hokimiyati bilan sulu tuzishga da’vat etadi.

7. Qo‘mondonlik vakili Sho‘ro hokimiyati nomidan Turkistonni boshqarish ishida shariat asoslari amal qilinishi va musulmonlarning mahalliy shart-sharoiti, urf-odatlariga huquq berilishiga va’da beradi.

8. Muhammadaminbek Ahmadbekovning qo‘rboshilari, xodimlari, askarlari o‘tmishdagи faoliyatlaridan qat’iy nazar, ta’qib etilmaydilar va daxlsiz bo‘ladilar.

Turkiston fronti Harbiy-Inqilobiy kengashi nomidan: I.A.Veryovkin-Roxalskiy.

Musulmonlar qo‘shini nomidan: Muhammad Aminbek Ahmadbekov.

Suh bitimi 6-mart kuni Skobelev shahrida imzolanib, bir necha kundan keyin uning tantanalari Namangan shahrida bo‘lib o‘tdi.

Biroq, suh bitimi shartlari Sho‘ro hokimiyati rahbarlariga mutlaqo yoqmadı. Ular Muhammadaminbekni hech qanday ilojsiz qolgan dushman sifatida kapitulyatsiya (tamomila taslim bo‘lish) haqidagi dalolatnama mazmunida tuzilgan bitimga imzo chektirishni maqsad qilib qo‘ygan edilar.

“Bechora” Veryovkin-Roxalskiy rahbarlardan toza eshitadiganini eshitdi. Masalan, Kuybishev uni so‘kkanicha so‘kib olib, so‘ngra shunday dedi:— Bu bitim shu holda siyosiy sohada ham, harbiy sohada ham yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin, uning yettinchi bandi bizni Farg‘onada va hatto Turkistonda fuqarolar orasida olib borilajak ishlarimizni cheklab qo‘yadi va Sho‘ro hokimiyatiga yot bo‘lgan mezonlarga amal qilishga (ya’ni, shariatga yo‘l berishga) majbur etadi... Bitim matnini boshqatdan, boshqa shart-sharoitlarni ko‘rsatib tuzish kerak. Madaminni, — dedi u so‘zining oxirida, — asta-sekin shashtidan tushirib, bukib, uni oddiy bir itoatgo‘y kishi darajasiga keltirib qo‘yish kerak.”

Farg‘ona viloyat partiya qo‘mitasi va Turkiston o‘lka qo‘mitasi va Turkiston fronti Harbiy-Inqilobiy kengashiga murojaat qilib, suh bitimini bekor qilishni, zero, u siyosiy nuqtai nazaridan har qanday tanqiddan past turishini ta’kidladi. Viloyat partiya qo‘mitasi o‘z yig‘ilishida bitimni bandma-band muhokama qilib, uning birinchi va beshinchi bandlaridan boshqa hammasi bekor qilinishiga erishish

kerakligi haqida qaror chiqardi.

Muhammadaminbek bir necha kundan so‘ng, Toshkentga borib kelgach, Toshloqda qo‘rboshilar kengashini chaqiradi. Kengashda uning so‘zlagan nutqini Ibrohim Karim qurolsoz usta Ahrorxo‘ja Maqsudxo‘jaev xotirasi asosida keltiradi:

“— Xalqqa rahmimiz kelishi kerak. Ayanchli yashayotgan xalqning tinch mehnat qilishi uchun imkoniyat berish imonli odamlarning ishidir... Begunoh mo‘minlarning qonlari shuncha to‘kilgani yetar! Hozirgi sharoitda, ya’ni kuchlar sochilib ketgan, ular o‘rtasida o‘zboshimcha mayllar kuchayib borayotgan, boshqa joydan yordam kelmayotgan bir paytda bu sulu bizga milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish imkonini beradi. Shu bilan birga, nafasni rostlab olish, vaziyatga qarab ish tutishimiz uchun yo‘l ochadi. Mana shu boisdan, men sulhga rozi bo‘ldim. Suh shartlariga binoan G’orbuvoga krepost quramiz. Unga Shermuhammadbekni (sulhga ko‘nsa) boshliq etib tayinlaymiz. Turk diviziysi tashkil etamiz, qo‘rboshi va beklar qurollangan holda o‘z yigitlariga bosh bo‘lib qolaveradilar, ular o‘z hududlarida tartib-intizom uchun javob beradilar. Ana shunday qismlardan tashkil topgan milliy armiya yaxshi qurollangan va harbiy san’atni egallagan bo‘ladi. Men esa hukumat ishlarida ishtirot etaman. Suh shartlariga ko‘ra boshqa qo‘rboshilarni ham Sho‘rolar bilan yarashishga chaqirishga so‘z berdim. Shermuhammadbek va boshqa beklar buni tushunishadi, deb ishonaman.”

Suh masalasiga yirik qo‘rboshilar turlicha munosabat bildirdilar. Bu haqda Shermuhammadbek o‘z xotiralarida shunday deydi: “— Suh tuzishga da’vat etilgan katta qo‘mondonlardan Muhiddinbek va Jonibek Qozi uning xohishiga ochiq qarshi chiqdilar. Omon Pahlavon ham shunday yo‘l tutdi. Faqat Omon Pahlavonning qo‘rboshilaridan Rahmonquli kurashdan voz kechdi va bir oz vaqtidan keyin qo‘lga olindi. Ammo Namangan ahli “Rahmonquli qo‘rboshi qo‘zg‘olonga majburan qatnashgan”, deb yalpi ko‘rsatma bergenidan keyin bir oz vaqt o‘tgach, qamoqdan chiqarib yuborildi. Rahmonquli keyingi kunlari Toshkent va Xo‘jand kabi katta shaharlarni aylanib chiqdi va kurash yanada tezlashganiga guvoh bo‘ldi. Shunda u yana ozodlik harakatiga qo‘shildi.

Madaminbekning suh tuzish mahalidagi ahvoli-ruhiyasi ancha ajablanarlidir: u mag‘lub etilgan qo‘mondon ekanligini hisobga olmay turib Sho‘rolarning suh haqidagi va’dalariga ishondi. Ilgaridan beri g‘oyani siyosiyo yo‘llar bilan hal qilishga bo‘lgan ishonchi shu e’timodda turishga sabab bo‘lgandir. Madaminbekning shahsiy ahvoli va milliy kurashdagi tutgan o‘rniga kelsak, u chinakam maqtovlarga loyiq, ilk davrda qo‘rboshilar millatparvarlik harakatining kuchayishida katta jasorat ko‘rsatgan, kelajakni ko‘ra oluvchi, bolsheviklarni boshiga qiyin kunlarni solgan qo‘mondon bo‘lgan. Bu oxirgi fe‘li ham, albatta, boshdan beri amal qilib kelgan g‘oyalariga teskari kelmasligi mumkin. Uning shunday qilishga majbur bo‘lganini ham tushunish mumkin. Ammo o‘zini hali ham zafar qozonayotgan bir qo‘mondonek tutardi... Yomon tomoni shunda edi.. Iymoni kuchli edi, ammo sobit emasdi. Juda qiyin sharoitda ham kurashni davom ettira olardi, taslim bo‘lmashlik qo‘lidan kelardi. Ammo o‘z g‘oyasi yo‘lida sobitqadam bo‘lolmadi, balki, bu uning yagona kamchiligidir, uning xatosi ham shunda edi.”

Muhammadaminbek Toshkentga borgach, u yerda kimlar bilan uchrashganligini, u yerdagilar bilan nimalar haqida gaplashganligi haqida yetarli ma’lumot arxivlarda mavjud. Bu haqda tarixchi olim Qahramon Rajabov o‘z tadqiqotlarida so‘z yuritadi. Bu yerda suh shartnomasiga Kuybishev va Farg‘ona viloyat partiya qo‘mitasi tomonlaridan ko‘rsatib o‘tilgan tuzatishlar kiritilgan. Muhammadaminbek bunga qanday rozi bo‘ldi ekan? Rozi bo‘lmashlikni ham iloji bo‘lmagan ko‘rinadi, zero, u Toshkentga faqat bir necha odamlari bilan borgan. Muzokaralar davom ettirilgan holatda yakka, himoyasiz edi. Suh shartnomasiga o‘zgartirish kiritish bilan Sho‘rolar hokimiyyati o‘z munofiqligini yana bir bor oshkor etdi. Ahir, jamoatchilik oldida tantanali ravishda imzolangan suh shartnomasini qayta tuzish na xalqaro qonunlarda, na urush qonunlarida bor.

MUHAMMADAMINBEK SHAHODATI

Mana endi fojeiy qissamizning eng og‘ir qismiga yetib keldik. Bu og‘irlik nafaqat qahramonlarimizdan birining o‘limi bilan bog‘liq musibat tufayli, balki mazkur bobda qalamga olinadigan mavzuning chigalligi, fikrlarning chalkashligi, ma’lumot va manbalarning bir-biriga zidligi hamda masalaning nozikligi tufayli hamdir. Darhaqiqat, masala o‘ta nozik: o‘ylamay aytilgan kalom, o‘ylamay yuritilgan qalam bilan birovni yomon otliq qilib qo‘yish hech gap emas.

Muhammadaminbek fojiasi bilan bog‘liq bo‘lgan gap-so‘z va manbalarni tahlil etar ekanmiz, mazkur adabiyotlar, ulardan kelib chiqadigan xulosalarga ko‘ra bir necha turkumga bo‘linishga guvoh bo‘lamiz:

1. Sho‘rolar davri manbalari. Mazkur urushda ishtirok etgan Melkumov, Polikovskiy, Kalmikov kabi qizil komandirlarning qissa va romanlari; Fuqarolar urushi qatnashchilari tomonidan yozilgan xotiralar (ma’lum bo‘lishicha, mazkur xotiralarning aksariyati diktant usulida yozdirilgan ekan); jurnalistlar, yozuvchilar tomonlaridan yozilgan badiiy, publitsistik asarlar va maqolalar. Bu asarlardan kelib chiqadigan xulosaga ko‘ra, Muhammadaminbek Shermuhammadbekning ko‘rsatmasi bilan Xolxo‘ja tomonidan qatl etilgan va uning boshi nayza uchiga o‘rnatilib, ibrat va sazoyi qabilida Xolxo‘ja tomonidan olib yurilgan. Xulosa yakdil bo‘lsada, Muhammadaminbek qatl etilgan joy, vaqt va holat haqida katta tafovut bor.

Qizil komandirlardan biri M.Polikovskiy esa o‘zining “Madaminbekning tugatilishi” asarida quydagicha hikoya qiladi:

“Madaminbek Ko‘rshermatga sulu masalasida uchrashish uchun bir necha marta taklif yuboradi. Nihoyat, Ko‘rshermat uni G’orbuvoga taklif qiladi. Madaminbek o‘zining polk komissari Suxov va yigirma to‘rt yigit hamrohligida G’orbuvoga yo‘l oladi. Qishloqqa kiraverishda uni Ko‘rshermatning odamlaridan biri kutib oladi va shunday deydi:

— Shermuhammadbek bu yerda sizlarni kutayotgan edi. Biroq qishloq atrofida bir necha qizil otryadlar paydo bo‘lganligi tufayli bu yerdan Vodilga ketishga majbur bo‘ldi. O’sha yerda tinch sharoitda gaplashmoqchi. Bu gapdan Madaminbek va Suxovda bir oz gumon paydo bo‘lsada, keyinchalik “qo‘rqoq” degan dashnomga qolmaslik uchun gumonni yengib, Vodilga borishga qaror qiladi. Madaminbek Vodilga yetib kelganda Ko‘rshermat uni o‘rab oldi, jang paytida Madaminbek boshidan o‘q yeb o‘ldi. Uning boshi Xolxo‘jaga sovg‘a qilinadi”.

1957 yilda nashr etilgan “Farg‘ona vodiysida sovet hokimiysi uchun bo‘lgan janglarda” deb nomlangan to‘plamda Usmon Alievning “Mening xotiralarim” deb atalgan esdaliklari ham bor. Unda shunday parchani uchratamiz:

“... To‘ychi Qo‘rboshi bilan muzokaralarni Paramonov, Chekmaryov va Oxunovlar olib bordilar. Har ikki tomon bir to‘xtamga keldilar. Paramonov, Chekmaryov va Oxunov To‘ychi Qo‘rboshini M.V.Frunze o‘z esheloni bilan turgan Serovo stantsiyasiga taklif etdilar. To‘ychi rozi bo‘ldi, biroq bir oz keyinroq borishini bildirdi. To‘ychi o‘zining So‘xda turgan yigitlariga “Rishtonga kelib turinglar, men Serovoga, o‘rtoq M.Frunze oldiga ketyabman”, degan mazmunda xat yozadi. Xatni jo‘natgach, sulh tuzish uchun yo‘l oladi. Serovo yo‘lidagi Zohidon qishlog‘iga yetganida unga Madaminbekning boshini keltirib beradilar. Ma’lum bo‘lishicha, sulh shartnomasi tuzilgandan so‘ng M.V.Frunze tomonidan musulmon armiyasi qo‘mondoni etib tayinlangan Madaminbek Qo‘qonga kelgan paytda bir vaqtlar Xolxo‘janing ukasini o‘ldirgan (U.Aliev bir oz adashtirib yuborgan. Boshqa bir necha manbaga ko‘ra To‘ychi qo‘rboshining ukasini o‘ldirgan) Yorbek degan kishini Qo‘qon qamoqxonasidan ozod qiladi va shu tariqa ular bir-biriga dushman bo‘lib qolgan.

Sovetlar bilan yarashtirish haqida muzokaralar olib borish uchun kelgan Madaminbekni Ko‘rshermat hiyla bilan qo‘lga tushurib, uning eski dushmani Xolxo‘jaga topshiradi. Xolxo‘ja, shu tariqa, ukasining qasdini olgan bo‘lib, Madaminbekni o‘ldiradi”.

Bu turkumga oid boshqa manbalarda ham Madaminbek fojiasi yuqoridaqilar kabi talqin etiladi.

2. Istiqlol yillarda, “bosmachilik harakati”ga munosabat bir oz o‘zgargandan keyin e‘lon qilingan asarlar va maqolalar, shuningdek, xorijda istiqomat qilib turgan ayrim o‘zbek adib va olimlarining

asarlari. Bu turkumdagи adabiyotlar ham Madaminbek halokatini Shermuhammadbek va Xolxo‘ja Eshon bilan bog‘laydi. Bunga qo‘shimcha ularoq, ba’zilari bu ishda Sho‘rolar maxfiy xizmatining ham qo‘li bor ekanligini ta’kidlaydi.

Mazkur ikkinchi turkumga kiruvchi adabiyotlar juda oz. Ibroxim Karim, Alisher Ibodinov va yana bir necha adibni istisno qilganimizda, boshqa yozuvchilarimiz bu nozik mavzuga qo‘l urganlaricha yo‘q.

3. Xorijda yashab turgan olim va jurnalistlarning asarlari, Shermuhammadbek, uning ukasi Nurmuhhammadbek va boshqa qo‘rboshilarning xotiralari hamda mazkur xotiralar asosida yaratilgan asarlar.

Germaniyada istiqomat qilgan marhum vatandoshimiz Doktor Boymirza Hayit o‘zining “Bosmachi yoxud 1917—1934 yillarda Turkistondagi milliy kurash” kitobida Muhammадaminbek fojiasiga Shermuhammadbekning daxli yo‘qligini ta’kidlagan holda, Xolxo‘ja Eshon haqida ochiq yozmaydi, ishora qilib o‘tadi, xolos:

“... Madamin va Xolxo‘ja o‘rtasidagi mojarolar 1919 yildayoq yuzaga kelgan edi. Xolxo‘ja Madamin yigitlari orasida qo‘rboshi bo‘lib yurgan kezlari Madamin uni axloqiy buzuqlikda ayblab, 4 oyga qamoq jazosiga hukm qilgan edi. Xolxo‘ja Madamindan nafratlanar, shu bois 1919 yil oxirida uning yigitlaridan ajralib, Shermuhammadga kelib qo‘shilgan edi. Madaminning jang maydonida paydo bo‘lishi oliymaqom imkoniyat edi. Madamin va Suchev (Suxov – M.X.) 1920 yil 14 mayda o‘ldirilganlar.”

Boymirza Hayit yana shularni yozib o‘tadi:

“... Madamin Shermuhammad huzuriga tinchlik muzokalarari olib borish uchun kelayotganida Xolxo‘ja yigitlari tomonidan qo‘lga olinadi va qatl qilinadi. Soyib qori va Lutfulla Maxsum Madaminni o‘ldirganlardan keyin Buxoroga qochib ketadilar.”

Turk adibi va jurnalist Ali Bodomchining “1917—1934 yillarda Turkistonda milliy-istiqlol harakati va Anvar Posho” asarining I jildi shartli ravishda “Qo‘rboshilar” deb nomlangan. Bu asarda yozuvchi Shermuhammadbek, Nurmuhhammadbek va chet elga qochib o‘tishga muvaffaq bo‘lgan qo‘rboshilarning yozma va og‘zaki xotiralaridan unumli foydalangan. Ali Bodomchi Madaminbek fojiasida nafaqat Shermuhammadbek balki, Xolxo‘ja Eshonning ham qo‘li bo‘lishi mumkinligi haqidagi gumonlarni butunlay rad etadi. Bu masalaga u shunday yondashadi:

“Qorovul mavzei atrofida bo‘lib o‘tgan janglar paytida... Bolsheviklar eng avvalo Xo‘jag‘ir darasi tomonidan hujumga o‘tdi. Ularning soni 1000 dan oshiq bo‘lib, Madaminbek ham o‘z yaqinlari bilan mana shularning ichida edi. Bu kuchlarning deyarli hammasi tatar va o‘zbek qizil askarlari edi.

Xo‘jag‘ir darasi qo‘rboshilar rejasiga ko‘ra, Xolxo‘ja Eshonning yigitlari tomonidan ushlab turilardi. Shuning uchun ular 1000 kishilik dushmanni qilich yalong‘ochlab kutib oldilar. Xolxo‘ja Eshon bolshevik kuchlari ustiga 9 aprel kuni ertalab yashin tezligida hujum uyushtirib, ilk bosqichda besh yuztasini asir oldi. Madaminbek ham shu asirlar orasida edi. Xolxo‘ja Eshon 500 asirni Lutfulloh Maxsum va Soyib Qori boshchiligidagi qarorgohga yubordi.

Madaminbek — sobiq qo‘rboshilar qo‘mondoni endi qo‘rboshilarning qo‘lida asir bo‘lib qoldi. U avvalo Shermuhammadbek bilan uchrashishni xohladi. Ammo bu paytda urush butun shiddati bilan davom etayotgani, boshqaruv Shermuhammadbek qo‘lida ekanligi sababli uchrashuvga imkon bo‘lmadi. Keyin Nurmuhhammadbek bilan ko‘rishmoqchi bo‘ldi. Nurmuhhammadbek shu asnoda hammayog‘i qon — terga botgan holda qarorgohga kelib qoldi. Madaminbek unga qarab shunday dedi:

“— Qarshilikni to‘xtatib qo‘ying, siz ham yarashing. Bekordan-bekorga qon tukilishini davom ettirmang. Butunlay o‘rab olingansiz. Kuchlari juda ko‘p, boshqa garnizonlardan to‘xtovsiz qo‘shimcha kuch olib turishibdi. Ular bilan faqat biz urush holatidamiz, boshqa barcha jabhalarni tinchtdilar. Turkistonda kuch to‘plashyapdi. Qurol-asлаha, to‘pxonalari ko‘p. Askarlarning sanog‘iga yetib bo‘lmaydi...”

Madaminbek yolvora boshladi. Nurmuhhammadbekning birorta so‘z deyishga holi yo‘q edi. Shunda

ham chuqur xo‘rsinib javob qildi:

“... Kelisha olmaymiz va sulh tuza olmaymiz, Madaminbek... o‘lim uchun qasam ichdik. Bunga rozi va tayyormiz. Boshimizni din va nomus dushmanlari oldida egmaymiz. Kuchlimiz... (Nurmuhhammadbekning xotiralaridan aynan keltirdik – A.B.)”

Nurmuhhammadbek urush jabhasiga qaytishi zarurligini, o‘zining hayotidan xavotir olmasligini aytib, qaytib ketdi.

Nurmuhhammadbek Madaminbek yonidan ketgach, ikki qo‘mondon o‘rtasidagi gapni eshitib turgan va keyin Madaminbek bilan tortishuv boshlagan qo‘riqchi qo‘rboshilar Soyib Qori va Lutfulloh Maxsum Madaminbekka oldin o‘q otib, keyin bo‘g‘ib o‘ldirdilar. Turkistonlik yozuvchi va olimlar Madaminbekni Xolxo‘ja Eshon o‘ldirgan yoki o‘ldirtirib yuborganini yozganlar. Shu jumladan, Ibrohim Yorqin “Turkistonning buyuk mujohidi Shermuhammadbek” maqolasi, “Turk kulturi” jurnali, 95-son (1970 yil may oyi), 496 bet; Tohir Chig‘atoy “Turkiston mujohidi Shermuhammadbekni yo‘qotdik”, maqolasi (“Davlat” majmuasi, 52-son (1970 yil, 30 mart), 6—7 betlar kabi asarlarda yuqoridagi fikrni tasdiqlab yozganlar. Boymirza Hayit “Turkiston Rusiya ila Chin orasinda” nomli asarining 284- betidagi 33 raqamli izohida shunday yozgan: “Madaminbek 1920 yil 9 aprelda bosmachilar tomonidan otilgan” deb turib, o‘sha asarning 288 betida: “Madaminbek Xolxo‘janing kuchlari tomonidan 1920 yil 14 mayda qatl qilindi”, deydi. Sana nuqtai-nazaridan bizning fikrimizcha, 14 mayda o‘ldirilgan haqiqatga yaqin. Madaminbekni Xolxo‘ja o‘ldirgan degan gapga kelsak, to‘g‘ridan-to‘g‘ri buni da’vo etish tarzi bizning yozganlarimizni tasdiqlaydi. Garchi Xolxo‘janing Madaminbekni o‘ldirishiga sabab yo‘q bo‘lmasa ham, Madaminbek Turkiston Muxtoriyati hukumati davrida Xolxo‘janing g‘ururiga tegadigan darajada tazyiq o‘tkazgan, bu voqeadan tug‘ilgan kek oq ruslar bilan hamkorlik chog‘ida qahr g‘azabga aylangandi. Bizning so‘rab-surishtirish va tad-qiqotlarimizga ko‘ra, Madaminbekni Xolxo‘ja o‘ldirmagan ham, o‘ldirtirmagan ham. Chunki Madaminbek o‘ldirilgan paytda Xolxo‘ja urush jabhasida bo‘lgan. Qotillar, yuqorida yozilganidek, Soyib Qori va Lutfulloh Maxsumlardir. Bular ikkalasi ham bir qancha vaqt g‘oyib bo‘lishgan. Buxoroga qochib borib, Madaminbekni o‘ldirganliklarini tan olishgan.

Ba‘zi turkistonliklar esa Madaminbekni Shermuhammadbek o‘ldirganini aytadilar. Bunday da’vo — iddao butunlay ehtimoldan holi. Qorovul jangidan keyingi maslahat majlisidayoq Shermuhammadbek Xolxo‘jaga sabr qanoatli bo‘lishni, biror yomon kor-holga yo‘l qo‘ymaslikni uqtirgan. Bu mavzudagi eng to‘g‘ri fikr Madaminbekni bolsheviklar tomonidan o‘ldirilganidir. Chunki o‘ldirganlar aniq, ammo o‘ldirtirganlar noma'lum. Shermuhammadbek o‘z xotiralarida bu mavzuga keng o‘rin berib, shunday deydi:

“Madaminbekning o‘lganini men kech eshitdim. Karboboga qaytib kelgan paytimizda bildim. Urush chog‘ida uning yuzini ko‘rmaganman ham. Chunki biz jiddiy o‘lish-qolish jangi ichida edik. Xolxo‘ja Madaminbekni asir olgan paytda uning yigitlari Soyib Qori va Lutfulloh Maxsumga topshirgandi. Bu ikkisi Madaminbekni o‘ldirib, Buxoroga qochib ketgan. Madaminbekni men yoki Xolxo‘ja o‘ldirgan degan iddao ruslar tomonidan bizga qarshi tuhmat targ‘iboti edi. Xolxo‘ja Madaminbekka kek saqlardi, ikki yil oldin oralari yaxshi bo‘limgani holda Madaminbek Xolxo‘jani Marg‘ilonga chaqirib, quollarini olib qo‘ygandi. Buni hamma bilardi.

Men shaxsan Madaminbekning ruslar bilan kelishganiga g‘azablanganimga qaramay, ilgari katta ishlarni bajargan, oydin fikrli bir qo‘mondon ekanligini qadrlar edim. O‘limi menga ko‘p ta’sir qildi. Koshki mening qo‘limga tushgan bo‘lganda, men uni eski xizmatlariga binoan Afg‘onistonga jo‘natardim. Qotil aniq va bu dahshatli hodisada ruslarning qo‘li bor. Bolsheviklar bu o‘lim hodisasini bizning ustimizga to‘nkashdi. Mening xulosalarim shunday.

Soyib Qori va Lutfulloh Maxsum Madaminbekni o‘ldirganlaridan keyin bu yerdan g‘oyib bo‘lishdi. Urush to‘paloni ichida askar yigitlarning ko‘pi Madaminbekning o‘limidan xabarsiz qoldi.”

— Muhammad Aminbekni Shermuhammadbek hech qachon o‘ldirishi mumkin emas edi, — deydilar Shermuhammadbek va Nurmuhhammadbek o‘g‘illari Davronbek va Anvarbeklar. Axir ular

yoshlikdan o‘rtoq bo‘lganlar, istiqlol uchun kurashga qasam ichganlar. Madaminbekka hurmat ramzi sifatida Shermuhammadbek nabirasiga Madaminbek deb ism qo‘ygan. Madaminbekning jiyani Nurmuhhammadbekning umr yo‘ldoshi edi, otamlar doimo Madaminbek amakimlarni milliy qahramon sifatida tilga olishar edi...

4. Turli kishilardan eshitganlarimiz.

Alloh-taoloning inoyati bilan biz ulg‘ayib, oq-qorani tanib, qalbimizda Vatan tarixiga qiziqish paydo bo‘lgan paytda Farg‘onadagi milliy-ozodlik kurashi voqealarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, mazkur voqealarda ishtirok etgan kishilarning aksariyati hayot edi. Avvalo marhum qiblagohimizning, qolaversa o‘zimizning jamiyatda tutgan o‘rnimiz, obro‘-e’tiborimiz tufayli juda ko‘p odamlar bilan suhbat qurib, ko‘plab tarixiy ma’lumotlar (og‘zaki bo‘lsada) olishimizni Alloh bizga nasib etdi. Ana shunday tarixiy mavzulardagi suhbatlarimiz asnosi, o‘sha davr mavzusi qudratini yaxshi his etganimizdanmi, sarguzasht talabligimizdanmi, har holda suhbatdoshimizdan kitobga tushmagan voqealar haqida so‘zlashni so‘rar edik.

XX asrning yetmishinchi yillari edi. Bir guruh yosh faollarni ikki haftalik kursda o‘qish uchun Moskvaga jo‘natishdi. O‘quv dasturi dam olish bilan muvofiqlashtirilganligi tufayli bizni Barvixa yaqinidagi yoshlar sog‘lomlashtirish – dam olish lageriga joylashtirishdi. Gird atrof o‘rmon, ikki kilometr naridagina adliya xodimlarining dala hovlilari bor. Kunlardan birida mashg‘ulotlardan so‘ng o‘sha paytda urf bo‘lgan “Spidola” radiopriyomnigini ko‘tarib, o‘rmon ichkarisiga kirib ketdim. Barra o‘t ustida yonboshlab, Muhabbat Shamaevaning “Ko‘chalar” qo‘shig‘ini sel bo‘lib eshitib yotgan edim, bir rus kishi, chamamda yetmish yosh atrofida bo‘lsa kerak, mendan ancha narida to‘xtab, qo‘shiqqa qulqoq solib turdi. Qo‘shiq tamom bo‘lgach, men tomon yaqin kelib, sof o‘zbek tilida: “— Salom, siz o‘zbekmisiz?” deb so‘radi. Men ham salomiga alik olib, “— Qaerdan bildingiz?” dedim.

— Radiopriyomnikdan o‘zbekcha qo‘shiq tinglayotganingizdan bildim. Shu bahona, biz tanishib oldik. Ma’lum bo‘lishicha, Pyotr Yevdokimovich Bronislavskiy iste’fodagi general, harbiy prokuror bo‘lib, uzoq yillar O‘zbekistonda xizmat qilgan, hozirgi paytda Moskvada istiqomat qilib, yoz mavsumida dala hovliga ko‘chib chiqqan ekan. O‘zbekiston haqidagi suhbatlar asnosi ancha qadrdonlashib qoldik. O‘qishimiz tamom bo‘lishiga yaqin u bizni dala hovlisiga taklif qildi:

— Yurtingizdan olib kelgan qozonim bor. Bir oshxo‘rlik qilaylik. Biz bir necha o‘zbekistonlik yigitlar, o‘zimiz bilan olib kelgan Cho‘ng‘ara devzirasini olib mehmonga bordik. Ruschadan dasturxon — bir-ikki qultumdan so‘ng Bronislavskiyning xotira sandig‘i ochilib ketdi:

— Yigirmanchi yilda meni Farg‘ona fronti maxsus bo‘limiga tergovchi qilib yuborishdi. Bir nechta qo‘rboshilarning tergovida ishtirok etganman... Rishton, Serovo, So‘x oralig‘ida harakat qilgan To‘ychi va Qoravoy qo‘rboshilar bo‘lar edi. Ular bir necha marta qizil qo‘mondonlik bilan sulh tuzishgan, lekin ko‘p o‘tmay yana bosmachilikka o‘tib ketishgan. Nihoyat, to‘rtinchi marta bosmachilar tomoniga o‘tib ketayotganligi ma’lum bo‘lib, hibsga olingan. Ularning tergovini men olib borganman. Mana, oradan qirq yildan ko‘p vaqt o‘tdi, tergovning sir saqlanish muddati ham o‘tib ketgan, endi bu haqda so‘z ochsa bo‘laveradi. Tergov bir necha oy davom etdi. Ularning aybini bo‘yniga qo‘yib, ishni sudga oshirish payti kelganda To‘ychi so‘rab qoldi:

— Bir vaqtlar sho‘rolarga katta xizmat ko‘rsatganman. Shuni aytib bersam tergov inobatga oladimi? Menga yengillik bo‘ladimi?

— Qanday xizmat ekanligiga qarab. Biroq oldindan kafolat bera olmayman.

— Men maxsus bo‘lim ko‘rsatmasi bilan Madaminbekni yo‘q qilish ishida qatnashganman...

Shu so‘zları esimda qolgan. Tafsilotlari esimda yo‘q. Yana esimda qolgani shuki, so‘roq deklaratsiyasini maxsus bo‘lim boshlig‘iga olib kirganimda, u bayonnomani o‘qib, qoshlarini chimirib, bir oz o‘ylanib qoldi va nihoyat shunday hukm chiqardi:

— Bu ish uni oqlashga asos bo‘la olmaydi. Zero, o‘sha paytda Madamin sovetlar bilan sulh tuzib, rasman qizil qo‘shin komandirlaridan biri hisoblangan. Binobarin, To‘ychining jinoyati yana bitta moddaga oshadi, ya’ni qizil qo‘mondonga suiqaşdda ishtirok etgan bo‘lib chiqadi va bu bayonnomaga

aybnomaga qo‘shilishi kerak. Yaxshisi, bu bayonnomani tergov hujjatlariga qo‘shmagan ma’qul...

Bronislavskiy bilan suhbatimiz allaqachonlar xayoldan ko‘tarilib ketgan edi, Ibrohim Karimning kitobi va Usmon Alievning xotirasini o‘qigandan keyingina yodimizga tushdi.

Mazkur xunxor urush ishtirokchisi, ChK da ham biroz xizmat qilgan qo‘qonlik Meliboy ota Abdullaev bilan qachon subbat qursak, mavzu o‘sha urush haqida bo‘lar edi:

“— Madaminbek qo‘rboshilar ichida eng salohiyatli va obro‘ e’tiborlisi edi, — deya xotirlar edi Meliboy ota, — shu tufayli sovetlar undan doim xavfsirab kelgan. Hatto u sulh tuzgandan keyin ham qo‘mondonlik, ChK nazarida “Vrag № 1” (eng xavfli dushman demoqchi— M.X) hisoblab keltingan. Shu tufayli ChK uni jisman yo‘q qilish uchun doimo qulay vaziyat, imkoniyat qidirgani esimda bor. Front maxsus bo‘limi uni nafaqat jisman yo‘q qilish, balki bu qotillikdan siyosiy foyda chiqarish, uni qo‘rboshilar qo‘li bilan o‘ldirish, yoki aybni bir amallab ularga to‘nkab yuborish zarur, deb hisoblar edi...”

Xullas, Muhammadaminbek Shermuhammadbek bilan sulh muzokaralari yuritish uchun uning huzuriga borayotgan paytda, 1920 yil 14 mayda o‘ldirildi. Ko‘plab adabiyotlarni ko‘rib chiqqan, ko‘plab kishilar bilan suhbatlashgan bo‘lsakda, qo‘limizda aniq bir dalil, aniq bir hujjat bo‘lmaganligi sababli, u “falon kishining qo‘lida o‘lim topdi” degan da‘vo va xulosadan yiroqmiz: taxmin ko‘p, aniq bir isbot yo‘q. Har bir chigalni yechish bandaga doim ham nasib qilavermas ekan, vallohi a’lam bissavob, Alloh hammadan ko‘p bilguvchidir. (Taqdiri fojiali tugagan Madaminbek qabri Qирг‘изистон respublikasi, Oloy vohasidagi Shig‘ay qishlog‘ida).

YASHNAGAN CHO‘G’

Yuqorida eslatib o‘tilganidek, 1919—1920 yil oralig‘idagi qish mavsumida milliy-ozodlik harakati qator zarbalarga uchrab, katta talafot bergen, yirik qo‘rboshilar tog‘larga chekingan, go‘yoki, ozodlik harakati olovi biroz so‘nib, ustini qo‘ranta kul qoplagan cho‘g‘ holatiga kelib qolgan edi. Qizil qo‘mondonlik bu holatni o‘zining katta g‘alabasi sifatida baholadi. Ayniqsa, Madaminbek bilan sulh tuzilgandan so‘ng, qizillar “bosmachilik harakati oloviga suv quyib, uni butunlay o‘chirdik” degan xomxayolga bordilar. Turkiston fronti Inqilobiy-Harbiy kengashining 1920 yil 30 martda chiqargan buyrug‘i shunday boshlanadi:

“Bir umr to‘lqinlanib kelgan Farg‘ona tinchib qoldi, uzoq davom etgan kurashdan azob chekib kelgan aholi esa tantanali ravishda sotsialistik qurilish ishiga kirishib ketdi”.

Tatar o‘qchi brigadasi tashkil topgan kunning bir yilligi sharafiga Kuybishev tomonidan 1920 yil, 25 martda yuborilgan tabrik xatida quyidagi satrlar bitilgan:

“Siz o‘zingizning Farg‘ona aholisiga nisbatan bo‘lgan benuqson, o‘rtoqlarcha munosabatingiz, o‘z matonatingiz va intizomliligingiz, o‘z qat’iyatingiz va jasoratingiz bilan bosmachilik harakatini o‘chirdingiz”.

Biroq, qizil qo‘mondonlik ham, uning rahbarlaridan bo‘lmish Kuybishev ham chuchvarani xom sanagan ekanlar. Alloh Farg‘onaga yana bir bor zafar shamolini yuborib, cho‘g‘ ustidagi qo‘rantani har tomon parishon qilib, cho‘g‘ini yashnatib yubordi. Bu cho‘g‘dan shunday alanga chiqdiki, qizil o‘t o‘chiruvchilar unga bas kelolmay qoldilar.

Turkiston frontining Inqilobiy-harbiy kengashi Muhammadaminbek bilan sulh tuzilgach, uning qo‘lida xizmat qilgan 7200—8000 yigitdan iborat qo‘shinni qayta qurib, to‘rtta polk tuzadi va ularni umumlashtirib, Turk brigadasi deb ataydi. Sho‘rolarning o‘zi bu polklarda xizmat qiluvchi askarlarga norasmiy tarzda “Sho‘ro bosmachilari” deb nom beradi. Madaminbek shahid bo‘lgach, “uning o‘limida sho‘rolarning qo‘li bor” degan xabar qo‘shin ichida yashin tezligida tarqaladi. Turk brigadasi ichida, uyushgan holda bo‘lmasada, isyonlar boshlandi. Shundan so‘ng qo‘mondonlik bu brigadani qurolsizlantirish haqida qaror chiqaradi. Bundan xabar topgan yigitlar qurol-yarog‘lari bilan ozodlik lashkari saflariga qochib o‘tadilar, natijada bu lashkar yanada qudrat kasb etadi.

Hibsdan qutilgan Rahmonquli Qo‘rboshi qochoq yigitlardan 2800 kishilik yangi qo‘sish tuzib yana jangga kiradi. Kamchiq, Novgarzon, Kaltajon, Buruli, Pang‘oz, Kandir, Objaz, Shayit, Eshon oshuv dovonlarini o‘z nazorati ostiga oladi.

Islom Polvon Qo‘qon atrofida harakatni o‘z qo‘liga olib, kurashni yanada kuchaytirib yubordi. Aprel-avgust oylari mobaynida qizillarning mingdan ortiq askarini qirib, katta talafot yetkazdi.

Shermuhammadbek, Xolxo‘ja Eshon va Omon Polvonning birlashgan qismlari Vodil va Uchqo‘rg‘on oralig‘idagi jangda g‘olib kelib, qizillarning bitta polkini qirib tashladilar.

Muhiddinbek, Isroil Qo‘rboshi, Yormat Maxsum, Sotiboldi Qozi va boshqa qo‘rboshilar O’sh—O’zgan atroflarida faoliyatlarini jadallashtirib, qizil qo‘singa katta zARBalar berdilar.

Shermuhammadbek G’orbuvoga qaytib kelgach, vodiyning turli tomonlariga quyidagi mazmundagi maktub bilan chöparlar yubordi:

“Men, Shermuhammadbek G’oziy, janglardan so‘ng yana G’orbuvodagi qarorgohimga qaytib keldim. Kuch-quvvatim ko‘p va yana qo‘sishma yigitlarni qabul qilyapman”.

Shundan so‘ng qizil qo‘sinda isyon ko‘tarib, qochoqlikda yurgan ko‘plab yigitlar G’orbuvoga yakka-yakka va to‘p-to‘p bo‘lib kela boshladilar. 1920 yil yozi o‘rtalariga kelib, vodiydagi ozodlik jangchilari miqdori 30 ming kishiga yetdi.

Milliy-ozodlik harakatidagi bu yuksalishni Frunze “bosmachilik frontining qayta tug‘ilishi” deb baholadi. Turkiston Markaziy Ijroiya qo‘mitasining qaroriga muvofiq Farg‘ona hududida harbiy holat e’lon qilindi. May oyining o‘rtalarida urushga bevosita rahbarlik qilish maqsadida Farg‘onaga Frunze va Turkkomissiyaning raisi Eliava yetib keldilar. Ular kelishlari bilanoq viloyat partiya qo‘mitasining kengaytirilgan majlisini chaqirib, viloyatda partiya ishini va bosmachilikka qarshi kurashni kuchaytirish masalasini qo‘ydilar.

Vaziyatni joyida o‘rgangan Frunze Leninga telegraf orqali “...qattiq va keskin choralar ko‘rish kerak, aks xolda Farg‘onani uzoq vaqtga yo‘qotamiz”, — degan fikrni bildirdi. U, shuningdek, Leninni biroz tinchlantirish uchun bo‘lsa kerak, “Turkiston frontining asosiy kuchlari Farg‘onaga yo‘naltirildi”, deb telegramma berdi.

24 mayda Frunzening “Farg‘ona vodiysining musulmon aholisiga murojaati” e’lon qilindi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

“O‘rtoq muslimonlar! Biz, Sovet hokimiyatining vakillari qon bilan sug‘orilgan, vayron etilgan Farg‘onaning shahar va ovullari aholisiga o‘z so‘zimiz bilan murojaat etamiz... Endi xalq boshiga tushgan falokat bo‘lgan bu bosmachilikka qarshi shafqatsiz kurash olib boriladi. Bu, sovet hokimiyatining qat‘iy qarori bo‘lib, menga Turkiston frontining qo‘mondoni sifatida bu vazifani juda qisqa muddat ichida bajarish buyurilgan. Bu ishda men barcha jafo chekkan musulmon xalqidan yordam va madad kutaman... O‘z navbatida sizga ham, dehqon og‘aynilar, Sovet hokimiyatni talab bilan murojaat qiladi... Sizlar bir tanu bir jon bo‘lib bosmachilikni ildizi bilan quritish ishida hokimiyatga yordamga kelishingiz kerak... Har bir volost, har bir qishloqda barcha bosmachi yoki ularning homiylarini darhol quolsizlanirib qamoqqa olish kerak. ularning barcha jousularini qo‘lga tushurmoq lozim. Tez fursat ichida Sovet hokimiyatining bayrog‘i ostida do‘st va birodar oila sifatida birlashingiz”.

Mahalliy tillarda 20 mingdan ortiq nusxada chop etilgan bu murojaat vodiylab tarqatildi.

Bir kun oldin esa, Frunze quyidagi buyruqqa imzo chekkan edi:

“Turkfront qo‘mondonining Farg‘ona fronti qo‘sishlariga “Bosmachilik qoldiqlarini uzil-kesil tor-mor etish” haqidagi buyrug‘i.

1. Frontning barcha qismlari, qizil armiyachilari, komandirlari va komissarlari oldilariga qo‘yilgan vazifaning naqadar muhimligiga ongli ravishda yondashsinlar va qisqa muddat ichida hal etuvchi harakat olib borib, bosmachi shaykalarining qoldiqlarini yo‘q qilsinlar.

2. Dushmanning es-hushini yig‘ib olishiga yo‘l bermay, keskin va dadil harakat qilib, uni barcha boshpanalaridan urib chiqarsinlar.

3. Alovida qismlar va guruhlar komandirlari o‘zaro qo‘llab quvvatlash va qutqarish zaruratini doimo yodda tutsinlar, bunday yordamni qo‘sni qismlarning dastlabki talabi va o‘z tashabbusi bilan qo‘rsatsinlar.

4. Tinch mehnat bilan shug‘ullanayotgan aholiga birodarlarcha munosabatda bo‘linsin va ularni har qanday xafagarchilikdan himoya qilsinlar.

5. Aholi tomonidan yetkazib berilayotgan har qanday mulk, oziq-ovqat mahsulotlari, yem-xashak va hokazolar uchun, albatta, haq to‘lansin, shu zahotiyoyq haq to‘lashning imkoniyati bo‘lmay qolgan taqdirda, qism komandiri va komissarining imzolari qo‘yilgan, muhr bosilgan rasmiy tilxat berilsin.

6. Dala ustavining barcha talablarini sabot bilan bajargan holda, razvedka va qo‘riqlash xizmatini oliv darajada kuchaytirilsin.

7. Belgilangan talablardan chekinish sotsialistik inqilob oldidagi burchga xiyonat qilish deb hisoblansin va harbiy davr qonuniga binoan jazolansin.”

Farg‘ona vodiysi bo‘yicha mahalliy aholi tarkibidan 19 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan kishilar uchun yalpi safarbarlik e’lon qilindi. Mahalliy aholidan belgilab quyilgan 9350 kishi o‘rniga 11475 kishi safarbar etildi. Bundan tashqari, partiya va yoshlar tashkiloti tomonidan ko‘ngillilar otryadlari tashkil etildi. Vodiydagি barcha bolsheviklar “ixtiyoriy-majburiy” tarzda “kommunistik otryad”larga birlashtirildi.

Tashviqot-targ‘ibot ishlari keng yo‘lga qo‘yildi. Frunze Turkfront siyosiy bo‘limining targ‘ibot poezdini Farg‘onaga chaqirtirib oldi. Uning taklifi bilan Farg‘onada qishloq vakillari uchun tashviqotchi-tashkilotchilar tayyorlaydigan kurslar ochildi. Bu kurslarning tinglovchilari, uning aytishi bo‘yicha, “qisqa muddat ichida qishloq aholisi o‘rtasida Sovet hokimiyati g‘oyalarini tarqatuvchilar bo‘lib yetishishlari kerak”.

Iyun oyida vodiyning turli shaharlarida qishloq aholisi ichida ish olib borish uchun maxsus siyosiy maorifchilar otryadlari tashkil etildi. Bu otryadlar ham harbiylashtirilgan bo‘lib, qizil armiyaga nafaqat so‘z bilan yordam berar, balki, o‘rni kelsa, janglarda ham ishtirok etar edi.

Quruq so‘z quloqqa yoqmas. Buni yaxshi tushungan Frunze va Kuybishevlar xalq ommasini sho‘rolar tomon og‘dirish uchun qator iqtisodiy chora-tadbirlar ham ko‘rdilar. Jumladan, g‘alla va chorva mollari o‘tkazish uchun Xitoy chegarasi oolib berildi; hukumat chet eldan chorva moli va urug‘lik don sotib olish va ularni “bosmachilar tomonidan xarob qilingan” hududlar aholisiga ulashish uchun pul mablag‘lari ajratdi. Urug‘lik don dehqonlarga qarzga berildi, “qattiq talangan” hududlardagi dehqonlar esa soliqdan butunlay ozod qilindi. Farg‘ona oblast harbiy komissariati huzurida oziq-ovqat bazasi tashkil qilinib, u yerda ishchi va dehqonlarga oziq-ovqatdan yordam berib turildi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan chora-tadbirlarni qo‘llab, sho‘rolar hokimiyati xalqning ma’lum qismini o‘zi tomon og‘dirib olgan bo‘lsada, vodiyda ozodlik harakati tobora alangananib boraverdi.

Turkiston o‘lka partiya qo‘mitasi, “bosmachilik” harakati avj olish munosabati bilan keskin choralar ko‘rish yo‘liga o‘tdi. Uning 1920 yil 8 avgustdagи qarorida shunday deyiladi:

“...bosmachilik avj olishi munosabati bilan, Markaziy Komitetning fikricha, Farg‘onadagi ishlarni tartibga solish va bosmachilikni tugatishda birdan-bir chora Harbiy sovet tashkil qilib, grajdan ishlarini boshqaruvda Xalq Komissarlari Sovetidan, harbiy operativ jihatdan esa Turkfront Harbiy Revolyutsion Sovetidan direktivalar olib turadi”.

Harbiy Sovetning raisligi vazifasiga diviziya komissari N.A.Paskutuskiy, a’zoligiga Karpov va Barishevlar tayinlangan edilar. Toshkent shahar partiya tashkiloti Farg‘ona Harbiy Sovetining ixтиyoriga mahalliy aholidan yuz nafar communistni safarbar qilib yubordi. 1920 yil 15 avgustda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Turkfront Harbiy-Inqilobiy Kengashi Farg‘onada oblast inqilobiy qo‘mitasi (revkom)ni tugatib, HARBIY DIKTATURA O’RNATDI. Farg‘ona oblastini harbiy va ma’muriy jihatdan idora qilish ishlari Harbiy Sovet qo‘liga o‘tib, unga Sovet hokimiyatining oliv organi sifatida barcha harbiy va grajdan muassasalari bo‘ysunadigan bo‘ldi.

1920 yil 8 avgustda Farg‘ona Harbiy Sovetining majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Turkfront Harbiy

Sovetining “Farg‘ona oblastini harbiy-ma’muriy uchastkalarga taqsimlash” haqidagi qarori muhokama etildi va tasdiqlandi. Majlis Farg‘ona oblastini quyidagi rayonlarga bo‘lish haqida qaror chiqardi:

1. Skobelev uezdi. Uning tarkibiga Shahrixon, Uchqo‘rg‘on, Aravon, Vodil va Oltiariq harbiy-ma’muriy uchastkalari kiritiladi.

2. Andijon uezdi. Uning tarkibiga Izboskan, Sultonobod, Bozorqo‘rg‘on, Jalolobod, Oyim va Chinobod harbiy-ma’muriy uchastkalari kiritiladi.

3. Qo‘qon uezdi. Uning tarkibiga Rishton, Konibodom, Beshariq, So‘x va Buvayda harbiy-ma’muriy uchastkalari kiritiladi.

4. Namangan uezdi. Uning tarkibiga Chust, Koson, Uchqo‘rg‘on, Uspenskiy va Zarkent harbiy-ma’muriy uchastkalari kiritiladi.

5. O’sh uezdi. Uning tarkibiga O’zgan, Buloqboshi, G’ulcha harbiy-ma’muriy uchastkalari kiritiladi.

Har bir harbiy-ma’muriy uchastka hududiga garnizonlar o‘rnashtiriladi. Har bir garnizon tarkibida esa tezkor harakat olib boruvchi uchar (letuchiy) otryadlar tuzildi. Uchar otryadlar uchastka hududida harakatda bo‘lib, hududda “bosmachilar” otryadlari paydo bo‘lib qolsa, uni aniqlash va yo‘q qilish vazifasi yuklatildi.

Keyinroq esa, 9 sentyabrda uezdlar mudofasini kuchaytirish maqsadida Harbiy sovet hududiy batal-onlar tuzdi va qurollantirdi. Batalonga shaharlar va uezdlardagi xizmatchilar safarbar etildi. Ularning yarmi kazarma holatiga o‘tkazilib, “bosmachi”larga qarshi janglarda ishtirot etdi, yarmi esa shaharlar va zavodlarni qo‘riqlash uchun qorovullik xizmatiga qo‘yildi.

Harbiy sovet “bosmachilikka” qarshi yana bir chora: garovga olish usulini qo‘lladi. Ya’ni, taslim bo‘limgan “bosmachining qarindosh urug‘lari, yoki uning hamqishlog‘i, mahalladoshi bo‘lgan boy va ulamo garov tariqasida qamoqqa olinadigan bo‘ldi”. Bolsheviklarning bu choralar ham Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatini pasaytira olmadи.

TURKISTON MUVAQQAT HUKUMATI

Shermuhammadbek Oloydan qaytayotganidayoq qurultoy o‘tkazgan edi. Bu qurultoyda quyidagi qarorlar qabul qilingan:

1. Bolsheviklarga qarshi yangi hujum harakatini tashkil etish.

2. Xalqqa qo‘rboshilar ahvolining yaxshi ekanligini bildirgan holda undan askar, ot, oziq-ovqat va kiyim kechak yordami so‘rash.

3. Endi o‘z kuchini yo‘qotgan Madaminbek-Monstrov hukumatining o‘rniga markazi vaqtincha G’orbuvoda bo‘ladigan yangi hukumat tuzish uchun harakat va maslahat boshlash hamda kechi bilan may oyi boshida tayyorgarliklarni tugallash, tezlik bilan G’orbuvoga o‘rnashib olish.

Qurultoydagi qarorlar vaqtini o‘tkazmay amalga oshirilishi zarur edi. Bolsheviklarning askar to‘plash harakatiga qarshi tezlik bilan chora ko‘rish, yigirma kun ichida ko‘zga ko‘rinadigan muvaffaqiyatlarga erishish vazifa qilib qo‘yilgan edi. Shuningdek ikkilanib turgan, arazlagan va ehtiyyotkor bo‘lib qolgan qo‘rboshilar bilan uchrashib, ularga zarur yordam ko‘rsatish, shu yo‘llar bilan muvaffaqiyatga zamin tayyorlash kerak edi.

Shermuhammadbek mazkur qurultoy qarorlarini amalga oshirish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurolyarog‘ masalalarini hal etish, yangi kelgan hamda sho‘ro qo‘mondonligidan qochib o‘tgan yigitlarni qurollantirish, qismlarga bo‘lish, shuningdek, yangi hukumat tuzish uchun maslahatlar bilan band bo‘lib turgan bir paytda O’ratepada jang olib borayotgan Barotbek (Ali Bodomchi asarida “Bo‘g‘otabek” shaklida yozilgan) qo‘rboshidan yordam so‘rab chopar kelib qoldi. Ma’lum bo‘lishicha, Xo‘jand va O’ratepa garnizonlaridan chiqib kelgan qismlar Barotbekka og‘ir zarba bergen, uning yigitlari oxirgi tomchi qolguncha jang qilishga ahd etib, og‘ir ahvolda turgan ekanlar. Shermuhammadbek darhol Hotambek qo‘rboshi boshchiligidida yetti yuz yigitni O’ratepaga safarbar

etdi. Yigitlar hal qiluvchi jang paytida yetib borib, qizil askarlarning katta qismini qirib tashladilar. Tirik qolganlari Xo‘jand tomonga qochib qutuldilar.

Shuningdek, yangidan kuch to‘plab, sho‘ro hokimiyatiga qarshi kurashni qayta boshlagan Rahmonquli qo‘rboshi ham qaltis holga tushib qolgan paytida yordam so‘rab murojaat qiladi. Shermuhammadbek unga yordam uchun Boltabek qo‘rboshi boshchiligidagi 1600 yigit yuboradi. Yaqin bir oyga cho‘zilgan jang harakatlari natijasida qizil askarlar Namanganga chekinishga majbur bo‘ladilar.

Ashobaga—Rahmonquliga yordam yuborgach, Shermuhammadbek yangi hukumat haqida maslahat va muzokara yuritish, yirik qo‘rboshilar bilan aloqani tiklash maqsadida O’sh safariga chiqdi. O’zgan yaqinidagi Qorasho‘ra degan joyda bu hudud, ya’ni Sharqiy Farg‘onaning eng yirik hududi qo‘rboshisi Jonibek qozi bilan uchrashib, hukumat tuzish masalasida uning roziligini oldi. Shundan so‘ng Novqatga—Muhiddinbek qo‘rboshi qarorgohiga yo‘l oldi. Uni xos yigitlar kutib olib, Muhiddinbekning hovlisiga olib boradilar.

Alqissa, Shermuhammadbek Muhiddinbek bilan ham gaplashib oladi. Sirasini aytganda, Muhiddinbek Madaminbekning yaqin do‘sti bo‘lib, uni nihoyatda hurmat qilar edi. Keyingi paytlarda Shermuhammadbek bilan Madaminbek oralaridan olamushuk o‘tib qolgach, Muhiddinbek o‘zini Shermuhammadbekdan bir oz tortib yurgan edi. Oradagi munosabatlarni yaxshilash, o‘rtadagi ittifoqni mustahkamlash maqsadida Shermuhammadbek ukasi Nurmuhammadbekka Muhiddinbekning qizini so‘raydi. Muhiddinbek bajonidil rozi bo‘ladi. Shu kuni nikoh o‘qitiladi. To‘y ziyofati asnosi qudalar ittifoq tuzib, kelgusi vazifalarni rejalshtirib oladilar.

Shu tariqa aprel oyi ichi Shermuhammadbek barcha taniqli qo‘rboshilar hamda Vatan ozodligi yo‘lida yashirin kurash olib borayotgan, markazi Toshkentda bo‘lgan “Turkiston Milliy Ittifoqi” tashkiloti hamda, vodiyning mo‘tabar shaxslari bilan muloqotlar olib bordi. Kurashning shu qisqa davri uchun xulosalar chiqardi. Mazkur xulosa va natijalar Shermuhammadbekning xotira kitobiga quydagi tarzda tushirilgan:

1. G’orbuvoda mustahkam qarorgoh vujudga keltirildi.
2. Rahmonqulining qaytadan kurashga kirishishi bilan Sirdaryo bo‘yi jabhasi yana faol holga keldi. Xususan, Toshkent va Namangan orqali keladigan bolshevik kuchlari oldiga haqiqiy to‘siq qo‘yildi.
3. Xolxo‘ja Eshon o‘z tashkilotidagi ba’zi bir anglashilmovchiliklarga qaramasdan vaziyatni nazorat qilib turibdi va o‘tgan yilga qaraganda ham og‘ir jang olib bormoqda.
4. Parpibek qo‘rboshining otryadida qaytadan jonlanish boshlandi.
5. Shermuhammadbekning Muhiddinbek va Jonibek qozini shaxsan o‘zi ziyorat qilishi va ularning fikrlarini eshitishi bu ikki mujohidning ruhlarini ko‘tarib yubordi. Ularning Shermuhammadbekka bo‘lgan ishonchi yanada ortadi.
6. Muhiddinbek va Jonibek Qozining kurashni davom ettirish haqidagi va’dalaridan keyin Oloy tog‘lari hududi xavfsiz bo‘lib qoldi.
7. Qo‘qonda milliy-ozodlik harakatining qaytadan tug‘ilishi kutilmoqda.
8. Buxoro amirligining muxolif vaziyatda turishiga qaramay 1919 yilning dekabr oyida Afg‘oniston millatparvarlari bilan o‘rnatilgan aloqalar shu ikki mamlakat orqali tashqi dunyo bilan bog‘lanish imkonini berdi. Bu – istiqlol e‘lon qilgan davlat uchun muhim ahamiyatga egadir.
9. Mart—aprel oyi vujudga kelgan “Qo‘rboshilar buhroni” dan butunlay bo‘lmasada, katta miqyosda hatlab o‘tildi.

Nihoyat, 1920 yil 2 may kuni G’orbuvoda katta qurultoy chaqirildi. Qurultoyda yangi muvaqqat hukumat masalasi ko‘rildi. 3 may kuni Turkiston Muvaqqat hukumati tuzilganligi rasman e‘lon qilinadi, boshqaruv, harbiy va boshqa zaruriy idoralar tashkil etiladi. Yangi hukumat tuzilganligi haqidagi xabar Farg‘ona vodiysining har tomoniga choparlar vositasida bildiriladi.

Shu o‘rinda yana bir narsani ta’kidlab o‘tishimiz joizki, mazkur hukumat tarkibi haqida manbalarda tafovut bor. Ali Bodomchi asarida ko‘rsatib o‘tilgan tarkib Boymirza Hayit asarlarida keltirilgan

tarkibdan farq qiladi. Har ikki tomon ham o‘z ma’lumotlarini ishonchli manba'lardan olganliklariga shubha yo‘q. Shu tufayli xar ikki nusxani ko‘rsatib o‘tishni joiz deb bildik.

Ali Bodomchi bo‘yicha:

“Markazi G’orbuva bo‘lmish milliy hukumat quyidagi zotlardan tashkil topdi:”

1. Shermuhammadbek — Bosh qo‘mondon, hukumat raisi, amiri lashkari islom.
2. Nurmuhhammadbek — Harbiy qismlar mufattishi, hukumat raisining vakili.
3. Mullajon Qori — Ichki ishlar vakili, miliitsiya mudiri.
4. Akbar Eshon — Shayxulislom.
5. Abdusalom Qori — Bosh kotib, Mirzaboshi.
6. Nazirjon — moliya vakili.
7. Mulla Xoji Niyoziy — voqeanaavis.
8. Toshmuhammadbek — milliy hukumatning Afg‘onistonidagi vakili.

Shuningdek, o‘n ikki kishidan iborat bo‘lgan maslahatchilar hay’ati ham saylandi. Bundan tashqari ozod qilingan va qilinajak mintaqasi, qishloq va kentlarga qozi, amir va ellikboshilar tayinlandi.”

Boymirza Hayit asari bo‘yicha:

“1920 yil mart oyida Madaminbek hukumati barham topgach, Shermuhammad ozodlik uchun kurashning boshqarish punktlarini tashkil etishga urindi. 3.05.1920 yilda u bunga muvaffaq bo‘ldi. U hukumat boshlig‘i va islom qo‘smini qo‘mondoni etib saylandi va 5 hukumat a’zolariga ega bo‘ldi. Shuningdek, 14 a’zadan iborat harbiy kengash tayin etildi. Bu kengash ozodlik uchun kurash tafsilotlarini muhokama qilish, qaror qabul qilish uchun muntazam ravishda yig‘ilib turardi. Shermuhammad va Nurmuhhammadning esdaliklaridan ma’lum bo‘lishicha ozodlik kurashi rahnamolari turli tashkilotlarga asos solishadi:

— Mustaqillik sudi: u Mulla Umar qozi, Jalol qozi, Abdulaziz qori va Abdusalomdan iborat edi.

— Harbiy rahbariyat: Sher Muhammad Bek — qo‘mondon, Ismoil Xaqqi (Usmoniyalar armiyasi sobiq zobiti), harbiy rejalashtirish va harakatlarni amalga oshirish uchun mas’ul, Aliyor qo‘rboshi, Asqar qo‘rboshi va Nurmuhhammad Bek.

— Boshqaruvi kengashi: Abdulboqi boyvachcha — rais, mufti Muso qozi, Abdulqayyum, Mulla G’oyib Nazar, Mulla Yo‘ldosh Oxund.”

Ushbu manbalarni qayta-qayta tahlil etganimizda, mazkur tafovutlar umumiyligi ma’lumotni to‘ldirishi, yaxlit ma’lumot olishga xizmat qilishi ma’lum bo‘ldi.

JANGLAR

Hukumat ta’sis etilgach, Shermuhammadbek va hukumat a’zolari bir muncha vaqt tashkiliy ishlar bilan band bo‘ldilar. Bu ishlar bir oz yengillagach, Shermuhammadbek bir qism yigitlari bilan Qo‘rg‘ontepa tomonga yo‘l oldi. Safardan maqsad, qurultoyda qatnasha olmagan qo‘rboshilar bilan ko‘rishish edi. Shermuhammadbekning har bir harakatini kuzatib turgan qizil qo‘mondonlik, Qo‘rg‘ontepa tomonga 2-o‘qchi diviziyanı, G’orbuvgaga esa turli qismlardan tuzilgan qo‘shma brigadani yubordi. Shermuhammadbek, Omon Polvon, Yo‘ldosh Polvon va Xolxo‘ja Eshon mazkur brigadani to‘rt tarafdan qurshovga olib, qizillarga madad yetib kelguncha unga katta talafot yetkazdilar.

Shermuhammadbek G’orbuvgaga qaytayotganida qishloq qizil askarlar tomonidan o‘rab olinganligi, u yerda qizg‘in jang ketayotganligi ma’lum bo‘ldi. Shermuhammadbek Quva yaqinida to‘xtab, aniq ma’lumotlar olib kelish uchun ayg‘oqchilarini jo‘natdi. To‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilib, G’orbuvo atrofini o‘rab olgan kuchlarga qarshi Akbarobod tomonidan zarba berishni mo‘ljalladi. Talafot evaziga qizil askarlar orasini yorib o‘tib, G’orbuvo mudofaachilariga qo‘shildi. Yaqin o‘n kun davom etgan janglar pirovardida qizillar Marg‘ilonga chekindilar.

G’orbuvodagi janglar tugari-tugamas, Muhiddinbek Navkatda qizil askarlar bilan jang boshladidi. Shermuhammadbek unga yordam uchun Hamzabek boshchiligidagi mingga yaqin yigit yubordi. Yigitlar

yetib borishi bilan jangda burilish bo‘lib, Muhiddinbek g‘alaba qozondi.

Iyun oyida Qo‘qon atrofidagi qo‘rboshilar Islom Polvon rahbarligida yirik aholi maskanlaridan bo‘lmish Sho‘rsuv, Qudash, Yaypanni egallab, yaqin qirq kun qo‘lda tutib turdilar. Rahmonquli esa ko‘plab yo‘llar kesishadigan Buloq mavzeini egalladi.

Sho‘ro qo‘mondonligining hisobotiga ko‘ra, 28 apreldan 21 iyulgacha vodiyya 42 ta yirik jang bo‘lib, bu janglarda qizillar 1200 kishi, “bosmachilar” 2000 ga yaqin kishi yo‘qotganlar. Mazkur janglarning eng yiriklari 30 iyunda Aravonda, 3 iyulda Fayziobodda, 10 iyulda G‘orbuvoda, 14 iyulda Andijon—O’sh—Jalolobod uchburchagi ichida bo‘lib o‘tgan janglar sifatida e’tirof etiladi.

Iyul oyida milliy-ozodlik kurashi yanada avj oldi. Vodiy yana ulkan jang maydoniga aylandi. Frunzening talabi bilan markazdan qo‘srimcha harbiy kuchlar olib kelindi.

Qissamizning yuqori qismida tatar brigada haqida so‘z borganda, brigada jangchilar aksariyatining iymoni past bo‘lganligi ta’kidlangan edi. Endilikda esa ular ichida iymoni baquvvatlari paydo bo‘lib, musulmonlarga qarshi jang qilishdan bosh torta boshladilar.

Nihoyat, ulardan 640 nafari milliy-ozodlik qo‘shining turli qismlariga o‘tib ketdilar. Ular ichida zabitlar ham bor edi. Shundan so‘ng brigada qo‘mondoni Turkiston fronti harbiy soveti a’zoligiga o‘tkazilib, uning o‘rniga rus zebiti Sokolov tayinlandi. Yirik komandirlardan biri – G‘aynulin esa front shtabiga xizmatga o‘tib, o‘sha yerdan turib ozodlik jangchilariga yordam berib turdi va keyinchalik maxsus bo‘lim tomonidan fosh etilib, shahid qilindi.

Farg‘onada “Uchqo‘rg‘on”deb atalgan ikkita kent bor. Biri—shimolroqda, Norin daryosi bo‘yida, ikkinchisi esa janubda – Oloy tog‘lar yonbag‘rida joylashgan. 10—12 iyul kunlari har ikki Uchqo‘rg‘onda ham yirik janglar bo‘lib o‘tdi. Shermuhammadbek 10 iyulda Oloy Uchqurg‘oniga xujum boshladi. Ikki kunlik jangdan so‘ng u yerdagi garnizon tor-mor etildi. Birinchi jahon urushida asir olingan Avstriya—Vengriya armiyasi janglaridan bir qismi bu yerdagi konlarda ishlash uchun yuborilgan edi. Podsho hukumati ag‘darilgach, bu asirlarda o‘z vatanlariga qaytish umidi tug‘ilgan edi. Biroq Kerenskiy hukumati ham, sho‘rolar hokimiyyati ham ularni asirlikdan ozod qilmadi. Ko‘mir konida ishlab turgan besh yuz nafarga yaqin asirlar jang vaqtida qurollantirilib, jangga tashlandi. Biroq, asirlar o‘zlarini asirlikda tutib turgan hukumat uchun jang qilishni xohlamay, Shermuhammadbekka asir tushdilar. Shermuhammadbek ularni G‘orbuvoga olib ketib, mehmonday saqladi. Ular ham Shermuhammadbekka sidqidil xizmat qildilar. Shermuhammadbek ularni imkon topilishi bilan Afg‘onistonga o‘tkazib yubordi. Sobiq asirlar Shermuhammadbekning odamgarchiligi tufayli Hindiston orqali o‘z vatanlariga yetib oldilar.

Qizil armiya qismlari 12 iyulda Norin Uchqo‘rg‘oniga hujum boshladilar. Bu mintaqa qo‘mondoni Omon Polvon ular bilan o‘n besh kun jang olib borib, holdan toydi, zero, qizillarga ustma-ust yordam kuchi kelib qo‘shilib turdi. Omon Polvon Shermuhammadbekka chopar yuborib, yordam so‘rashga majbur bo‘ldi. Shermuhammadbek ikki ming yigit bilan yordamga otlandi. Bir kunlik jangdan so‘ng Uchqo‘rg‘on qo‘lga kiritildi. Uchqo‘rg‘ondan chekinishga majbur bo‘lgan qizil qismlar Andijon va Namangandan madad kuchi olib qayta hujumga o‘tdi. Bu safar ular o‘zlarini bilan yirik zambaraklar, pulemyotlar olib kelgan edilar. Uchqo‘rg‘onni to‘pga tutish boshlangach, Omon Polvon kent aholisining qonini to‘kmaslik uchun toqqa chekinishni taklif qildi. Shermuhammadbek bunga rozi bo‘ldi. Ozodlik jangchilar kechasi Norinni kechib o‘tib, toqqa ko‘tarildilar. Qizillar ularning orqasidan ta‘qib qilib bordilar.

Ozodlik jangchilar qizil askarlarni dara va tangilarga ergashtirib borib, o‘sha yerda qattiq zarba berdilar. Qizillar yana Namanganga qochishga majbur bo‘ldilar. Shu tariqa Uchqo‘rg‘on qizillardan ozod qilindi. Shahidlarni dafn etib, xudoyilarini o‘tkazgach, Shermuhammadbek Omon Polvonni shu yerda qoldirib, o‘zi doimiy qarorgohi bo‘lmish G‘orbuvoga qaytib keldi.

Qo‘qon yaqinidagi mana bu jang tafsiloti esa Nurmuhammadbek xotiralaridan olindi. Vaqtli hukumat harbiy mahkamasi qaroriga ko‘ra, vodiyyadagi tashkiliy ishlar, shu jumladan, qo‘rboshilarning ahvoldidan xabar olib turish, ularga zaruriy yordam uyushtirish Shermuhammadbekning akalaridan biri

Ro‘zimuhammadbekka yuklatilgan edi.

O‘sha paytda Qo‘qon mintaqasidagi eng yirik qo‘rboshi hisoblangan Islom Polvon Sirdaryoning shimol tomonida, Qurama tog‘lari bag‘rida joylashgan Punuk qishlog‘ida Rahmonqulibek qizillar qamalida qolganligini eshitib, darhol o‘z yigitlari bilan madad berish uchun yo‘l oladi. Har ikki qo‘rboshining shiddatli hujumi natijasida dushman yanchib tashlanadi. Qolgan-qutgani Namanganga chekinadi. Islom Polvon o‘z qarorgohiga qaytayotib, Sirdaryoni kechib o‘tgach, Go‘rtepa qishlog‘ida uning qaytishini poylab yotgan qizil polkka duch keldi. Rahmonqulibek yordamga shoshilgan edi, Namangandan kelgan yana bir polk uning daryodan o‘tishiga to‘sinqlik qildi.

Ro‘zimuhammadbek tashkiliy ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, vodiyyadagi har bir deparaga birkitadan o‘z odamini joylashtirgan, bu odamlar, mazkur deparada biror voqeа ro‘y bersa, tezlik bilan xabar yetkazar edilar. Islom Polvonning iskanjaga tushib qolganligi ma‘lum bo‘lgach, Ro‘zimuhammadbek o‘z yigitlari bilan shoshilinch jo‘nab ketdi. U Qo‘qon atroflarini juda yaxshi bilar edi. O‘zidan oldin chopar yuborib, o‘sha atrofdagi katta qamishzorda nafas rostlab turishni tavsiya etdi.

Shermuhammadbek bu jangning katta ahamiyat kasb etishini, ya’ni, vodiy darvozasi bo‘lmish Qo‘qonda dushman lashkari nufusini pasaytirishi mumkinligini o‘ylab, Ro‘zimuhammadbekning orqasidan Nurmuhhammadbekni ikki ming yigit bilan jo‘natib yubordi. Aka-ukalar birin-ketin Go‘rtepaga yetib kelib, qamishzor ichiga o‘rnashdilar. Ro‘zimuhammadbek Islom Polvon bilan uchrashib, jang rejasini puxtalashtirib oldi.

Qizil komandirlar “Islom Polvon qachondir qamishzordan chiqadi-ku, axir” deb qishloqda uni poylab yotar edilar. Islom Polvon rejaga ko‘ra yana eski turkiy jang taktikasini qo‘lladi. Uning yigitlari takbir aytib, qamishzordan o‘qdek otilib chiqib, shiddatli hujumga o‘tdilar. Qizillar ularni pulemyotlar o‘ti bilan qarshi oldilar. Bunga “top berolmagan” yigitlar darhol otlarini burib, qamishzorning Nurmuhhammadbek va Ro‘zimuhammadbek yigitlari pistirmada turgan joyiga “tartibsiz ravishda” chekina boshladilar. Qizil askarlar “Ura, ura, ura” deya hayqirib, ularning orqasidan tashlandilar. Islom Polvon yigitlari pistirma oralig‘idan qochib o‘tgach, Nurmuhhammadbek va Ro‘zimuhammadbek quvib kelayotgan qizillarni ikki tomondan iskanjaga oldilar. Islom Polvon yigitlari ham orqaga burilib, uchinchi tomondan siqib keldilar. Yarim kun davom etgan bu jangda qizil askarlarning uchdan ikki qismi (ikki mingdan oshiq) yer tishladi. Ozodlik lashkarlaridan esa yuzga yaqin yigit shahid bo‘ldi. Ikki mingtacha miltiq, to‘rtta pulemyot o‘lja olindi. Bu jangning ovozasi hatto Maskovga ham yetib bordi.

Sentyabr boshlarida Frunze Quybishevga telefon orqali xabar berib, “— Shuni zarur deb hisoblaymanki... viloyat aholisining o‘z ish joyida bo‘lishi o‘ta zarur bo‘lganlardan tashqari barcha ishchi va xizmatchilar qurollantirilsin. Bu chora, dushman usullarini yaxshi bilgan ishchilar timsolida qo‘shimcha yordam bo‘lib, menimcha, qisqa vaqt ichida o‘z natijalarini beradi.”

Frunzening topshirig‘i amalga oshiriladi. Barcha ishchi-xizmatchilar qisqa vaqt ichida qurollantirilib, jang qilish sabog‘i beriladi. Smenadan bo‘shagan ishchilar va xizmatchilar qo‘llariga miltiq olib, korxona, kon, temiryo‘l va omborlarni qo‘riqlay boshladи.

Farg‘ona vodiysida shiddatli janglar davom etib, Buxoro va Xorazmda ham milliy-ozodlik harakati boshlangan, Amu va Sir qonga to‘lib oqayotgan, vodiyning musaffo havosi o‘rnini porox tutuni qoplagan bir paytda, Toshkent “fronti”da ham shiddat borasida Farg‘onadagidan qolishmaydigan, biroq porox hididan holi janglar ketayotgan edi. Qissamizning boshlarida Turor Risqulov boshchiligidagi millatparvar arboblar, Turkkomissiya va Turkistondagи shaklan milliy, mazmunan mustamlakachilik hokimiyat idoralariga qarshi mardona kurash olib borayotganlari haqida yozilgan edi. Vaqt o‘tgan sari bu kurash keskinlashib boradi. Turkiston Kompartiyasi va hukumatining yirik arboblaridan bo‘lmish T.Risqulov, Nizomiddin Xo‘jaev, S.Tursunxo‘jaev, Biserov va boshqalar Turkistonni Rossiyadan ajratib olib, Mustaqil Turk Respublikasi barpo etish yo‘lida kurash olib boradilar. 1920 yil yanvar oyida Turkiston musulmon communistlarining III o‘lka konferentsiyasi bo‘lib o‘tdi. Uning qarorlarini Risqulov tayyorlagan edi. Konferentsiya “Mustaqil Turk Respublikasi

va Turk kommunistik partiyasi tuzilsin” degan qaror qabul qildi. Bu qaror shunday mohirona tayyorlangan ediki hatto u bilan tanishgan Turkkomissiyaning birinchi raisi Eliava Leninga yozgan maktubida e’tirof etadiki, “Hozir sizga xabar qilishim kerakki, men va Kuybishev “Turk Respublikasi” va Turk kommunistik partiyasi tuzish tadbirini amalga oshirishga moyilmiz, Rudzutak bunga qarshi, Goloshchekin esa ikkilanmoqda”.

Frunze bu paytda Samarada edi. U bu gaplarni eshitib, bu g‘oyaga butunlay qarshi chiqadi. Shundan so‘ng Markazqo‘m demokratiya tomoyillari va partiya ustaviga xilof ravishda mazkur konferentsiya qarorlarini rad etadi.

Partiya O’lka Komiteti, Turkkomissiya va Turkiston Markaziy Ijroiya qo‘mitasining 1—3 mart kunlari o‘tkazilgan qo‘shma yig‘ilishida Risqulov doklad qilib, RKP (b) Markaziy komitetining Turkiston masalasida tutgan yo‘li va Turkkomissiya faoliyatini keskin tanqid o‘ti ostiga oladi. U, jumladan, shunday deydi: “Turkkomissiya Turkistonning avtonom tuzilishini buzib, Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi ishlarini hal qilmoqda va yerli xalq xodimlarini mensimay qo‘ymoqda”.

Frunze unga javoban shunday deydi:

“Risqulov Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining muvaffaqiyatsizliklariga sabab Markazdan kelgan o‘rtoqlardir deb hisoblar ekan, u xato qiladi deb hisoblayman. Mahalliy hokimiyatining butun zaifligi shundaki, bu yerda tayanib ish qilish mumkin bo‘lgan proletar ommasi yo‘qligidir... Yerli xalqni kommunistlarcha tarbiyalash lozim, bu mumkin bo‘lgan ish va bu bizning vazifamiz... Turkistonda faqat kommunistik, sovet tuzumi bo‘lmog‘i darkor yoki sharq istibdodiga—xonlik davriga qaytmoq lozim, deyish maqsadga muvofiqliqdir”.

Muhokama asnosida qo‘shma majlis Turkkomissiya tarafini oladi. Biroq milliy arboblar qo‘l qovushtirib turmadilar. Risqulov tashabbusi bilan RKP (b) Markaziy komitetiga delegatsiya yuborildi. Uning boshlig‘i Risqulov bu yerda Turkkomissiyaning butun kirdikorlarini fosh etdi. Turkiston delegatsiyasi MK ga quyidagi takliflarni kiritdi:

1. Butun hokimiyatni, konstitutsiyaga muvofiq, yerli aholi mehnatkashlariga o‘tkazib, buni real ravishda turmushda amalga oshirish.

2. Turkistonda qudratli musulmonlar qizil armiyasi tuzish. Hozirdanoq mahalliy mustamlakachi kulaklardan tuzilgan barcha qizil armiya qismlarini boshqa frontga jo‘natish.

3. Turkiston Respublikasi harbiy komissariatini tiklab, unga qizil armiya uchyoitini yuritish, safarbar qilish, armiya tuzish va ta’lim o‘rgatish huquqini berish... Turkiston territoriyasida harbiy qismlarni faqat yerli xalqdan tuzish.

4. Turkiston respublikasida harbiy komissariatni to‘la ravishda Sovetlar s’ezdiga, Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetiga topshirish.

5. Turkkomissiyani tugatish.

6. Turkfront Harbiy-Inqilobiy Sovetini tugatish.

7. Temiryo‘llar, telegraf, aloqa, tashqi munosabat, savdo va moliya masalalarini Rossiya Federatsiyasi ixtiyoridan Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi ixtiyoriga berish.

Bu masalalar Moskvada bir necha bor muhokama etilib, Turkkomissiya a’zolarining tavsiyasiga ko‘ra, “panturkizm va panislomizm” g‘oyalariiga to‘lgan bu takliflar rad etiladi.

Turkiston delegatsiyasi bunga qarshi shunday javob beradi:

“Panislomizm va panturkizm xavflidir degan qarashlarni mutlaqo noto‘g‘ri deb hisoblaymiz. Bu qarash imperialistik Yevropa o‘ylab chiqargan xomxayoldir va u endi omma ko‘z oldida har qanday reallik zaminini yo‘qotgan, ammo Yevropa va, ayniqsa Rossiya adabiyotida bo‘rttirib ko‘rsatilayotgan qarashlardir”.

1920 yil 21 iyulda Turkiston Kompartiyasi MK majlisida RKP (b) MK ning tutgan yo‘lidan norozilik asosida bir guruh rahbarlar Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tarkibidan chiqdilar, bular orasida: T.Risqulov (Turkiston MIK raisi va o‘lka komiteti a’zosi), Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jaev (O’lka komiteti raisi), Biserev (O’lka komiteti a’zosi), Abdusattorov (Turkiston MIK prezidiumi a’zosi) va

boshqalar bor edi. S’ezd ularning o‘rniga bolsheviklarga qulqoq qoqmay xizmat qiladigan kishilar (N.To‘raqulov va boshqalar)ni tayinlaydi.

Ha, “Toshkent fronti”dagi janglar qizillar foydasiga hal bo‘ldi. Bu maydonda jang qilgan jangchilarimiz juda ozchilikni tashkil etar edi. Ular qatag‘on siyosatining dastlabki qurbanlari bo‘ldilar. Qasosli dunyo ekan, milliy istiqlol yo‘lida kurash olib borgan T.Risqulov va uning maslakdoshlarini og‘machilik, millatchilikda ayblab quvg‘in qilgan, Turkistonni ikkinchi bor mustamlakaga aylantirgan Turkkomissiya a’zolarini ham, ularning mahalliy haybarakallachi qo‘g‘irchoqlarini ham tarix kechirmadi. Frunze va Kuybishev sirli o‘lim topdilar, qolganlari esa qatag‘on qilichidan o‘tkazildilar.

AMIRNING QILICHI

Buxoro qo‘ldan ketgach, 1920 yil oxirlarida Sayyid Olimxon Hisor bekligidagi yirik aholi maskanlaridan bo‘lmish Dushanbaga kelib o‘rnashadi. Hisor vodiysi bekorga tanlanmagan edi: Sharqiy Buxorodagi dehqonchilik uchun mos joy shu vodiylar bo‘lib, bu yerda oziq-ovqat zaxiralari mavjud edi. Shuningdek, vodiyning atrofi baland tog‘lar bilan o‘ralganligi tufayli partizanlik urushini olib borish uchun qulaydir. Sentyabrning ikkinchi yarmida Sayyid Olimxon qurultoy chaqirib, qizillarga qarshi kurash rejasini o‘rtaga tashlaydi. Amir hukumati yemirilmasdan ancha oldinoq Sharqiy Buxoro hududida bir qancha jangovar guruhlar shakllanib bo‘lgan edi. Bu guruhlar urug‘ boshliqlari, viloyatlar va bekliklar hokimlari ixtiyoridagi harbiy qismlar bo‘lib, jang tajribasiga ega bo‘lgan, bu guruhlarga Ibrohimbek, Fuzayl Maxsum, Davlatmandbiy, Eshon Sulton va boshqa sarkardalar boshchilik qilganlar.

Noyabr oyida amir qo‘l ostidagi mazkur kuchlar Boysun va Sherobodni, dekabr oyida esa Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ni egalladilar. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati shoshilinch choralar ko‘rishga majbur bo‘ladi. Amirga qarshi kurashni tashkil etish va xalqni unga qarshi ko‘tarish uchun bir qancha arboblar Sharqiy Buxoroga safarbar etiladi, Dushanbaga esa S.Tursunxo‘jaev boshchiligidagi “Siyosiy zarbdor guruh” jo‘natiladi. Guruhda siyosiy tashviqotchilar bilan harbiy qismlar ham bor edi. Amir bu guruhga “jadid qo‘shini” deb nom beradi.

O’sha paytda RSFSR ning Buxorodagi muxtor vakili bo‘lib turgan Kuybishev 1920 yil 17 oktyabrdagi Turkfront qo‘mondoniga telegramma yo‘llab, “Front qo‘shinini bosmachilarga qarshi jangga kiritish yo‘li bilan Sovet Buxorosiga birodarlik yordami ko‘rsatish”ni so‘raydi. Noyabr oyida 1-armiya qo‘mondoni G.V.Zinovev buyrug‘i bilan Buxoro Respublikasidagi barcha sovet qismlari birlashtirilib, “Hisor ekspeditsiya korpusi” tuziladi. 1921 yil boshida esa Buxoroga qizil armiyaning beshta brigadasi (2 o‘qchi, 3 otliq brigadalar) keltiriladi. 1920 yil oxirlarida esa hukumat a’zosi B.Shaxobiddinov Buxoro xalq armiyasi (Keyinchalik Buxoro qizil armiyasi deb nomlangan)ni shakllantirishni boshlaydi va uning dastlabki jangovar qismlarini Dushanbega safarbar etadi. Amir bu qismlarga ham “jadid qo‘shini” deb nom beradi. Bunday katta kuch to‘planishi natijasiz qolmaydi. Buxorodagi sovet harbiy qismlari birin-ketin Kitob, Yakkabog‘, Sherobodni qaytarib oladilar.

Farg‘onadagi janglar qizigandan-qizib, Shermuhammadbek bir necha jabhadagi janglarga rahbarlik qilib turgan qistalang bir paytda G’orbuvoga Sayyid Olimxonning o‘n ikki kishilik vakillar hay’ati kirib keladi.

Shermuhammadbek bir amallab vaqt topib, hay’atni qabul qiladi va mehmonlar sharafiga ziyofat beradi. Hay’at boshlig‘i Zufar To‘pchiboshi Sayyid Olimxonning salomi va sovg‘asini topshirib, Sharqiy Buxorodagi vaziyatni tushuntiradi. Amiring sovg‘asi mo‘jazgina, kumush tunukadan gul qoplangan sandiq edi. Mehmonlar sandiq kalitini berar ekanlar, uning ichida maktub ham borligini aytadilar. Shermuhammadbek sandiqni ochdi-yu, ko‘zlariga ishonmadni: sandiq ichida ajoyib, nodir bir qilich yotar edi. Qurol ishqibozi va bilimdoni bo‘lgan Shermuhammadbek qilichni hali qo‘lga olib ko‘rmasdanoq, noyob qurol ekanini anglatdi. Qilichning qini oltin va kumush naqshlar, zabarjad,

feruza, aqiq kabi qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan; sopi kark mo‘guzidan bo‘lib, daraxt tanasiga buralib-chirmashib olgan ilon shaklida ishlangan. Shermuhammadbek qilichni qo‘liga olib, qinidan sug‘urar ekan, odatdagи shildirashga qo‘shimcha jarang sasi keldi. Qilich tig‘i javhar bilan qoplangan edi. Javhar shunday bir mo‘jizaki, unga qarab, moviy, tiniq osmonda pag‘a-pag‘a oq bulutlar suzib quyosh nurida kamalakning yetti xil rangida tovlanishini ko‘rish mumkin edi, javharni qalam yoki mo‘yqalam vositasida tushirib bo‘lmaydi – u po‘latni eritish, qilichni toblast va pardozlash jarayonida paydo bo‘ladi. Qilichning sopga yaqin o‘tmas qismiga arab yozuvining shikasta usulida arab tilida “Bu qilich faqat haqiqat va adolat yo‘lidagina qindan chiqsin” degan yozuv bor edi. Shermuhammadbek qilichning yozuv bitilgan qismini labiga, ko‘ziga, peshonasiga bosib tavob qildi. Sandiqchadan, shuningdek, Buxoro zardo‘zi to‘ni, kumush suvidan angob berilgan egar-jabduq ham chiqdi. Sandiqcha tagida oq konvertga solingen kichik bir maktubcha bo‘lib, unga faqat ikki jumla yozilgan edi: Musulmon musulmonga yordam berishi kerak. Siz ham bizga yordam bering.

Bu jumlalarni o‘qir ekan, Shermuhammadbekning yodiga amir huzuriga qurol so‘rab borgan elchilar qismati tushdi. Axir o‘shanda o‘zi ham mana shu jumlalar asosida bir musulmondan, nainki bir musulmon, balki musulmonlar amiridan yordam so‘ragan edi-ku. Amir ularning boshiga ne kunlarni solmadi? Agar afg‘on elchisi Omonulloxonni aralashtirib, ularni ozod qilmaganda ularning holi ne kechar edi?

Ammo, avvalo, musulmonchilik burchi, qolaversa musulmonlar amiriga bo‘lgan hurmat-ehtirom, o‘zbekona tantilik kekdan ustun keldi.

— Mayli, — dedi Shermuhammadbek Zufar To‘pchiboshiga qarab, — mana bu sovg‘alar evaziga emas, balki, amirimizga bo‘lgan chuqur hurmatimiz hamda mazkur maktubda eslatilgan musulmonlik burchimiz yuzasidan ul zoti sharifa qo‘ldan kelgancha yordam beramiz.

Mehmonlarni kuzatib yuborgach, Shermuhammadbek ukasi Ro‘zimuhammadbekni Oloy mintaqasi qo‘mondoni, qo‘rboshi Asqarbekka yuborib, u orqali besh yuz yigit bilan Dushanbega, amir xizmatiga borishni buyurdi. Shermuhammadbek Ro‘zimuhammadbekka shunday bir gap tayinlashni unutmadi: Agar amir musulmonlarga qarshi qilich ko‘tarishni buyursa, buyruqdan bosh tortasiz.

— Asqarbek 500 yigit bilan Dushanbaga yaqinlashganda uning yo‘lini Ibrohimbekning loqay yigitlari to‘sib chiqdi. Loqaylar — o‘zbeklarning yirik bir urug‘i bo‘lib, XV—XVI asrlarda Dashti qipchoqdan ko‘chib kelib, Hisor, Ko‘lob, Qabodiyon hamda Shimoliy Afg‘oniston hududlarida o‘rnashib qolganlar. Ibrohimbek Loqay (Mulla Muhammad Ibrohimbek Chaqaboy o‘g‘li) ham shu urug‘ga mansub bo‘lib, 1889 yilda tug‘ilgan Otasi Chaqaboy Amirning Hisor bekligidagi mansabdorlaridan biri bo‘lgan. Ibrohimbek ham Hisor begi huzurida xizmat qilib, dastlab qorovulbegi, keyinroq mirdevonbegi, to‘pchiboshi va lashkarboshi darajalariga ko‘tarilgan. Sayyid Olimxon taxtdan mahrum bo‘lgach, uning eng ishonchli lashkarboshisi Ibrohimbek bo‘lib qolsada, ba’zan ular orasidan olamushuk ham o‘tib qolib, Ibrohimbek to‘nini teskari kiyib olar, keyin yana yarashib ketishar edi. Ibrohimbek ba’zan amirning taqdiri qisman o‘zining qo‘lida ekanligini his etib, kekkayib ketar, amirning farmonlarini “o‘ylashib” ado etardi. Asqarbekning kelishi ana shunday “olamushuk” o‘tgan paytga to‘g‘ri kelib qoladi.

Asqarbek nihoyat bir amallab laqaylar ichidan o‘tib amir huzuriga yetib borganda, undan hafsalasi pir bo‘ladi; amir uni baland dimog‘ bilan qarshi oladi:

— 500 kishi olib keldingiz, xolosmi?

— Farg‘onada hozir vaziyat chatoq. Agar iloji bo‘lganda Shermuhammadbek barcha yigitlari bilan kelib xizmatingizda bo‘lar edi. Biz huzuringizga kelayotganimizda Ibrohimbek yo‘limizni to‘sib oldi. Bu yoqqa o‘tish qiyin bo‘ldi.

— Ibrohimbekni ham ayblab bo‘lmaydi. Hisor Ibrohimbek qo‘lida. Har qanday odam bu yerda uning ijozati bilan yuradi. Xo‘p, mayli, ishga kelaylik. Siz o‘z yigitlaringiz bilan jadid qo‘shiniga qarshi jangga kirasisiz.

— Yo‘q, taqsir, men musulmonlarga qarshi qilich ko‘tarmayman. Shermuhammadbek shunday

tayinlaganlar.

— Jadidlar musulmon emas, kofirdan battar...

Ular shu tariqa bahslashib turganlarida amirga Qabodiyondan chopar kelib qoldi. Ma'lum bo'lishicha, Afg'oniston podshosi tomonidan amirga yordam uchun yuborilgan 400 nafar afg'on jangchilari qizillar qurshovida qolgan ekan.

— Agar jadidlarga qarshi urushishni istamasangiz, u holda Qabodiyonga borib afg'onlarni ozod qilish kerak, — dedi amir Asqarbekka.

Asqarbek o'z yigitlari bilan Qabodiyon yo'nalishi sari yurib, afg'onlarni qizillardan ozod qildi. Afg'on askarlari minnatdorchilik tariqasida uning yigitlari safiga qo'shildilar. Shundan so'ng Asqarbek o'z yigitlari va sog' qolgan 370 nafar afg'onlarga boshchilik qilib, janglarda ishtirot etib yurdi. Shu orada Ibrohimbek bilan yana bir bor to'qnashuv bo'lib o'tdi. Musulmonlar bilan urushmaslikka har qancha harakat qilgan bo'lsada, o'z yigitlari va afg'onlarni himoya qilish uchun o't ochishga majbur bo'ldi.

Sho'rolar tomonidan tuzilgan Hisor ekspeditsiya korpusi Dushanbaga yetib kelib, ta'qibni kuchaytirgach, Sayyid Olimxon noiloj Afg'onistonga o'tib ketishga majbur bo'ladi. Ana shu qaltis paytda amirni Afg'onistonga eson-omon o'tkazib yuborgan kuch o'zining ishongan odamlari emas, balki Shermuhammad yuborgan Asqarbek yigitlari edi. Amirning sog' omon o'tib ketishi uchun Farg'onalik 70 nafar yigit shahid ketdi. Bu voqealar 1921 yil 5 martda ruy bergen edi.

Ali Bodomchingning yozishicha, amir hali Dushanbadaligida Shermuhammadbek bir marta kelib u bilan uchrashgan. Ular o'rtasida qattiq tortishuv bo'lib o'tgan. Biroq biz bu faktni tasdiqlaydigan boshqa manbalarni uchratmadik.

Shermuhammadbek amir sovg'a qilgan qilichni uzoq vaqtlar belidan qo'yadi. Bu qilich qanchadan-qancha dushmanlar ko'ksiga qadalgan bo'lsa kerak.

Frunze Buxoroga hujum qilgan paytda qizillar bilan sulh tuzgan bir qancha qo'rбoshilarni ham yigitlari bilan amirga qarshi jangga solgan edi. Amir Afg'onistonga o'tib ketgach, unga qarshi urushda ishtirot etgan musulmon polklari yana Farg'onaga qaytarildi. Vodiydagi janglar asnosi musulmon polklarining komandirlari bo'lган bir nechta sobiq qo'rбoshilar Shermuhammadbek yigitlari tomonidan asir olinadi. Shermuhammadbek ularni amirga qarshi jang qilganligi uchun o'limga mahkum etadi. Aytishlaricha, hukmni ijro etuvchi yigitlarga u amirning qilichini tutqazadi: go'yo, amir qilich vositasida ulardan qasd oladi.

Amirning qilichi Shermuhammadbek qo'lida ekanligida haqiqat va adolat yo'lida qindan sug'urilib turdi. Uning keyingi taqdiri noma'lum.

XOLXO'JA ESHONNING SHAHODATI

Xolxo'ja Eshon Shermuhammadbekning eng sodiq, sinalgan, og'ir vazifalarni uddalay oladigan qo'rбoshilaridan biri edi. 1920 yilning kech kuzida Shermuhammadbek O'zganga Marg'ilondan yo'lak ochish, ya'ni, ushbu yo'nalishda joylashgan sho'ro garnizonlari, harbiy qismlarini yakson qilish, Qashqar yo'lini nazorat qilish hamda Jonibek Qozi bilan aloqani mustahkamlash maqsadida Ro'zimuhammadbek va Xolxo'ja Eshonni O'zganga yubordi. Xolxo'ja Eshon va Ro'zimuhammadbek O'zganga boshqa-boshqa yo'ldan borishlari kerak edi.

Xolxo'ja Eshon yo'lda uchragan qismlar bilan jang qila-qila O'zganga yetib bordi. Biroq kechga qoldi – O'zgan qizillar tomonidan egallangan, Jonibek Qozi Oloyga chekingan, Xolxo'ja Eshonning bu yerda qoldirib ketgan qo'rбoshilarini va yigitlari qizillar tomonidan qirib tashlangan, bir qanchasi asir olinib, O'zgan qamoqxonasiqa qamalgan ekan. Xolxo'ja Eshon nima qilib bo'lsada, o'z odamlarini qamoqdan qutqarishni niyat qilib qo'ydi. U bir necha marta qamoqxonaga hujum uyushtirdi, biroq niyatiga yetishning iloji bo'lindi. Xolxo'ja Eshon bir necha bor hujum qilayotgan vaqtida qizillar Andijondan yordam so'rab ulgurgan edilar. U yerdan Ernest Kujelloning kavaleriya brigadasi

yordamga yetib kelib, Xolxo‘ja Eshonni qurshovga oldi. Janglar ikki kun davom etdi. Ernest Kujello jang ko‘rgan, tajribali, salohiyatlizbit, shu bilan birga ashaddiy ov ishqibozi ham edi. U o‘z vatanida ekanida dvoryanlarning shikorlarida juda ko‘p marta ishtirok etib, eng katta o‘ljalarni qo‘lga kiritar, kiborlarning tahsin, havas va hasadlariga sazovor bo‘lar edi. Bu qurshov unga bo‘ri ovini eslatdi: shikor belgilangan shikorgohga oldindan yegerlar (ov mutaxassislari), xizmatkorlar, xos qo‘riqchilar, qaram dehqonlar yuborilar. Ular qo‘llariga katta shovqin beradigan qurol va asboblar: mushket, nog‘ora, kastryul, shaqildoqlar olib, shikorgoh atrofini qurshab olishar, ishora bo‘lishi bilan mushketlardan paxtavon o‘q uzib, nog‘ora va kastryullarni daranglatib, burg‘i chalib, shaqildoq shaqillatib, baqirib-chaqirib, bo‘rilar yashaydigan joylarni o‘rab kelishar, yirtqichlar o‘zlarini har yoqqa urib qochgani bir tirqish axtarishar, tirqish esa faqat kibor ovchilar o‘ljani kutib, zamonaviy qurollar tutib turgan joy edi xolos. Bo‘rilar o‘sha tomonga intilganda, ovchilar daraxtlar ortidan turib, ba’zan ochiq maydonga chiqib, tayyor o‘ljani otib olardilar. Kujello Xolxo‘ja Eshon siymosida yirik, qonxo‘r, uzoq vaqtlar ovchilar o‘qiga chap berib kelgan ayyor bo‘rini ko‘rar ekan, unda ovchilik hissi alangalandi. Biroq, Xolxo‘ja Eshon u ko‘rgan, u ovlab yurgan bo‘rilardan ayyorroq, tajribaliroq edi: Kujello o‘zicha “Xolxo‘janing qochishdan o‘zga iloji qolmadi. Xo‘sh, u qaysi tomonga qochadi? Albatta, Oloyga o‘tib ketish uchun G’ulcha yo‘liga qochadi,” deb taxmin qilib, bu yo‘l ustiga pistirma qo‘yib, qamal halqasining shu qismini siyraklashtirgan edi. Xolxo‘ja Eshon uning fikrini o‘qib, ko‘p yillik tajriba va tug‘ma tuyg‘u vositasida halqaning bo‘sh joyi – pistirmaga qarama-qarshi tomondan halqani yorib o‘tib, aylanma yo‘llar bilan Ko‘kort orqali Oloy yo‘liga chiqib oldi.

Tayyor o‘ljani qo‘ldan chiqargan shikorbegi Kujello g‘azabdan o‘zini qo‘yarga joy topolmay, Xolxo‘ja Eshonni omonsiz ta‘qib qilib boraverdi. Tog‘lar sari ketayotgan ozodlik jangchilari goh otlari boshini burib, izma-iz kelayotgan dushman bilan jang qilib, ularni ma’lum masofaga qochirib, yana tog‘ sari intilar edi. To‘xtab nafas rostlashga biror osuda dam yo‘q, tamaddi qilib olishni-ku, qo‘yavering, tishga bosadigan bir burda non yo‘q. Yaqin 50—60 chaqirim joyda bir burda non yoki bir tishlam go‘sht topib yeyish mumkin bo‘lgan na bir qishloq, na bir kulba bor. Nihoyat, ta‘qibning uchinchi kuni Qashqarga olib boradigan Terakdovon etagiga yetdilar. Tog‘larda bu yil noyabrdayoq qahraton qish boshlangan. Hammayoqni qalin qor qoplagan. O’tgan yilgi Oloy safari juda qiyin bo‘lganligi kitobxonlarning yodida bo‘lsa kerak. Bu safar undan ham qiyin bo‘ldi. O’tgan safar har qalay, oldinda yurib qalin qorda yo‘l oolib ketadigan qo‘toslar, so‘qmoq ochadigan metin va kuraklar bor edi. Bu yil esa horigan otlar-u, qurol-yarog‘, o‘q-doridan boshqa xech narsa yo‘q. Dovon yo‘lini qor ko‘mib tashlagan, otlar qorga o‘mrovidan botgan, ularni chiqarib olguncha odam qora terga botadi. Hali ham bo‘lsa, odamning joni temirdan ekan, bir amallab odimlab, emaklab, dovon sari yaqinlashib, qizillarni ortda qoldirdilar. Echkiga jon qayg‘u, qassobga yog‘ qayg‘u. Kujelloning askarlarini “Xolxo‘ja bu qorda qaergacha borardi, erta yo indin qaytib tushishga majbur bo‘ladi”, deb qor chizig‘idan pastroqda, shamoldan pana joyda chodir qurib yotishdi. Xolxo‘ja Eshon yigitlari yana bir kun toqqa tarmashishda davom etdilar. Bir haftadan beri tuz totmagan yigitlar ochlikdan o‘lar holatga keldilar. Bunday paytda aksariyat odamlar tushkunlikka tushib ketadi. Sillalari qurib, ochlikni bir oz unutish uchun ham harakat qilib, oldinga siljishda davom etdilar. Qo‘qqisdan dovon tomonda bir kiyik ko‘rindi. Ko‘rinmasa bo‘lar edi o‘sha kiyik. Balki qizillarga ittifoqchi bo‘lgan iblis kiyik qiyofasida ko‘rindi... Tabiiy ofatning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, o‘n-o‘n besh kun yoqqan katta qor eng yomon tabiiy ofatlardan biridir. Qor ustma-ust yog‘averadi, uning bosimi ta’sirida tagidagi qatlama qotib, muzga aylanadi; qor shunda ham to‘xtamay yog‘aversa, qalinlashib, o‘zini o‘zi o‘shlab tura olmaydigan holatga keladi. Sekin esgan shabboda, qattiq shovqin, umuman, havoning tebranishi bu qorlarni o‘rnidan qo‘zg‘atib pastlikka yo‘naltiradi. Pastga tushgan sari qor uyumining tezligi, kuch-qudrati oshib, hech qanday kuch, hech qanday metin devor uni to‘xtatib qololmaydi. Bu ofatni qor ko‘chkisi deydilar. Kiyik ko‘ringan zahoti, ochlikdan ko‘ziga ovqatdan boshqa narsa ko‘rinmaydigan bo‘lib qolgan yigitlar oqibatini o‘ylab ham o‘tirmay, barobariga miltiqlaridan o‘q uzib yubordilar. Bu o‘qlardan birortasi kiyikka tegdimi-tegmadimi, hech kim bilmaydi, bilishga ham ulgurib bo‘lmaydi:

o'q otilgan zahoti ko'chki boshlanib, bir daqiqa o'tar-o'tmas dovon ostidagi barcha mavjudot qalin qor qatlami ostida qoldi. Xo'sh, yigitlar kalima qaytarishga ulgurdilarmi-yo'qmi, yolg'iz Allohga ayon. Darvoqe', shahidlar uchun kalimasiz ham jannat eshiklari ochiq bo'lsa kerak, vallohi a'lam.

1918 yildan beri istilochilar bilan omonsiz kurashib, ularga dahshat solib kelgan, dushmanga nisbatan eng murosasiz nuqtada turgan Xolxo'ja Eshon shu tariqa dahshatli ko'chki ostida qolib, vatani – Turkiston ozodligi yo'lida, dini islom yo'lida shahodat sharobini ichdi. Uning shahodati do'stlari va maslakdoshlarini chuqur qayg'uga soldi. Nurmuhhammadbek o'z xotiralarida Xolxo'ja Eshon shahid bo'lganini eshitgandan keyin chekilgan iztiroblarni shunday bayon qiladi:

"Xolxo'janing shahid ketishi bizni, avvalo, akamiz Shermuhammadbekni juda xafa qildi. U o'ris o'qidin o'lishni xohlar edi. Bir xoin yoki ko'zi ko'r taqdirning tasodifi bilan o'lish unga juda qiyin tuyulardi. Jo'shqin, qaytmas mujohid edi. Kechirimsiz va mazbut fe'l atvor egasi edi. Qor ostida qolib ketib o'lmaganda, balki Farg'onaning eng oxirgi fidoyisi bo'larmidi? Shahid bo'lganidan to'rt kundan keyin alamli xabarni olganimiz payt uning ruhiga Mavludi sharif o'qitib, Allohning dargohiga yubordik. Allohi karim bul Turkiston shahidini rahmat qilsin, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom shafoatchi bo'lsinlar. Omin, Allohu Akbar!"

Farzandlarining yozishlaricha, kunlardan birida ulug' adib Abdulla Qodiriy ijodxonadan ko'zlarida shashqator yosh bilan chiqib kelibdilar. Xavotir olgan oila a'zolari "Nima bo'ldi? Nega yig'ladingiz?" deb so'rasalar, "Kumush... Kumush o'ldi." deb javob bergen ekanlar.

Xolxo'ja Eshonning shahodati haqida yozgan satrlarimiz, ne tong-ki, meni ham shu ko'yga soldi... Ko'z yoshimni artib, marhumning ruhiga bag'ishlab tilovat qilib, qissaning marhum Xolxo'ja Eshonga bag'ishlangan bobiga nuqta qo'yaman deb turganimda telefon jiringlab qoldi. Go'shakni oldim. Qo'qon o'lkashunoslik muzeyidan ekan. Bizning izlanishlarimizdan boxabar do'stlarimiz Xolxo'ja Eshon hayoti bilan bog'liq yana bir hujjat chiqib qolganligidan darak berishdi. Olib kelishni so'radim. Do'stlarim hujjatni menga berar ekanlar, ogohlantirib qo'ydilar: "— Bu hujjatga tanqidiy nazar bilan yondoshishingizni so'raymiz, zero, sezishimizcha, unda boshqa xujjalalar bilan tasdiqlanmagan, haqiqatdan yiroq faktlar ko'p ekan. Nima bo'lganda ham, bir hujjat, bir manba sifatida ko'zdan o'tkazib qo'ysangiz bo'laveradi".

Hujjatdan ko'chirma nusxani uyga olib ketib, sinchiklab o'rgandim. Bu hujjat Toshpo'lat O'rozboev tavalludining yuz yilligiga bag'ishlab Toshkentda 1969 yil 20 may kuni o'tkazilgan tantanali majlis stenogrammasi ekan (Toshpulat O'rozboev shaxsi haqida ma'lumot qissaning yuqoridaq boblarida keltirilgan). Majlisga tarix fanlari doktori, professor M.V.Vahobov raislik qilgan. Uning mavzumizga, to'g'rirog'i, Xolxo'ja Eshonga daxldor qismi—fuqarolar urushi ishtirokchisi, 1918 yildan KPSS a'zosi, O'rozboevning safdoshi Muxtorjon Olimovning nutqi matni ekan. Uni diqqat bilan bir necha bor o'qib chiqib, muzey xodimlarining ogohlantirishlari to'g'ri ekanligini angladim. Darhaqiqat, unda haqiqatdan ancha yiroq gaplar ko'p ekan. Bir ko'nglim, "undan butunlay foydalanmaslik kerak" dedi, boshqa bir ko'nglim "Bu gaplarni kitobga qo'sh. Sovetlar vaqtida tarix naqadar soxtalashtrilganini o'quvchilar ham o'z ko'zlarini bilan o'qib bilsinlar" dedi. Mening o'zimga ham shu ma'qul ko'rindi.

O'rtoq M.Olimovning nutqi asl holida, ya'ni, rus tilida berilgan ("—Ya ochen izvenyayus, ya budu govorit po russki"). Biz undan Xolxo'ja Eshonga daxldor qismini tarjima qilib keltiramiz:

"... Men juda ko'p qiziq ishlarni aytib berishim mumkin, ammo, eski avlod qanday shart-sharoitda ishlaganligi haqida bittagina misol keltirib o'taman. Masalan, 1919 yilda Andijonda bosmachilarning yirik boshliqlaridan biri Oxunjon va uning sherigi Xolxo'ja biz tomonga o'tdi. U (Xolxo'ja)ning aksilinqilobiy armiyada 800 tagacha odami bor edi. U ham Sovet xokimiyyati tomonga o'tdi. U sovetlarga o'tgach, uni Andijonda Oxunjon bilan qoldirish mumkin emas edi, shuning uchun uni O'shma yubordilar. Men aynan o'sha paytda O'sh inqilobiyo qo'mitasini boshqarardim, raisi edim. Men Xolxo'jani eski tanishlarday kutib oldim. Biz u bilan bir kun birga bo'ldik. Men unga "Siz baribir bu yerdan qochib ketarsiz?" deb savol berdim.

- Men bu yerda muqim yashab qolaman
- Juda yaxshi, bu holda biz shtab tashkil qilamiz, yigitlarni yacheykaga uyushtiramiz, komsomol yacheykasiga kiritamiz, rozimisiz?
- Ha, rozman.
- Unda meni kutib turing. Men Farg‘onaga borib kelaman.

O’sha paytda Farg‘ona viloyat inqilobiy qo‘mitasida rais Farid Toirov edi. Men shu yerga keldim. Biz Farg‘ona inqilobiy qo‘mitasi majlisini chaqirdik va Xolxo‘ja masalasini muhokama qildik, qo‘mita menga shtab tuzish vazifasini topshirdi. Qaytib ketdim. O’shga qaytib kelsam, Xolxo‘ja arab yozuvida “Sovet hokimiyatining dushmanlari meni O’shdan haydab chiqardilar” deb ariza yozib, o‘zi shahardan chiqib ketibdi. Nima qilish kerak? Shu zahotiyoy Farg‘ona bilan ulandim. O’sha paytda Turkiston Markaziy Ijroiya qo‘mitasi raisi Nizomiddin Xo‘jaev edi. U bu vaqtida Farg‘onada bo‘lib, sulh masalalari bilan shug‘ullanar edi. Uning buyrug‘i bilan quolsizlantirish komissiyasi tuzildi. Meni va yana ikki kishini kiritishdi. Biz uning oldiga borishimiz va quolsizlantirishimiz kerak. Agar, uchchovlon uning oldiga borsak, yo hayot, yo mamot, o‘lishimiz aniqroq. Xolxo‘ja shunday bir kallakesarki! Nima qilish kerak? Biz bu yerda bosmachilar ichida katta hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lgan odam bor ekanligini aniqladik. Biz uni qo‘lga oldik va garov sifatida qamab qo‘ydik. U shunday bir xat yozib berishga majbur bo‘ldi.” “— Xolxo‘ja Eshon, agar siz bu xatni olib borgan odamlarni xafa qilsangiz, ular meni tirik qo‘ymaydilar.”

Mening borishimga to‘g‘ri kelmadi. Mening o‘rnimga Yoqub Chanishev bordi.

Xolxo‘ja uch kundan so‘ng qurol-yarog‘ini topshirishga va’da berdi. Xo‘sh, nima bo‘ldi? U qochib ketdi. Uning orqasidan ular quvib ketdilar. Xolxo‘ja dovon orqali Xitoyga yo‘l oldi dovonni qor qoplagan. Faqat to‘rt kishi tog‘ning tepasiga chiqishga muvaffaq bo‘lib, qochib qolishga ulgurdi. Ulardan qaysi biridir o‘q otdi. Aytishlaricha, qanchalik to‘g‘ri-noto‘g‘ri, bilmayman-u, miltiq otish ovozidan u yerda qor ko‘chkisi kelib chiqqan. Shu tariqa uning yigitlari qor ko‘chkisi ostida qolganlar.

Xolxo‘ja nima qildi? U o‘zi bilan birga qutulib qolgan uch kishini “qaerga borsalaring, boraveringlar” deb, ozod qo‘yib yubordi. Yakka o‘zi Xo‘jandning qishloqlaridan biriga bordi, o‘z nomini o‘zgartirib, kolxozga a‘zo bo‘ldi, ko‘p o‘tmay kolxoz raisligiga saylandi, hurmat-e’tibor orttirdi va uning kim ekanligini uzoq vaqtgacha hech kim bilmadi. Biz esa, uning qor ko‘chkisi ostida qolganligini bilar edik, xolos.

Ko‘rinib turibdiki, u tirik qolgan va yaqindagina o‘z ajali bilan o‘lgan ekan...”

Marhum Xolxo‘ja Eshonning eng murosasiz mujohid bo‘lganligi bizga ma’lum. Balki, biror vaziyat teng kelib qolgan holatda vaqtidan yutish uchun sulh haqida muzokara olib borgan bo‘lsa bordir. Shuningdek, 1920 yil boshlarida “kolxoz” degan tushuncha umuman bo‘limganligini e’tiborga olsak, o‘rtoq M.Olimovning aytganlari qay daraja haqiqatga to‘g‘ri kelishini hal etish muhtaram o‘quvchilarga havola.

ZAFADAN CHIQQAN QO’RBOSHI

Barchaga ma’lum, o‘tmishda ayol zoti borki, barchasi bir so‘z bilan “zaifa” deb atalgan va asosiy mashg‘ulotlari uy-ruzg‘or ishlari bo‘lgan. Biroq, moziy sultanatida shunday vaziyatlar bo‘ldiki, zaifalar qo‘llaridagi ignani xanjarga, ipni sirtmoqqa, cho‘michni gurziga almashtirib, erlari bilan yelkama-elka turib Vatan himoyasi yo‘lida jang qildilar. Ba’zilari esa halok bo‘lgan sarkardalar o‘rnini egallab, katta g‘alabalarga erisha oldilar. Qonxo‘r Kayxusravning kallasini qonga to‘ydirgan massaget malikasi To‘maris, yirik Eron sarkardasi Bahrom Cho‘binga bas kela olgan saklar malikasi Zarina, Kaufman va Skobelevlarni dog‘da qoldirgan Oloy malikasi Qurbonjon Dodrox va boshqa shijoatli ayollar Vatan tarixining milliy qahramonlari kitobidan joy oldilar. Shular qatori, Farg‘onamizdan bolshevoylarning dodini bergen yana bir ayol chiqqan bo‘lsa, ne tong!

Mazkur kitobimizga manba qidirib yurgan kunlarimizdan birida G’afur G’ulom nomidagi Qo‘qon

adabiyot muzeyining xazinaboni, do‘stimiz Hasanjon Otajonov bir dasta eski qog‘oz ko‘tarib kelib qoldi.

- Xoji aka, — dedi u suhbat asnosi, ayol kishidan qo‘rboshi chiqqanini eshitganmisiz?
- Eshitgan edim-u, u haqda manba topolmay yurib edim.
- Mana bularni kuring-chi.

Xursand bo‘lib, qog‘ozlarni birma-bir varaqlab ko‘rdim. Yigirmanchi-o‘ttizinchi yillarda chiqib turgan “Yer yuzi” jurnalining 1928 yil, yanvar oyi, 15-soni, o‘sha davrga oid hujjatlar, urush ishtirokchilarining xotiralari ekan.

Yolg‘iz qolgach, mazkur manbalarni sinchiklab qayta-qayta o‘qib chiqdim. Og‘zaki eshitganlarim, xalq og‘zidan yozib olingan ma’lumotlar bilan chog‘ishtirib, tahlil qildim. “Yer yuzi” jurnalida bositgan maqolada O’shdan chiqqan Oyshaxon Qo‘rboshi haqida hikoya qilinadi. Tabiiyki, sovet jurnalida milliy-ozodlik harakati qahramoni haqida yaxshi so‘z bo‘lishi mumkin emas. Maqolada Oyshaxon shaxsiga, u kurashgan g‘oyaga mag‘zava to‘kilgan. Biroq, unda muhim hujjatlar aynan keltirilgan. Shu bilan birga, maqola muallifi Komil Aliev o‘zi bilmagan, balki bilgan holda sovetlarga qarshi hatto ayollar ham bosh ko‘targanligini isbotlab bergen.

Biz Oyshaxon Qo‘rboshi haqida haqiqatni bilish uchun O’sh, Qorasuv, Qo‘rg‘ontepa va boshqa joylarga bordik. Uncha-muncha, og‘zaki bo‘lsada, ma’lumot to‘plashga muvaffaq bo‘ldik. Ushbu ma’lumot asosida, boyagi maqolani dog‘-dug‘lardan tozalab, Oyshaxon Qo‘rboshi haqida baholi qudrat o‘z so‘zimizga ega bo‘ldik:

Mahkam Xoji ozodlik harakatining ilk ishtirokchilaridan bo‘lib, o‘z yigitlari bilan Muhammadaminbek qo‘mondonligi ostida jang qilgan. 1919 yilda u bilan oralari buzilib, Akbarali Qo‘rboshi ikkalasi sho‘rolar bilan birinchilardan bo‘lib, sulh tuzgan. Bir qancha oy o‘tgach esa, yana ozodlik kurashchilari safiga o‘tib, Andijon va O’sh oralig‘ida jang qilib yurdi. Shermuhammadbekni rasman tan olib, uning qurultoylarida ishtirok etib, o‘zini amirlashkar deb his etar, o‘sha atrofdagi bir qancha kichik qo‘rboshilar ham unga itoat qilardilar. Xolxo‘ja Eshon shahid bo‘lgach, Mahkam Hoji o‘zini “O’sh amirlashkari” deb ochiqdan ochiq e’lon qiladi.

...Andijonning Qo‘qonqishlog‘idagi Olimboy zovudchining mahobatli mehmonxonasi. Mehmonxonaning devorlari miltiq, to‘pponcha, qo‘l pulemyotlari, o‘q-dorilar bilan ziynatlangan. U yerda peshonasini shoyi qiyqlar bilan tang‘ib bog‘lagan, yonlariga shop-shalop osgan yigirma chog‘li yigit osh dam yeishini kutib o‘tiribdi. Navbatchi yigit kirib ma’lum qiladi:

- Begim, mashhur Xolxo‘janing egachisi Oyshaxon kelib huzuringizga kirishga ruxsat so‘raydir.
- Ayt, kirsin.

Bug‘doy rang, shahlo ko‘zlik, sochi qirqilgan, erkakcha kiyangan, o‘ng yonboshiga mauzer to‘pponcha osgan, yuzi ochiq, xushruy bir xotin eshikdan kirib, bu yerda hozir bo‘lganlarga salom berdi. O’tirishning boshlig‘i Mahkam Xoji uni o‘rnidan turib qarshi oldi. Sog‘liq-salomatlik so‘rashganlaridan keyin suhbatga tushdilar:

— Akam Xolxo‘ja Eshon din yo‘lida, ozodlik yo‘lida xizmat ko‘rsatib, ko‘p urushlar qildi. Bolshavoylar bilan jang qilib yurib, Qashqar yo‘lida— Ergashtomda besh yuz yigit bilan qor ostida qolib shahid bo‘ldi. Akamning tarqalib ketgan yigitlarini to‘plab, dini islom, yurt ozodligi yo‘lida qilich chopish uchun ruxsat olgani keldim,— dedi Oyshaxon.

— O‘tgan ishga o‘kinishning foydasi yo‘q. Kimlarningdir kasofatiga o‘lib ketgan Xolxo‘ja Eshon uchun achindik. Endi sizning talabbingizga kelsak, buni ayni zamonda bo‘ldirish juda qiyin. Hozirgi vaqtida yigitlarimiz o‘zboshimcha bo‘lib, itoatdan bosh tortmoqdalar. Bolshavoylar kundan-kun ko‘payib, tinchligimizni yo‘qotayotbdilar, hatto, qishloqlardagi chol dexqonlar ham bizlarga qarshi bo‘lib, tepamizga bolshavoylarni boshlab chiqarib qo‘ymoqdalar. Shunday vaqtida sizga ruxsat berish hikmatdan emas...

Qo‘llar yuvilib, osh tortilgandan keyin Oyshaxon yana so‘z boshladi:

- O’n besh kun yurib, O’shdan yigirma beshta yigit jamladim. Siz ruxsat beravering, uddasidan

chiqa olsam qilarman, Akamni o'chida yonayotirman.

— Mayli, oshdan keyin bir yo'lini qilarmiz.

Osh yeb bo'lingach Mahkam Xoji davom etdi:

— Xo'b bo'lmasam, men sizni qo'rboshi qilib belgilab buyruq beraman, ammo, nihoyatda ehtiyot bo'lib ish qiling— dedi Mahkam Xoji va Mulla Toji Mirzoni chorlab, yorliq yozishga farmon berdi.

Buyruq (yorliq) ning imlosi o'zgartirilib, o'zi aynan olindi.

BUYRUQ

“1339 hijriy yil 10 zulqa'da (1920 yil dekabr). Tamomi O'sh shahridagi qo'rboshi, ponsodlar va islom lashkarlariga yetib ma'lum bulg'ayki, dini islom yo'lida qilich chopib fido bo'lg'on Xolxo'ja Eshonning hamqorin egachisi Oyshaxon Oyim din yo'lida akasi o'rnida qilich chopmoq uchun fidoyi bo'lib chiqibduri. Binobarin, bizlar — lashkari islom boshlig'i Mahkam Xoji o'z tomonimizdan bu hamshiramizni Xolxo'ja o'mig'a qo'rboshi qildiq. Tamomi O'sh shahari va atrofidagi Eshondan qolg'on askarlar, o'nboshilar, yuzboshilarg'a ma'lum bo'lg'ayki, bu Oyshaxon Oyimning mutavaffo Xol Eshon o'rnida bilib, tamomi amir farmonig'a bo'yin sunib, inqiyod qilsinlar. Zarracha ixtilof qilmay, har na buyurg'on xizmati bo'lsa jon dil bilan bajo keltirgaysizlar. Ba'zi bir atrofda tarqab ketgan yigitlar bo'lsa, buyrug'imizni ko'rgan, eshitgan on darhol Oyshaxonning huzuriga hozir bo'lsinlar va boshqa qo'rboshilar oldida xizmat qilib turg'onlari ham Oyshaxon Oyimdan xat borg'on zamон eski joylari bo'lg'on O'sh shahridagi Oyshaxon-Xolxo'ja Eshon hovlisiga borib, avvalgi o'rinalidog'i xizmatlarig'a qoyim bo'lsinlar. Har kim bu buyrug'imizg'a buysunmasa boshi o'limda, mol-tovari talonda bo'lib, qochqonlari qurol jazosig'a mustaxiq qilinadur, deb ushbu inoyatnoma berildi.

Lashkar Islom boshlig'i amirlashkar fidoyi Mahkam Xoji muhrimni bosdim...”

Buyruq Oyshaxonga taqdim qilingandan so'ng, hozir bo'lganlar muborakbos qilishdilar. Mahkam Xoji Oyshaxonga Buxoro to'ni kiydirib, beliga kumush qilich bog'lab, fotiha berdi...

Ko'p o'tmay Oyshaxon qo'rboshining lashkari uch yuz nafarga yetib qoldi. Qo'rboshilikka inoyatnoma olgandan so'ng o'n besh kun o'tgach, Oyshaxon yuzboshi va o'nboshilarni to'plab, harbiy kengash o'tkazdi. Vaziyatni muhokama qilib, jang rejalarini belgilab oldi. Xolxo'ja Eshon marhumning yaqin yigitlaridan biri Sultonboy rejalarga aniqlik kiritib, Eshonning armoni bo'lib qolgan ish – qamoqdagilarni ozod qilish masalasidan so'z ochadi:

— Biz Eshon akam bilan bir necha bor urinib ko'rdik. O'sha paytda o'ruslar qamoqxona va uning atrofiga katta kuch tashlagan edi. Eshon akam Qashqar tomon ketayotganlarida meni va o'n-o'n beshta sodiq yigitlarni O'zgan yaqinida qoldirib, bir yo'lini topib, o'ruslar qamoqxonadan bir oz xotirjam bo'lgan paytda u yerdagilarni ozod qilish va orqadan yetib borishni tayinlagan edilar. Biz hali-hozir qamoqxona tomonidan xabardor bo'lib turibmiz. Eshon akam shahid bo'lganlaridan keyin o'ruslar qamoqxonani ko'riqlab turgan sallotlardan bir qismini olishdi, biroq u yerda hali kuch katta. Qamoqxonadagilarni ozod qilish o'sha paytda Eshon akamdan bizga iltimos edi, mana endi bu iltimos vasiyatga aylandi.

Oyshaxon shaxsan o'zi O'zganga borib, paranji yopinib, qamoqxona atrofini bir necha bor aylanib, joyning tuzilishi, qamoqxonaning ko'riqlanishi darajasini, devorning shikast-rextlarini o'rganib chiqdi. Hujum rejasini tuzdi, biroq, hujum qilishga shoshilmadi. Bu orada O'sh atroflarida qizillarning kichikroq dastalariga hujum qilib, nomi ham chiqib qoldi. Yaqin-o'rtadagi garnizonlarning askarları: — Shu paytgacha erkaklar bilan urishib keldik. Ayol kishi bilan ham urushish peshonaga yozilgan ekanda, — deb bosh qashib yuradigan bo'ldi.

Hujumdan bir necha kun oldin qamoqxona yaqinidagi anchadan beri huvillab yotgan Qashqar karvonsaroyiga bir karvon kirib joylashdi. Karvoni tekshirishga kelgan garnizon askarları bir necha tuyadagi yukni ochib ko'rdilar, shubhali hech narsa yo'q. Karvonboshi ularni aroq bilan siylab, mast

qilib jo‘natib yubordi. So‘ngra boshqa tuyalardagi qurol-yarog‘larni karvon xizmatchilari taqsimlab olib, payt poylab yotdilar.

Kunlardan birida O‘zganga bir olomon kirib kelib, duch kelgan odamlardan qamoqxona qaerdaligini so‘rab, nihoyat uni “topib” bordilar. To‘daning tashqi tomoni belkurak, ketmon, panskha, cho‘qmor va miltiq ko‘targan dehqonlar bilan o‘rab olingan. Bu dehqonlar qo‘llari orqasiga boylangan bir ayol va o‘ttiztacha erkakni poylab kelardilar. Qamoqxonaga yetib kelgach, to‘da boshlig‘i soqchilardan “eng katta nachalnik”ni chaqirib berishni so‘radi. Qamoqxona boshlig‘i ehtiyot shart yoniga besh-olti askar olib chiqib keldi. O‘zi o‘ris bo‘lsa ham, o‘zbek tilida gaplasha olar ekan, olomondan so‘radi.

- Kim sizga kerak?
- Bizga shu yerning eng kattasi kerak, — dedi to‘da boshlig‘i:
- Eng katta men. Nima gap?
- Men Mirzaaka qishlog‘idagi “Qizil kaltak” o‘zini-o‘zi himoya qilish otryadining komandiri Tirkash Ochildevman. Mana mandatim. Qamoqxona boshlig‘i mandatni o‘qib ko‘rdi.
- Bular kim? Xotin kim?
- Bu xotin Xolxo‘janing singlisi. Akasining o‘rniga qo‘rboshi bo‘lgan. Eshitgan bo‘lsangiz kerak?
- Ishitgan.
- Shu xotin kecha Mirza akani bosdi. Qishloq faollarini o‘ldirdi. Kechasi boyning uyida tunab qoldi. Biz uni uyquda bosib, ushladik. Bir qism yigitlari qochib qutulib qoldi. To‘g‘ri shu yerga olib keldik.
- Yaxshi, indi kitinglar, bosmachlarni soldatlariga topshiring.
- Yo‘q, nachaylik, ularni qamoqxonaga joylashganini ko‘rmaguncha ko‘nglimiz tinchimaydi. Qishloq sho‘rosining raisi, boshqa faollarni, bir qancha dehqonni o‘ldirishdi. Yana qishloqni bosib, boshimizga balo-qazo solmasligi uchun ularning qamalganini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz kerak.
- Yakshi. Darvozadan podalshe turinglar.

Boshliqning buyrug‘i bilan qamoqxonani qo‘riqlab turgan askarlarni barchasi darvoza oldiga chiqdi. Darvoza ochildi. Qo‘llari “Mahkam” bog‘langan “asirlar” bir zumda qo‘llarini banddan bo‘shatib, qo‘yinlaridan to‘pponchalarini oldilar. Oyshaxon mauzerini qamoqxona boshlig‘ini peshonasiga tiradi:

- Nachaylik, — dedi u, — sallotlaringa ayt, qurolini tashlasin.
- Umrida bunday bemaza holatga tushmagan nachaylik nomus kuchidan qizarib-bo‘zarib, hatto o‘lim ham ko‘ziga ko‘rinmay baqirdi:
- Strelyat (otinglar)!

Biroq ish qo‘ldan ketganini nachaylikdan oldin tushunib yetgan sallotlar o‘q uzmasdan to‘pponcha va miltiqlarini yerga tashladilar. Oyshaxoning karvonsaroydagi yashirincha yigitlari ham chiqib keldilar. Ish jangsiz, qonsiz hal bo‘ldi. Ish bunday silliq ko‘chganidan hatto ba’zi yigitlarning hafsalasi pir ham bo‘ldi. Oyshaxoning yigitlari qurollarni yig‘ishtirib olib, qamoqxona nazoratchilari bilan birga yurib, kameralardagi mahbuslarni ozod qildilar. Qarshilik ko‘rsatmaganliklari uchun sallotlarga tegishmadi. Mahbuslarni olib ketayotganlarida nachaylik Oyshaxonga qarab baqirdi:

- Mini otib kit!
- Biz quolsiz kishilarni otmaymiz.
- Unda bog‘lab kit. Ax, minga qanday pozor (sharmandalik).

Yigitlar noiloj nachaylik va sallotlarni qo‘l-oyoqlarini bog‘lab, kameralarga qamab ketishga majbur bo‘ldilar.

Mahbuslarni ozod qilib, lashkari yanada ko‘paygan Oyshaxon bir necha oy to‘xtovsiz jang qilib, dong chiqardi. Qizil komandirlar unga “amazonka ayol” (qadimgi afsonalardagi jangchi ayol) deb nom berdilar. Xalq ichida esa “Oyim qo‘rboshi” degan obro‘li nom orttirdi. “Oyim” atamasi o‘tmishda aslzoda ayollarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, inglizlardagi “miledi” (lordning xotini) tushunchasiga to‘g‘ri kelgan.

Bir necha oy o‘tgach, jang maydonini Jalolobod tomonga ko‘chirdi. Kunlardan birida poyloqchi yigitlardan biri ko‘k konvertga solingen bir xatni keltirib, Oyshaxonga tutqazdi. U xatni ochib o‘qishga tushdi:

QO’RBOSHI OYSHAXONGA

“Jalolobodning krestyanlari qat’iy ravishda taklif qiladikim, Sho‘ro hukumati bilan yarashmog‘imiz to‘g‘risidagi murojaatnomamizni olib ketayotgan ikki vakilimizni qamoqqa olibsiz, shularni ikki soat muhlat ichida ozod qilingiz, yo‘qsa qurol kuchi bilan ajratib olamiz...”

Oyshaxon bu ultimatumga qarshi ikki so‘z bilan javob berdi:

— Yigitlar, otlaning!

Miltiqlardan sochilgan o‘tlar bir nafasda Arpachi qishlog‘ining keng dalalarida ozodlik jangchilar va mujiklar gavdalaridan minoralar yasadi. Urush avji qizib turgan bir paytda daydi bir o‘q kelib Oyshaxon Qo‘rboshining naq ko‘kragiga joylashdi...

Shu tariqa ozodlik harakati yo‘lida qisqa vaqt jang qilsada, bolshavoylarning dodini berib, katta talafot yetkazgan Oyshaxon Qo‘rboshi akasining o‘chini olganidan mammun holda, akasi armonini ro‘yobga chiqarib shahid ketdi. Uni shahid sifatida Arpachi qabristoniga dafn etdilar. Alloh undan rozi bo‘lsin!

Turkistonda qo‘rboshi Oyshaxonga o‘xhab erlari, jigmoidshlari yonida turib istiqlol uchun jang qilgan ayollardan chiqqan qo‘rboshilar to‘g‘risida biron ta kitobda ma’lumotlar o‘qimadim. Nihoyat, Q.Rajabov, M.Haydarovlar tomonidan yozilgan, 1917—1924 yillarni o‘z ichiga olgan Turkiston tarixida mashhur qo‘rboshi Muhiddinbekning onasi Mehrixon qo‘rboshi asli oltiariqlik usta Xoliqboyning qizi bo‘lgan Shakarxon qo‘rboshi Buxoroni Karmanasidan chiqqan Nodira qiz Ibrohimbek qo‘shtida maxsus guruhga boshchilik qilib Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi mardonavor kurashganlar. Bu ayol qo‘rboshilar qizil askarlarga qaqshatgich zarba bergenliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1921 YIL VOQEALARI

1920 yil oxirlariga kelib, Farg‘onada qizillarning qo‘li baland kela boshladi. Dekabr oyida qizil qo‘mondonlik Andijonni uzil-kesil “bosmachilar”dan ozod qilish maqsadida uning yaqinidagi Qo‘qonqishloqqa katta harbiy qism yubordi. Bu yerning qo‘mondoni Parpi Qo‘rboshi ozgina kuch bilan ularga qarshi jangga kirishga majbur bo‘ldi. U yakson bo‘lish arafasida turganida bundan ogoh bo‘lgan Shermuhammadbek mingta yigit bilan yordamga yetib bordi. Bir necha kun davom etgan jang mobaynida Parpi Qo‘rboshi va to‘qson nafar yigit shahid ketdilar. Uning o‘rnini ukasi To‘rajon egalladi. Nihoyat, qizilar Andijon shahri tomon uloqtirib yuborildi. Katta miqdorda qurol-yarog‘ o‘lja olindi. Shermuhammadbekning himmati qo‘zg‘ab, asir olingan to‘rt yuzga yaqin qizil askarni qo‘yib yubordi. Bu jangdagi g‘alaba Shermuhammadbek 1920 yilda erishgan g‘alabalarning so‘nggisi bo‘ldi.

1920 yil noyabr-dekabri istiqlolchilar uchun qiyin bo‘lib o‘tdi. Bu janglar asnosida qizillar yana O‘shni qo‘lga kiritdilar. Shermuhammadbek qo‘shtinni saqlab qolish maqsadida qish sovug‘iga qaramay, Oloyga chekindi. Bekorchilikdan odamning fikri buziladi, jamoa o‘rtasida har xil achchiq-chuchuk gaplar qo‘zg‘aladi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun Shermuhammadbek yigitlarini dovonlar osha Hisorga olib o‘tadi va u yerda Davlat qo‘rboshi bilan hamkorlikda qizillarning hisor ekspeditsiya-siga bir necha kuchli zorbalar beradi. Shermuhammadbekning yonida Nurmuhammadbek va Asqarbek ham bor edilar. Qizil armiyaga qarshi boy kurash tajribasiga ega bo‘lgan farg‘onalik qo‘rboshilarning bu yerda paydo bo‘lishlari Sharqiy Buxorodagi Sho‘ro harbiy rahbariyatini tashvishga solib qo‘yadi. Ular o‘z kuchlarini birinchi navbatda Sharqiy Buxorodan farg‘onalik Shermuhammadbek va boshqa qo‘rboshilarni siqib chiqarishga qaratdilar. Ularning ayg‘oqchilari Sharqiy Buxorolik yigitlar ichida farg‘onalik qo‘rboshilar haqida turli tuhmat gaplar tarqatdilar va shu tariqa har xil hudud qo‘rboshilari

orasiga rahna solishga qisman erishdilar ham.

Shermuhammadbek 1921 yil fevralida yana Farg‘onaga qaytib keldi. Uning bu yerda yo‘qligidan foydalangan qizillar 1920 yil dekabr oxirida to‘satdan G’orbuvoga hujum qiladilar. Shermuhammadbek buni oldindan sezgan holda mudofaaga yarasha kuch qoldirib ketgan edi. 1920 yil dekabrdagi bosholangan to‘qnashuvlar 1921 yil fevralgacha – Shermuhammadbek tog‘dan qaytgan paytgacha davom etdi va shundan so‘ng qizillar G’orbuvodan chekindilar. Shermuhammadbek bu to‘qnashuvni tahlil qilar ekan, “G’orbuvoga bo‘lgan hujum – qizillarning talablarini rad etganim oqibati” degan xulosaga keldi va bu talab mojarosini xotirasidan o‘tkazdi:

Dekabr oyi boshlarida sho‘ro qo‘mondonligi Shermuhammadbek va boshqa qo‘rboshilarga ultimatum yuborib, ulardan taslim bo‘lishni talab etdi. Shermuhammadbek bu talabni rad etdi. Shermuhammadbekning mazkur ultimatumga javoban 10 dekabrdagi yozilgan maktubidan bir parcha “O‘zbekistonning yangi tarixi” kitobida tarixchi olim Qahramon Rajabov tomonidan keltiriladi:

“...Sovet hokimiysi va bizning vakillar o‘rtasida sulh muzokaralari faqat Milliy Respublika Konstitutsiyasi (bu yerda so‘z Shermuhammadbek tomonidan 1920 yil may oyida tuzilgan Turkiston Muvaqqat hukumati Konstitutsiyasi haqida ketmoqda — muharrir) asnosida gap yuritilgandagina bo‘ladi. Shunday holatda muzokaralar olib borishni xohlasangiz, biz qachon va qaerga vakillar yuborishimizni xabar qiling”.

Bosh qo‘mondon Shermuhammadbek muhri urilgan va Aliyorbek Qo‘rboshi tomonidan Farg‘onadagi sho‘ro hokimiysi vakillariga topshirilgan ushbu javob maktubi 19 dekabrdagi Toshkentdan Moskvaga jo‘natildi. Bunday “javob”, albatta, sho‘ro hukumati g‘azabini qo‘zg‘atmay qo‘ymas edi.

1921 yil fevralida Shermuhammadbek keyingi janglar natijalarini tahlil qilish va yangi yurishlarni rejalashtirish uchun harbiy kengash chaqirdi. Tahlil va munozaralar yakunida ma’lum bo‘lishicha, hozirgi paytda milliy-ozodlik kuchlari Qo‘qon yo‘nalishini qo‘lda saqlab turibdi, Namangan hududida ba’zan g‘alabalar qo‘lga kiritib turilibdi, Andijon va O’sh hududlarida katta talafot berilgan, Oloy tog‘lari mintaqasida ahvol unchalik yomon emas edi.

Chiqarilgan xulosaga ko‘ra, qo‘rboshilar Andijon va O’sh hududida faollikni oshirishlari kerak. Yo‘ldagi vaziyat yomon bo‘lishiga qaramay, Asqarbek qo‘rboshi yana qayta Oloy vodiysiga yuborildi. Muhiddinbekni hushyorlikka chorlash uchun vaziyat qaltis ekanligi xaqida maktub bilan chopar jo‘natdi. Andijon va O’sh yo‘lini ochish, anchadan beri faoliyati sustlashib qolgan Jonibek Qozidan xabar olish uchun Ro‘zimuhhammadbek besh yuz nafar yigit bilan yo‘lga chiqdilar. Bu ikki qo‘rboshi Shahrixon, Asaka, Qo‘qonqishloq, So‘zoq, Qo‘rg‘ontepa orqali o‘tib, Jonibek Qozidan xabar olish uchun O‘zgan tomon yurdilar. Shermuhammadbek esa G’orbuvo qarorgohida qolib, Qo‘qonga, Islom Polvonga qo‘shimcha kuch va o‘q-dori yuborib turdi. Fevral oyi oxirida G’orbuvo va uning atrofida hokimiyatini to‘liq tiklab, xotirjam bo‘lgach, sharqiy mintaqalar tomon yurish qildi.

Shermuhammadbek Qo‘qon mintaqasidagi qo‘rboshilar bilan birgalikda harakat olib borib, aprel oyi oxirida Qo‘qon—Andijon yo‘nalishini o‘z nazorati ostiga oldi. Fevral, mart, aprel oylarida Qo‘qon—Andijon temir yo‘li chegarasida og‘ir janglar olib borildi. Shimol va sharq tomonidan qizil qo‘shin qismlari bu yerga kelish imkoniyatlardan mahrum etildi. Mart-aprel-may oylarida Qo‘qon—Marg‘ilon—Shahrixon—Andijon temir yo‘lining katta qismi buzib tashlandi. Aprel oyi oxiridan qizillar Qo‘qondan Andijonga poezdda bora olmaydigan holat yuzaga keltirildi.

Shuningdek, Marg‘ilon, Shahrixon va Quvaga ustma-ust hujumlar uyuştirilib, paxta tozalash zavodlari, paxta omborlari va temir yo‘l bekatlariga o‘t qo‘yildi. Fabrika va omborlardan o‘lja olingan boyliklar va oziq-ovqat mahsulotlari o‘sha davrda hukm surib turgan qahatchilikni ma’lum darajada bartaraf etish uchun ishlataldi.

Qo‘qon—Andijon temir yo‘lini buzish bilan qizillarning vodiyligi sharqiga harbiy qismlar va qurol-yarog‘ olib borishi qiyinlashib qoldi. Qo‘qon—Namangan va Andijon—Namangan temir yo‘llarini buzib tashlashga ham farmon berildi. Biroq bu yo‘llar juda puxta qo‘riqlanar edi. Bu tomonlarda

janglar olib borayotgan Omon Polvon va Rahmonquli Qo‘rboshi temir yo‘llarni to‘liq buzishga muvaffaq bo‘lmasalarda, qizillarga katta zarba berib turdilar.

Ro‘zimuhammadbek va Aliyor Qo‘rboshining qat’iy harakatlari bilan Ergashtom dovoni sari olib boradigan yo‘lak ochishga muvaffaq bo‘lindi.

“Bosmachilik”ni kuch bilan yo‘qotishga qiynalib qolgan sho‘ro hukumati tinmay izlanishda bo‘lib, yangi-yangi chora-tadbirlar qo‘llay boshladi. 1921 yil 9 martda Farg‘ona viloyat revkomi maxsus qaror chiqarib, 1 apreldan 1 maygacha “taslim bo‘lish oyligi”ni e’lon qildi. Qarorda uqdirilishicha, mazkur bir oy ichida taslim bo‘lgan kishilar ayb va gunohlaridan qat’i nazar, afv etilib, ta’qib etilmasligi kafolatlanar ekan. Bu e’lon bo‘yicha o‘z ixtiyori bilan kelib taslim bo‘lganlar juda ham oz emas edi. Ba’zi qo‘rboshilar esa birmuncha vaqt nafas rostlab olish uchun ham sulk tuza boshladilar. Jumladan, yirik qo‘rboshi Jonibek Qozi aprel oyida sho‘rolar bilan sulk tuzib, to dekabr oyigacha janglarda ishtirot etmay, nafas rostlab yotdi. Dekabr oyida esa yana sho‘rolarga qarshi janglarni boshlab yubordi.

1921 yilning yoz oylarida, manbalarning xabar berishicha, vodiyning barcha hududlarida 270 dan ortiq jang bo‘lib o’tdi. Ularning aksariyati ozodlik jangchilari g‘alabasi bilan yakunlandi.

Shunday qilib, 1921 yil yoz faslida milliy-ozodlik kuchlari sho‘rolarga dahshat va tahdid solib turishda davom etdilar. Ularning matonati va qat’iyati iyun oyi o‘rtalarida Farg‘ona Muvaqqat Hukumati tomonidan e’lon qilingan 14 moddadan iborat Bayonotda ham aks etgan. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

“Sho‘rolar va sho‘ro qurolli kuchlari Farg‘ona hududida harbiy harakatlarini to‘xtatmaguncha va farg‘onaliklarga to‘la hurriyat, istiqlol berishni tan olmaguncha milliy-ozodlik kurashidan voz kechmayajakdir.”

Ko‘p o‘tmay esa Shermuhammadbekning xalqqa aytmoqchi bo‘lgan dil so‘zлari varaqlar vositasida Turkiston bo‘ylab tarqatildi. Chekistlar uni tarjima qilib Moskvaga jo‘natdilar. Biz uning matnini to‘liq keltiramiz:

**“Turkiston o‘lkasi barcha millatlariga!
Turkiston o‘lkasi Musulmon qo‘shinlari
Bosh Qo‘mondoni Shermuhammadbek G’oziyning**

E’lonnomasi:

Ushbu bilan barcha millatlarga e’lon qilarkanman, xudoga shukrki, kundan-kunga kuch-qudratimiz tobora ortib bormoqda, mening barcha qo‘mondonlarim deyarli har kuni Turkistonda yashayotgan va bolshevoylardan bezor bo‘lgan rus va musulmon aholisi o‘z qurollari, kiyim-kechaklari bilan safimizga qabul qilinayotganliklari haqida xabar bermoqdalar. Biz ularni ixtisosligi bo‘yicha lavozimlarga qo‘ymoqdamiz va ularning izzat-ikromini ham joyiga qo‘ymoqdamiz. Ular bolshevoylar yashayotgan joylarda, shaharlarda va boshqa joylarda yetishmovchilik, yoppasiga ocharchilik va tartibsizliklar hukm surayotganini bildirmoqdalar. Biz tomonimizga o‘tgan bu kishilar oziq-ovqat bilan to‘la ta’minlanmoqda va ular o‘zlarining hayot muhitidan qoniqayotganini bildirmoqdalar. Xorijiy ma’lumotlarga qaraganda, chetdagi davlatlar bolshevoylar nima sababdan turkistonliklarga to‘la muxtoriyat bermayotgani holda “Turkistonga allaqachon muxtoriyat berilgan” degan yolg‘on gaplar aytayotganliklaridan g‘azabga kelayotir. Hozirgi vaqtida bu chet el davlatlariga bolshevoylar ablah, yolg‘onchi ekanliklarini hamda ularning kasbi esa har qanday vaqtida ham mehnatkashlarni va aybsiz kambag‘al aholini talash va o‘ldirishdan iboratligi ma’lum bo‘lib qoldi. Shu tufayli bu barcha xorijiy davlatlar kelishib o‘z muhitidan ablah bolshevoylarni uloqtirib tashlashga qaror qildilar va ularni tugatish uchun katta urush ochdilar.

Agarda hozirgi vaqtida bolshevoylar turkistonliklarga to‘la muxtoriyat bersalar, u holda biz, turkistonliklar hech qanday zarar keltirmaymiz. Agardaki, to‘la muxtoriyat bermasalar, u holda biz

yuragimiz va tanamizda oxirgi qonimiz qolguncha Vatan uchun kurashamiz, yakkayu yagona Tangri taolo, Muhammad payg‘ambarimizning shariat yo‘lida qurban bo‘lishga tayyormiz. Dinimiz, Vatanimiz uchun butun qalbimiz va jismimizni qurban berib, to‘la g‘alabaga erishishni Allohdan tilaymiz va unga ibodat qilamiz. Musulmon qo‘shinlari Bosh Qo‘mondoni Shermuhammadbek”.

Yosh sho‘ro hukumati tashkil topgan vaqtidan beri tinimsiz urushlar og‘ushida qolib, hali ko‘pgina ishlar o‘lda-jo‘lda bo‘lsada, axborot xizmati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Farg‘ona frontidagi barcha voqealar—erishilgan g‘alabalar, mag‘lubiyatlar, shu jumladan, Go‘rtep padagi jang tafsilotlari, Shermuhammadbek tomonidan chiqarilgan bayonnomma-yu e’lonnomalar barchasi V.I.Leninining ish stoliga kelib tushdi. Ularni o‘qib, “dohiy” dimog‘idan dud chiqib ketdi. Darhol hukumat va qo‘mondonlikning shoshilinch majlisini chaqirtirdi, Frunzeni ham Qrimdan chaqirib oldi. Qrim va Farg‘ona frontidagi ahvol haqida Kamenev doklad qildi. So‘ngra Lenin so‘z oldi:

— Bu nimasi, o‘rtoqlar? To‘rt yildan beri jang qilamiz-u, kichkinagina bir Farg‘ona degan joyni eplay olmaymiz. Men majlisdan oldin atayin geografiya kitobidan aniqlab oldim: Sovet Rossiysi hududi 20 mln kvadrat chaqirimni tashkil qiladi, Farg‘ona viloyati esa yigirma ming kvadrat chaqirimdan sal oshar ekan. Demak, o‘zimizdan ming barobar kichkina bir ro‘ydan shapaloq yeb turibmiz. Chexovni o‘qiganmisizlar? Baayni uning “Fil va Moska”si. Mixail Vasilevich, qayoqqa qarayabsiz?

— Hammaning nazari qaratilgan joyga, ya’ni Sharqqa qarayapman, Vladimir Illich.

— Sizda humor hissi borligi yaxshi fazilat. Biroq, hozir yumorning o‘rnii emas. Biz sizni Turkistonda tug‘ilgan, u yerning sharoitini, odamlarini, an’ana va urf odatlarini yaxshi biladigan arbob, salohiyatli sarkarda sifatida Turkiston frontini ishonib topshirgan edik. To‘g‘ri, hozir frontga V.Kazarevich qo‘mondonlik qilmoqda. Nima talab qilsangiz berib turibmiz. To‘g‘ri, sizga oson tutmaymiz, biroq Rossiyadagi bir uezddan ham kichik Farg‘onani tinchita olmay, xalqaro obro‘yimiz pasayib ketmoqda. Eshitishimcha, Lloyd Jorj, Uinston Cherchill, Gindenburg, Chemberlin va boshqalar ustimizdan kulib yurgan emish.

— Vladimir Illich, boshdayoq Farg‘onani tinchitish qiyin bo‘lishini aytgan edim. Mana, o‘zingiz urf-odat, an’ana haqida eslatdingiz. Partiya biletimni shafe keltirib aytamanki, farg‘onaliklar mustaqillik, urf-odat va an’analari uchun kurashmoqda. Ular ichida fidoyilari ko‘p ekan. Aleksey Maksimovich Gorkiyning “Izergil kampir” asarini mendan oldin o‘qigansiz. Farg‘onadagi Madaminbekni o‘z yuragini mash‘al qilib gumrohlarga yo‘l ko‘rsatgan, odamlarni zulmatdan ziyoga olib chiqqan Dankoga o‘xshataman. Yorug‘likka chiqqan odamlar Dankoni bosib o‘tib ketishadi. Madaminbek ishining davomchisi Shermuhammad degani yiqilib yotgan Madaminbek qo‘lidan yurakni olib, odamlarni yana olg‘a boshladi. Bundan tashqari, mening bir joyda muhim turib, boshlagan ishlarimni oxiriga yetkazishga qo‘ymayapsizlar. Dam Buxoroni olishga, dam Perokopni ozod qilishga yuborasizlar. Yana juda ko‘p sabab va omillar borki, ko‘pini o‘z vaqtida bayon etganman...

— Mixail Vasilevich, tushunarli, endi sizni Turkistonga yana yuboramiz. Bilib quying, Turkistondagi, Farg‘onadagi g‘alaba Rossiyadagi davlatchilik uchun katta ahamiyatga ega.

1918 yilda ESER ayol Kaplan Leninga suiqasd qilib, uni ikki joyidan yaralagan edi. Keyinchalik qizil askarlar unga xat yozib: “O‘rtoq Lenin, Simbirskning ozod qilinishi bиринчи ярагизга малим бо‘лган бо‘ла, Самаранинг олиниши иккинчи ярагизга малим”, — degan edilar. Biroq, Farg‘onadan kelgan noxush xabarlar bitay deb qolgan yaralarni yana ochib yubordi. Majlis tugamasdanoq uning ahvoli yomonlashib, vrachlar majlisni to‘xtatishga majbur bo‘ldilar...

Farg‘onada esa shiddatli janglar davom etar, ozodlik kurashchilari sho‘rolarga dahshat va tahdid solib turardilar. 1921 yil 11 avgust kuni Turkiston kommunistik partiyasining 6-plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenumda faqat bitta masala — “Bosmachilik muammosi” muhokama etildi. Plenum qaroriga ko‘ra “bosmachilik” harakati liderlari bilan sulh muzokaralarini boshlab yuborish maqbul deb topildi.

Ko‘p o‘tmay, 21—23 avgust kunlari Turkiston sovetlarining navbatdan tashqari 10-s’ezdi bo‘lib

o‘tdi. “O’zbekistonning yangi tarixi” kitobida yozilishicha:

“Nihoyat, 1921 yil avgust oyida bo‘lgan Turkiston Sovetlarining 10-s’ezdiga Farg‘ona istiqlolchilari diniy, xo‘jalik va siyosiy masalalarga oid qator shartlar bilan yana bir bor murojaat qildilar. Ular shariatga yo‘l berish, masjid, madrasa va maktablarni ochib qo‘yish, qozilar mahkamasini tiklash, vaqf yerlarni qaytarish, bozorlarga, dehqonchilik xo‘jaligi va humarmandchilik korxonalariga erk berish hamda qo‘rboshi guruhlarini qizil armiya safiga qabul qilish kabi shartlarni qo‘ygan edilar...”

Biroq s’ezd bu shartlarni qabul qilmadi, o‘z faoliyatida Turkkomissiya va Turkfront Harbiy – Inqilobi kengashining 1921 yil 14 avgustda bo‘lib o‘tgan qo‘shma yig‘ilishi qabul qilgan quyidagi qarorga asoslandi:

1. Bosmachilarni har bir qo‘rboshisi bilan alohida olib boriladigan muzokaralardan siyosiy maqsadda foydalanish, har bir bosmachi otryadi vakillari bilan muzokara o‘tkazishga intilish.

2. Bosmachilar bilan tuziladigan sulh va ularning 6000 kishidan iborat otryadlarini biz tomonga o‘tishga ularni faqat to‘liq qurotsizlantirish asosidagina yo‘l qo‘yilsin, toki biz tomonga o‘tgan qo‘rboshilar o‘zlarini bilan oz sonli qo‘riqchilar olib qolish imkoniyatidan mahrum bo‘lmasisin.

3. Muzokaralarga rahbarlik qilish, zarurat tug‘ilib qolgan taqdirda esa muzokaralarni olib borish uchun Turkkomissiyadan To‘raqulovni va front R.V.S a‘zosi Baranovni Farg‘onaga safarbar etilsin.

4. Turkrespublika Sovetining 10-s’ezdiga, Farg‘onaning barcha bosmachilariga sovet hokimiyyati bilan kurashni to‘xtatganlarga va qurolini tashlaganlarning barchasiga afvi umumiy berish va’dasi bilan kurashni to‘xtatish haqida murojaat etish taklif qilinsin.

S’ezd ushbu ko‘rsatma asosida qaror qabul qildi. Ertasi kuniyoq sulh tuzish imkoniyatlarini o‘rganish, muzokaralar o‘tkazish, vositachilar topish hamda sulh bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalarni hal etish uchun Turkiston Kompartiyasi, Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi, Turkfront, Favqulodda komissiya (Cheka) ning bir guruh rahbar va xodimlari Toshkentdan Farg‘onaga jo‘nab ketdilar.

TUZILGAN SULH

1921 yil avgust oyining o‘rtalari. Farg‘onaning yirik, ma’rifatparvar boylaridan bo‘lmish asli marg‘ilonlik Saidumarxo‘ja Fayzixo‘jaevning Iskobildagi hashamatli hovlisiga nufuzli mehmonlar: RSFSR Tashqi Ishlar Xalq komissari Checherinning o‘rinbosari Rudolf Abramovich Ioffe, Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Abdulla Rahimboev, Turkkomissiya a‘zosi Nazir To‘raqulov va Turkfront qo‘shinlari Farg‘ona guruhi qo‘mondoni Georgiy Vasilevich Zinovev kirib keldilar. Mehmonlarning tashrifi kelishilganligi tufayli mezbon ularni ko‘cha eshik tagida kutib olib, ovrupocha bezatilgan mehmonxonaga boshlab kirdi. Ovrupocha tayyorlangan tushlik asnosи mehmonlar maqsadlarini bayon etdilar. Suhbat ikki nafar rusiyabon mehmon hurmati rus tilida davom etgan bo‘lsada, biz uning o‘zbekcha qisqartirilgan matnnini berishni ma’qul ko‘rdik:

“ — Siz nafaqat Farg‘onaning, balki Turkistonning ko‘zga ko‘ringan odamlaridan birisiz, — deya asosiy mavzuga o‘tdi. A.Rahimboev, — Farg‘onada o‘zingizga yarasha salmog‘ingiz bor. Shu tufayli sizga marojaat qilishni ma’qul ko‘rdik. Xalq sizning so‘zingizni ikki qilmaydi. Xalqning ahvolini ko‘rib turibsiz, oxiri ko‘rinmayotgan urushda qiynalib ketdi. Zudlik bilan tinchlik o‘rnatish zarur, eshitishimizcha, qo‘rboshilar ham sizni hurmat qilishar ekan. Iltimosimiz shuki, Shermuhammad bilan bizning o‘rtamizda vositachilik qilsangiz. Darvoqe, Madaminbek bilan sulh tuzilishida ham ishtirokingiz bor ekan. Demak, sizda parlamentarlik tajribasi ham bor.

— Xalq osoyishtaligi yo‘lida har qanday xizmat bo‘lsa qilishga tayyorman. Biroq muzokaralardan biror natija chiqishiga shubham bor.

— Nima uchun?

— Meni to‘g‘ri tushunishingizni so‘rayman. Shermuhammadbek bilan uchrashuv har qancha xavfli

bo‘lsada, bu xizmatdan bosh tortmayman. Gap shundaki, Shermuhammadbek qo‘yadigan shartlar sizlarga, sizlar qo‘yadigan shartlar qo‘rboshiga ma’qul kelmasligiga aqlim yetib turibdi.

— Sizni mohir diplomat sifatida ta’riflashgan edi, — deya so‘zga aralashdi Ioffe, — sizning yordamingiz bilan balki bir bitimga kelarmiz. Bilasizku, muzokaralar chog‘ida har ikki tomon g‘ururiga erk bermay, o‘zi uchun aziz bo‘lgan nimadandir kecha olsa, o‘zi uchun yot, yoqimsiz narsani qabul qila olsa, o‘zaro yon berish qoidasiga amal qilsa, bitim tuzish mumkin.

— Mayli, Shermuhammadbek bilan uchrashuvga roziman. Xo‘sh, muzokaralar tinch o‘tishiga, Shermuhammadbek va uning odamlariga tahdid yo‘qligiga kafolat bormi?

— Kafolat bor, — dedi Zinovev, — muzokaralar boshlanishi bilan urush harakatlari to‘xtatildi.

— Kafolatga kafolatingiz?

— Kafolatim — ofitserlik sha’nim.

— Ma’qul, — dedi Saidumarxo‘ja va o‘rtaga savol tashladi, — mabodo Shermuhammadbek uchrashuvga rozi bo‘lsa, muzokaralar o‘tkaziladigan makon va zamon qay tariqa belgilanadi?

— Buni Shermatbekning ixtiyoriga beramiz, o‘zi belgilab, bizga xabarini berar, — deya hamma uchun javob berdi Ioffe.

— Yaxshi, men bilan kimlar boradi?

— Bu endi sizning ixtiyoriningizda.

— Unday bo‘lsa, ertagayoq G’orbuvoga jo‘naymiz.

— Shermatbek balanddan kelib, og‘ir shartlar qo‘yadigan bo‘lsa, — deya gap suqdi Zinovev, — unga aytib qo‘ying, Farg‘onaga sulh hay’ati bilan birga qirq ming qizil askar ham kelgan.

— Meni vositachilikka yuboryapsizlarmi yoki ultimatum berishgami?

— Siz ko‘nglingizga olmang taqsir, — deya vaziyatni yumshatishga harakat qildi Ioffe, — harbiy kishi harbiyligiga borar ekanda. Siz, albatta vositachilikka bormoqdasiz. Hech qanday ultimatum qo‘ymaysiz. Mabodo Shermatbek sizni o‘ziga yaqin olib, “bu xumpar qizillarning qo‘shini hozir qanchaga borib qoldi?” deb gap orasida so‘rab qolsa, “Bu yerdagi muntazam” qo‘shinga qo‘shimcha yana qirq ming askar olib kelishgan emish”, deb qo‘ysangiz kifoya...”

Saidumarxo‘ja shu kuniyoq o‘z odamlaridan birini G’orbuvoga yuborib, Shermuhammadbekka vositachilar borishini ma’lum qilib qo‘ydi. Shundan so‘ng Saidumarxo‘ja o‘zi bilan vositachilikka borishi mumkin bo‘lgan kishilar to‘plashga kirishdi. Ertasi kuni ular sulh hay’ati joylashgan sobiq gubernator mahkamasiga borishdi. Ularga Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi muhri bosilgan, Rahimboev va Zinovev imzosi qo‘yilgan hamda “parlamenti” degan yozuv bitilgan mandat berishdi.

Shermuhammadbek parlamenti orlarni hurmat bilan kutib oldi, zero, ularning barchasi unga tanish, el-yurtda obro‘-e’tibor orttirgan kishilar edi. Ziyofat asnosи Saidumarxo‘ja bu yerga kelishdan maqsadini bayon qildi. Shermuhammadbek bir oz sukut saqlab turgach, so‘radi:

— Taqsir, siz mening fe'l-atvorimni, o‘y-xayolimni, qizillar bilan bir qozonda qaynay olmasligimni yaxshi bilasiz. Sizni vositachi bo‘lishingizga nima majbur qildi? Yoki sizga zug‘um qilishdimi?

— Zug‘um-ku, qilishgani yo‘q. Agar zug‘um qilganlarida meni bu dargohga hech qanday kuch majbur qilib olib kela olmas edi. Meni bu yerga kelib, vositachilik qilishga xalqning ahvoli, daryo-daryo to‘kilayotgan qonlar, urush oqibatida yetim va beva qolganlarning zor qaqqashni, bir vaqtlar gullab-yashnagan Farg‘onamizning vayron bo‘lib, boyqushlar makoniga aylanayotgani majbur qildi. Axir, har qanday odamning yuragi eziladi...

— Sizda-ku, yurak hali bor ekan, taqsir, mening yuragim esa bu g‘amlardan ezilish nariroqda tursin, qon va zardobga aylanib oqib ketib bo‘lgan. Ko‘nglingizga olmang-u taqsir, bir gapni aytmasam bo‘lmas, mana, siz xalqning ahvolini eslatib, “urushni to‘xtat” deb huzurimga kelibsiz, sizdan oldin ham ozmuncha vositachilar kelmagan. Xo‘sh, aytingchi, o‘risning oldiga ham shu maqsadda “hoy, o‘ris buvo, xalq ezilib ketdi, urushni to‘xtat”, deb birovning borganini biladilarmi?!

Saidumarxo‘ja bu og‘ir savolga nima deb javob berishni bilmay, yerga qaraganicha qoldi.

— Uzr savolim achchiq keldi, — deya davom etdirdi so‘zini Shermuhammadbek, — biroq bu savol

qachondir, kimgadir berilishi kerak edi. Mayli, bu masalani bir chekkaga qo‘yib turaylik, illo, bu savolga javob topish mushkul ekanligiga o‘zimning ham aqlim yetib qolgan. Gapning indalloisiga kelsak, men ham xalqning qiyonalib ketganini ko‘rib ezilaman, sulk tuzish fikri ahyon-ahyonda shuurimga keladi. Biroq, sulk tuzilsa shuncha to‘kilgan qonlar, berilgan qurbanlar, urushga sarflangan vaqt behuda ketishidan qo‘rqaman. Illo, bolshovoylarga ishonch yo‘q. Ular so‘zida turmaydi, muzokaralar boshlanishida shartlarimizni qabul qilgan taqdirlarida ham, sulhga imzo chekilgach, barcha shartlarni puchga chiqaradilar. Mana, uzoqqa bormay, Madaminbek rahmatlining taqdirini eslaylik. Men uni ogohlantirgan edim, “bolshovoya ishonmang” degan edim. Oxiri nima bo‘ldi? Madaminbekning shartlarini qabul qilib sulh tuzdilar. Bitimga imzo chekilib, uning yigitlari qizil armiyaga qabul qilingach, bitimni bekor qildilar, o‘zini esa o‘ldirib yuborib, Xolxo‘ja Eshon ikkalamizga to‘nkadilar. Men ham sulk tuzsam, meni ham bir amallab yo‘qotib, yana boshqa bir qo‘rboshiga to‘nkaydilar. Men o‘lib ketishdan qo‘rqlayman, balki, sulhdan so‘ng Turkistonimiz, Farg‘onamiz yana o‘ris-bolshovoylarga quilligacha qolib ketishidan qo‘rqaman.

— Gaplarniz jo‘yali, bek. Men ham bu dargohga kelishdan oldin ko‘p o‘yladim, siz aytgan gaplar badanimga dard bo‘lib keldi. Yana boshqa narsalar ham keldi: men zamonaning savodli bir kishisi sifatida gazet o‘qiyan, jahonda bo‘layotgan voqealarga nazar solib, tahlil qilib boraman. Moskovda, Ovruponing bir qancha shaharlarida gumashtalarim va do‘sralrim bor. Ular ham u yerlardagi ahvolni menga yetkazib turishadi. Hozirgi paytda Rusyaning jahon maydonidagi ahvoli ancha yengillab qoldi. G‘arbiy chegaradagi frontlar tugatilib, chegara barqaror bo‘ldi. Ovrupo mamlakatlarining Polsha orqali qilgan katta hujumi ham qaytarildi. Frunze Qrimni olgach, Rusiyaga qarshi turgan eng katta kuchlardan biri — Vrangel ham chet elga chiqib ketdi. Qisqasi, Rusiya qo‘lini g‘arbdan bo‘shatib oldi. Endi u o‘zining barcha kuchini Turkistonga tashlashga qurbi yetadi. Sizning, yigitlaringizning qahramonligingiz, oxirgi tomchi qon qolguncha kurashga tayyor ekanligingizga shubham yo‘q. Ammo, Rusiya bir kun kelib barcha kuchini bu yerga tashlasa, har qanday jasorat, qahramonlik, fidoyilik bilan ham bir necha o‘n barobar katta kuchga bas kelish qiyin. Ana unda oxirgi tomchi qon ham to‘kilib bo‘ladi, ushbu oxirgi tomchi esa xalqimiz kelajagi uchun kerak. Bundan tashqari, “albatta sulh tuzing” deb masalani ko‘ndalang qo‘ygani kelganim yo‘q, bunga haqqim ham yo‘q. Sulh masalasida bolshavoylar bilan bir gaplashib ko‘rishni taklif etib keldim. Sizdan nima ketadi? Gaplashib ko‘ravering, u yog‘i ixtiyorингиз.

— Mayli, taqsir, o‘zi ko‘ngilda yo‘q edi-yu sizning va siz bilan kelgan muhtaram zotlar hurmati, bir gaplashib ko‘ray, u yog‘iga xudo poshsho. Xo‘sh, qachon, qaerda, kimga uchrashimiz kerak?

— Bu borada inon-ixtiyor sizga berilgan. Bir fikrga kelib, vakil jo‘natib, bildirib qo‘ysangiz bo‘ldi. Mutasaddilar gubir (gubernator) ning qarorgohida bo‘lishadi...

Ertasi kuni Shermuhammadbek Aliyor Qo‘rboshi va Nurmuhhammadbekni Iskobilga yubordi. Ularga,— muzokara olib borishga rozi ekanligimizni bildirib, uchrashuv xolis joyda, Marg‘ilon va Yozyovon o‘rtasidagi Arabmozor qishlog‘i chetida o‘tishini bildiringlar. Uchrashuv vaqtini, mayli, ular belgilay qolishsin,— deb tayinladi.

Xullas, uchrashuv har ikki tomonning roziligi bilan Shermuhammadbek aytgan joyda 1921 yil 25 avgustda o‘tkaziladigan bo‘ldi. Taassufki, bu muhim voqeа sanasi borasida ham manbalarda ixtilof bor: Turkfront siyosiy bo‘limi nashri bo‘lmish “Krasnoarmeyskaya gazeta” ning 1921 yil 11 sentyabr sonida, muzokaralarning birinchi bosqichi 10 avgustda, Gorchakova va Vannovsk (Oltiariq – M.X.) temir yo‘l bekatlari oralig‘idagi G‘ayzovar (Fayziobod bo‘lsa kerak – M.X.) qishlog‘ida, ikkinchi bosqichi esa 22 avgustda o‘tkazilganligi yoziladi. R.Shamsutdinovning maqolasida “avgust oyi oxirlarida” deb yoziladi-yu, aniq sanasi ko‘rsatilmaydi. Boymirza Hayitda ham xuddi shunday. Ali Bodomchi ham aniq vaqtini yozmaydi. Farg‘ona viloyat soveti nashri bo‘lmish “Krasnaya Fergana” gazetasining 2 sentyabr sonida esa, muzokaralar 20 avgustda boshlanganligi yoziladi. Bir qancha urush qatnashchilarining xotiralarida muzokaralar 25 avgustda bo‘lib o‘tganligi eslanadi. Biz shu faktga suyandik.

Nihoyat, belgilangan joy va muddatda muzokaralar boshlandi. Muzokaralarda sho‘ro tomonidan Zinovev (sulh hay’ati raisi), Abdulla Rahimboev, Nazir To‘raqulov, A.A.Ioffe, Berezin, Abram Slutskiy hamda 21 nafar harbiy mutaxassisdan iborat maslahatchilar hay’ati; ozodlik kuchlari tomonidan esa Shermuhammadbek (rais), Aliyor Qo‘rboshi, Nurmuhhammadbek, Yusuf Polvon, Bozorboybek, Mulla Po‘latbek va Asqar Qo‘rboshilar (har ikki tomonning qo‘riqchilari va vositachilarini istifoda etganda) ishtirok etadilar.

Muzokaraning asl deklaratsiyasini, juda ko‘p arxivlardan surishtirib, qidirib, topishga muvofiq bo‘lomadi. Boshqa manba va adabiyotlarda esa tafovutga, xilma-xillikka duch keldik. Doktor Boymirza Hayitning yozishicha, Shermuhammadbek sho‘ro sulh hay’ati oldiga quyidagi shartlarni qo‘ygan:

“Orol dengizi va Orenburg orasidagi temir yo‘l bekatlarini qo‘riqlovchi qo‘shindan tashqari barcha sovet-rus qo‘shinlarini Turkistondan olib chiqib ketish; Turkiston uchun to‘liq o‘z-o‘zini boshqarish huquqi, shariat qonunlarini saqlab qolish huquqini berish; xalqqa ulardan tortib olingan mol-mulkni to‘liq qaytarish. Agarda rus hukumati ushbu talabni qabul qilsa, qurol-yarog‘larning ellik foizini saqlab qolish sharti bilan ozodlik kurashi qo‘shinlari tinchlik o‘rnatishga rozi.”

“Zinovev delegatsiyasi, — deya yakunlaydi Boymirza Hayit bu mavzudagi so‘zini, — bu talablarni qabul qiladigan holatda emas edi. U Turkiston fronti qo‘mondoni va RKP MK ning Turkiston byurosiga muvaffaqiyatsiz yakunlangan sulh muzokaralar haqida xabar berdi”.

Sho‘rolar tomonidan qo‘yilgan shart esa qisqagina edi:

1. Bosmachilar otryadlari, qo‘rboshilar va ularning oz miqdordagi qo‘riqchilarini istisno qilganda, to‘liq qurolsizlanriladi.

2. Qurolini topshirganlarga afvi umumiyl e’lon qilinadi.

Shuningdek, Zinovev sulh muzokaralari boshlanishi munosabati bilan sho‘rolar tomonidan 1 sentyabrgacha urush harakatlari to‘xtatilganligini, qo‘rboshilar ham bunga amal qilib, urush harakatlarini to‘xtatib turishlari lozimligini eslatib o‘tdi.

Sakkiz soat davom etgan muzokaralar keskin ruhda o‘tdi. Har ikki tomondan qo‘yilgan shartlarni har bir bobbi, har bir jumlesi qattiq tortishuvlarga sabab bo‘ldi. Keling, bu tortishuvlarni sovet matbuoti qay tarzda yoritganini ko‘rib chiqaylik “Krasnaya Fergana” gazetasining mazkur muzokarada ishtirok etgan xodimi “Vorin”, “Mira i xleba (k likvidatsii basmachevta)” — “Sulh va non (bosmachilikning tugatilishiga oid)” sarlavhali maqolasida mavzuni shunday yoritadi:

“... Albatta, oqlar, ya’ni bosmachilar nomidan ularning mafkurachisi – burjua so‘zga chiqib, bizdan madaniy-milliy muxtoriyat, din, shariat, urf-odatlar, an’analar daxlsizligini, joriy turmush tarzini o‘zgartirmaslikni talab qildi.

Xo‘sh, nima gap o‘zi? Biz rozimiz uning ustiga, bu talablarni asta-sekin hayotga tatbiq etib bormoqdamiz, siz, janob bosmachilar, bunga xalaqit bermoqdasiz! Ma’lum bo‘lishicha, madaniy-milliy muxtoriyat deganda (ular keyin bizga tushuntirib berishlariga ko‘ra): xususiy mulkchilikning tan olish, uni qaytarish va daxlsizligini ta’minalash; eski sudlarni qayta tiklash va umumiyl majburiy ta’limni bekor qilish hamda fuqarolik maktablarini deyarli bekor qilishni tushunish kerak emish. O’rtoq To‘raqulov Qur’ondan har bir kishiga alohida e’tiqod erkinligi mavjudligi haqida parchalar o‘qib berdi va “biz dehqonlar, kosiblar, mayda va o‘rtalara darajalilarga” deb to‘g‘ri javob berdi.

Aksincha, biz ularning manfaati sari bormoqdamiz. Axir biz yirik, kapitalistik mulk—banklar, zavodlar va hokazolarni musodara qildik-ku. Ularni – o‘zlarining sobiq xo‘jayinlarini himoya qilish mahalliy aholi vakili uchun yarashmagan ish. Aftidan, yuqoridaq boy nafaqat o‘zini, balki chet el, mustamlakachi kapitalni himoya qilib chiqdi. Biz uchun shunisi aniqki, aholi (mehnatlashlar) o‘zining asrlar mobaynida shakllanib kelgan urf-odatlaridan darhol voz kecha olmaydi va bizning ko‘pgina sohada yon berishimizga to‘g‘ri keladi. Bir marta qalam yuritish bilan eski sudlarni, agar aholi uning qarib-qaqshab qolganligini hamon tushunib yetmagan bo‘lsa, yo‘qotib bo‘lmaydi. Tushunib yetsa, uni o‘zi yo‘q qiladi.” Shuningdek aynan shu yo‘l bilan cherkovlarni (masjidlarni demoqchi) vaqf mulki

bilan ta’minlab kelishday ustuvor bo‘lib qolgan odatni bekor qilish mumkin emas, illo, vaqflarning bekor qilinishini aholi hozirgacha ma’qullamay turibdi. Bu yo‘nalishlarda ham biz yon berishimiz kerak.

Kim qozixonada sudlashishni xohlasa, mayli, u yerda sudlashaversin.

Kim ishtonsiz holda yurishni istasa, mayli, ishtonsiz yuraversin (O‘r. To‘raqulov aynan shunday gapirdi).

Bunday bachkana, betamiz masalalar, gaplar, tabiatan jangari bo‘lgan Ko‘rshermatga yoqmay qoldi. Chet kishilarning, bu o‘rinda u ruhoniylarni nazarda tutdi, chiqib turishlarini so‘rab, u masalani harbiy izga soldi.

Turkiston uni bosib olmoqchi bo‘lgan dushmanlar bilan o‘rab olinganligini ta’kidlab, bosmachilar o‘zlariga qurol-yarog‘ kerak degan xulosaga keldilar va bizni xalqqa qurol bermayotganligimizda, xalqdan qurolni ayayotganimizda aybladilar. Biz qurolni emas, xalqni ayaymiz deb tushuntirdi o‘r. To‘raqulov. Aholi urushni xohlamaydi, qurollanishni istamaydi. U sog‘-salomat, kuchli bo‘lish va zarur paytda har qanday qurol bilan qurollanib, hujum qilayotgan dushmanga tashkiliy sur’atda zarba berish uchun sulu (tinchlik) va non xohlaydi. “Xohlagan dehqonimizdan, xohlagan yigitningizdan so‘rab ko‘ring, ular buni tasdiqlaydilar” deb ta’kidladi o‘r. To‘raqulov.

Bizga, qo‘rboshining ma’lum qilishicha, 7 sentyabrda bo‘lib o‘tadigan qo‘rboshilar s‘ezdidan so‘ng beriladigan uzil-kesil javob muhim emas, balki, bo‘lib o‘tgan muzokaralar muhimroqdir...”

Muzokaralar oxirini Ali Bodomchi Shermuhammadbek xotiralari asosida quyidagicha bayon etadi:

— Sizga shakarni falon puldan sotamiz, siz esa paxtani o‘shancha pulga berasiz.

— Bozorda emasmiz, jiddiy gaplashaylik. Biz istiqlol talab qilyapmiz, — dedi Shermuhammadbek.

— Siz dehqonchilik bilan shug‘ullaning, siyosat sizning qo‘lingizdan kelmaydi, — dedi Zinovev.

— Shuni bilib qo‘yingki, janob Zinovev, sizga o‘xshagan kaltabinlar bilan Vatan taqdirini hal qilish uchun qimmatli vaqtimni sarflab yuribman-a. Sadqai vaqt ketsin. Shu aytgan gaplaringiz uchun boshingizni sapchaday uzib tashlardim-u, muzokaralarda o‘tiribmanda...

Shermuhammadbekning vujudi g‘azabdan qaltirab, qilichini qinidan sug‘urishiga sal qoldi.

Rangi bo‘zarib ketgan Zinovev;

— Men kechirim so‘rayman, men aybdorman. Uzr, uzr Shermuhammadbek, — deya o‘rnidan turishga harakat qildi-yu gandiraklab ketdi. Yonida hozir turgan ordinaries (xos qo‘riqchi) grafindan suv quyib, yonidan dori chiqarib, boshlig‘iga ichirdi va hay‘at a‘zolariga murojat qilib, qo‘mondoni bir oz holi qo‘yishni iltimos qildi.

Bir oz fursat o‘tgach, muzokaralar davom ettirildi. Shermuhammadbek yana qizishib ketdi:

— Siyosat bizning ota kasbimiz. Biz vatanni ximoya qilyapmiz. Biz Sohibqiron Amir Temur, Navoiy avlodlarimiz. Ular faqat dehqonchilik bilan shug‘ullanmaganlar. Bizning bobokalonlarimiz umrboqiy koshonalar yaratganda, masjid-u madrasalar, rabotu karvonsaroylar bunyod etganda, saxtiyon charmdan poyabzal kiygan, osmondag‘i yulduzlar hisobini olgan paytlarda sizning ajdodlaringiz chiptada kavush kiyib yurganlari esingizdan chiqdimi? Amur Temur mo‘g‘ullar zulmidan senlarni ozod etganini unutdingmi? Temur lashkari Moskovdan o‘tib ketayotganida knyazlaringiz ayol kiyimida boshlariga ro‘mol o‘rab berkinib yotganini bilmagan janob bilan muzokara o‘tkazib yuribman-a, afsus.

— Kechirim so‘radimku, bek, adashibman, — deya qaltiroq ovoz bilan uning so‘zini bo‘ldi Zinovev. Va davom etdi “ — Temurni gapirmang, u bosqinchiku”. Rus qo‘mondoni bo‘la turib bilmas ekansan. Oltin O‘rdani tiz cho‘ktirib, o‘nglanmaydigan holatda tor-mor qilib, knyazlaringizni ozod etib, Urusiya mamlakati poydevorini qo‘yishga sababchi Amir Temur ekanligini bilmagan janob bilan muzokara o‘tkazib yuribman-a, afsus.

Shermuhammadbek sheriklariga ketish ishorasini qilib, shavkatli odimlari bilan chiqib ketishdi. Rangi hamon bo‘zday oqargan Zinovev tashqariga otilib chiqib, o‘zbekchalab:

— Bek, yakka o‘zingiz bilan gaplashish mumkinmi? Bir daqiqaga, — deya iltimos qildi.

Shermuhammadbek o‘z odamlarini tashqarida qoldirib, qaytib kirdi. O‘zini o‘ng‘arolmay yo‘qotib qo‘ygan Zinovev dedi:

— Sizlar o‘zi nimani xohlaysizlar:

— Nima, hali ham tushunmadingizmi?

— Hurriyat, istiqlol uchun kamida bir million qurollangan, harbiy ta’lim ko‘rgan yigit kerak bo‘ladi, Bek. Sizda shuncha kuch bormi? Bundan tashqari, o‘zlarining ichingizda sizday vatanparvarlar barmoq bilan sanarli-ku. Sizni istaklariningizni hukumatimiz qabul qilgani bilan, o‘zlarining ichingizda sizga qarshilar ko‘p-ku.

— Gapingiz noto‘g‘ri. Bizning xalqimiz ichida siz aytgan murtadlar ko‘p emas, siz aytgancha barmoq bilan sanarli. Askarlarga kelsak, yigitlarimiz adadini ikki millionga ham yetkaza olamiz. Turkistonda bizlar o‘n besh millionmiz!

Shermuhammadbek shunday deganicha Zinovev bilan yakkama-yakka muzokarani tark etib, hay’ati bilan qarorgohiga qaytib ketdi.

Muzokaralar shu ruhda keskin yakun topgan bo‘lsada, har holda, uzil-kesil javob qo‘rboshilar qurultoyidan keyin berilishi ma’lum qilib qo‘yildi.

Zinovev Shermuhammadbek ortidan qarab qolarkan, shunday jasur, mard, diplomatiya sohasida ham mohir qo‘mondon qaysi qozonda pishganiga aqli yetmay, qalтиrog‘ini bosishga ojiz edi.

— O’rtoq qo‘mondon, bir oz dam oling, issiq choy tayyorladik, — deya ordinarets uni qo‘ltig‘idan olib, o‘rindiqqa o‘tkazdi...”

O’sha davrdagi matbuot xabarlariga ko‘ra, qo‘rboshilar qurultoyidan so‘ng.

Shermuhamadbek sho‘ro qo‘mondonligini sulh tuzish haqidagi taklifiga uzil-kesil rad javobini yuborgan. Yana sovet adabiyotlariga murojaat qilamiz:

“Keyingi kunlarda bosmachilar bilan bo‘lgan uzoq davom etayotgan, toliqtiruvchi kurashda, Farg‘onaning qishloq aholisi, shaharlarda istiqomat qiluvchilar va qizil armiyaning – barchaning joniga tekkan kurashda keskin burilish ko‘zda tutilgan edi. “Musulmon armiyasi bosh qo‘mondoni Ko‘rshermat” boshchiligidagi bosmachilar qo‘rboshilarini bizning qo‘mondonligimiz bilan qurolli kurashni to‘xtatish shartlari haqida muzokaralar olib bordilar. Tinchlikka sidqidil intilish holatidan ruhlangan sovet hokimiysi qo‘rboshilarining tayanchiga zarba bera o‘laroq, qator iqtisodiy masalalarda yon berish yo‘lini tutdi. Bizning vakillarimiz musulmon qonuni-shariat bo‘yicha sulni qarshiliksiz tan oldilar va shu kabi boshqa masalalarda yon berdilar. Illo, ular, Farg‘onada tinchlik o‘rnatilgach, qishloqlarda haqiqiy Sovet qurilishini amalga oshirishga imkon topilgach, mahalliy o‘zbeklarning ko‘z oldini qoplab olgan diniy tuman asta-sekin tarqalib ketadi va Soviet tuzumining foydali tomonlari o‘z-o‘zidan tushunarli bo‘lib qolishini bilar edilar. Bizning vakillarimiz uchun eng muhimi – cho‘zilib ketgan qattol urushga barham berish edi.

Bosmachilar qo‘rboshilariga esa, ko‘rinib turibdiki, butunlay boshqa narsalar kerak ekan; ular bizning oldimizga eng muhimi — qurolni topshirishga rozi bo‘lmaslik kabi bajarib bo‘lmaydigan shartlarni qo‘yib, qizil armiyaga hal qiluvchi zarba berish uchun o‘z qo‘shinlarini tartibga keltira boshladilar.

Bizning qo‘mondonligimiz buni oldindan bilib, Ko‘rshermatdan uzil-kesil qurolsizlanishni talab etdi, u bu talabni rad qildi; shundan so‘ng bosmachilarning bizga hujum qilishi rejasini amalga oshishining oldini olish uchun qizil armiya 12 sentyabrdan 13 sentyabrga o‘tar kechasi Ko‘rshermat qo‘shiniga qarshi operatsiyalarni boshlab yubordi...”

Zinovevning sulh muzokaralari natijasiz tugaganligi haqidagi hisoboti V.I.Leninga ham yetib bordi. Lenin o‘sha paytda Toshkentda bo‘lgan, sulh muzokaralarida ishtirok etgan R.A.Ioffega xat yozib, bosmachilik bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatni yashirmay, do‘stlik hurmati, haqiqiy ahvolni yozib yuborishni hamda qo‘rboshi Shermuhammad to‘g‘risida batafsilroq ma’lumot berishni so‘radi.

Muzokaralar natijalari RKP (b) MK Turkiston byurosi, Turkfront qo‘mondonligi va hukumatning qo‘shma majlisida muhokama etilib, mujohidlarga yon bermaslik, keskin choralar ko‘rishga qaror

qilindi. Vodiya yana qo‘shimcha kuch tashlandi. 14 sentyabr kuni Qizil armiyaning vodiyyadagi nufuzi 90 ming kishidan oshib ketgan edi. Qizil armiya qismlariga janglar oldidan berilgan buyruq qisqa va keskin edi: dushman taslim bo‘lmas ekan, yo‘q qilinishi kerak!

Shunday qilib, 1921 yil 13 sentyabrdan e’tiboran Qizil armiya keng frontda, ya’ni, vodiy bo‘ylab shiddatli hujumga o‘tdi. Milliy-ozodlik kurashining g‘oyaviy rahbarlari taslim bo‘lgan qo‘rboshilar bilan uchrashib, ularni haq yo‘lga qaytishga da’vat etdilar. Qizillar qo‘lida jang olib borayotgan deyarli barcha qo‘rboshilar otlarining boshini orqaga burib, ozodlik jangchilari safidan joy oldilar. Faqat Jonibek Qozigina sulhni buzmadi.

Farg‘ona frontining sobiq qo‘mondoni Safonov ketma-ket muvaffaqiyatsizliklarga uchragani tufayli vazifasidan chetlashtirilib, Toshkentga, shtab ishiga chaqirib olingan edi. Qo‘mondonlik keyinchalik unga o‘zini oqlash uchun imkoniyat berib, kattagina harbiy qo‘shilmaga qo‘mondonlikka tayinlab, Shermuhammadbekka qarshi tashladi. Unga Shermuhammadbekni asir olish, buning imkonni bo‘lmasa, jisman yo‘q qilish, G’orbuvoni egallab, yakson etish vazifasi ham yuklatildi. Safonov o‘z qo‘shilmasini Andijonda shakllantirib, Shermuhammadbekning Oloyga chekinishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun G’orbuvoga Mingtepa va Chimyon orqali janubiy yo‘nalish bo‘ylab yo‘l oldi. Shermuhammadbek o‘z kuchlarini qayta shakllantirib, Safonovning yo‘lini Mingtepada qisib chiqdi. Oy oxirida Shermuhammadbek tartibli ravishda Chimyon tomon chekindi. Juda katta qurol-yarog‘ zaxirasiga ega bo‘lgan Safonov barcha qurollarni, xususan, dala to‘plari, minomyotlar va avtomat pulemyotlarni ishga soldi. Shermuhammadbek yigitlari talafot ko‘rsada, sabot bilan jangni davom etdirdilar. Bu jang haqida Zaki Validiy “Bugungi Turkiston” asarida shunday yozadi: “... Partizan janglarida esa bitta mujohidga qarshi 50 ta miltiqdan o‘q uzilar edi. 23 sentyabrga kelib, janglar natijalari qo‘rboshilar ahvolining juda yomonligini ko‘rsatar edi. Buning ustiga, shu yil boshidan beri davom etayotgan ochlik yigitlarni holdan toydirdi. Baxtga qarshi ochlik bolsheviklarga qo‘l keldi, chunki och qolgan odam borki, qizillarga askar bo‘lib yozilar, qorinni to‘ydirish uchun jabhada o‘z birodarlariga qarshi urushardi.”

Shermuhammadbek vaziyatni bir oz bo‘lsada o‘zgartirish maqsadida yangi-yangi taktik choralar ko‘rardi. Lashkarlarini kichik qismlarga bo‘lib, partizanlik jangiga o‘tdi. Yigirma kun davom etgan partizanlik janglarida ikki yuz ellikka yaqin yigit shahid bo‘ldi.

Safonov G’orbuvoni olgach, u yerda va atrofdagi harbiy istehkomlar, xandaqlarni buzdirib tashlab, 10 oktyabrdagi Yangi Marg‘ilon (Iskobilga) ga qaytib ketadi. Shermuhammadbek esa yigitlari bilan vodiyning sharq tomoniga chekinadi, qarorgohini vaqtincha Baliqchiga ko‘chiradi. 1921 yil 12 oktyabrdagi Safonov Baliqchiga, Shermuhammadbekka quyidagi ultimatumni yuboradi:

- “1. Baliqchi atrofidagi janglar darhol to‘xtatilsin.
2. Marg‘ilon, Namangan, Qo‘qon, Andijon, O’sh va Oloyda ham janglar to‘xtatilsin. Qurolyarog‘lar darhol topshirilsin.
3. Yuqoridagilarni Shermuhammadbek darhol amalga oshirsin. Aks holda, qo‘lga olingan kishilar darhol yo‘q qilinadi.”

Shermuhammadbek ultimatumga zarracha parvo qilmay, janglarni davom ettiraverdi. Nurmuhhammadbekni G’orbuvoni ozod qilish uchun yuborib, jangni davom ettirdi. Yettisuv (hozirgi paytda Qozog‘iston va Qirg‘izistonning sharqiy hududlari) dagi janglar tamom bo‘lgach, Yettisuv fronti tugatilib, uning qo‘shini N.Zatilnikov boshchiligidagi Farg‘onaga tashlangan edi. Shermuhammadbek shu qo‘shinga qarshi omonsiz jang olib bordi, ellik nafar yigitdan ajralsada, dushmani Sirdaryoning o‘ng sohiliga uloqtirib tashladi.

Baliqchi janglari tugartugamas, qizillar Andijon atrofida qirg‘in boshladı. Parpi Qo‘rboshi shahid bo‘lgandan so‘ng Andijonda eng yirik qo‘rboshi bo‘lib qolgan Isroil Qo‘rboshi yordam so‘rab, maktub jo‘natdi. Shermuhammadbek Baliqchi jangidan forig‘ bo‘lgach, qarorgohini Qo‘qonqishloqqa ko‘chirdi va Andijon, O’sh atroflariga ketma-ket hujumlar uyushtirdi. Bir oy davom etgan janglardan so‘ng qizillar O’sh tomonga chekindi. Shermuhammadbek ularni ta’qib etib borib, noyabr oyi

o‘rtalarida O’sh shahrini egalladi. Bu voqealarni eshitgan Safonov Andijonga katta kuch tashladi. Shermuhammadbek bu yerdagi ozodlik kuchlariga yordam berish uchun yana Andijonga qaytishga majbur bo‘ldi. Qo‘qonqishloq yaqinidagi uch kun davom etgan beayov jangda katta talafot berib, Quvaga chekinadi. Biroq Quvada ham baxt unga kulib boqmadi. Bu yerda bir necha qo‘rboshi va ellik yigitni talafot berib, qolgan kuchlari bilan G’orbuvo uchun jang olib borayotgan Nurmuhhammadbekka yordamga shoshildi. Bir necha kunlik janglardan so‘ng aka-uka G’orbuvoi ozod qildilar. Safonov esa katta talafot berib Marg‘ilonga qochib qutuldi.

G’orbuvo qarorgohini butunlay tugatish, Shermuhammadbekni yakson qilish Safonovga o‘zini oqlash uchun berilgan imkoniyat ekanligi kitobxonlar yodida bo‘lsa kerak. Safonov ishonchni oqlamadi. Uni Toshkentga chaqirib olib, jangovar ishdan chetlatdilar. Avval shtabga, keyinroq esa maxsus harbiy o‘quv yurtiga o‘tkazib yubordilar.

QISH QAHRIGA OLGANDA

Falakning gardishi bilan 1917 yildan 1924 yilgacha Farg‘onada qish surunkasiga qattiq keldi. Lekin 1921—22 yillar oralig‘ida qish yanada qattiq, yanada qahrli keldi. O’sha davrni ko‘rgan odamlarning eslashlaricha, ariq va hovuzlar tag-tagigacha muzlab, odamlar muzni eritib foydalanishar; og‘izdan chiqqan hovur muz zarralariga aylanib qolar; ho‘l qo‘l bilan biror narsa ushlansa, chippa yopishib qolar ekan. Bostirmada o‘tin, tomda tuyoq uchun xashak, qopda un, sandiqda g‘alla, xumchada yog‘, og‘ilda so‘yish uchun jonliq, ustingiz but bo‘lsa, bunday qishdan bir amallab chiqib olsa bo‘ladi. Lekin, qani ular? Qahraton qish bilan qahatchilik egizak keldi. Ozodlik jangchilarini ta’minlab kelgan xalqning qo‘lida hech vaqo qolmagan: bir tomondan yigitlarga dasturxon yozib turgan, bir tomondan qizil hukumatga oziq-ovqat solig‘ini to‘lab turgan xalqning o‘z bola-chaqasiga beradigan burda noni qolmadi. Jang harakatlari tufayli katta maydondagi yerlar ekilmay qolib kelmoqda. Asosiy qismi otliq askarlar bo‘lmish ozodlik jangchilarini bir amallab topgan bir siqim donlarini qorinlariga emas, otlariga ilinar, bir siqim don topilmay qolganda, noiloj, o‘z birodaridek bo‘lib qolgan otlarini ko‘zlarida yosh bilan bo‘g‘izlashga majbur bo‘lib qoldilar. Qizil askarlarning esa oziq-ovqat va yem-xashakdan kamchiligi yo‘q. Sho‘ro hukumati bosmachilikni qanday qilib bo‘lsada tugatish maqsadida armiyani yaxshi boqar edi. Armiyadagi to‘qchilik ham katta bir quroq edi – och qolgan odamlar g‘oya uchun emas, balki qorin to‘ygazish uchun ham armiyaga yozilar edilar.

Shuncha qiyinchilik yetmaganday, ozodlik qo‘shini oldida yana bir xavf-xatar yuzaga keldi: jangchilar ichida milliy nizo kelib chiqdi. Bosqinchilar o‘z mustamlakachilik siyosatlarida xalqlar o‘rtasida milliy nizo chiqarib, ularni osonlik bilan bo‘ysundirish usulini ko‘p qo‘llaydilar. General Kaufman ham Turkistonni bosib olish arafasida xalq ichiga o‘z odamlarini yuborib, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qipchoqlar o‘rtalarida milliy nizo chiqarishga muvaffaq bo‘lgan va shu yo‘l bilan xonliklarni osonlikcha bosib olgan edi. Qizil qo‘mondonlar ham o‘z salaflarining bu jirkanch usullaridan unumli foydalandilar. Ular Shermuhammadbek boshchiligidagi o‘zbek yigitlari bilan Muhiddinbek boshchiligidagi qirg‘iz yigitlari o‘rtasiga nizo solmoqchi bo‘ldilar. Biroq Shermuhammadbek hushyorlik bilan buning oldini ola bildi. Nizo chiqib ulgurmasdanoq Muhiddinbek bilan aloqasini mustahkamladi, buning isboti va tayanchi sifatida ukasi Nurmuhhammadbekni Muhiddinbekning qiziga uylantirdi. Endi esa Muhiddinbek bilan Andijon qo‘rboshisi Isroilbekni urushtirib qo‘yishga muvaffaq bo‘ldilar. Nizo, hatto qurolli to‘qnashuvlargacha borib yetdi. Shermuhammadbek bundan qattiq tashvishga tushib, har ikki qo‘rboshini bir yerda uchrashtirib, nasihat qildi. Qizillarning nayrangiga uchmaslikni so‘radi va bir amallab ikkalasini yarashtirib qo‘ydi. Yarashtirib quydi-yu, bu yarashishdan o‘zining ham ko‘ngli to‘limgandek bo‘ldi. Harholda, nizo bir muncha muddatga barham topdi.

SHERMUHAMMADBEK VA ANVAR POSHO

Bir vaqtlar musulmon sharqining katta qismini, Bolqonni to‘lasicha zabit etgan Usmoniy turk

sultonligi Ovruponi tiz cho‘ktirgan buyuk sultanat edi. Biroq, XVIII—asrga kelib, omad bu buyuk davlatdan yuz o‘girdi. Ovrupo, ayniqsa Buyuk Britaniya va Rossiyaning kuchayib borishi bilan sultonlik tarkibidagi mamlakatlar birin-ketin uning qo‘l ostidan chiqib keta boshladi. Mamlakatning zaiflashishi Usmonli turk sultonlari sulolasining salohiyatsizligi natijasi deb tushungan bir qancha harbiylar, davlat arboblari va ziyolilar “Milliy ittihod” firqasiga birlashib, XX asr boshlarida davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Biroq, bu to‘ntarish ham xech qanday natija bermadi: bu paytga kelib, butun Ovrupo va Rossiya Turkiyaga qarshi oyoqqa turgan edi. Nihoyat, Mustafo Kamol Posho hokimiyatni o‘z qo‘liga olgachgina Ulug‘ Porta (turklar o‘z davlatlarini ko‘pincha shu nom bilan atar edilar) Ovrupo istilosidan qutulib qoldi. Mustafo Kamol Posho davlat tepasiga kelgach, sobiq davlat arboblarining ko‘pchiligi xorijga chiqib ketishga majbur bo‘ldilar. Ular ichida sobiq harbiy vazir, Turk sultoni va musulmonlar xalifasi Abduhamed II-ning kuyovi bo‘lganligi uchun “Domodi Xalifat-ul Muslimin” unvonini olgan Anvar Posho (“Posho” – yirik davlat arboblari, harbiylar va zodagonlarga beriladigan unvon) ham bor edi. Anvar Posho ko‘plab Ovrupo mamlakatlarida bo‘lib, 1920 yilda Moskvaga keladi, Sharq xalqlarining Boku qurultoyida ishtirok etadi va 1921 yil oktyabr oyida Buxoroga keladi. Bu yerda u Buxoro Xalq Respublikasining faxriy mehmoni bo‘lib turadi.

Bir vaqtlar Farg‘ona fronti qo‘mondoni bo‘lgan, Muhamadaminbek bilan sulh tuzgan Veryovkin-Raxalskiy Buxoroning bosib olinishida ishtirok etib, Buxoro Xalq Respublikasida harbiy xizmatda qoldirilgan edi. U bu yerda harbiy maktab tashkil etadi. Uning yozishicha:

“... Kunlardan birida, maktabda harbiy mashg‘ulotlar davom etayotgan paytda usti ochiq avtomobilda bir guruh mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular ichida bittasi, ayniqsa, mening diqqat e’tiborimni tortdi. Qaddi-qomati kelishgan, Ovrupocha kiyangan, o‘ta nazokatli bir kishi mashg‘ulotlar borishini harbiylarga xos sinchkovlik va bilimdonlik bilan kuzatdi. Uning kuzatuvi, bergen savollari harbiy ishni nihoyatda puxta egallaganligidan darak berar edi. Odob yuzasidan ularning kim ekanliklarini so‘ray olmadim. Keyin bilsam, u mashhur Anvar Posho ekan”.

Anvar Posho Buxoroda bir oz mehmon bo‘lgach, harbiy harakatlarni kuzatish bahonasida Sharqiy Buxoroga yo‘l oladi. Uning niyati, aslida, milliy-ozodlik harakatini boshqarib, mustaqil Turkiston sultanati barpo etish edi. U Sharqiy Buxoroga kelib, faol harakat boshlab yubordi. Ozodlik harakati yo‘lboshchilari bilan aloqa o‘rnatib, ularni birlashtirishga intildi.

Anvar Posho bu yerga kelganda, Shermuhammadbek qo‘lida harbiy maslahatchi bo‘lib turgan turk zabitasi Sariq Ismoil Xaqqibekni o‘z huzuriga chaqirtirgan edi. Shermuhammadbek unga qo‘shib, o‘z qaynotasi Muzaffarxon Mingboshini sovg‘alar bilan yuboradi.

1922 yil fevral oyida Anvar Posho Shermuhammadbekka quyidagi maktubni yo‘llaydi:

Muhtaram Shermuhammadbek — fidokor mujohid do‘sstarim!

Janob Xaqq-Taoloning yordami ila din dushmani bo‘lmish bolsheviklarni Dushanba, Sho‘rchi, Sariosiyo, Denov, Kabodiyon shaharlaridan quvib chiqardik. Dushman Dushanba va Qabodiyondan boshqa shaharlarni urushsiz tashlab chiqdi. Bolshevik kuchlarining asosiy qismi Boysun garnizonida to‘plangan. Shunga ko‘ra Darvoz, Bobotog‘, Denov, Qoratov, Jilliko‘l yigitlaridan iborat kuchlarimiz Boysun shahrini qamal qilib turibdi. Shaharda urush davom etmoqda.

Inshoollo, yaqin vaqt ichida bu shaharni ham qaytarib olurmiz. Fisabillo qilayotgan g‘azotdan samara olish uchun shuurli va ittifoq bo‘lib ishlashimiz ijobat bo‘ladi. Shu sababli, ittifoqni tashkil etishimiz uchun Boysun atrofida chaqiriladigan Milliy Misoq (kelishuv) qurultoyiga qatnashishingizni istayman. Shaxsan tashrifingiz mumkin bo‘laman taqdirda bu anjumanda qatnashish uchun o‘rningizni bosa oladigan zakovatli qo‘mondonlaringizdan bir nechtasini yuborishingiz lozimdir. Qo‘lni qo‘lga berib ishlamoq sizdan, fatxu-nusrat Allohdandir. Boqiy Xudoga omonat topshiraman.

Fevral 1922.

Domodi Xalifat-ul-Muslimin (Musulmonlar xalifasining kuyovi) Anvar”.

Maktub kelgan paytda Shermuhammadbek qonli jang, hayot-mamot urushi bilan band edi. Qizillar har tomondan qisib kelmoqda. Shu tufayli Shermuhammadbek maktub ham, vakil ham jo‘natish imkonini topolmadi. Uch hafta o‘tgach, Ismoil Xaqqibek ikkinchi maktub bilan yetib keldi. Bu maktub, aslida milliy-ozodlik harakatining strategiyasi va taktikasi, harbiy rejasi hamda qo‘rboshilarga yo‘l-yo‘riq edi:

Muhtaram mujohid Shermuhammadbek

1. Dushanba va Qabodiyon dushmanidan qaytarib olindi. Bu shaharlarni tark etgan dushman Termiz va Boysun garnizonlaridan boshpana topdi.

2. Qo‘l ostimdagи mavjud mujohidlar bilan Boysun garnizonini qamal qildim. Kechasiyu kunduzi dushmanni ta’qibu tazyiq qilyapmiz.

3. Yurtingizni dushman qo‘lidan qutqarish uchun birinchi ish birlashuvdir. Mujohidlar bir-biriga ishonishi, itoat etishi, fikrlarini hurmat qilishlari shartdir. Dushmanning harakatlari haqida to‘g‘ri ma‘lumot olish yo‘li bilan qaerda bo‘lsangiz ham yakvujud jamoa manzarasini kasb etib, dushmanga qarshi qudratli bo‘lishingiz lozimdir. Binoan alayh barchangiz bir vatan avlodlari ekanligingiz tufayli ixtilof va ikkilanishlarni yig‘ishtirib, bir bayroq ostida jam bo‘lib yagona g‘oya uchun xizmat qilishingizni so‘rayman.

4. Muhtaram vatanparvar mujohidlar! Ro‘parangizdagи dushman kuchlari yurtingizga yetti yet begonalardir. Ularning oziq-ovqat markazlari bu yerdan juda uzoqdadir. Shuning uchun ham ular sizning o‘lkangiz ne‘matlari bilan qorin to‘ydirmoqda. Sizning ilk vazifangiz dushmanga oziq-ovqat keladigan yo‘llarni berkitishdir. Bu masalada juda hushyor bo‘lingiz. Odamlar dushmanga yegulik va boshqa narsalar sotmasinlar, ot-ulov va boshqa vositalarni dushmanga berilishiga qarshi turing.

5. Dushmanning oziq-ovqat keltirish uchun yo‘lga chiqqan bo‘linmalariga hujum qilib, qo‘lga olish bilan birga, doimiy ta’qib qilib boring.

6. Dushman garnizonlariga qo‘srimcha yordam kuchlari keladigan yoki Rusiya ichkarisidan yuboriladigan qismlar foydalanadigan temir yo‘l, asosiy yo‘l va ko‘priklarni doimiy nazorat ostida tuting. Dushman kelayotganini bilganingiz zahoti qatnov yo‘llarini buzib tashlab, ularni oldinga siljishiga yo‘l qo‘ymang.

7. Har bir lashkarboshi pochta aloqasini tashkil etib, qo‘sni lashkarboshilarining ahvolini o‘rganib, kerak paytda yordam kuchi yuborish va yordam yuborishlarini so‘rash yo‘llarini o‘ylab topsin. Har o‘n besh kunda har bir lashkarboshi o‘z ahvoli hamda vaziyatni umumiylar qarorgoh Kofirnixonga kelib bayon etsin.

8. Umumiylar qarorgoh Boysun shahri janubidagi Kofirnixon qishlog‘ida tashkil etiladi.

9. 1922 yil 10 apreldan keyin bo‘ladigan qurultoyga qatnashish uchun o‘z hay’atingizni yuborishingizni so‘rayman, mart 1922.

Buxoro mujohidlarning Islom qo‘mondoni, Domodi Xalifat-ul-Muslimin Anvar.”

Shermuhammadbek ham janglar bilan, ham Farg‘ona qo‘rboshilari qurultoyini tayyorlash bilan band edi. Shunday bo‘lsada, Ismoil Xaqqibekka qo‘sib, o‘z ukasi Ro‘zimuhammadbekni Kofirnixon qurultoyida ishtirok etish uchun yubordi. Ro‘zimuhammadbekni, qurultoy o‘tgach, Anvar Posho xizmatida qolishi muvofiq ko‘rildi. Ro‘zimuhammadbek o‘zi bilan yuz nafar yigit, sovg‘a-salom hamda quyidagi mazmundagi maktubni olib ketdi:

“Janob Anvar Posho hazratlariga!

Boysun shahrini qamal qilgan holda urushayotganiningizni bilib boshimiz ko‘kka yetdi. Bizga yuborgan maktubingiz katta shodlikka sabab bo‘ldi. O’sha xatni qo‘sni qo‘rboshilarimizga ham yubordik. Biz Farg‘ona mamlakatida ruslarga qarshi kurash olib borayotgan shu kunlarda ko‘p sonli qizillar atrofimizni o‘rab olish uchun har tomondan hujum qilmoqda.

Sizning amringiz ostiga ko‘pchilik bo‘lib borishni xohlar edik. Ammo ruslarning hujumlari juda kuchayib ketdi. Shu sababli o‘zim Sizni ziyorat qilgani borolmadim. O‘rnimga kenja ukam Ro‘zimuhammadbek qo‘rboshini yuboryapman. U bizning salomlarimizni Sizga yetkazib, yoningizda qolib, Siz xohlagan paytgacha xizmatingizda bo‘ladi.

Farg‘ona umumiy lashkari Islom raisi Jahongir Shermuhammadbek.”

Ro‘zimuhammadbek Anvar Posho tomonidan katta hurmat va ehtirom bilan kutib olindi. Ro‘zimuhammadbekning besh yillik harbiy tajribasi borligini dovyurakligi, salohiyatini eshitib bilgan Anvar Posho uni oldingi safda jang qiladigan fidoyilar bo‘ltagiga qo‘mondon etib tayinladi. Ro‘zimuhammadbek o‘z vazifasini a’lo darajada bajarib, vatan ozodligi, dini islam yo‘lida qanday jang qilish kerakligini amalda ko‘rsatdi. Uning mahorati, qahramonligi Sharqiy Buxoroning ba’zi qo‘rboshilarida hasad hissini ham uyg‘otdi. U Anvar Posho bayrog‘i ostida besh oy jang qilib, nomi tillarda doston bo‘ldi.

Anvar Poshonining kelishi, milliy-ozodlik harakati boshqaruvini o‘z qo‘liga olishi bu harakatning butun O‘rta Osiyo bo‘ylab avj olishiga turki bo‘ldi. Kichik bir Farg‘onani eplolmay turgan Sho‘ro qo‘mondonligi endi butun Turkiston o‘lkasi bo‘ylab janglar olib borishga majbur bo‘ldi.

Birgina Farg‘ona emas, balki butun O‘rta Osiyodan mahrum bo‘lib qolish xavfiga duchor bo‘lgan qo‘mondonlik shoshilinch choralar ko‘rishga majbur bo‘ldi: Maxsus Turkiston armiyasi tashkil etildi, unga qo‘sishma ravishda Rossiyadan yana uchta armiya, ko‘ngillilar armiyasi, tatar polklari va brigadalari olib kelindi. 1922 yil boshiga kelib Turkistondagi qizil askarlar adadi 200 ming kishiga yetkazildi. Ammo, qizillar Farg‘ona vodiysidan birorta rota ham olmadilar, aksincha, bu yerdagi qo‘sish miqdorini yana oshirdilar. Bu paytda Rahmonqulibek va Omon Polvon 8000 yigit bilan Sirdaryo sohilida, Islom Polvon 4000 yigit bilan Qo‘qon atroflarida, Nurmuhhammadbek 6000 yigit bilan G’orbuvo va Yakkatutda, Isroilbek 4000 dan oshiq yigit bilan Andijon atrofida, Muhiddinbek 10000 yigit bilan O’sh atrofi va Oloyda qattiq janglar olib borardilar.

Sharqiy Buxoroda, Zarafshon vohasida va Xorazmda janglar yaqinda – Buxoro amirligi va Xiva xonligi bolsheviklar tomonidan bosib olingandan so‘nggina boshlangan. Farg‘onada esa, 1916 yil qo‘zg‘olonlari ham e’tiborga olinsa, jangu jadal olti yildan beri davom etar edi. Ana shunday ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan Farg‘ona kurashchilar qizillarning Sharqiy Buxoro, Xorazm, Zarafshon vohalarida keng front bo‘ylab jang qilishga imkon bermay turdilar.

1922 yilning qish-bahor oylarida jang ozodlik janglarining ustunligi bilan o‘tdi. 15 aprel kuni Farg‘ona ozodlik jangchilarining navbatdagi qurultoyi ish boshladi. Qurultoy, an’anaga ko‘ra, shahidlar ruhiga Mavludi sharif o‘qish bilan ochildi.

Qo‘rib chiqilgan asosiy masalalardan biri Sho‘ro qo‘mondonligi tomonidan ketma-ket berib turilgan ultimatumlarga rad javobi berish, kurashni davom ettirish haqida qaror qabul qilish bo‘ldi. Shuningdek, tashkiliy masalalar ham ko‘rilib, milliy-ozodlik harakati boshqaruvi tizimi mukammallashtirildi, mulkiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi hay’at, istiqlol mahkamasi (harbiy tribunal) ta’sis etildi.

Eng asosiy masalalardan yana biri Turkiston Vaqtli Hukumatining asosiy qonuni (Konstitutsiyasi)ni ko‘rib chiqish va qabul qilishdan iborat edi. Mazkur asosiy qonunda Turkiston milliy-ozodlik harakatining bir butun ekanligi, sho‘rolar Turkistonni tashlab chiqqunga qadar, ya’ni, Turkiston istiqloli tan olinadigan paytgacha kurashning davom ettirilishi, qizillarga yon berilmasligi qat’iy bayon etilgan. Shuningdek, milliy-ozodlik harakati boshqaruvi tizimi Turkiston istiqlol olib, davlat boshqaruvi tizimi tuzilguncha bosh idora bo‘lib turishi ta’kidlangan.

Qurultoy 20 aprelgacha o‘z ishini davom ettirdi. Bolsheviklar G’orbuvo mudofaasi juda yaxshi tashkil etilganligi tufayli qurultoy ishiga to‘sqinlik qila olmadilar. Ularning bir necha bor hujumlari behuda ketdi.

“Bosmachilik”ni tugatish masalasi Sho‘ro va partiya boshqaruvining barcha bosqichdagisi organlari yig‘ilishlari kun tartibidan tushmay qoldi. Qaerda va qaysi mahkamada bo‘lmasin, birinchi masala “bosmachilik”, so‘ngra boshqa masalalar ko‘rilar edi. Sho‘ro hukumati va partianing eng ko‘zga

ko‘ringan, yashirin ishda suyagi qotgan arboblari Turkistonga safarbar qilindi. Aprel oyida Leninning eng yaqin safdoshlaridan biri G.K.Orjonikidze (partiyaviy laqabi “Sergo”) va Turkkomissiyaning sobiq raisi, RKP (b) MK a’zosi Eliava Qo‘qon shahriga yuborildi. Ular bu yerda vaziyatni o‘rganib, Toshkentda bo‘lib o‘tgan qator hukumat va partiya yig‘ilishlarida “bosmachilik”ni yo‘qotish choralari haqida fikr bildirdilar. Ularning fikrlari qaror sifatida qabul qilindi. Bu qarorlar asosida Farg‘onadagi qizil armiyachilar adadi yuz ming nafarga yetkazildi.

Shu oyлarda Turkbyuro tugatilib, uning o‘rniga RKP (b) O’rta Osiyo byurosini (Sredazbyuro) ta’sis etildi. Unga ham, Turkkomissiya kabi katta huquq va vakolatlar berildi. Sredazbyuro buyrug‘i bo‘yicha qizil armiya Buxoro va Farg‘onada yalpi hujumga o‘tdi.

May oyida Shermuhammadbek Baliqchi atrofida va Sirdaryo sohilida qattiq janglar olib bordi. Iyun oyi boshlarida qizillar G’orbuвoga yana katta hujum uyushtirdilar. Shermuhammadbek Baliqchidan G’orbuvo tomon harakat qilishga majbur bo‘ldi.

G’orbuvo uchun qonli janglar yigirma besh kun davom etdi. Bu jang ham milliy-ozodlik kurashi tarixidagi eng yirik va qonli janglardan biri sifatida tarix sahifalarida qoldi. Shermuhammadbek qo‘shini fidokorona jang qildi. Biroq kuchlar teng emas edi. Qizillarga kuniga yangi-yangi qismlar kelib qo‘shilib turdi, Shermuhammadbekning esa barcha imkoniyatlari sarflab bo‘lindi. Xullas, bu janglarda ozodlik jangchilaridan uch ming nafar shahid ketdi, bir ming besh yuztasi asir olindi. G’orbuvo, Yakkatut, Bo‘ston, Bo‘zala va yana bir nechta qishloq birin-ketin qo‘ldan ketdi. Shermuhammadbek qon kechib, qizillar ta’qibida Oltoяga chekinishga majbur bo‘ldi.

Ushbu mash‘um yigirma ikkinchi yilning yoz oylarida Muhiddinbek ham katta zARBAGA uchradi. Buning ustiga Shermuhammadbek G’orbuvo janglari bilan andarmon bo‘lib turgan paytda Muhiddinbek bilan Isroil Qo‘rboshi o‘rtasida yana nizo avj oldi. Shermuhammadbek bu nizoni o‘zidan boshqa hech kim bartaraf eta olmasligini his etgan holda Oloyga ketayotgan paytda Asakada to‘xtaydi. Isroil Qo‘rboshiga nasihatlar qilib, shashdidan tushiradi. Nurmuhhammadbekni esa o‘sha paytda Qorovul qo‘rg‘onida turgan Muxiddinbekka yuboradi. Muhiddinbek ham o‘z kuyovi Nurmuhhammadbekning so‘zini qaytara olmay, nizoni to‘xtatishga va’da beradi. Shundan so‘ng qaynota-kuyovning birlashgan kuchlari Oloy Uchqo‘rg‘oniga yurish qilib, uni oladilar va bir qancha muddat qo‘lda tutib turadilar.

Shermuhammadbek Isroil Qo‘rboshiga pand-nasihat qilib turgan paytda qizil armiyaning bir necha diviziysi uni ta’qib etib, ketma-ket Asakaga yetib keladi. Shermuhammadbek yo‘l-yo‘lakay jang qilib, O’sh orqali O’zganga yetib keladi. Qizillar O’zgan atrofini halqa qilib o‘rab oladilar. 15 iyuldan 25 iyulgacha qonli janglar davom etdi. 25 iyul kuni Anvar Poshodan chopar kelib, bir amallab O’zganga kirishga muvaffaq bo‘ldi va Poshoning maktubini unga topshirdi. Ma’lum bo‘lishicha, Anvar Posho ham og‘ir ahvolda qolgan va madad kuchi yuborishni iltijo qilgan.

Shermuhammadbek o‘zining ahvoli nihoyatda og‘ir bo‘lishiga qaramasdan, Qorovul qo‘rg‘onida ikki ming yigit bilan turgan Nurmuhhammadbekka chopar yuborib, Anvar Poshoga yordamga borishini buyuradi. Nurmuhhammadbek ertasi kuniyoq Oloy orqali Qorateginga yo‘l oladi.

Shermuhammadbek 26 iyulda bir amallab qamalni yorib chiqishga muvaffaq bo‘ladi va avval janub, so‘ngra janubi-g‘arb tomonga, ya’ni Oloyga yo‘l oladi. Shermuhammadbekni tirik yoki o‘lik holda qo‘lga olish haqidagi qattiq topshiriq olgan qo‘mondon Yudin uni izma-iz ta’qib etib boraverdi. Yudinning mutaxassisligi harbiy kartograf bo‘lib, harbiy xizmatning katta qismini tog‘larda o‘tkazgan, Oloy-Pomir tog‘larining har bir so‘qmog‘i unga yaxshi tanish, qo‘l ostidagi askarlari ham tog‘ janglarida katta tajribaga ega edi. Shunday bo‘lsada, Shermuhammadbek talafot berishga qaramay, ularga bas kelib, Oloy vodiysiga o‘tadigan Art dovoniga chiqib olishga muvaffaq bo‘ldi. Yudin bilan izma-iz kelayotgan brigada qo‘mondoni unga front qo‘mondonligini buyrug‘ini topshirib, ta’qibni davom ettirish lozimligini ta’kidladi. Har ikki qo‘mondon ham Shermuhammadbek ketidan dovonga ko‘tarila boshladi.

Janglar Oloy vodiysida ham davom etdi. Bu yerda qizillarga Oloy istehkomi chegarachilarini

yordamga yetib keldi. Shermuhammadbek bu janglarda ham anchagina talafot berdi. Qizillar ham katta talafot ko‘rdilar. Ammo ularga yangi kuchlar kelib qo‘silib turgani uchun bu talafot unchalik bilinmadi. Janglar davom etib turgan bir paytda sovuq xabar yetib keldi: Anvar Posho qizillar bilan jang asnosi shahid bo‘libdi. Unga yordam uchun ketayotgan Nurmuhhammadbek Qorateginga yetganda shu xabarni eshitib, to‘xtab qolibdi va zudlik bilan akasiga chopar orqali yetkazibdi.

Farg‘onadagi ahvol tang bo‘lib qolgan vaqtida Shermuhammadbek o‘zi ham Anvar Posho bilan yelkama-elka jang qilish uchun Sharqiy Buxoroga ketish, sharoitga qarab, kelgusi bahorda yana Farg‘onaga qaytish, iloji bo‘lsa, Poshoni ham o‘zi bilan olib kelish niyatida yurgan edi. Shermuhammadbek boshida bu xabarga ishonqiramadi, zero, oldin ham bunday xabarlar bir necha marta kelgan va tasdiqlanmagan edi. Biroq Nurmuhhammadbek Qorategin va Oloy chegarasida Shermuhammadbek bilan uchrashib, xabar rost ekanligi dalillar bilan isbotlandi.

Hayhot! Endi nima qilish kerak? Barcha umidlar chil-chil bo‘ldi. Anvar Posho o‘z obro‘yi bilan Sharqiy Buxoro, Farg‘ona, Xorazm, Zarafshon mujohidlarini bir bayroq ostida birlashtirish harakatida yurgan edi. Qizillarning ayg‘oqchilari vosisida bir-biriga dushmanday bo‘lib turgan bu hududlar endi qanday birlashadi? Sharqiy Buxoroda Shermuhammadbekni endi kim quchoq ochib kutib oladi? Endi u tomonlarga borishning ma’nosи qoldimi? Biroq, hozir bu yerlardan ketmasa, qolgan yigitlarining hayotiga zomin bo‘lishi turgan gap.

Shermuhammadbek o‘z xotiralarida Anvar Poshoning shahid ketishiga munosabatini shu tariqa bayon etadi:

“...Poshoning orzusi ustiga ukam Nurmuhhammadbekni ikki ming kishilik kuch bilan Sharqiy Buxoroga yubordim. U yer bizga sakkiz kunlik masofada edi. Nurmuhhammadbek Sharqiy Buxoroning Laxshi qishlog‘idan yuborgan xabardan Anvar Poshoning shahid ketganini bilib oldik. Ishona olmadim. Chunki bundan avval ham o‘n to‘rt marta shunday xabar kelgandi. Ammo Sharqiy Buxoro—Farg‘ona chegarasida rostligiga ishondim. Achchiq Olma degan joyda xatmi Qur‘on qilib, fotihalar o‘qib, katta motam ichida xotirasiga hurmatan duolar etdik. Qayg‘u-hasratimiz yero ko‘kka sig‘masdi. Chunki bizning Bosh qo‘mondonimiz, umid nurimiz so‘ngandi. Baxtsizligimiz alami bilan kimni qarg‘ashimizni, kimni quchoqlashimizni bilmasdik. Shu yerda qolganimiz sakkiz-to‘qqiz kun ichida og‘zimizdan ovqat o‘tmaydigan bo‘ldi. Tole’siz, baxtsiz Turkistonning iztiroblari qachon tinar ekan, yuzi qachon kular ekan, oqizgan qonlari qachon qurir ekan?!”

Poshoning shahodat sharbatini ichishi haqidagi xabardan keyin mening dardu iztirobim juda katta edi. Bir kun kelib mana shunday hol yuz berishi mumkinligi haqida ichimda bir qora tuyg‘u bor edi. Poshomizga bir necha marta “Yo men yigitlar bilan sizning oldingizga boray, yo siz tashrif buyursangiz”, deb xabar yuborgandim. Agar Posho Farg‘onaga kelganida bormi, uning dushman qo‘liga tushishiga imkon bermasdik. Unga ba’zi birovlardan yomon muomala qilinishiga yo‘l qo‘ymasdim. Fidoyi yigitlarim bilan uni muhofaza qilishga kuchim yetardi. Yozuv shunday ekan, muyassar bo‘lmadi... Turkistonning ozodligi u bilan birga Baljuvonga ko‘mildi. Qasosini ololmadik. Ko‘p orzu qilishimga qaramay, yuzlarini ko‘rish ham nasib etmadi. Alloh jalli jaloluhu nasib etmadi...”

ANVAR POSHO KIM EDI?

Anvar Posho 1881 yilning iyun oyida Istanbulda tavallud topdi. Harbiy bilim yurtida, keyinroq Istanbul Bosh Shtab akademiyasida tahsil olgan. 1909—1911 yillarda Berlinda Harbiy attashe lavozimida xizmat qilgan. Turkiya, Makedoniya, Kavkaz, Germaniya, Rossiya hamda hayotining so‘ngida Turkistondagi siyosiy jarayonlarda qatnashgan.

Yosh turklar inqilobiy uyushmasi tashkilotchilaridan biri, “Ittohod va Taraqqiy” partiyasi asoschisi va rahbarlaridan biri sifatida mashhur. 1908 yilda Turkiyada davlat to‘ntarilishiga rahbarlik qilib, Sulton Abdulhamid II hokimiyatini ag‘dargan hamda mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumini o‘rnatgan. Yosh turklar hokimiyatni qo‘lga olgach, Anvar Poshoning nufuzi, obro‘si, ta’sir doirasi

o‘sib boradi. Chet el imperializmi tomonidan puxta rejalarhtirilgan, Turkiyani tiz cho‘ktirish va bo‘lib yuborishga qaratilgan harakatini barbod etgan buyuk shaxslardan biri sifatida tarixga kirdi. 1913 yildagi davlat to‘ntarishidan so‘ng Anvar Posho Harbiy ministr lavozimini egallaydi.

Birinchi jahon urushida Germaniya bilan ittifoq tuzib, urushda Turk qurolli kuchlariga qo‘mondonlik qiladi. Urushda Germaniya va Turkiya yengilgach, Yosh turklar hokimiyatiga chek qo‘yiladi. Anvar Posho Jamol Posho, Tal‘at Posho va boshqa safdoshlari bilan Germaniyaga ketadi.

Anvar Posho siymosida monarxiyaga qarshi otashin kurashchini ko‘rgan Rossiya hukumati undan Turkistonda inqilobiy harakatlarni kuchaytirish hamda aksilsho‘roviy kuchlarni bostirish yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lib, unga siyosiy boshpana beradi.

Bolshevoyer undan qanday razil maqsadlar yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lganligini Anvar Posho tez fursatdayoq tushunib yetadi. Zero u ruslarning Turkistondagi qilguliklarini, xalqni, dini islamni oyoqosti qilayotganlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. **Hamda ota yurtni, o‘z qardoshlarini muhofaza qilishdek og‘ir, shu bilan birga, sharaflı ishga o‘z hayotini baxshida etadi.**

1920 yil sentyabrda Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyida ishtirot etadi va o‘z Bayonotini e’lon qiladi. 1921 yil fevralda esa Moskvada “Musulmonlarning inqilobiy jamiyatni Ittifoqi” qurultoyini o‘tkazadi.

Turkistondagi ahvolning o‘ta og‘irligini sezgan Anvar Posho o‘zining Xoji Somiybek, Nabibek, Hamibek va boshqa safdoshlari bilan Buxoroga kelib, Turkistondagi milliy-ozodlik harakati bilan yaqindan tanishadi.

Anvar Posho butun Turkiston xalqiga Murojaatnomasi e’lon qilib, uni quyidagi so‘zlar bilan boshlaydi:

“Orqadoshlar! Turkistonning muqaddas da‘vosi yo‘lida olib borilayotgan kurashga men ham qo‘shilgani keldim...”

Ha, u buyuk kurashchi edi. U sho‘rolar bilan to‘qnashuvlarda buyuklik isbot etgan zotdir. Bir qancha janglarda strategik salohiyati bilan g‘alaba qozondi. Jumladan, 1922 yil 22 yanvarda Dushanbada sakkiz ming nafarlik sho‘ro armiyasiga qarshi bir ming besh yuz yigit bilan jang qilib, g‘alaba qozonganining o‘ziyoq uning naqadar buyuk salohiyatga ega ekanligidan nishonadir.

1922 yil 28 mart kuni Amir Olimxonidan barcha qo‘shinlarga Bosh qo‘mondon etib tayinlangani haqida inoyatnomasi oladi. 15-aprelda esa qo‘rboshilar Anvar Poshonini qo‘rboshilarga siyosiy rahbar va qo‘mondon etib saylaydilar. Afg‘oniston hukmdori Omonulloxon ham uch yuz kishilik sarbozlar hamrohligida qurol-yarog‘ sovg‘a etib yuboradi.

Shundan so‘ng Anvar Posho Bosh qo‘mondon sifatida Rossiya bolshevoyer hukumatiga Sho‘ro qo‘shinlarini Turkistondan olib chiqib ketish to‘g‘risida ultimatum yuboradi. Bolsheviklar Anvar Poshonini bu talabiga qarama-qarshi har xil tashviqot targ‘ibot ishlarini olib borishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi. RKB (b) Markaziy komiteti Buxoro va Farg‘ona bo‘yicha I.V.Stalin, Chicherin, Kuybishev va Fayzulla Xo‘jaevlar tomonidan ishlab chiqqan qarorni qabul qiladi. Bu qarorga ko‘ra Buxoro va Farg‘onada istiqlolchilarga qarshi kurashayotgan frontlar birlashtirilib, musulmon aholisi orasida siyosiy ish olib borish, mahalliy aholiga yon berish, tavba qilgan “Bosmachilik harakati” yigitlarini ozod etish, qo‘rboshilar orasida nifoq chiqarish, turli ig‘volar tarqatib istiqlolchilar safini bo‘lib tashlash kabi masalalarini asosiy vazifa qilib oldilar. Bunga erishdilar ham.

Ibrohimbek bilan Anvar Posho o‘rtasidagi taranglashgan murakkab vaziyat buning isbotidir. Qizil armiya katta kuch bilan qilgan hujumi paytida Ibrohimbek qariyb 10 minglik saralangan qo‘shinini Boysundan olib chiqib ketishi hamda Anvar Poshogaga bo‘ysunmasligini bildirib, isyon ko‘tarishi izoh talab etmaydigan haqiqatdir.

Anvar Posho istiqlolchilar kurashiga rahbarlik qilar ekan-u diplomatiya vositalaridan to‘liq foydalanar, bolshevoy rahbarlar bilan muzokara olib borish, qizil askarlarni Turkistondan olib chiqib ketishga butun vujudi bilan harakat qilardi. Bu Fayzulla Xo‘jaevning tanlangan asarida aynan quyidagicha keltiradi: Ibrohimbek va boshqa qo‘rboshilar nomidan Anvar Posho qizil askar rahbarlari

nomiga jo‘natilgan maktubida shunday deyilgan; “Haqiqiy mustaqil Buxoro tuprog‘idagi aholi vakillari bo‘lgan bizlar sizlarga ma’lum qilamizki, sizlar mamlakatimizdan chiqib ketmaguningizcha jangni davom ettiraveramiz” – deb bir qarorga keldik. Hozirgi vaqtida behuda qon to‘kilmasin deb va odamgarchilik qilib sizlarga mamlakatimizdan chiqib ketishni taklif qilayotirmiz. Shunday qilsangiz, sizning do‘srlaringiz bo‘lib qolamiz va o‘zimiz yordam berib sizlarni ochlikdan saqlab qolamiz, aks holda sizlar Vataningizda ocharchilikdan o‘layotgan oilalaringiz kabi mahv etilasiz. Hozir biz gunohkor bo‘lmaylik deb odam qoni to‘kishni istamayotirmiz. Lekin, xalqimizning istagiga xilof ravishda Vatanimizga bostirib kirgan sizlar bilan jang qilishni muqaddas burchimiz deb bilamiz. Bizlar xursandlik bilan bu yo‘lda qonimizni to‘kib, shahid bo‘lishdan qaytmaymiz”. Bundan ko‘rinib turibdiki bunday talab va uning siyosat, harbiy sohasidagi g‘alabalari bolsheviklar hukumatini sarosimaga solib qo‘ydi. Sho‘ro hukumati 19 aprelda sulh tuzishni taklif etadi. Rossiyani Tashqi ishlar Xalq Komissarligini 10 kishidan iborat delegatsiyasi Boysunga keladilar. Agar Anvar Posho sulhga rozi bo‘lsa, “Darvoz, Qorategin, Ko‘lob, Dushanbe va Hisor kabi viloyatlarni birlashtirib, mustaqil bir davlat tuzib olishi mumkin”ligi ta’kidlangan edi. Ular buning evaziga Turkiston ishlariga aralashmaslik masalasini qo‘ydilar.

Anvar Posho esa ruslarga “Sulh bitimi faqat Turkiston tuproqlaridan butun rus askarlarini olib chiqib ketilgandan keyingina gap mavzu bo‘lishi mumkin”, deb keskin javob berdi.

1922 yil 18 mayda RKP (b) MK “Turkiston—Buxoro ishlari haqida” maxsus qaror qabul qildi. Mazkur qarorda istiqlolchilarga qarshi harbiy harakatlarni kuchaytirish, shuningdek, “Anvar Poshoning Sharq xalqlari dushmani, inglizlar josusi sifatida xalq ongida fosh etish lozim”ligi qayd etilgan edi.

Kurash qizigan 1922 yilda Lenining topshirig‘i, hukumatning maxsus qarori bilan Rossiya Qurolli kuchlari Bosh qo‘mondoni S.S.Kamenev, qizil armiyaning otliq kuchlari qo‘mondoni S.M.Budyoniy, A.N.Todorovskiy, V.V.Kuybishevlar katta miqdorda qo‘shin, qo‘shimcha qurol-yarog‘ bilan Turkistonga safarbar etiladi. Anvar Posho bilan shug‘ullanish uchun Sho‘ro razvedkasi Sharq bo‘limi boshlig‘i arman millatiga mansub Agabekov maxsus guruh bilan yuboriladi. Bu paytlarda Turkistonning barcha hududlarida, ayniqsa, Farg‘ona va Sharqiy Buxoroda janglar qizib ketdi. 1922 yil 24 iyunga o‘tar kechasi Anvar Poshoning uch ming yigit qo‘mondon Kakurinning sakkiz yarim ming nafarlik tish-tirnog‘igacha qurollangan qo‘shinini yer tishlatdi. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, butun boshli bir diviziyanı yo‘q qilib tashladi. Xullas, Anvar Posho undan keyin ham ko‘p marta qizil askarlarga qarshi muvaffaqiyatlari janglar olib bordi. Biror marta pand yemadi. Rus qo‘mondonligi uning strategiyasi, taktikasi oldida gandiraklab qoldi. Rus razvedkasi esa sarosimada.

Biroq razillik o‘z ishini ado etishga shoshar edi. 1922 yil 4 avgust juma, Qurbon hayiti kuni edi. Qurbon hayiti nomozi o‘qilgandan so‘ng, Anvar Posho o‘zining sodiq safdoshlariga qisqacha quyidagi va’zni qildi “Men sizlarga hozir hayitlik tarqata olmayman. Agar bizlarning qardoshligimiz haqida bir necha og‘iz so‘zlar bitilsa, men unga o‘z muhrimni qo‘yib, bajonidil imzo chekardim. Men o‘ylaymanki, bu so‘zlar bizning ozodlik uchun olib borayotgan milliy kurashimizdagи harbiy qardoshlik haqida bir ajoyib xotira bo‘lib qolardi”. Bu uning istiqlol kurashchilariga qarata qilgan oxirgi siyosiy vasiyati bo‘lib qoldi. Anvar Posho o‘z orqadoshlari bilan Baljuvon tepaligida suhbatlashib o‘tirar edilar. Kutilmaganda qizillarning 3 ta otliq polki, 3 ta eskadroni hujumga o‘tib qoladilar. O‘rtada qilichbozlik janggi qizib ketadi. Orqaga chekinish imkoniyati bo‘lsada, Anvar Posho chekinishni o‘ziga or biladi. Bir o‘zi o‘n bir dushmani chopib tashlaydi. Qizil askarlarni arxivlarida saqlangan bir ma’lumotda Anvar Posho o‘zining, 100 ta saralangan jangchisi bilan 18 chi otliqlar polkining, 1 eskadroni ustiga tashlanib, yanchib tashlaydi.

Kutilmaganda orqadan urilgan qilich zarbi mohir qo‘mondonni qulatadi. Qilich urgan kimsa Anvar Posho qo‘lida Muhammad G’oziy nomi bilan xizmat qilib yurgan qizil jousus Georgiy Kaspanyan edi.

Anvar Poshoning shahodat suvi bilan yo‘g‘rilgan jasadi Dushanbadan 200 kilometr uzoqlikda joylashgan Baljuvon kentining Chetan degan joyiga dafn etildi. Anvar Posho Turkiston mustaqilligi uchun kurashda shahid ketdi. Anvar Posho o‘limidan bir necha kun oldin qizil askarlarning boshlig‘i

O.Akchuringa yozgan maktubida Turkiston unga begona emasligini, uning ajdodlari Turkistondan borib, Turkiyada sultanat qurbanliklarini, aksincha, boshqalar uchun bu yurt begona ekanligini quyidagicha ta’kidlagan edi:

“Bu insonlarning tomirida oqayotgan qon xuddi meniki kabi sof turkiy qondur. Bu yer ruslarniki emas, balki turkiy xalqlarning asl yurtidir”.

1996 yil 3 avgustda Turkiya hukumatining qarori bilan Anvar Posho xoki solingan tobut Istanbulga olib ketildi.

Ha, Anvar Posho o‘zining ota yurti uchun kurashgan, Turkistonni oyoqosti qildirmaslik, uning mustaqilligi va ozodligini ko‘rish yo‘lida o‘z jonini tikkан buyuk zot edi.

Anvar Posho nafaqat turk millatining, balki, ayni paytda Turkiston, O‘rta Osiyo o‘lkalarining ham mard farzandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shahobiddin Yassaviy unga o‘zining “Turkistonning achchiq haqiqatlari” kitobida “Anvar Posho G‘oziy – Buyuk qo‘mondon” deb baho beradi.

Abdulhamid Cho‘lpon Anvar Poshonining shahid ketganligini eshitib, quyidagi she’rni bitgan edi:

*Eng so‘nggi umidni qonga bo‘yagan,
Ox, qanday xayrsiz zamонлар kelgan.
Faryodim dunyonи bo‘g‘ib o‘ldirsin,
Qop-qora baxtimga shaytonлар kulsin.*

Uning siyosiy faoliyati o‘ta bir buyuk ilohiy maqsadlar yo‘liga qaratilganligini sevikli xotini – Sultonning go‘zal qizi Najibaxonimga yozgan oxirgi maktubidan bilsa ham bo‘ladi. Biz uni muhtaram kitobxonlarimizga ham ilindik:

“Sen maktubingda qilich va jangni sevganim qadar hech narsani sevmasligimni yozibsang. Ammo biror-bir narsa to‘g‘risida “faqat ishni sevaman” deb ham ayta olmayman (aytsam yolg‘on bo‘ladi). Sen bilursankim, manim haqimda tuhmat tashviqotlar yurgan badbaxt kimsalarning iddao etganlaridek, men bu olis diyorlarga mol-dunyo axtarib boy bo‘lmoq, yoki o‘z hokimiyatimni qurmoq uchun kelganim yo‘q.

Meni sendan uzoqlashtirib, bu joylarga keltirgan Janobi Haqning zimmamga yuklangan muqaddas bir vazifasidir. Bu jihod vazifasi erur.

“Jihod” – islomda g‘ayridinlarga qarshi “muqaddas urush”. Qur’oni karimda jangga qobiliyatli har bir musulmon muqaddas urushda ishtirok etishi shart deb ko‘rsatilgan. U shunday ulug‘ ishdurki, uni hatto sidq ila niyat qilganlar ilohiy jannatga kirmoq huquqini olurlar. Har qadar Sendan ayru qilmoq, Sening sevgingla masrur qalbimni vayron etmakda esa hamki, ushbu yo‘lda buyuk bir imtihon bermakdan ko‘p baxtiyorman....”

Ha, Anvar Posho Janobi Xaq yo‘lida Buyuk imtihondan shak-shubhasiz a’lo darajada o‘tdi.

Ha, turkiy el ekanmiz, dunyoning turli burchaklarida yashayotgan eldoshlarimizning quvonch va tashvishlariga sherikmiz. Ular erishgan yutuqlar sahro va dengizlar, tog‘ va vodiylar osha bizga yetib kelib quvontiradi, shoirlarimizga ilhom beradi. Anvar Poshonining 1913 yilda Edirna jangidagi g‘alabasiga bag‘ishlab, qo‘qonlik alloma, xattot va shoir Mulla Muhammad Solihjon Mahmud (Nairiy) shunday she’r bitgan ekanlar:

*Isfandiyor soniy, Turkiya qahramoni,
Zol o‘g‘li Rustami gurd qilmay ani savashin.*

*Anvarbek o‘ldi oti, yorutti shash jihoti,
Topmay sipehr oncha anjum bila quyoshin.*

*Ko ‘rsatti g ‘ayratini olamga rustamona,
Bolqon davlatini berdi tamomi oshin.*

*Oldi Edirna shahrini ikkinchi borib ul shoh,
Mahkum etib o ‘ziga ag ‘ronu xoja Toshin.*

*Ta’rixin o ‘ylagay el fikri taammul etsa,
Bilgay hisob aylab kuni yetib taloshin.*

*Turkiya qahramoni kirdi Adimopulg ‘a,
Sharshiri qat ‘i qildi Bulg ‘oriyani boshin.*

*Ey Nairiy, demog ‘a til och, to muyassar,
Qildi Xudoyi olam ko ‘ngli tilar maoshin.*

Bu she’rning qo‘lyozma nusxasi atoqli olim Ahmadjon Madaminovning shaxsiy arxivida saqlanadi. Mavlono qo‘lyozmani bizga berar ekanlar, uni adabiyotshunos olim Rustamjon Tojiboev ham 2000 yilda “Adabiyot ko‘zgusi” to‘plamida e’lon qilganini eslatib o‘tdilar.

ALVIDO FARG’ONAM, ALVIDO TURKISTONIM!

Shermuhammadbek shum xabarni olgach, o‘zini ketma-ket ta’qib etib kelayotgan qizil armiya qismlari bilan oxirgi bor jang qilib, ulardan bir amallab uzilib oladi va Qorateginga olib boruvchi davonga ko‘tariladi. Davonga ko‘tarilar ekan, vodiyning tarkibiy qismi bo‘lmish Oloy tuprog‘idan bir necha hovuch olib, dastro‘moliga tugib qo‘yadi. Og‘ir bir harakat bilan o‘zini egarga oladi: bir vaqtlar uzangini pisand qilmay otga bir sakrashda o‘tiradigan mohir chavandozni g‘am-alam yuki ezib tashlagan edi. Balki vatan tuprog‘idan chiqib ketishni uning jismi xohlamagandir. Uning yolg‘iz ko‘zidan beixtiyor yumalab tushayotgan tomchilarni ko‘rgan xos yigitlari otlarini niqtab, oldinga intildilar: Mayli, uni holi qoldiraylik, g‘amboda yuragini bo‘shatib olsin”.

Metin irodali, his-hayajonini, ichki tuyg‘ularini sirtiga chiqarmay, jilovlab yurishga qodir, qahhor bu odamga ko‘z yoshlari qaerdan kela qoldi? Bu ko‘z yoshlari uning ko‘zidan emas, qalbidagi ko‘zi ochilib qolgan g‘am-alam bulog‘idan qaynab chiqar edi. G‘am-alamning bosh sababi, albatta, Vatanni bolsheviklardan ozod qila olmaganligi, vatanni tark etish majburiyati edi.

O’sha onda Shermuhammadbekning yonida ahli qalamdan bir kishi bo‘lganda, uning ko‘ksidan otilib chiqqan faryodni, ichini tirmayotgan iztiroblarni balki mana bu tarzda, balki undan yaxshiroq tasvirlar edimi?

*Alvido, ey Turon ichra Farg‘onam,
Bag ‘ri biryon, qalbi giryon g ‘amxonam.
Ag ‘yor ila to ‘ldi mening har xonam,
Kechir meni, ona yurtim, Farg‘onam.*

*Burchim to ‘liq ado eta olmadim,
Kurashdimu, seni ozod qilmadim.
Balki kurash yo ‘llarini bilmadim,
Kechir meni, ona yurtim, Farg‘onam*

Men ketarman tog ‘u toshlarni kezib,

*Yurtni sotgan munofiqlardan bezib.
Noilojlik yuki yuragim ezib,
Kechir meni, ona yurtim, Farg‘onam.*

*Ohkim, mushkuldir ketmoq sendan kechib,
Yig‘layurman zahri-zaqqumlar ichib.
G‘am chekib, alam daryosidin kechib,
Kechir meni, ona yurtim, Farg‘onam.*

*Balki yana quchog‘inga qaytarman,
Bolshavoyni yurtimizdan haydarman.
Istiqlolning alyorini aytarman.
Kechir meni, ona yurtim, Farg‘onam.*

*Men qaytmasam, bir vallomat keladir,
Hurriyatning bayrog‘ini eltadir.
Seni ozod, ruhimni shod qiladir,
Kechir meni, ona yurtim, Farg‘onam.*

Biroq hech kim Farg‘onaning o‘sha yillardagi ahvoli, asoratga tushishi va shu munosabat bilan Shermuhammadbek qalbini kemirayotgan iztiroblarni ulug‘ shoirimiz, istiqlol kuychisi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondan o‘tkazib yoza olmasa kerak:

EY GO’ZAL FARG’ONA

*Ey go‘zal Farg‘ona, qonli ko‘ylagingdan aylanay,
Tarqalib ketgan qora, vahshiy sochingga boylanay.*

*Vahshiy bir o‘rmon kabi bag‘ringni bosmishdir
qamish,
Hech ko‘rinmas ko‘zlariningda bir olov, bir o‘t yonish.*

*Keng, cho‘ziq yaylovlaring yovlarga ochmish ko‘ksini,
Bir qora parda bosibdir tuprog‘ingni ustini.*

*Ko‘zlarining so‘lgan, o‘lik ruhing bilan boqding
menga,
Yurtimizning yulduzi aslo ko‘rinmasmi senga?*

*Bu baland, zo‘r tog‘laring nega to‘solmas yov
yo‘lin?
Yo‘qmidir o‘tkur qilich kesmakka yovning qo‘lin?*

*Biz hama ojiz, zabun, bag‘ri ezilgan sen uchun,
Ba qadar qonlar to‘kildi, ul dahidir sen uchun.*

*Yig‘lama, yurtim, agarchi bu kuningda yo‘q bahor,
Kelgusi kunlarda baxting yulduzi o‘ynab qolur.*

Aka-uka mujohidlar Qorateginning Achchiq Olma mavzeida uchrashib, Anvar Posho ruhiga hatmi Qur‘on qilib, xotirasini nishonlashgach, “Endi nima qilamiz?” degan savol ko‘ndalang bo‘ldi. Darhaqiqat, Anvar Posho shahid bo‘lgach, Sharqi Buxoroga borishdan hech qanday ma’no qolmagan edi. O’t mishda Sharqi Buxoroning kattagina qismi Qo‘qon xonligiga tobe bo‘lib, keyinroq, Qo‘qon xonligi Rusiya bilan urushib turgan yillari Buxoro tomonidan egallangan, har ikki xonlik o‘rtasidagi ziddiyat bu yarlarga ham ta’sir ko‘rsatib, Sharqi Buxoroda Farg‘onaga nisbatan qandaydir kek, adovat bor edi. Buning ustiga, sho‘ro razvedkasi bu adovatga lampamoy quyib, alangalatib yubordi. Mahalliy qo‘rboshilar shuurida “Shermuhammadbek Anvar Posho bilan til biriktirib, bizning yordamimiz bilan hokimiyatni qo‘lga olmoqchi, so‘ngra bizni yo‘qotib, butun Turkistonu Buxoroga hukmdor bo‘lmoqchi” degan fikrni uyg‘otishga erishgan edi.

Anvar Posho shahid ketgach, muhojirlikda yurgan turk zodagonlaridan biri, Anvar Poshoning pochchasi polkovnik Somiy Posho Qushchiboshi (Salim Posho) uning o‘rnini egallab, bolsheviklarga qarshi kurashni davom ettirishini e’lon qildi. Bu xabarni eshitgan Shermuhammadbekda yana umid kurtak yozdi. U bir qancha vaqt Somiy Posho qo‘l ostida qizillarga qarshi jang qilib, 1923 yil bahorida yana Farg‘onaga qaytish va kurashni davom ettirishni qat‘iy belgilab oldi. Biroq hozir orqaga qaytib bo‘lmaydi. Faqat oldinga, Somiy Posho qarorgohiga yurish kerak. Buning uchun Qorategingga kirish va u yerda bir qancha vaqt istiqomat qilish uchun esa bu yerning lashkarboshisi Fuzayl Mahsumdan ijozat olishga to‘g‘ri keladi. Shermuhammadbek unga quyidagi mazmundagi maktub bilan murojaat qiladi:

**“Qorategin lashkarboshisi
Fuzayl Mahsum janoblariga!**

Bolshevik kuchlari ustimizga shiddatli hujumlarini to‘xtovsiz davom ettirmoqdalar. Tinim bilmay urushayotgan askarlarimiz holdan toygan. Farg‘ona va Oloy tog‘larida hozircha turishimiz to‘g‘ri kelmaydi. Qo‘l ostimizdagi mavjud bir ming yetti yuz nafar askar bilan birga qishni Qorateginda musofir o‘laroq o‘tkazishimizga ruxsat bersangiz minnatdor bo‘lur edik. Javobingizga umid bilan, Xudo sizga yor bo‘lsin, Assalomu alaykum.

Farg‘ona lashkari Islom raisi Jahongir Shermuhammadbek”.

Shermuhammadbek Achchiq Olma mavzeida Fuzayl Mahsumdan javob kelishini kutib, o‘n ikki kun turib qoldi. Fuzayl Mahsum o‘sha atrof lashkarboshilar: Eshon Sulton, Doniyolbiy va boshqalar bilan maslahat qildi. Ular Shermuhammadbekni Sharqi Buxoroga kirishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaror qildilar. Biroq Somiy Posho bu gaplarni eshitib qolib, Shermuhammadbekning iltimosini rad etmaslikni so‘radi. Ular rozi bo‘lishga majbur bo‘ldilar. Shundan so‘nggina Shermuhammadbek Qorategingga kirishga muvaffaq bo‘ldi. Somiy Poshoning sa’y-harakatiga qaramay, mahalliy lashkarboshilar mahalliychilik kayfiyatidan voz kechmadilar: Shermuhammadbek va uning yigitlari ochiq va pinhoniy xavf-xatar ostida yashab turdilar. Kechalari ularning qarorgohiga noma’lum otlqlar bostirib kelar, miltiqlaridan o‘q uzib, haqorat qilar, “Farg‘onaliklar, Farg‘onangizga daf bo‘ling” deb baqirishar edi. Shermuhammadbek yigitlariga og‘ir bo‘lishni tayinlab, ularni zo‘r-bazo‘r to‘xtatib qolar, qurolli to‘qnashuv yuz bermasligi uchun harakat qilardi.

Shermuhammadbek Anvar Posho qabrini ziyorat qilib, Qur‘on o‘qish niyatida Baljuvonga bordi. Musulmonchilik burchlarini o‘tab, qarorgohlariga qaytib kelayotganlarida, tor bir dara yo‘lida balki Fuzayl Mahsum, balki bolsheviklar so‘ziga uchgan bir guruh kishilar tog‘ tepasidan turib uning yigitlarini toshbo‘ron qildilar. Bir necha o‘n yigit halok bo‘ldi. Shunda ham Shermuhammadbek yigitlarini katta iroda kuchi bilan to‘xtatib qoldi. Bu voqeadan so‘ng mahalliy lashkarboshilar yigitlari bilan bir necha bor qonli to‘qnashuvlar yuz berdi. Shundan so‘ng Shermuhammadbek bu yerda qolish imkoniyati tugaganligiga tan berib, Afg‘onistondan boshpana so‘rash uchun Darvoz tarafga yurishga buyruq beradi.

Buni eshitgan Somiy Posho Eshon Sultondan quyidagi mazmunda maktub yuboradi:

“Aziz musofirim! Sizni motamga solib, bu yerdan ketishga olib borgan masala o‘rtamizda, albatta

hal etilajakdir. Iltimos qilaman, ketmang!”

Eshon Sulton maktubni olib, Shermuhammadbek huzuriga keladi, biroq unga bermaydi. Uning o‘rniga quyidagi so‘zlarni aytadi:

“Xoji Somiy Posho sizni zudlik bilan Afg‘onistoniga ketishingiz lozimligini buyurdi”.

Shermuhammadbek chegaraga, Panj daryosi sohilidagi Alaykun mavzeiga yetib boradi. U bu yerdan turib, narigi sohildagi afg‘on chegarachilar boshtag‘iga elchi yuborib, o‘tishga ruxsat so‘raydi. Chegarachilar uning iltimosini qabul qilib, o‘tishga ruxsat beradilar.

Afg‘onlardan ruxsat olingach, Shermuhammadbek mahalliy aholidan ijaraga qayiqlar oladi, sol yasash uchun yog‘och xarid qiladi. Yigitlarning bir qismi sol va qayiqlarda, bir qismi otliq daryodan o‘ta boshlaydilar. Yigitlarning katta bir qismi esa, maslahatga ko‘ra, Afg‘onistoniga o‘tmay, bir qancha qo‘rboshilar qo‘l ostida Sharqiy Buxoroda qoldiriladi. Ularga kichik qismlarga bo‘linib, Farg‘onaga qaytib ketish va kurashni davom ettirish buyuriladi.

Nurmuhhammadbek eng so‘nggi guruh bilan daryodan o‘tishga hozirlanib turganda, Somiy Posho yetib keladi va sohildan turib ularga “O‘tmanglar, taslim bo‘linglar!” deb qichqiradi. Unga javoban Nurmuhhammadbek shunday deb qichqiradi:

— Biz o‘rslarga ham taslim bo‘lganimiz yo‘q edi, endi sizlarga taslim bo‘laylikmi?

Shermuhammadbek azim daryoning o‘rtasiga yetganda sol-qayiqni to‘xtatishni buyurdi. O‘y og‘ushida suvga tikildi. Daryoning bir maromda oqayotgan suvi uning o‘y-fikrlariga hamroh bo‘ldi. Suv, bekning shuurida tilga kirib: “... afsus chekmang, dunyo o‘zi shunday qurilgan. Bu taqdir. O‘z yurtingiz, tuprog‘ingiz, dini Islom, Vatan istiqlol uchun bosqinchilar bilan kuchlar tengsiz bo‘lgan holda dadil kurashga kirib, qariyb besh yil yuzma-yuz mardonavor jang qildingiz. Yozug‘ingiz shu ekan, afsuslanmang...” deya shivrladi.

Shermuhammadbek bir zum ko‘zini suvdan uzib, tabora uzoqlashib borayotgan Vatan tuprog‘iga nazar tashladi. Yuragi ezilib, ko‘zida jiqla yoshi bilan yana suvga boqdi. Suvga boqdi-yu, o‘z ko‘zlariga ishongisi kelmay qoldi: nazarida, mavjlanib turgan suvdan baliqlar bosh chiqarib, unsiz tovushlari bilan vidolashgandek bo‘ldilar. Bundan ta’sirlangan bek ko‘zini ko‘kka qadadi: mana, hatto baliqlar ham bizdan roziliklarini bildirib, vido rozini aytdilar, biroq ne xatoga yo‘l qo‘ydikki, ne gunohlarni qildikki, ne-ne aziz-avliyolar ruhi bizni quvvatlamadilar, bizga yor bo‘lmadilar. Ey Tangrim! Ne yozug‘im bor edi? — deya mungli nido ko‘ksidan otilib chiqdi.

Yana suvga boqdi. Oqim uni moziy qa‘riga olib tushib ketdi: xayolini dunyonи zir titratgan Temurbek kezib o‘tdi. To‘xtamishxonni mahv etib, Moskvaga qadam qo‘ygan Temurbek o‘ruslar yurtining xaroba hollarini ko‘rib taajjubga tushdi: mo‘g‘ullar bu yurtning ichini to‘kib qo‘yishibdi. Xalq nihoyatda nochor, ezilgan, qashshoq, qo‘rqoq bo‘lib qolgan. Soch-soqollari o‘sgan paxmoq kishilar, oyoqlariga chilvir bilan chipta kavush boylab olgan yupun odamlar, o‘zligini yo‘qotgan, g‘aflatga botgan, notavon bu kishilarga juda achinib ketdi. Ularning o‘lib ketmasligi uchun yordam qo‘lini cho‘zishni dilidan o‘tkazib qo‘ydi. Shermuhammadbek og‘ir xo‘rsindi.

Ana shu ayanchli odamlar salkam besh asrdan keyin Movarounnahr yurtining bosqinchilariga aylanishini u qaeqdan ham bilsin edi... Ha, hali zamon o‘zga mamlakat tuprog‘iga qadam qo‘yadi. Uni u yerda qanday taqdir kutadi? Og‘ir, juda og‘ir. Dushmanidan yengilish, o‘z yurtini tashlab ketish juda mudhish hol, undan ham og‘iri, yurtini g‘olib bosqinchilarga tashlab ketmoqda. Bu og‘ir ko‘rgulik, nafaqat ko‘rgulik, balki isnod. Ana endi bosqinchilar bizlar haqqimizda xohlaganlaricha yolg‘onlar to‘qishadi, uydirmalar yaratishadi. Chinakam jasur yigitlarimizni zolimlikda, hatto sotqinlikda ayblaydilar, boshlariga tuhmatlar yog‘diradilar. Shunisi dahshatlici, kelgusi avlod bunga ishonadi, bizlarni g‘azab va nafrat bilan esga oladigan bo‘lishadi. Bizning eng yomon ko‘rgiligidiz shu bo‘ladi.

U “hayhot” deya yosh to‘la ko‘zlarini qo‘llari bilan to‘sdi. Nurmuhhammadbek unga yaqinlashib “aka, akajon, Sizga nima bo‘ldi?” deya qo‘rquin bilan so‘radi, akasining holatini tushunib, o‘z ko‘zlaridan ham yosh shashqator kelayotganini sezmay qoldi.

Shu tariqa bir ming yetti yuz askardan uch yuz to‘qson olti nafari bilan yirik sarkarda 1923 yil

boshlarida tarki vatan qilib, Afg‘oniston tuprog‘idan boshpana topishga majbur bo‘ladi.

Ona vatanni ko‘rish ungash boshqa nasib etmadi.

Somi Poshoga kelsak, yuqorida zikr qilib o‘tilgan voqealarni tekshirib Shermuhammadbekka g‘animlik qilinganini, hech qanday ayb yo‘q ekanligiga shohid bo‘ladi va uning Alaykumda qolgan yigitlarini o‘z himoyasiga olib, ular ichidagi G‘oyibnazar domlani ularga lashkarboshi etib tayinlaydi. Ular bir qancha vaqt Somi Posho qo‘mondonligi ostida jang qiladilar hamda vaqt soati yetgach, tirik qolganlari Farg‘ona yurtiga qaytib ketadilar.

O‘tgan fidoyilarini, istiqlol kurashchilarini Alloh o‘z rahmatiga olgay, inshoolloh.

Qalamim qog‘oz uzra tebranib mavzu shu nuqtaga yetganda ko‘zim tinib yoshlanganini his etdim. Bunday holat oldinroq ham yuz bergen edi. “Yashillik sultanati” kitobini yozayotgan paytimda, “Changalzor sultoniga suiqasd” qissasiga kelganimda ham ko‘zlarimdan shu tariqa yosh oqqan edi.

KURASH DAVOM ETADI

Ha, kurash davom etaveradi. Hech bir istilochi sultanati o‘z asoratiga tushgan boshqa bir sultanatni, uning xalqini bir umr asoratda tutib tura olmaydi. Mazlum millat kurashga ko‘tarilib, istiqlolga erishmaguncha uni davom ettiradi. Vaqtga, shart-sharoitga qarab, kurashning shakli o‘zgarib turadi, xolos.

Shermuhammadbek tarki vatan qilgandan keyin ham Farg‘onada kurash davom etdi. Islom Polvon, Omon Polvon, Shermuhammadbekning ukalari va boshqa qo‘rboshilar janglarni bo‘shashtirmadilar. Qizillar bilan sulh tuzib, uzoq vaqt kurashdan chetda turgan Jonibek Qozi ham bolsheviklarning razolatini ko‘rib turib, yana kurash maydoniga qaytdi. Kurashning bo‘shashmay, qat’iyat bilan davom etganligini shundan ham bilish mumkinki, qizil armiya barcha qurolli kuchlarining Bosh qo‘mondoni S.S.Kamenev o‘z qarorgohini Moskvadan Turkistonga ko‘chirib keldi. U Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan mitinglarda “Bosmachilik harakati shu yilning kuz oylarigacha tugatiladi”, deb va’da berdi hamda xalqni bu ishda faol yordam ko‘rsatishga chorladi.

1923 yilning boshlarida Shermuhammadbekning Afg‘onistonga ketganligidan xotirjamlikka berilgan qizil qo‘mondonlik G‘orbuvoga bo‘lgan diqqat-e’tiborini susaytiradi. Bundan foydalangan qo‘rboshilar u yerni ozod qilib, yana qarorgohga aylantiradilar. 15—17 fevral kunlari bu yerda Farg‘ona vodiysi milliy-ozodlik harakati kurashchilarining navbatdagi qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoy Shermuhammadbek ketgandan keyingi vaziyatni tahlil qilib, kurashni davom ettirishga qaror qiladi. Shuningdek, qurultoy oxirida shahid ketgan yigitlar, qo‘rboshilar, jumladan, Rahmonqulibek, Muhiddinbeklar ruhiga hatmi kabir marosimi o‘tkazildi.

Shermuhammadbek Sharqiy Buxoroda sargardon bo‘lib yurganida Muhiddinbek qizillar qo‘liga tushib qolgan edi. 1922 yil sentyabr oyida O’sh shahrining Hazrat Jome’ masjidida Muhiddinbek va uning qo‘rboshilarini ishi yuzasidan ochiq sud bo‘lib o‘tdi. Sud uni va sheriklarini otuvga hukm qildi. “Qolgan-qutgan bosmachilarga” saboq bo‘lishi uchun hukm xalq oldida ijro etildi.

Shu oylarda Qo‘qonda, Chorsu maydonida Rahmonqulibek va uning safdoshlari ustidan sud bo‘lib, ular ham qatl etildilar.

1923 yilda qahatchilik avjiga chiqdi. Qahatchilik ham qizillar foydasiga ishladi. O‘tgan yillardagi kabi, mahalliy aholi vakillari “hech bo‘lmasa, qornim to‘q, ustim but bo‘ldiku” degan fikrda qizil armiyaga ko‘plab yozilishda davom etdilar. Shahar va qishloqlar sho‘rolarida ham aholiga bir oz un, urug‘lik bug‘doy tarqatib, shu yo‘l bilan odamlarni o‘zlariga og‘dirish yo‘lga qo‘yildi. Xullas, milliy-ozodlik kurashi qatnashchilarini ostidagi zamin borgan sari cho‘ka boshladi.

Shunday bo‘lsada, ozodlik kuchlari kurashni davom ettiraverdilar. Hatto, yilning birinchi yarmida bir qancha yirik g‘alabalarga ham erisha oldilar. Sho‘ro hukumati, kommunistlar partiyasi majlis ustiga majlis chaqirib, “bosmachilikka qarshi kurashni kuchaytirish, uni tag-tugi bilan yo‘q qilish” haqida qator qarorlar qabul qildi. Bosh qo‘mondon S.S.Kamenev qat’iy choralar ko‘rishga majbur bo‘lib

qoldi. Uning shtabi olti oy ichida “bosmachilikni tugatish” rejasini ishlab chiqdi. 1923 yil iyun oyidan boshlab qizil armiya O‘rta Osiyo bo‘ylab yalpi hujum boshladi, yangi-yangi qismlar olib kelindi.

Shu o‘rinda yozma manbalarda qalamga olinmagan, o‘sha davr dahshatlarini boshidan kechirgan odamlardan eshitgan voqelardan birini eslatib o‘tishga to‘g‘ri keladi: 1923 yilda Farg‘ona vodiysisiga jazo ekspeditsiyasi sifatida mashhur sovet sarkardasi S.M.Budyoniy tashkil etgan otliq armiya qismlaridan biri olib kelinadi. Budyoniyning o‘zi bu davrda armiyaga qo‘mondonlik qilmay, Oliy qo‘mondonlik tarkibida xizmat qilar edi. Mazkur jazo ekspeditsiyasi, guvohlarning ta’kidlashlaricha, Farg‘onani qonga botirgan. Tarixdan ma‘lumki, jazo ekspeditsiyalari, odatda, muntazam qo‘shin, ya‘ni, qo‘zg‘olonchilar qo‘shini bilan emas, balki, tinch aholi bilan jang qiladi. Ekspeditsiya shaharlar va qishloqlar bo‘ylab yurib, duch kelgan erkak kishini, ayniqsa jang qilish yoshidagi kishilarni surishtirib o‘tirmay miltiq bilan otib, qilich bilan chopib ketavergan. Bir do‘stimning marhum otasi shunday hikoya qilgan edi:

“—... Shahardagi ur-yigitlar tufayli anchadan beri Qatag‘on mahalladagi chorborg‘imdan xabar olmagan edim. Bir kun astoydil hafsala qilib, chorboqqa bordim. U yerdagi kam-ko‘st ishlarni qilib, bir oz meva-cheva olib qaytdim. Qorasuv bo‘yi bilan kelayotganimda birdaniga Chorsu tomonidan qochib kelayotgan odamlar va ularni quvib kelayotgan, uchli shapka kiygan otliq sallotlarga ko‘zim tushdi. Salloqlar piyoda qochayotgan kishilarni quvib yetib, qilich bilan chopla boshladi. Qochgan qochib qoldi, qocholmagan boshidan ayrildi. Bir otliq men tomon xezlanib, qilich ko‘tarib ot qo‘ydi. Qochishga majbur bo‘ldim. Qochayotib, yoshligimizda rosa urinib hatlab o‘tolmagan katta Qorasuv arig‘idan qanday sakrab o‘tib ketganimni o‘zim ham bilmay qoldim. Bir hovlining devoridan ham oshib o‘tib, devor ortidan sekin bosh chiqarib qarasam, haligi otliq ariqdan o‘tgani erindi shekilli, yo‘l bo‘yidagi boshqa kishilarni quvib ketdi... Keyin bilsam, bular Budyoniy degan katta bir qo‘mondonning salloqlari ekan...”

Nihoyatda katta kuch bilan yalpi hujumga o‘tgan qizil armiya borgan sari saflari kamayib borayotgan, besh yillik urush, nosoz sharoit, ochlik va sarsonlikdan tinkasi qurigan ozodlik kuchlari ustidan ketma-ket g‘alabalarga erisha bordi. Ko‘plab yigitlar va qo‘rboshilar qirib tashlandi, bir qanchasi asir olindi, ba’zilari o‘z ixtiyorlari bilan taslim bo‘la boshladilar. O‘sha urushning faol ishtiroychisi bo‘lgan, keyinchalik o‘ziga “Aziz Niallo” deb taxallus olgan yozuvchi Andrey Stashinevskiy kundalik daftar tutib, voqealarni yozib borgan. U o‘z kundalik daftarıdagı alohida bir necha varaqqa taslim bo‘lgan, asir olingan, o‘ldirilgan qo‘rboshilar xronikasini yozib borgan ekan.

Farg‘ona viloyatining o‘sha paytda markazi bo‘lib turgan birligina Qo‘qon shahrining o‘zidayoq 1923—1924 yillar mobaynida yuzlab qo‘rboshilarining sudlari bo‘lib o‘tdi. Islom Polvonning sud jarayoni, ayniqsa, ko‘pchilikning esida qolgan ekan. Ochiq sud majlisi dastlab Amir Umarxon Jome’sida boshlandi. Xalq nihoyatda ko‘payib ketgach, majlisni Chorsu maydoniga ko‘chirishga majbur bo‘ladilar. Sud raisi rasmiyatçilik yuzasidan Islom Polvon va uning qo‘rboshilariga oqlovchi tayinlaganida qo‘rboshi qarshi chiqadi:

— Men Allohim oldida ham, el-yurtim oldida ham oqman. Menga oqlovchining keragi yo‘q! — deb xitob etadi. Sud hukmini ham dod-voysiz, o‘ta vazminlik bilan qabul qiladi. Mahkumning qonuniy huquqi bo‘lgan oxirgi so‘zni bergenlarida, so‘zini so‘zlab bo‘lib, oxirida xalqqa murojaat qiladi:

— Mendan rozimisizlar?

Odamlar javob berishga ulgurmashdan ko‘kda momaqaldiroq gumburlaydi.

— Ana, Alloh-taolo mendan roziliginib bildirdi, sizlar ham rozi bo‘linglar.

Endi bu yerda hozir bo‘lgan xalq ham qo‘rquvni pisand qilmay:

— Rozimiz, rozimiz, siz ham bizdan rozi bo‘lib keting! — deb hayqirib yuboradi...

Minglab yigitlar asir olingani, yuzlab qo‘rboshilar qatl etilgani bilan kurash to‘xtab qolmadı. 1924—1925 va undan keyingi yillarda Qo‘qonda Oybola Qo‘rboshi, Quvada Umarali Lashkarboshi, Isfarada Turdibek, G‘orbuvvo atrofida Ro‘zimuhammadbek, Oloy va O‘zganda Jonibek Qozi va boshqa mintaqalarda boshqa qo‘rboshilar kurashni davom ettiradilar. Vodiyya eng uzoq qurolli kurash olib

borish Jonibek Qoziga nasib etdi. Qozi 1934 yilgacha O‘zgan, Qorashura, Oloy atroflarida jangni davom ettirdi va nihoyat, Qashqarga ketishga majbur bo‘ldi.

Yuqorida nomlari qalamga olingan qo‘rboshilar ham vaqtি-soatlari yetib, birma-bir shahid bo‘ldilar. O‘z ixtiyorli bilan sulh tuzib, taslim bo‘lib, yigirmanchi yillarda omon qolgan qo‘rboshilar ham o‘z ixtiyorlari bilan qizillarga xizmat qilganlar ham, o‘ttizinchи yillar qatag‘onining qatli omiga duchor bo‘ldilar. Hammalarini Alloh o‘z inoyatiga olgan bo‘lsin!

SHERMUHAMMADBEKNING MUHOJIRLIKDAGI HAYOTI

Afg‘onistonga o‘tib olishga muvaffaq bo‘lgan Shermuhammadbek hamda hamrohlarining u yerda ko‘rgan-kechirganlari haqidagi eng ishonchli manba uning xotiralaridir. Xotiralarining Afg‘oniston bilan bog‘liq qismidan bir parchani Ali Bodomchi kitobidan keltiramiz:

“... Afg‘oniston chegara maskanidan o‘tib, bir hafta yurgandan keyin Badaxshon shahriga olib borishdi. Bizni podshox Omonulloxonning harbiy qo‘mondonlari va pochchasi harbiy tantana bilan kutib olib, mehmon qildilar. Boshimizdan o‘tgan hodisalardan juda ta’sirlangan holda shunday tasalli berishdi: “Peshonangizga shunday yozilgan ekan, taqdiri ilohiyga qarshi turib bo‘lmaydi. Sizlar qo‘llaringizdan kelganini qildingiz”.

Bu yerda o‘n kuncha dam olgandan keyin Xonobodga yo‘l oldik. Xonobod hokimi bizni ko‘rgani keldi va hurmatimizni joyiga qo‘yib har bir askarga yigirma jerib yer maydoni ajratib berishga va’da qildi. Xonobodda ekanligimizda Dohiliya (ichki ishlar) vakili Xayrulloxon bizni mehmon qildi. Menga bir yilda o‘ttiz ming rupiya nafaqa tayinlaganlarini aytdilar.

Afg‘oniston hukumati bergen pul va yer yordami taqsimlanadigan paytda askarlarimizning ko‘pchiligi olishni xohlamaadilar: “Yurtimizdagи ota-ona, xotin, bola-chaqalarimizni tashlab keldik. Bu yerda nima qilamiz? Vatanga qaytishni istaymiz”, — degan mazmundagi gaplarini muftiy Yunusali orqali menga bildirishdi. Men hozir vaziyat o‘ta nozik ekanligi, bir oz sabr qilish zarurligini aytdim. Afg‘onistonga kelganimizdan ikki oy keyin satkaklik To‘xtasin Qo‘rboshi boshchiligidagi yigirma besh kishini ahvolni o‘rganish uchun Sharqiy Buxoroga yubordim. Farg‘onadagi urush hali tugamagandi. G‘orbuvoda ukalarim Ro‘zimuhammadbek va Toshmuhammadbeklar janglarni davom ettirishardi. O‘zgan va Qo‘qondan ham yaxshi xabarlar kelib turardi. To‘xtasinbek Qo‘rboshi Sharqiy Buxorodagi ahvolni o‘rgangandan keyin sog‘-salomat Farg‘onaga yetib borib, uch ming kishini atrofiga to‘plab, jangga kirishib ketibdi. Ammo bir oz vaqtdan keyin o‘ttiztacha askari bilan ikki tomongan o‘rab olinib, shahid qilinganini eshittdik. Dushmanning jabr-zulmi Farg‘onani jahannamga aylantirayotgandi.

O‘sha kunlari Omonulloxon meni poytaxt Kobulga chaqirdi. Askarlarimizning bir qismi Badaxshonda, Nurmuhhammadbek qo‘l ostida edi. Xonoboddagi do‘stlarimni Mulla Hotam qo‘rboshiga topshirib, o‘n ikki yigitim bilan Kobulga yo‘l oldik.

Kobuldagи davlat mehmonxonasiga qo‘ndik. Bu yerda Omonulloxonning yaqin va qadrdon do‘sti bo‘lmish Turkiya elchisi Faxri Posho bilan bir necha marta muzokaralar olib bordik. Ilk uchrashuvimizda Faxri Posho shunday dedi:

— Men ellik kishi bilan Turkiston tomonga o‘tayotgan edim. Siz kelib qoldingiz. U yoqlarda ahvol qanday?

— Anvar Posho shahid bo‘lgandan keyin biz askarlarimiz bilan Sharqiy Buxoroda Hoji Somiy yonida jang qilmoqchi edik, bu ham nasib qilmadi,— dedim men.

— Eshitib juda xafa bo‘ldim, — dedi Faxri Posho, — kurash tugagani yo‘q va tugamaydi ham. Ellik millionlik Turkiston xalqining yigirma besh millioni o‘lib ketsa ham, yana yigirma besh million tirik qoladi. Ana o‘shalar kurashni davom ettiraveradi.

Men Faxri Posho bilan uzoq gaplashib, o‘z masalalarimizni tushuntirdim. Keyinroq

Omonulloxonning qaynotasi, asli turk (turkiyalik, Usmonli oilasidan) bo‘lmish Mahmudbek bilan tanishdik. Mahmudbek menga tasalli berib ko‘pdan-ko‘p iltifot ko‘rsatdi:

— Sizga yer beramiz. Shu yerda qoling, — dedi u.

— Mening mol-mulkka ehtiyojim yo‘q, — dedim men. Ertami-kechmi Vatanga qaytaman. Siz mening vaqtincha Kobulda qolishimga yordam bersangiz bas, sizdan minnatdor bo‘lardim.

Shu orada Kobulda turgan, Sharqiy Buxoroda Anvar Posho milliy harakatga qo‘shilgan paytda unga harbiy nozirlik qilgan Hasanbek bilan bir necha marta ko‘rishdim. Hasanbek ham Kobulda Omonulloxonning shaxsiy mehmoni bo‘lib turgan ekan. Shu bilan birga Omonulloxonga rus, olmon, ingliz, frantsuz, arab va turk tillaridan tarjimonlik qilar ekan.

Adashmasam, Turkiyaning Marash (hozirgi Qahramon Marash shahari) viloyatidan ekanligini aytgandi. Bizdan bir oz vaqt avval Afg‘onistonga o‘tgan ekan.

— Men yaqinda Vatanga qaytaman, — dedim men, — sizni ham taklif qilsam borarmidingiz?

— Jonim bilan boraman. Mening bu yerga kelishimdan maqsad mana shu tilagim Turkistonda o‘lmoqdir. Biz usmonli zabitlari o‘laroq, Turon uchun tug‘ilganmiz. Turon bilan birga o‘la olamiz. Biz o‘zimizdan ko‘ra ko‘proq Sizlarni o‘ylaymiz.

Afg‘onistonda turkiyaliklar ko‘p edi. Bularning ichida usmonli zabitlari anchagina ekan. Jamol Posho bu yerga kelgan paytda Turkiston milliy-ozodlik harakatiga yordam berish uchun bir tashkilot tuzgandi. Mana shu tashkilot hozir ham bor bo‘lib men uni ko‘rishga orzumand edim. Jamol Posho bu yerda ming kishiga mo‘ljallangan harbiy maktab tashkil etgandi. Mana shu ming talaba ichida keyinchalik Omonulloxonga zarba bergan Habibulloxon ham bor edi. Tashkilot bilan tanishuvim paytda Sharqiy turkistonlik Najotiybek hamda Najmiddin Nidoslar bilan ham ko‘rishdik. Muloqot natijasida Badaxshonda bitta baqqol do‘konib, Turkistonga qurol-yarog‘ yuborishni shu yerdan boshqarib turadigan bo‘ldik.

Shu paytlarda minglab musulmon turklar Peshavordan Afg‘onistonga o‘tayotgandi. Ular bilan aloqa bog‘lab mushkullarini oson qildik. Ona vatanga o‘tish uchun bir necha askarlarim bilan Kobuldan chiqib, Xindistonga yo‘l oldim. Ingliz elchixonasi xodimlari bilan ko‘rishib yordam so‘radim. O’sha kunlarda Lenining o‘lgani haqida xabar keldi. Bombayga borganimda Rusiya tashqi ishlari vaziri Chicherin ham o‘sha yerda ekan. U bizning faoliyatimiz haqida ingliz idoralariga shikoyat qilganmish. Inglizlar mening yo Sharqiy Turkistonga yoxud Mashhadga ketishim haqida ogohlantirishdi. Pomir tomonga boradigan bir poezdga chiqdim. Bombaydan uzoqlashishim bilan bir bekatda poezddan tushib qoldim. Piyoda yura-yura ming mashaqqat bilan Himolay tog‘i etagidagi Xatara tog‘laridan oshib o‘tib, Turkistonga yetib keldik. Oyoqlarimizda poyabzal ham qolmagandi. Chor-nochor holatda yigirma besh kun yurib yana Badaxshonga qaytdik...

Shermuhammadbek Pomirga kelganda, bu yerda istiqomat qilib turgan qirg‘iz, tojik, o‘zbek (laqay) xalqlaridan qo‘shin tuzib, kurashni davom ettirishni mo‘ljallagan edi. Biroq, askar topish imkonini bo‘ldi-yu askarga yarasha oziq-ovqat zaxirasi, qurol-yarog‘, o‘q-dori topish imkonini bo‘lmadi. Noilojlikdan yana Afg‘onistonga qaytishga majbur bo‘ldi.

U Badaxshonga qaytib kelganda 1924 yil tugab, 1925 yil boshlanayotgan, halqaro siyosat va Afg‘onistonning ichki siyosatda bir oz o‘zgarishlar yuz bergan edi. Ma’lumki, Sovet hukumati o‘zining janubiy chegarasini mustahkamlash, janubiy qo‘shnisi bo‘lgan Afg‘onistonni Angliya tajovuzidan saqlash uchun ham uni xalqaro maydonda astoydil himoya qilib keldi, unga siyosi, iqtisodiy yordamlar ko‘rsatdi. Shu tufayli, Afg‘oniston hukumati, xususan uning shohi Omonulloxon va undan keyin taxtni egallagan Habibulloxon Rossiya bilan munosabatlarini buzmaslik, uning iqtisodiy yordami va qo‘llab-quvvatlashidan mahrum bo‘lmaslik uchun bu davlatning dushmanlari hisoblanadigan kishilarni o‘z qanotlari ostiga olmasligi tabiiy bir hol edi. Shu tufayli keyingi yillarda farg‘onalik musofirlar ko‘p aziyat chekishlariga to‘g‘ri keldi.

Shermuhammadbek shu sharoitda ham qo‘l qovushtirib o‘tirmadi: imkon boricha sovetlarga qarshi kurashni davom ettirdi. Bir vaqlar Shermuhammadbekka dushmanlik qilib, uni Sharqiy Buxoroga

sig‘dirmagan qo‘rboshilar vaqtি-soati yetib, o‘zлari ham Afg‘onistonga qochib o‘tib, musofirlik namagini totib ko‘rishdi. Ular Shermuhammadbek bilan bir necha bor uchrashdilar, o‘tgan ishlar uchun kechirim so‘rashdi, kurashni davom ettirish uchun hamkorlikka chorlashdi. Shermuhammadbek ham kek saqlab o‘tirmadi. Ular hamkorlikda kurashni davom ettirdilar. O‘ttizinchi yillarning boshlarida bir necha o‘n bor chegarani buzib o‘tib garchi, katta g‘alabaga erisha olmagan bo‘lsalarda, Sho‘rolarga qarshi kurash xali davom etayotganligini bildirib qo‘ydilar.

Shermuhammadbek milliy-ozodlik harakatining yirik sarkardalaridan biri Ibrohimbek Laqay bilan bir necha marta uchrashadi. Bir-birlariga o‘tgan voqealar uchun uzr-ma’zur qilishadi. Shuningdek, Ibrohimbek, Buxoroning sobiq amiri Olimxon bilan Shermuhammadbekni yaqindan tanishtiradi, ko‘z yoshlар bilan samimiy quchoq berib ko‘rishadilar, o‘tgan ishlar uchun uzr aytishib, kelgusi rejalar haqida fikrlashadilar. Shermuhammadbek 1930 yilga qadar ikki marotaba katta kuch bilan Afg‘onistondan turib qizillarga qarshi tashlanadi. Lekin taqdir unga kulib boqmadi.

Shermuhammadbek Afg‘onistonga o‘tish asnosida daryo o‘rtasida sol qayiqni bir muddatga to‘xtatib, Vatan tuprog‘idan ko‘z uzolmay iztirob chekib, turli o‘y-xayollarga borganligi, shu jumladan, dushmanlar Vatandan judo qilgani bilan kifoyalanmay, yomon otliq qilish, tuhmat, bo‘hton toshlarini otishi muqarrarligini qalbida o‘tkazganligini yuqoridagi boblarimizda hikoya qilgan edik.

Shermuhammadbek 1945 yilga qadar Afg‘onistonda, Hindistonda, 1951—1959 yillarda Pokistonda, 1959 yildan 1970 yil 10 martga qadar, ya’ni, umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida yashadi.

U qalbida iztirob, bir umrlik Vatan qayg‘usi bilan 77 yoshida yorug‘ dunyonи tark etdi. Shermuhammadbek Afg‘onistonga o‘tib ketgan paytdan boshlab Sho‘rolar uni yomon otliq qilish uchun siyqasi chiqib ketgan, biroq sinovdan o‘tgan, eng mohir ig‘vogarlarning cho‘ntagidan tushib qolgan iflos usullarni qo‘lladilar.

Boymirza Hayit Shermuhammadbekning Afg‘onistondagi hayotini o‘z asarlarida yoritib o‘tgan. Ulardan kichik bir parcha keltiramiz: “Ruslar afg‘on hukumatidan Shermuhammad va boshqa qo‘rboshilarini Sovet ittifoqiga qaytarib berishni talab qiladilar. Afg‘on hukumati bu talabni rad etadi. Sovet ruslarining qistovi va nayrangiga ko‘ra Shermuhammad, Nurmuhammad va Afg‘onistonda qo‘nim topgan boshqa qo‘rboshilar ushlanib, Ikkinci jahon urushi tugagunga qadar (olti yil chamasi) qamoqda saqlandilar. Urushdan so‘ng ular ozod etildilar...”

Shermuhammadbekning keyingi hayotini puxta o‘rgangan **mashxur olim Rustambek Shamsutdinov esa shunday yozadi:**

“... Afg‘onistonda Omonulloxon, so‘ngra Nodirxon podshohlik qilgan davrda Shermuhammadbekka Afg‘oniston hukumati Sho‘rolar bilan aloqani uzmaslik siyosatini olib borardi. Harholda, bu hukumat Shermuhammadbekka bir ming afg‘oni oylik berib turdi. Yer ham berdi. Shermuhammadbek keyin bu yerlarni hukumatga qaytargan.

1951 yili Afg‘onistondagi ota yurtlik turkistonlik muhojirlar qon-qardosh Turkiyadan boshpана oldilar. Shermuhammadbek va ukasi Nurmuhhammadbeklar bunda bosh-qosh bo‘ldilar. Ular Pokistonning Peshavor shahrida turib vatandoshlarni Turkiyaga kuzatdilar. Jami 1111 kishi Turkiyaga jo‘natildi. Shermuhammadbek vaqtincha Peshavorda, Nurmuhhammadbek Karachida yashagan. Ular Sharqiy Turkistondan ham ko‘plab vatandoshlarni Turkiyaga jo‘natish bilan mashg‘ul bo‘ldilar...”

Shermuhammadbekning Farg‘onadagi oilasi haqida yetarli ma’lumot dastlab topolmadik. Faqat ba‘zi manbalardagi Shermuhammadbek Shohimardonlik Muzaffarxon Mingboshiga kuyov bo‘lganligi eslatiladi, ammo izlanishlarimiz behuda ketmadi.

“Shermuhammadbek Afg‘onistonga o‘tib, Kobulda yashay boshlaydi. 1924 yili Andijondan Kobulga borib qolgan Zulfiniso ismli qizga uylandi. Ulardan Davronbek, Jahongir, Saodatxon, Xosiyatxonlar dunyoga keladi. To‘ng‘ich o‘g‘li Davronbek hozir Nyu-Yorkda, Saodatxon Turkiyaning Adana shahrida istiqomat qilishyapti. Jahongir bilan Xosiyatxonlar Shermuhammadbek Kobuldaligidayoq vafot etishgan. Davronbekning onasi Zulfiniso 1972 yili Adanada olamdan

o‘tgan...”

Nihoyat, 1955 yili Shermuhammadbek o‘z oilasi bilan Turkiyaga keladi va Adana shahrida umrining oxirigacha yashaydi. 1970 yil 10 martda Shermuhammadbek olamdan o‘tadi. Uning dafn marosimi juda katta hurmat, ehtirom, qayg‘u bilan o‘tkaziladi. Turkiya hukumatidan, dunyoning boshqa joylarida yashayotgan vatandoshlardan, jamoat va ilm arboblaridan vakillar, ta’ziyalar keldi. Bu qahramon sharafiga atalgan marsiyalar radio to‘lqinlari orqali bir necha kun berib turildi. Uning tobuti butun Adana shahri bo‘ylab Turkiya va Turkiston Muxtoriyati bayroqlari va mungli musiqa sadolari ostida qabristonga eltilib qo‘yildi...”

IBROHIMBEK LAQAY

Milliy-ozodlik harakati uchquni Farg‘onada chaqnab, uning alangasi butun Turkistonni qamrab olganligi tarixdan ma’lum.

Buxoro amiri bir zarbadayoq mag‘lub bo‘lgan desak, xato qilgan bo‘lamiz. To‘g‘ri, kuchlar teng bo‘Imagani uchun amir poytaxtni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ldi, biroq Sharqi Buxoroda, keyinchalik Afg‘onistonda turib kurashni davom ettirdi. Sharqi Buxorodagi kurashni amirning lashkarboshisi Ibrohim Laqay boshqarib, 1932 yilgacha qizil armiya bilan shiddatli janglar olib borganligi tarixdan ma’lum.

Milliy-ozodlik harakatining Buxorodagi yirik sarkardalaridan biri Ibrohimbekdir. U 1889 yilda Dushanbe yaqinida Ko‘ktosh dahasida tavallud topadi. U Buxoro amiri tomonidan 1921 yilda butun Buxoro qo‘sishinlariga qo‘mondon etib tayinlanadi. 1921 yil 17 sentyabrda “Islom lashkarboshisi” degan unvon berilgan. 10000 nafardan oshiqroq askar to‘plab Ko‘lob, Baljuvon, Qorategin, Darvozu Hisor viloyatlarini qizillardan tozalagan. 1923 yil Hisor, 1925 yildan Surxon, Sherobod, Boysun vohalarida Sho‘ro armiyasiga qarshi mardonovor kurashadi. U Afg‘onistonga o‘tib ketgandan keyin 1926—29-yillarda Kobul yaqinida Said Olimxon qarorgohida yashagan. 1928—29-yillarda Kobuldan Shimoliy Afg‘onistonga kelib yana mavqeini mustahkamlashga erishadi. Sovet qo‘sishinlari 1929 yil aprel-may oylarida Afg‘onistonga bostirib kiradi. Ibrohimbek boshqa qo‘rboshilar bilan 1930 yil 25 mayda qurultoy o‘tkazib SSSRga qarshi urush rejasini belgilab oladilar, ammo bu rejadan voqif bo‘lgan qizil armiya unga qarshi zarba uyushtiradi.

1930 yil 20 iyunda ikkinchi marotaba qizil askarlar yana Afg‘onistonga bostirib kiradi. Bir haftalik og‘ir jangdan so‘ng chekinishga majbur bo‘ladi. Ibrohimbek 1931 yil 30 martda yana Tojikiston hududiga kirib 3 oy bolshavoylarga qarshi shiddatli jang olib boradi.

Ibrohimbek vatan xoinlari va sotqinlarni butun qalbi bilan juda yomon ko‘rardi. Sho‘rolar har xil yo‘llar bilan tub yerli aholini aldab, mansab va pullar berib razil maqsadlarda foydalanardilar. Farg‘onada olib borilgan janglarda ham shunday usullar ko‘plab qo‘llanilgan.

Bolshavoylar firqasi Ibrohimbek, Ismat, Rahmon Dodxoh kabilarni yo‘q qilish uchun o‘z xohishi bilan taslim bo‘lganlarga katta-katta mansab, sadaqalar berish uchun maxsus guruhlar tuzilgani tegishli maxfiy hujjalardan ma’lum.

Bularga uchgan uchta sotqin musulmon yigit qo‘rboshi Ismatbekning boshini kesib, Ko‘lob harbiy garnizoniga topshirishadi, evaziga besh yuz tilladan oladilar, mukofotlar bolshavoylar tomonidan tantanali topshiriladi. Qizillar esa uni bosh tanasini qoziqqa suqib shahar, qishloqlarga olib borib mitinglar o‘tkazadilar.

Bunday vahshiylikdan daxshatga tushgan Ibrohimbek qizil askarlarga sotilgan yigitlar qishlog‘iga o‘t qo‘yadi hamda sotilgan mal‘unlarni topib o‘ldirtiradi. Ibrohimbek 1931 yil 12 iyunda Oqbosh tog‘idagi oxirgi jangda yaralanib mag‘lubiyatga uchraydi. 1932 yil mart oyida sud qilinib, 31 avgustda qatl etilgan.

Ibrohimbekka nisbatan bolshavoylar nafrati shunchalikka borib yetganki, u mansub bo‘lgan Laqay urug‘i o‘zbeklari ta’qib ostiga olingan.

Hatto bolshavoylar Laqay zotli otlarni ham qirib tashlagan. Sharqiy Buxorodagi ozodlik kurashining yuqori cho‘qqiga ko‘tarilishida katta hissa qo‘shgan Buxoro xalqining fidoyi o‘g‘lonlari milliy-ozodlik kurashini 1934 yilga qadar davom ettirganlar.

JUNAIDXON

Xiva xonligi ham osongina taslim bo‘ldi desak, yana xato qilgan bo‘lamiz. Xorazmda milliy-ozodlik kurashi 1934 yilgacha davom etdi. Kurashni Xiva xonligining amaldagi hukmdori Junaidxon boshqardi.

Turkmanlarning yovmud qabilasi junayd tarmog‘i vakili bo‘lmish Qurbon Muhammad 1857 yilda tavallud topdi. Tug‘ma salohiyati tufayli, madrasada o‘qimasdan, mirob, qozi lavozimlariga erishdi. Dehqonchiligi faqat sug‘orish bilan bog‘liq Xorazmda miroblik yuqori darajali mansab hisoblanadi. U yerda mirob nafaqat suv taqsimoti bilan, balki katta-katta ma‘muriy hududlarni boshqarish bilan ham shug‘ullanadi. Qurbon Muhammadning harbiy iqtidorini ko‘rgan xalq uni urug‘ harbiy sardori etib saylaydi. 1914 yili Xiva hukmdori Asfandiyorxon uni saltanatdagi barcha turkman qabilalarining sardori etib tayinlaydi.

Hokimiyat uchun kurash deyarli barcha mamlakatlar tarixiga xos harakatdir. Asfandiyorxonning siyosati va tutgan yo‘li, xonlikning tanazzul botqog‘iga botib borishi Xorazmda ham hokimiyat uchun kurashning kuchayishiga turki bo‘ldi. Bu kurash Qurbon Muhammadni ham chetlab o‘tmadi. U 1915 yilda o‘ziga Junaidxon degan nom olib, hokimiyat uchun kurashga qo‘shildi. 1918 yilda u saroy a‘yonlari yordamida davlat to‘ntarishi o‘tkazib, taxtga Asfandiyorxonning akasi Said Abdullaxon To‘rani o‘tkazdi, o‘zi qo‘shin sardori vazifasida turib, davlatni boshqardi.

1920 yil bahorida sovetlar hokimiysi “Xorazm inqilobchilariga birodarlik yordami” bahonasida Xorazmga katta qo‘shin tashladi. Oqibatda xonlik tugatilib, Xorazm Xalq Soveti Respublikasi nomli hukumat tuzildi. Junaidxon turkman sahrolariga chekinishga majbur bo‘ldi. U bir oz kuch to‘plab, milliy-ozodlik harakatini boshlab yubordi va 1929 yilgacha tinimsiz jang qildi. 1929 yili Eronga o‘tdi. Eronning chegaraga yaqin xududiga o‘rnashib, sovetlarga qarshi kurashni davom ettirdi. 1931 yilda Sovet hukumatining qat’iy talabi bilan Eron hukumati Junaidxonni Erondan chiqarib yuborishga majbur bo‘ldi. Junaidxon Afg‘onistonga o‘tib, 1938 yil vafotiga qadar kurashni davom ettirdi.

Farg‘onada milliy-ozodlik harakatida ishtirok etgan qo‘rboshilar

I. Milliy-ozodlik harakatini boshqargan yirik qo‘rboshilar

Nº	Ismi	Tug‘ilgan yurti	Tug‘ilgan yili
1.	Ergashbek (Katta Ergash)		Bachqir 1882
2.	Muhammadaminbek (Madaminbek)	Marg‘ilon	1894
3.	Shermuhammadbek G’orbuvo		1894
4.	Parpibek	Andijon	1882
5.	Jonibek Qozi	O‘zgan	1867
6.	Muhiddinbek	Ko‘kjar (Oloy)	1877
7.	Omon Polvon	Namangan	1867
8.	Xolxo‘ja Eshon	O’sh	1874

9.	Islom Polvon	Qorayozibuvu	1882
10.	Rahmonqulibek	Ashoba	1877
11.	Nurmuhhammadbek	G’orbuvo	1899

II. Qo‘rboshilarning alifbo tartibidagi ro‘yxati

№	Ismi	Tug‘ilgan yurti	Tug‘ilgan yili
1.	Abdulla Qori	Andijon	1890
2.	Abdulla Qori	Xonabod	1898
3.	Abdullabek	Sho‘rbuloq	1897
4.	Abdullahjon	Oltiariq	1888
5.	Abdulla Polvon	Varzik	1887
6.	Abdulla Qozi Xudoyorov	Do‘rmoncha	1870
7.	Abdullahjon Maxsum Jaloyir		1882
8.	Abdulla Maxsumbek	Kistako‘z	1895
9.	Abduvahhob Boyvochcha	Qashqaqishloq	1899
10.	Abdurahim	Poytug‘	1882
11.	Abduqahhor	Namangan	1900
12.	Abduqahhor	Qo‘qon	1881
13.	Abdumalik Mingboshi	Chust	1876
14.	Abdusalom Qori	Chust	1898
15.	Avliyoxon Maxsum	Qo‘qon	1890
16.	Avliyoxon Mextar	Marg‘ilon	1882
17.	Avliyoxon To‘ra	Marg‘ilon	1892
18.	Akbarali	So‘kchilik	1877
19.	Akbarbek	Qo‘qon	1883
20.	Aliyorbek	Zilxa	1882
21.	Aliboy	Qorakatak	1882
22.	Allomboy	Zilxa	1892
23.	Arslonbek Qassob	Targ‘ova	1890
24.	Arslon	Ayirkos	1892
25.	Asqarbek	So‘kchilik	1893
26.	Asqar Polvon	Qo‘qon	1887
27.	Asqarbek	Qoraqo‘rg‘on	1887
28.	Asqar	Naymancha	1889
29.	Ashirmat	Pang‘oz	1881
30.	Ashir Boyo‘g‘li	Rajabgardi	1890
31.	Ahmad	Xonariq	1897
32.	Ahmad Polvon	Asaka	1892
33.	Ahmad Qozoq	Andijon	1887
34.	Ahmadali	G’orbuvo	1985
35.	Ahmadjon Boyvochcha	Xo‘jaxasan	1897
36.	Bekmurod	Madarasa	1887
37.	Bobojon	Yozyovon	1884
38.	Boytumanbek	Mamaxon	1882
39.	Boltaboy	Samarqand (Bog‘dod)	1892
40.	Boymirza	Uchko‘prik	1889

41.	Boyaston	Chotqol	1880
42.	Boltaboy	Qumariq	1886
43.	Bo‘ri Boyvochcha	Mo‘yimuborak	1883
44.	Bo‘riboy	Xonabod	1892
45.	Bo‘tabek	Yoyilma	1887
46.	Vali Botir	Qo‘qon	1891
47.	Vali Ponsod	Yangiqo‘rg‘on	1896
48.	Valibek Chinoq	To‘qsonqovun	1890
49.	Valibek	Tojikqishloq	1887
50.	Voris Xoji	Chust	1885
51.	Gadoy Botir	Naymancha	1888
52.	Davron	Qumariq	1892
53.	Davronbek	Afg‘onqishloq	1894
54.	Dadaboy Pansod	Oqchangal	1891
55.	Dadaboy Mingboshi	Qo‘qon	1880
56.	Dardoqbek	Marg‘ilon	1882
57.	Do‘stmuhammad	Achchiqko‘l	1886
58.	Yetovqo‘zi	Bachqir	1883
59.	Yorbek ota	So‘x	1872
60.	Yormat Maxdum	Madrasa	1882
61.	Yormat Maxsum	Qo‘qon	1878
62.	Yormat Guzur	Qo‘qon	1879
63.	Yormuhammad	Jo‘yidam	1892
64.	Yoqubjonboy	O’sh	1878
65.	Yoqubbek Vallomat	Koson	1880
66.	Janish Botir	Beshariq	1891
67.	Jaloliddin	O’zgan	1888
68.	Jo‘ra Izvon	Qo‘qon	1882
69.	Jo‘ra Ponsod	Yaypan	1884
70.	Jumaboy	Qaynar	1887
71.	Jo‘ra Jo‘raboshi	Katta Kenagas	1881
72.	Jo‘ra Yog‘chi	Naynovo	1892
73.	Jo‘ra Qassob	Chek	1896
74.	Jo‘raboymochcha	Shahrixon	1891
75.	Jo‘ra Darxon	Namangan	1887
76.	Jevachi	Bo‘zala	1879
77.	Jaloliddin	Quva	1886
78.	Zulfiqorbek	Qo‘qon	1879
79.	Zunun Qori	Bekobod	1876
80.	Zununboy	Andijon	1880
81.	Ibniyamin	Ishtixon	1875
82.	Ibrohimbek	Qo‘qon	1884
83.	Ibrohim	Andijon	1879
84.	Ibrohim Mirzo	Turg‘oq	1882
85.	Isobek	Tolmozor	1890
86.	Ismatullo	Qo‘shtegirmon	1876
87.	Ismat	Urganji	1879
88.	Ismoilbek	Jaloyir	1880

89.	Ismoil Polvon	Qorasоqol	1872
90.	Islom Ponsod	Bachqir	1878
91.	Islom Boyvochcha	Yangiqo‘rg‘on	1890
92.	Isroilbek	Omonjo‘ra	1889
93.	Isroilbek	Yormozor	1883
94.	Yo‘ldosh Oqsoqol	Mahram	1875
95.	Yo‘ldoshali	Qo‘qon	1890
96.	Yo‘ldosh Polvon	Sultonobod	1892
97.	Yo‘ldosh Oxund	Oqchangal	1880
98.	Yo‘ldoshbek	Quva	1886
99.	Yo‘ldoshboyvochcha	Tojikqishloq	1892
100.	Yo‘ldoshbuqoq	Akbarobod	1891
101.	Yo‘ichi	Andijon	1889
102.	Yo‘lchibek	Aravon	1893
103.	Kichik Ergash	Bachqir	1885
104.	Karim To‘ra	Varzik	1884
105.	Karim To‘ra Mingbosh	Chust	1878
106.	Kamol Ismoil	Xonaqox	1890
107.	Kamoliddin	Qo‘qon	1881
108.	Katta Kamol	Qorasоqol	1884
109.	Kichik Kamol	Qorasоqol	1889
110.	Komil Polvon	Tojikqishloq	1887
111.	Komil Ponsod	Qирг‘изқишлоқ	1884
112.	Kuchiko‘p	O‘zgan	1880
113.	Kenjaboy	Shahrixon	1891
114.	Kichik Islom	Yaypan	1892
115.	Kal Qo‘chqor	Bachqir	1879
116.	Latifbek	Qo‘qon	1894
117.	Lutfulloh Maxsum	O’sh	1888
118.	Madali	Bachqir	1890
119.	Madamin Ponsod	Yaypan	1883
120.	Madamin Polvon	Qizil oyoq	1879
121.	Mamajon Mingboshi	Shohimardon	1875
122.	Madumar Badal	Yangiqo‘rg‘on	1887
123.	Mamajon	Andijon	1891
124.	Mamaro‘zi	Mарғ‘илон	1893
125.	Mamatayub	Qoratepa	1884
126.	Mamat	Chust	1886
127.	Mamatqul Polvon	Qo‘qon	1881
128.	Mashrab Xusmatov	Bog‘dod	1897
129.	Maqsud	Namangan	1892
130.	Maqsudboy	Jiydakapa	1882
131.	Mahkam Xoji	Andijon	1880
132.	Maxsim	Andijon	1876
133.	Ma’murbek	Kapalik	1879
134.	Mirzaahmad	Qo‘qon	1881
135.	Mahkam Xoji	Urganji	1877
136.	Mirza tog‘a	Andijon	1890

137. Mirza Bilol	Andijon	1883
138. Mirzahamdam	Andijon	1886
139. Mirza Umar	Bachqir	1894
140. Mirkarim ota	Valik	1887
141. Mirzakarim Boyvochcha	Qumbosti	1891
142. Mirzaahmad Boyvochcha	Chek	1889
143. Mirza Umar	Qo‘shtegirmon	1887
144. Mulla Abdurazzoq	Andijon	1878
145. Mulla Abdurazzoq	Mirobod	1883
146. Mulla Davron	Qo‘rg‘ontepa	1880
147. Mulla Yo‘ldosh	Qo‘rg‘ontepa	1879
148. Mulla Maxdi	Avval	1876
149. Mulla Juma	Buloqboshi	1884
150. Mulla Ibrohimbek	Qo‘rshob	1878
151. Mulla Po‘lat	Vorux	1875
152. Mulla Po‘latbek	Chavkon	1877
153. Mulla Siddiq	Qirg‘izota	1881
154. Mulla Toshbolta	Quva	1883
155. Mulla Xo‘jabek	Buloqboshi	1874
156. Mulla Sotvoldi	Qumariq	1884
157. Mulla Hotam	Tolmozor	1879
158. Mulla Umrzoq	So‘zoq	1877
159. Mulla Ergash	Namangan	1876
160. Mulla Sulton	Rishton	1882
161. Muhammadali	Xonariq	1885
162. Muhammadali	Naynova	1880
163. Muhammadjon	Qumariq	1882
164. Muhammad Xojibek	Zilxa	1884
165. Muhammadbek	Yormozor	1889
166. Muhammadyor	Quva	1891
167. Muhammad Ro‘zi	Marg‘ilon	1886
168. Muhammad Isoh	Arabmozor	1883
169. Muhammadro‘zibek	To‘rtbuloq	1890
170. Muhammadqo‘libek	Xonobod	1887
171. Muzaffar Mingboshi	Shohimardon	1870
172. Muhriddin Boyvochcha	Marg‘ilon	1892
173. Muydin Boyvochcha	Marg‘ilon	1889
174. Mo‘hiddin	Novkat	1885
175. Mo‘hiddinbek	Ko‘kjar	1882
176. Nazar	Andijon	1893
177. Nazir Mingboshi	Log‘on	1877
178. Nabibek	Valik	1884
179. Nasriddinbek	Qo‘qon	1886
180. Nasriddin	Qizilqiya	1891
181. Nishonboy	Novkat	1894
182. Nishon To‘lka	Bachqir	1880
183. Nizomiddinbek	Oltiqo‘sh	1883
184. Nizom Hoji	Chuvalachi	1878

185. Nosirxon To‘ra	Qo‘qon	1878
186. Nosirxon To‘ra	Koson	1876
187. Nurmuhammad	Qorovul	1896
188. Nurmuhammad Hoji	Marg‘ilon	1876
189. No‘monbek	O’sh	1881
190. Oybola	Naymancha	1885
191. Oyshaxon	O’sh	1880
192. Obidjonboy	Qo‘qon	1872
193. Obidjonbek	Marg‘ilon	1884
194. Olimjon Yoqubov	Andijon	1882
195. Olloyor	Pastqo‘riq	1878
196. Olloyorbek	Olmurod	1887
197. Omonbek Xudoyorov	Chust	1876
198. Odil Polvon	Bo‘zala	1878
199. Orzimatboy	Chust	1880
200. Orifboyvochcha	Nayman	1879
201. Osmonbek	Jalolobod	1882
202. Otabek	Qo‘qon	1890
203. Otajon	Bostonbuvo	1877
204. Otaxon	Qaqir	1879
205. Oxunjon	Andijon	1881
206. Oqbola	Dang‘ara	1883
207. Oxundbek	G’orbuvo	1878
208. Oxunjonboy	Qo‘qon	1870
209. Oqsoq Ternas (Tannoz)	O’sh	1876
210. Pardaboy	Qo‘qonqishloq	1880
211. Parpi	Yangiqishloq	1884
212. Parpi bola	So‘nchilik	1878
213. Parpi Boyvochcha	Qo‘riq	1874
214. Polvonboy	Turkqishloq	1879
215. Polvon O‘roq	Oqjar	1881
216. Po‘latbek	Ovchi	1883
217. Po‘lat Oxund	Yaypan	1877
218. Pirmat Oqsoqol	Toshko‘prik	1874
219. Rahmat	Chek	1890
220. Rajab Ponsod	Yangiqo‘rg‘on	1894
221. Rajabali	Beshariq	1887
222. Ro‘zimat	Marg‘ilon	1884
223. Ro‘zimuhammadbek	G’orbuvo	1898
224. Ro‘zimuhammadboy	Yakkatut	1894
225. Ro‘zimuhammadbek	Baliqchi	1890
226. Rustambek	Ko‘shtegirmon	1887
227. Rustma-Doston	Bekvachcha	1892
228. Roziqko‘r	Xaqqulobod	1879
229. Salim Ponsod	Yormozor	1883
230. Salim Boyvochcha	Qo‘qon	1889
231. Sangil	Konibodom	1881
232. Sangil	Asht	1884

233. Saydali Qaqir	Qaqir	1886
234. Saydullo Maxsum	Qo‘qon	1877
235. Saidahmadbek	O’sh	1879
236. Sarimsoqboy	So‘zoq	1880
237. Sarkor Ota	Bo‘ri	1878
238. Sattorbek	Qo‘qon	1887
239. “Safar”- Qo‘rboshi	Beshariq	1876
240. Sattor Chuloq	Naynavo	1876
241. Solih	Nayzaqayrag‘och	1889
242. Solihjon	Fayzobod	1890
243. Sotiboldi	Targ‘ova	1894
244. Sotivoldi Sohib	Qumariq	1891
245. Sotiboldi Qozi	Namangan	1872
246. Sotiboldi Qozi	Xo‘jaobod	1876
247. Sotqinboy	Axshak	1886
248. Sotiboldi Pansod	Beshariq	1887
249. Sohib Qori	Imomota	1880
250. Sultonbek	Andijon	1888
251. Sulton G’ozi	Oltiariq	1890
252. Sulton Ko‘kko‘z	Bo‘rbaliq	1883
253. Suhrob	So‘x	1892
254. Tesha afitser	Bo‘loqboshi	1880
255. Teshaboy	Zilxa	1884
256. Tesha Mingboshi	Uchqo‘rg‘on	1878
257. Tillabek	Shaldirama	1882
258. Tojiboy	Qorakaltak	1889
259. Tojiboy	Quva	1887
260. Tojiboy Azimboev	Chust	1884
261. Tojiboy Amin	Zohidon	1879
262. Tojizoda	Shahrixon	1881
263. Toshkanboy	Qumariq	1890
264. Toshmuhammad	Xonariq	1892
265. Toshmuhammad	Naynavo	1889
266. Toshmuhammad	Qorovul	1880
267. Toshmuhammad	Ishtixon	1885
268. Toshmuhammadbek	G’orbuvo	1893
269. Toshmuhammad Boyvochcha	Qo‘qon	1891
270. Toshpulat Sarkor	Qo‘qon	1876
271. Toshpulat Ponsod	Mozorbuvo	1878
272. Turdiali Boyvochcha	Yashik	1887
273. Tursunboy	Tovul	1884
274. Turg‘un Polvon	G’orbuvo	1881
275. To‘lanboy	Ko‘kish	1890
276. To‘ychibek	Oltiariq	1883
277. To‘rabek	Andijon	1900
278. To‘raxon Xudoyorxonov	To‘ra (Rishton)	1880
279. To‘ychi Boyvochcha	Qo‘riq	1887
280. To‘xtaboy	Axshak	1879

281. To‘xtamuhammadbek	Oloy	1882
282. To‘xtasin	Sadkak	1886
283. To‘xtamurod	Mingtut	1883
284. To‘qli	Ashirqulmergan	1889
285. Umar Polvon	Qayqi	1890
286. Umar Tog‘a	G’orbuvo	1878
287. Umar chuli	Qorashahar	1881
288. Umarali Shalpanquloq	Xo‘ja Hasan	1884
289. Umar	Oqjar	1882
290. Uzoq Boyvochcha	Buloqboshi	1880
291. Umurzoq	Xonobod	1882
292. Umurzoq Xalifa	Shahrixon	1876
293. Usmonbek	Andijon	1884
294. Usmonbek	Qalmoq	1888
295. Usmoncha	Qo‘qon	1892
296. Usmonjon	Boyiston	1894
297. Usmon dev	Kistako‘z	1883
298. Usta Matqobil	Andijon	1880
299. Fayoz Maxsum	Log‘on	1877
300. Fayzullaboy	Chust	1879
301. Fayzulla Cho‘rtkesar	Qo‘qon	1887
302. Farmonqul	So‘fiqishloq	1878
303. Faqir	So‘x	1881
304. Fidomat	Pang‘oz	1890
305. Xoldor Eshon	Xonariq	1878
306. Xudoyorxon	Yaypan	1886
307. Xudoyberdi Eshon	Zilxa	1877
308. Xudoyquli Bahodir	Qo‘qon	1876
309. Xudoyquli Pansod	Yaypan	1880
310. Xudoyquli Karnay	Xafalak	1882
311. Cho‘li Mingboshi	Shahrixon	1877
312. Shayit	Andijon	1881
313. Shamsi	Xonobod	1884
314. Shamsiddinboy	Qo‘qon	1878
315. Sherali	Sho‘ra	1883
316. Shermat Ponsod	Yaypan	1886
317. Shamsibek	Oloykul	1888
318. Sherg‘ozi	Kapalak	1884
319. Shokir	Chavkon	1890
320. Shokir	Mingtepa	1887
321. Shokir Jallod	Qiziloyoq	1879
322. Shokirxo‘ja	Asaka	1878
323. Shodmon Boyvochcha	G’ova	1892
324. Ergash	Axshak	1882
325. Ergash	Xonariq	1884
326. Ergash Polvon	Qorasоqol	1880
327. Ergash Polvon	Qiziloyoq	1881
328. Ergash Ponsod	Yaypan	1883

329. Ergash Uchar	Chimyon	1887
330. Ergash Qirg‘iz	Xonariq	1878
331. Ergash Qora	Markayuz	1891
332. Eshmat Boyvochcha	Bachqir	1888
333. Eshmuhammad Mingboshi	Qo‘qon	1876
334. Ermat Ponsod	Oqmasjid	1882
335. Ermuhammad	Yaypan	1890
336. Yunus	Andijon	1892
337. Yunusbek	Xarabek	1887
338. Yusup	Asht	1883
339. Yusup Polvon	Yozyovon	1880
340. Yusufjon	Laylakxona	1892
341. Yusufjon	Zilxa	1895
342. Yusufjon Maxsum	Toshloq	1877
343. Yusufjon Maxsum	Marg‘ilon	1879
344. Yusuf Polvon	Qorasоqol	1881
345. Yusufbek Xudoyorxonov	Chust	1879
346. Yahyoxon Mingboshi	Qudash	1876
347. Yaxshibek Ponsod	Qirqlar	1882
348. O‘rinboy	Bibiubayda	1884
349. O‘sar kal	Andijon	1880
350. O‘rinboy Sarkor	Aravon	1885
351. O‘tab Mirshab	Yangiqishloq	1878
352. Qamchibek	Qirg‘izqishloq	1886
353. Qamchibek	G’oz	1889
354. Qamariddin	Qo‘qon	1879
355. Qavomiddin	Qo‘qon	1876
356. Qozoqboy	Mirobod	1887
357. Qozoqjon	Marg‘ilon	1888
358. Qozonjonbek	Oqer	1885
359. Qodir	Qurshob	1892
360. Qodirqul Mingboshi	Qo‘qon	1878
361. Qoraboy	Oltiariq	1881
362. Qoraboy	Chovkan	1884
363. Qori Rahmon	Chust	1880
364. Qosim	Qumqishloq	1882
365. Qosim Ponsod	Andijon	1887
366. Qirg‘izboy	Qoratepa	1887
367. Quman Sariq	Bibiubayda	1889
368. Qurbon	Yuzo‘roq	1891
369. Qurbon Tozi	Chirkay	1884
370. Qurbon Ponsod	Yakkatut	1886
371. Qo‘ldosh Ponsod	Uchqo‘rg‘on	1882
372. Qo‘ldosh Pahlovon	Qo‘qon	1887
373. Qo‘ldoshboy	Qoratepa	1892
374. Qo‘chqor	Olmos	1894
375. Qo‘chqor Ponsod	Yaypan	1883
376. Qo‘chqor Polvon	Bachqir	1885

377. Qo‘shmurod	Tojikqishloq	1887
378. G’ayrat	Urganji	1897
379. G’ayrat Ponsod	Qo‘qon	1881
380. G’aniboyvochcha	Quva	1891
381. G’anixon	Zilxa	1893
382. G’anixonboy	Qo‘qon	1879
383. G’afforbek	Isfara	1876
384. G’afforbek	Akbarobod	1880
385. G’oyirxo‘ja	Qo‘qon	1884
386. G’ofirjonboy	Naymancha	1878
387. G’ofir Sovuq	Jaloyir	1889
388. G’ulomhasan	Ganjiravon	1892
389. G’ulomxon	Makay	1896
390. G’ulom Ponsod	Cho‘li Yunus	1883
391. Haydar	Qoratepa	1887
392. Haydarbek Mingboshi		Qo‘qon 1877
393. Hayit	Oxunqaynar	1891
394. Hayitboy	Qumqishloq	1894
395. Hamdam Hoji		
Qalandarov	Andarxon	1880
396. Hamdam	Zilxa	1887
397. Hamdambek	Akbarobod	1884
398. Hamdambek	Qo‘qon	1881
399. Hakim	Chust	1883
400. Hakimbek	To‘liboy Mirzo	1879
401. Hamro Polvon	Qaynar	1882
402. Hamroqul	Qoratepa	1886
403. Hamroqulibek	Xonariq	1889
404. Hamza Polvon	Qo‘qon	1891
405. Hamzaxon Maxsum		Yaypan 1878
406. Hojibek Ponsod	G’alcha	1885
407. Hojibola	Oltiariq	1890
408. Hoji To‘rabek	Tus	1879
409. Holmuhammad	G’orbuvo	1892
410. Holmuhammad Maxsum		Qo‘qon 1881
411. Hotam	Qumariq	1883
412. Hotmaxon	Qo‘qon	1887
413. Husayn Xalifa	Kenagas	1878
414. Husayn Ponsod	Ishtixon	1882
415. Husayn Polvon	So‘kchilik	1886
416. Husaynxon	Tolmozor	1892

Hozirgacha e’lon qilingan ma’lumotlarga yana 152 nafar ozodlik harakati yalovbardorlari qo‘shilgan.

E’TIROF ETILGAN QO’RBOSHILAR

Istiqlolchilar kurashining mohiyatini, uning rahbarlarining mahorati va jasoratini sovet qo‘mondonlari, taniqli arbob va yozuvchilar ham e’tirof etishga majbur bo‘lganlar, Zaki Validiy kabi istiqlol kuychilari esa o‘z asarlarida madh etganlar. Shundan kelib chiqib, ularning ayrimlarini keltirib o‘tishni lozim deb bilaman:

M.V.Frunze — Turkiston frontining qo‘mondoni:

— “Turkiston yurishining asl maqsadi, butun Turkistonni zabit qilishdan iboratdir. Farg‘ona vodiysidagi bu harakat markaz va butun Turkiston o‘lkasida bolsheviklar rejimiga qarshi ko‘tarilgan xalq harakati bo‘lib Sovet hokimiyatini larzaga keltirdi”.

— Bosmachilik bezorilik emas, ularning sarkardalari Madamin va Shermatlar o‘ziga xos urush san’ati sirlarini bilmaganlarida allaqachon yo‘q qilish mumkin bo‘lardi.

F.Karpov — Turkiston O‘qchi diviziyasining komandiri:

— Qaroqchilarga qarshi kurash bo‘lmasdan, balki bu yerda kurash tub aholini Sovet hokimiyatiga qarshi tashkiliy ravishdagi qo‘zg‘aloni hisoblanadi.

Qayg‘usiz Otaboev — Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi XXS raisi:

(1922 yil iyulida bo‘lgan Turkiston MIK 4-plenumida shunday degan edi;) — “Dastlabki davrlarda bosqinchilik ruhida bo‘lgan bu harakat endilikda siyosiy mazmun kasb etdi. Shuni ta‘kidlash lozimki, 1919—1920 yillarga kelib Farg‘onada qaroqchilik, bosmachilik emas balki o‘ziga xos xalq qo‘zg‘oloni vujudga keldi. Biz 4 yil davomida bu harakatga to‘g‘ri baho bera olmadik, qo‘rboshilar Turkiston mustaqilligi uchun hayot-mamot kurashiga otlandilar”.

Sovet qo‘mondonligi vakili V.V.Kubishev:

— Bosmachilik harakatini shunchaki banditlik deb qabul qilish xatolik bo‘ladi. Ularni boshidagilarni oddiy qo‘rboshi deyish yana xato bo‘ladi. Ular siyosiy inqilob uchun kurashyaptilar.

Harbiy sarkarda Zinovev:

— Urush harakatida qurolsiz, harbiy san’atdan bexabar qo‘rboshilarini tezda yo‘q qilinmayotgani bilan ayblamoqdalar Shermuhammad harbiy san’atini qo‘shin yigitlarini chapdast, tez, och bo‘ridek tashlanishlarini ular bilan jang qilayotganlargina biladi.

Harbiy sovet komissari Skaloev:

— Bosmachilik Turkiston xalqining hokimiyatga qarshi milliy isyonidir.

Boris Pilnyak:

— Shermuhammad yuksak ism va sharaf sohibidir.

— Shermuhammadbek xalqiga sodiq bir kishi bo‘lgan. Uning dushmanlari ham unga baho berishda bor haqiqatni aytishga majbur bo‘lganlar.

1922 yilga oid tarixiy hujjatlarning birida shunday deyilgan edi:

— Ko‘rsherma (Shermuhammadbek) — millati sart (o‘zbek) bo‘lib, barcha qo‘rboshilarining eng g‘ayratli va qattiqqo‘llisidir. Jangda juda jasur, qo‘l ostidagilarga nisbatan talabchan, qizillarga shafqatsiz. Aholi o‘rtasida juda katta obro‘-e’tibor va shuhuratga sazovordir. (Qahramon Rajabovning nomzodlik desertatsiyasidan).

Zaki Validiy To‘g‘on esa shunday madh etadi:

Shermuhammadbek bunday ozodlik harakatiga kimlarningdur fatvosi bilan kirmadi. Ona tuprog‘iga, millatiga, diniga sadoqati, bosqinchilarga nafrati uni bu muqaddas yo‘lga boshlab kelgan edi.

Shermuxammadbek va uning yaqin safdoshlari-ku, Afg‘onistonga o‘tib ketib, kurashni davom ettirdilar. Xo‘sh, ularning qizil imperiya hududida qolib ketgan oila a’zolari, yaqinlari holi ne kechdi? O‘zimizni ham, muhtarama kitobxonlarimizni ham qiziqtiradigan bu savolga javob topish uchun ma’lumot yig‘ishga harakat qildik. Mashhur tarixchi olim Rustam Shamsuddinovning izlanishlari o‘laroq, xavfsizlik xizmati arxivlaridan topgan ayrim hujjatlar bilan tanishishga muvaffaq bo‘ldik:

Xujjatlarning muayyan qismi Shermuhammadbekning umr yo‘ldoshi Ma’murova Soliyaxon taqidiridan hikoya qiladi:

Fuqarolar urushi nihoyasiga yetib, osoyishtalik hukmron bo‘lgandan so‘ng Soliyaxon va boshqa qarindoshlar ochiqdan-ochiq ta’qib etilmasalarda, tegishli organlarning doimiy kuzatuvida bo‘ladilar. Kollektivlashtirish harakati boshlangach, Soliyaxon el qatori kolxozga kirib, o‘z tirikchiligini o‘tkazadi. Xalqda “Er qaerda bo‘lsa, xotin ham o‘sha yerda” degan maqol bor. Soliyaxon qarindoshlari yordamida Afg‘onistonga, Shermuhammadbek olidiga ketishga harakat qilib ko‘radi, biroq, akasi qamalib qolib bu ish amalgalashmaydi va u o‘z qishlog‘iga qaytishga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng NKVD organlari uni hibsga olib, maxsus uchlik qarori bilan sakkiz yil qamoq jazosiga hukm etiladi. U jazoni Vyatka lagerlarida o‘taydi. Soliyaxon O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining amnistiya bo‘yicha komissiyasiga ariza yo‘llab, o‘z ishini qayta ko‘rib chiqishlari va qamoqdan ozod qilishlarini so‘raydi. Biroq, komissiya NKVD bergan tavsifnomasi asosida uning arizasini rad etadi. Soliyaxon Ma’murova faqat 1989 yilga kelibgina oqlanadi.

Shuningdek, mazkur arxiv qog‘ozlari ichida Soliyaxonning akalari Mamadali va Mahmud Ma’murovlar, amakivachchasi Xoliqov Normati va boshqalarning shaxslari bilan bog‘liq hujjatlardan ham bor.

Quyida Soliyaxon tergovi va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlardan namuna keltiramiz.

Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi tomonidan 4.12.1937 yilda berilgan 10-raqamli order. Bir sutkali kuchga ega.

O‘zbekiston SSR NKVD DXB xodimi o‘r.Ananovichga.

Sizga Oqshoq q/s Teraktagi qishlog‘ida istiqomat qiluvchi fuqaro Ma’murova Soliyaxonni tintuv qilish va hibsga olish topshiriladi.

Uzb.Resp.NKVD rayon bo‘limi boshlig‘i.

Protokol (order bo‘yicha)

Teraktagi qishlog‘ida istiqomat qiluvchi fuqaro Ma’murova Soliyaxon ishiga oid order bo‘yicha tergov o‘tkazildi.

Tergovda ishtirok etdilar: Toshloq rayon Oqshoq q/s Menjinskiy nomli kolxzor raisi Mahmudov va Ma’murova. Order asosida fuqaro Ma’murova Soliyaxon hibsga oladi va tintuv o‘tkazildi. Tintuvni NKVD rayon bo‘limi xodimi kichik leytenant Ananovich olib bordi.

1937 y. 3 dekabr.

SO’ROQ PROTOKOLIDAN

So‘roq NKVD rayon bo‘limi xodimi Anapovich tomonidan o‘tkazilgan va imzolangan.

Savol: Akalaringiz haqida nima bilasiz. Ular hozir qaerda?

Javob: Mening akam Ma’murov Mamadali 1922 yilda Afg‘onistonga yashirin tarzda o‘tib ketishga uringan paytda qizillar tomonidan o‘ldirilgan.

Ikkinci akam Ma’murov Mahmud qaerda ekanligini bilmayman. Qishloq aholisining gaplariga ko‘ra, Tojikiston NKVDsi tomonidan qamoqqa olingan.

Savol: Xoliqov Normat haqida nima deya olasiz? U bilan munosabatlar qanday?

Javob: Xoliqov Normatni yaxshi inson va yaxshi xodim sifatida bilaman. Xoliqov Normat bilan o‘rtamizdagi munosabat yaxshi, o‘rtamizda hech qanday nizo chiqqan emas.

Savol: Aytingchi, shu yilning Oktyabr oyida Toshloq rayoni chegaralaridan (hududidan) qaerga va kimning oldiga ketgan edingiz?

Javob: Shu yilning Oktyabr oyida Toshloq rayonidan Lenin rayoniga, xolamning o‘g‘li Qayumov Turg‘unni kuzatuvi to‘yga borganman va u yerda 10—15 kun turib, yana Toshloq rayoniga qaytganman. Lenin rayonidan Terak Tagi qishlog‘iga mening oldimga Qayumov Turg‘un kelgan edi va u bilan Lenin rayoniga birga ketgan edim.

Savol: Tergovga ma’lumki, o‘z akangiz Ma’murovdan xat olganingizdan so‘ng Xoliqovning maslahati bo‘yicha, o‘z buyumlariningizni sotib yuborib, yashirin yo‘l bilan chegaradan o‘tish va

Afg‘onistonga ketishga urinib ko‘rgansiz. Shuni tasdiqlaysizmi?

Javob: O‘z akam Ma’murovdan hech qanday xat olgan emasman, Lenin rayoniga ketish oldidan Xoliqovni ko‘rgan emasman va undan hech qanday maslahat olganim yo‘q. Afg‘onistonga yashirin tarzda o‘tish haqidagi gapni inkor etaman.

Savol: Tergovga ma’lumki, siz sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borib, tez orada eringiz Ko‘rshermat Qo‘shaqovning Afg‘onistondan kelishi to‘g‘risida ig‘vogarona mish-mishlar tarqatgansiz. Shuni tasdiqlaysizmi?

Javob: Hech qachon va hech qanday holatda sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borgan emasman, va shuningdek, erim Ko‘rshermatning kelishi haqida ig‘vogarona mish-mishlar tarqatmaganman.

Eslatma: har bir javob ostiga imzo qo‘ydirib olingen.

Ma’murova Soliyaxon va Xoliqov Normatning Oliy sovet avf haqida bergen arizalari bo‘yicha Oliy Sovet ishni qayta ko‘rishni O‘zb.SSR NKVD Toshloq rayon bo‘limiga topshirgan. Bu ish bo‘yicha rayon bo‘limining xulosasi:

Ma’murova va Xoliqovning ishini qayta ko‘rib chiqish guvohlarni qayta so‘roq qilish va hujjatlar asosida amalga oshirildi.

Ma’murova kelib chiqishi bo‘yicha ruhoniylar oilasidan bo‘lib, bandaning mashhur qo‘rboshisi, Afg‘onistonda muhojirlikda bo‘lgan Ko‘rshermatning xotinidir.

Xoliqov quloq (mushtumzur) oilasidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zi ham mushtumzo‘r, bosmachilik harakatida faol qatnashgan Ko‘rshermatning qarindoshidir.

Ilgari so‘roq bergen va qayta so‘roq qilingan guvohlar: Niyozov Dehqon, Isomiddinov Yunus va Eshmatov Qurbonlar dastlabki tergov vaqtida tergov qiluvchilarning ijtimoiy jihatdan begona ekanligi hamda ularning sovetlarga qarshi kayfiyatda ekanligi haqida ko‘rsatmalarini to‘liq tasdiqladilar.

Xoliqov Normat va Ma’murova Soliyaxonlarning ijtimoiy xavfli ekanligi, buning ustiga ularning sovetlarga qarshi faoliyati yetarlicha tasdiqlanganini hisobga olib, hamda SSSR NKVD bo‘yicha № 0165 buyruq asosida

QAROR QILINDI:

NKVD uchligining Ma’murova Soliyaxon va Xoliqov Normatga nisbatan № 8 qarori o‘z kuchida qoldirilsin, ish O‘zb. SSR NKVD 1-maxsus bo‘limi arxiviga topshirilsin.

O‘zb.SSR NKVD Namangan shahar bo‘limi tergovchisi, davlat xavfsizligi serjanti Derevyanko.

Tasdiqlayman: O‘zb.SSR. NKVD Farg‘ona oblast bo‘limi boshlig‘i, Davlat xavfsizligi katta leytenantı Ibrogimov.

1940 y. 31 dekabr.

ShYeRMUHAMMADBYeK

Shermat qo‘rboshi Qo‘shovoy hoji o‘g‘li (1893, Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi G’orbuvo qishlog‘i — 1970.10.3, Turkianing Adana sh.) — Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat namoyandalaridan biri (1918—22), Turkiston-turk mustaqil islam jumhuriyati raisi (1920—22). Validiyning yozishicha, Shermuhammadbek 1916 yilda podsho Rossiysi tomonidan mardikorlikka olingen va urush chizig‘ida ishlash uchun safarbar qilingan kishilar qatorida Polsha frontiga tashlangan. Turkiston muxtoriyati hukumati qizil askarlar tomonidan ag‘darilgach, Shermuhammadbek sovet rejimiga qarshi milliy-ozodlik kurashining ilk bosqichidan boshlab jangga kirgan. 1918—20-yillarda katta Ergash va Madaminbekning o‘rinbosari sifatida Farg‘ona vodiysida istiqlolchilarning yirik lashkarboshisi bo‘lgan. Madaminbek istiqlol kurashidan chetlashgach, 1920 yil bahoridan boshlab Shermuhammadbek Farg‘ona vodiysidagi qurolli harakatga rahbarlik qilgan.

Shermuhammadbek Farg‘ona vodiysi hududining katta qismini qizil askardan ozod qilib, sovet hokimiyatini tugatgan hamda shariatga asoslangan boshqaruvni joriy qilgan. U bu paytda BXSR,

XXSR va Samarqand viloyatidagi sovet rejimiga qarshi kurashayotgan istiqlolchilar bilan aloqani ham yo‘lga qo‘ygan. Anvar Posho va Junaidxon bilan 3 tomonlama hamkorlik o‘rnatgan. Shermuhammadbekning Sharqiy Buxoro qo‘rboshilari Ibrohimbek va Fuzayl Maxdum bilan munosabatlari yaxshi bo‘lgan. Afg‘oniston va Turkiya bilan ham aloqalar o‘rnatalgan.

Shermuhammadbek vodiyya qizil armiyaga qarshi harbiy amaliyotlar olib borish bilan cheklanmasdan, sovet hokimiysi bilan muzokaralar olib borish orqali ham o‘z talablarini bayon etgan. Sovet hokimiysi Shermuhammadbekning bu haqli talablarini rad etgach, muzokaralar o‘z-o‘zidan to‘xtab qolgan.

Validiy boshchiligidagi faoliyat ko‘rsatgan «Turkiston milliy birligi» tashkiloti bilan Shermuhammadbek boshchiligidagi Turkiston-turk mustaqil islam jumhuriyati hukumati o‘rtasida o‘zaro aloqa o‘rnatalgan. Samarqandda yarim ochiq holatda o‘tgan Turkiston musulmonlarining 2-qurultoyi (1922 y. 15—20 aprel)da Shermuhammadbek qatnashib, hukumat faoliyati haqida ma’ruza qilgan. Qurultoy oxirida hukumatning 7 bo‘lim va 36 banddan iborat Muvaqqat Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) qabul qilingan.

Qizil armiya tomonidan Turkiston mintaqasiga katta harbiy qismlar tashlangach, Shermuhammadbek Farg‘ona vodiysini tark etib (1922 y. 30 dekabr), ukasi Nurmuhhammadbek va qo‘rboshi To‘xtasin Maqsud bilan 450—500 kishilik harbiy guruhga boshchilik qilgan holatda dastlab BXSR hududiga, 1923 yil bahorida esa Afg‘onistonga o‘tib ketgan va Qobulda yashagan.

Shermuhammadbek muhajirlikda ham Turkiston mustaqilligi uchun kurash g‘oyasidan voz kechmagan. U Afg‘onistondan kichik qo‘shin bilan Vaxsh daryosi orqali Sharqiy Buxoroga o‘tmoxchi bo‘lganida sovet aviatsiyasi yordamida ortga qaytarilgan (1929 y. 15 aprel) Shermuhammadbek Afg‘onistonda tuzilgan turkistonlik muhajirlarning «Vatanni ozod qilish» (ba’zi manbalarda «faol») yashirin tashkilotining asoschilaridan biri.

Kobul hukumati 2-jahon urushi davrida Shermuhammadbekni 2 yilga (1943—45) qamoqda ushlab turgan. Shermuhammadbek ozodlikka chiqqach, Hindiston, so‘ngra Pokistonning Peshovar (1951—55) va Turkiyaning Adana (1955 y. dan umrining oxirigacha) shaharlarda yashagan. Adana shahrida dafn qilingan.

Shermuhammadbek sovet rejimi davrida «Ko‘rshermat» (janglarning birida uning ko‘ziga o‘q tekkan edi) deb tahqirlangan va uning jangovar faoliyati soxtalashtirilgan. Uning serqirra faoliyati to‘g‘risida Turkiya, O‘zbekiston, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda kitoblar yozilgan. O‘zbek haykaltaroshi Abdumalik Ubaydullaev Shermuhammadbekning haykalini yaratgan.

Ad: Validiy. Bo‘linganni bo‘ri yer (Xotiralar), T., 1997; O‘zbekistonning yangi tarixi—2-kitob (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida)—T., 2000; Turkestan v nachale XX veka: K istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti, T., 2000; Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917—1924 y.) T., 2002; O‘zbek davlatchiligi tarixida Farg‘ona vodiysi. Farg‘ona, 2004.

Shermuhammadbek to‘g‘risidagi ushbu ma’lumot «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi»ning 10-jildi (Toshkent 2005) uchun maxsus tayyorlangan.

Qahramon Rajabov,
tarix fanlari doktori

AVLODLARGA MUROJAAT

Professor Rustambek Shamsutdinov 1995 yil oktyabrida xizmat safari asnosida AQShda bo‘lganida Nyu-Yorkda yashayotgan Davronbek (Shermuhammadbekning 1924 yilda Kobulda tug‘ilgan o‘g‘li)ning xonardonida bo‘lgan. Davronbekning shaxsiy arxividan 1927 yil sha‘bon oyi birinchi kuni Kobul shahridagi Bog‘i Alimardonda Shermuhammadbek va ukasi Nurmuhhammadbek bir guruh sobiq «bosmachilar» qo‘rboshilari yig‘ilishini o‘tkazishganga oid hujjatni olgan edi. Yig‘ilish bayonnomasida 1917—1924 yillarda Farg‘ona vodiysidagi milliy-ozodlik janglari qo‘rboshilar

esdaliklaridan ayrim lavhalarni andijonlik—Abdulhay Maxdum yozib qoldirgan. Kelajak avlodlarga qoldirgan bu tarixiy hujjat turkiy tilda arabcha imloda yozilgan. Uni zamonaviy yozuvga Yahyoxon Dadaboev aynan o‘girdi.

“Muhtaram orqadoshlar! Turkiston, jumladan, jafokash Farg‘ona mamlakatinda yetti-sakkiz yil bolshevizmga muqobil muhoraba etmish qahramon mujohidlarning jihodi tarix sahifasidan buyuk bir ahamiyatga molik ekanligi yaxshi ma’lumdir. Din va siyosat nuqtai nazaridan e’tiqodiga sodiqlik xususida Farg‘ona muslimmonlarining vatan deb, imon deb, millat vazifalarindan kelib chiqib qo‘shish etmish mujohidlarini xotirlamoq, vatan shahidlarini yod etmoq, ularning xotiralarini yodlamoq, ko‘rsatgan jasoratlariga rahmat aytmoq biz — vatanparvar, millatparvar muslimmonlarning burchimizdir. Mazkur muhorabada g‘ayrat va shijoat ko‘rsatmish zotlarning usuli daftari tarjimai hollaridan ma’lumot berib va bu muhorabadagi talofatlari va maqtul va harbiy quvvatlaridan sarhisob etib, oxirgi vaqtarda bir oz kechmishe voqealaridin bayon etdim. Toki muhoraba etmish kimsalar har on vatan fidoyilariga rahmat o‘qisinlar, ibrat olsin, bu muhorabaning qavoidig‘a fahm etsin degan niyatda hurriyat tarafdlorlari ozodlik raqiblari bo‘htonlariga qarshi ushbu tariqa bir harakat etishibdur.

1333-hijriyda, mutobiq 1915 isoviyda muxtoriyatlarini olib, bir millat o‘z huquqiga sohib bo‘lub, ikki yil hurriyat zavqini surdi, bir hukumat tashkil bo‘lub, usuli saltana va usuli mashruta tabdil etdilar, oqibat muxtoriyatchilarga qarshi inqilobchilar xuruj qilib, communist yoki bolshevik shiori ila buyuk bir to‘fon keturdi. Bu to‘fonning hashorotlari va zaharli hayvonotlari bechora oq kapalaklarni halok etib, muxtoriyatni-da maqv etdi. Bu to‘fon 1334-hijriy, 1915 isoviyga mutobiq edi. Bu mujodalala ikki yil davom etib, 1336-hijriy, mutobiq 1917-milodiyda bolshevizm g‘alaba qozonib, Rusiyada Lenin hokimiyyati o‘rnatildi. Bu bolshevizmga o‘ris va muslimmon millatchilari takror qarshilik qilib, har bir tarafdan muhoraba ochdilar. Jumladan, Turkistonga joylashgan Farg‘ona, Xiva va Buxoro atroflaridan cho‘q mujohidlar maydoni muhorabaga otildilar. Bulardan mashhurlari yetti yil davomida g‘ayrat etganlardan ikki kishi edi. Biri Farg‘ona mujohidlaridan Shermuhammadbek esa, ikkinchisi Buxoro mujohidlari raisi Ibrohimbek edi. Bu zotlar shul hijriy 1345-yillarda Kobulda muqim o‘lib, birinchilari hijriy 1340 da, ikkinchilari hijriy 1345 da Afg‘onistonga o‘tmishlar edi. Kamina shu hijriy 1345 yildan e’tiboran muhojir o‘lub, Kobulga doxil o‘ldig‘indan hamon mujohid muhtaram Shermuhammadbek huzurlarinda bir necha oy muqim o‘lub, bu kitobdagagi ma’lumotlarni yozdum. Bu ma’lumotlarni janobning va ham birodarlari Nurmuhhammadbek va boshqa pansodlarni huzurlarida og‘izlарidan eshitub, mubolag‘alarini qoldirib yozildi deguvchi o‘ldim, zeroiki, mazkur mujohidlar xalqqa emas, communistlarga qarshi harakat etmishlar edi. Bu mujohidlarni-da ijтиходлари 1333-hijriy, mutobiq 1917-dan boshlanib, alal-oqibat 1921-da mujohidlar mag‘lub va parishon o‘ldilar, afsus. Xatolarini isloh etuvlarini qorilardan rijo etub, muhtarram, hijriy 1345-da Afg‘oniston, Kobuldagagi Bog‘i Alimardonda naql kitob yozdim.

Muhtaram raisi mujohidin Shermuhammadbekning muxorabalarindan xulosai mafhudi.

Shermuhammadbek janoblari zotan-da bir o‘zbek jamoasi Farg‘ona tabaasi G’orbobo o‘lub, otalari Qo‘swoq Mirzo Xoji nomli bir zot edi. Bu zotdan to‘rt er (o‘g‘il) vujudga kelib, birinchisi Toshmuhammad, ikkinchisi Ro‘zimuhammad, uchinchisi Shermuhammadbek, to‘rtinchisi Nurmuhhammadbeklar edi. Bulardan uchinchilari Shermuhammadbek bolshevizmdan vatanlarini qutqarmoq uchun 1917-yildan maydoni muhorabaga otilib chiqdi. Bu zot kurash maydonida yuz nafarcha yigitlari ila g‘ayrat etub chiqib, oz fursatda ming kishilik qo‘shinga sohib o‘ldi. Shul vaqtida Farg‘onani har bir atrofindan chiqmish mujohidlar bosh-boshlaricha harakat qilub, umumiylar qo‘mondonlari yo‘q edi. So‘nggi sahifalarda yozilmish 8 nafar qo‘rboshi kurashda hokimi muxtor kabi o‘z askarlariga hukm yurutar erdi. So‘ng bu qo‘rboshilar qo‘shinlari 1918-yilda mazkur Shermuhammadbek jumla Farg‘ona mujohidlariga rais bo‘ldi va bu rahbarlikda to‘rt yil davom etdi. Bir vaqtida yuz ming muntazam askarlarga molik o‘lub, bir yakbora farmon etar edilar. Shu 1924-da Sharqiy Buxorodan Anvar Posho marhum Rusiyaga qarshi ish ochib, Shermuhammadbekni ko‘mak uchun chaqirdi. Javoban Shermuhammadbek ko‘mak uchun birodari Nurmuhhammadbekni ikki ming

qahramon yigitlari ilan yubordilar. Ortidan o‘zлari Anvar Posho marhum huzurlariga yurdilar. Baxtsiz mamlakat Turkiston oqibatsizlig‘идин bu mujohidlar bir-biriga yetishmasdan avval Sharqiy Buxoroning chetki hududlari bo‘lmish Boljuvon nomli shum bir yerda ruslar tarafidan dahshatli bir hujum Anvar Posho ustiga etilib, natijada dohiy, mashhur qahramon jeneral Anvar Posho shahodat sharobini no‘sh etdilar, ozodlik, dini islom yo‘lida darajan shahodat topdilar. Shundan so‘ng Shermuhammadbek bu voqeani eshitib ko‘p a‘ziyat chekdi, aza tutdi. Yetti kun mobaynida barcha marosimlarini ado etub, so‘ngra Anvar Posho ishini davom ettirish uchun kelgan Somiybek ilan birgalikda ish qilmoq bo‘ldilar. Oqibat bir necha yovuz niyatli badbaxtlar yolg‘он so‘zlar tashub, o‘rtalariga buyuk darajada adovat soldilar.

Shermuhammadbek Somiybekdan ajrab tog‘ tarafiga yurmoq bo‘ldi. Somiybek quvlab o‘qg‘a tuttirdi. O‘rtada bir qancha adad yigitlar shahid o‘lub, quvvatlari bo‘lindi. So‘ng falokatlar biri ortidan biri kelub, Somiybek-da, boshqasi-da bir taraf qochdi. Fursatdan foydalanib rusiyalar buyuk hujumlar etdi. Shermuhammadbek janoblari shu 1924 da 300 askarları ilan xoki muqaddas Afg‘oniston o‘tub, Xonobodda davlat tarafindin bir necha oy mehmon etuldilar. So‘ngra mazkur mamlakat poytaxti Kobulga keldilar. Bu yerda bir sana turib, Peshovar shahrina bordilar. U yer davlati Angliyadan ko‘mak so‘rab, Rusiyaga qarshi takror muhoraba ochmoqchi o‘ldilar. So‘ngra Chatrор tarafindin yurub, takror Afg‘onistonga kelub, bu yerda davlati oliya tarafindin cho‘q ko‘mak va hadyalar olub turdilar. Bu vaqtda taqdirga bo‘yin sunib, har bir oyda hukumat tomonidan ko‘mak olib turar edilar. Bu orada Nurmuhammadbek birodarlari va boshqa 15—20 nafar yigitlari ila sovetlarga qarshi muhorabalar etushub, millat vazifalarini bajo etishib turdilar. Alloh Zuljalol bek sohibning maqsudlarini vosil etsun, omin!

Bu orada Shermuhammadbek yetti sanada qilgan ishlaridan muxtasar bayon etdim. So‘ngg‘i betlarda tarjimai ahvoldin, keyingi vaqlardagi ahvoldidan yozmoqchiman. Kitobni ko‘rub, bo‘sh betlaridan mutaassir o‘lmasliklarini qoroyi kiromlardan tilayman. Shahri Kobilda Bog‘и Alimardonda yozildi.

Yashasin Millat qahramonlari. Qabrlikda rohatlansun.

Qabringda rohatda bo‘l Vatanni ozod etishda shahid bo‘lganlar. Bir kun nomlaringni xotirlajaklar!”

XOTIMA

Muhtaram kitobxon! Mana, Siz bilan birgalikda fidoyi ajdodlarimizning hurriyat uchun, istiqlol uchun olib borgan kurashlari sahifalarini ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazdik. Bu kurash, garchi bosqinchilarning g‘alabasi bilan yakunlangan bo‘lsada, milliy tariximizning eng shonli sahifalaridan biri bo‘lib qolaveradi, illo, bu milliy-ozodlik kurashidir. G‘alabalar quvonchi, mag‘lubiyyatlar o‘kinchi bu kurashning doimiy hamrohi bo‘lib keldi.

Mazkur kurash fidoyilik namunasi sifatida moziy sahifasidan o‘rin oldi. Uning ishtirokchilari fidoyi bo‘limganlarida Sho‘rolar hokimiyyati kabi ulkan dushmanga qarshi qilich ko‘tarishga jur’at eta olarmidilar? V.I.Lenin o‘z qo‘mondonlaridan bejiz xafa bo‘lgan emas.

Biroq, besh-olti yil uzluksiz davom etgan urush, ketma-ket kelgan qahatchilik milliy-ozodlik harakatini barcha zaxiralardan mahrum qildi, qon tomirini quritdi. Qizil armiya esa borgan sari o‘sib, kuchayib bordi, unga kuch, oziq-ovqat, o‘q-dori uzluksiz yetkazib berib turildi. Shu o‘rinda ozodlik kurashi ishtirokchilarini ertaklarimizning doimiy qahramoni bo‘lmish Kenja Botirga o‘xshatgim keladi: Kenja Botir uch boshli Ajdaho bilan urushib, uning kallalarini sapchadek uzaverdi, biroq zum o‘tmay boshlar yana o‘sib chiqaverdi. Ertakdagи Kenja Botir buning ilojini topdi: Hizr alayhissalomning maslahat va ko‘mamlari bilan, har bir boshni kesgach, payg‘ambar tutqazgan mash‘alni ajdahoning bo‘yniga bosaverdi, natijada kallalar o‘sib chiqishdan to‘xtab, nihoyat Kenja Botir Ajdahoni o‘ldirib, xaljni uning zulmidan qutqarishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq, taqdir ekan **Hizr alayhissalom hayotdagи Kenja Botirlarga yordamga yetib kelishga ulgurmadir.**

Insoniyat tarixidagi barcha kurashlar kabi, Turkistondagи milliy-ozodlik harakati ham ayrim nuqsonlardan holi bo‘la olmadi. Qo‘rboshilarning yakka hokimiyatga intilishi, Muhammadaminbek-Xolxo‘ja Eshon, Muhiddinbek-Isroilbek mojarolari hamda yo‘l qo‘yilgan boshqa qator-qator xatolar, albatta, qizil imperiya foydasiga ishladi.

Turkiston o‘lkasi Rossiya tomonidan ikkinchi marotaba bosib olingach, uning aholisi “ikkinchi nav” darajasiga tushirib qo‘yildi, shuningdek, mahalliy aholi armiya saflariga safarbar etilmadi. Natijada yigirma-o‘ttiz tasodifiy shaxslarni istisno qilganda yigirmanchi asrning birinchi choragiga kelib, Turkistonda mahalliy aholidan chiqqan harbiy kadrlar yo‘q edi. Sho‘ro armiyasida esa podsho davridan qolgan harbiy kadrlar juda ko‘pchilikni tashkil etgan.

Ozodlik harakati ishtirokchilari miltiq otish, qilich chopish va boshqa harbiy ko‘nikmalarni jang asnosidagina o‘rgana oldilar. To‘g‘ri, ular janglarda harbiy mahoratlarini oshirib, tajribali generallarni tang qoldirgan qator g‘alabalarga erisha oldilar. Ammo, harbiy ilm, baribir, harbiy ilm-da. Qo‘rboshilarimiz taktika jihatidan mahorat cho‘qqilariga ko‘tarilgan bo‘lsalarda, strategiya jihatdan malaka oshirishga ulgurmadilar. Illo, bu ilmga uzoq yillik janglar asnosidagina erishish mumkin.

Istiqlolchilar va istilochilar o‘rtasidagi tengsiz kurashda, yuqoridagi omillarga ko‘ra istilochilarning qo‘li baland keldi. Ergashbek ham, Muhammadaminbek ham, Shermuhammadbek ham, boshqa qo‘rboshilar va ozodlik jabhasining oddiy jangchilari ham ko‘ksilarida Vatanni ozod qila olmaganlik armoni bilan shahodat sharbatini ichdilar. Nafaqat ular, balki Turor Risqulov, Fayzulla Xo‘jaev kabi siyosiy-g‘oyaviy kurashchilar, Cho‘lpondek olovqalb shoirlar, Fitrat, Munavvar Qori kabi alloma-jadidlar va ularning minglab safdoshlari ham shu armonni o‘zları bilan boqiy dunyoga olib ketdilar.

Ezgulikning kechi yo‘q, deydilar. Minglab fidoyi kurashchilarimiz armoni yetmish yildan keyin ushaldi. 1991 yil 31 avgust kuni O‘zbekistonning Mustaqilligi e’lon qilindi. Yurtboshining yuksak minbardan turib so‘zlagan nutqini, o‘zbek xalqi asrlardan beri orziqib kutgan so‘zlarni tinglar ekanmiz, yashirmaymiz, ko‘zlarimizga yosh, ha, quvonch yoshlari keldi, qo‘limizga dastro‘mol olib bu yoshlarni artishga urinmadik ham. Mayli, oqsin. Xalqimizning, kurashchilarimizning armonlari shu yoshlar bilan oqib ketsin!

Fursatdan foydalanib aytish lozimki, bu tarixiy mavzuga qo‘l urib, ko‘p narsani o‘zim ham bilib oldim. Ko‘pdan-ko‘p olimu, fuzalolar, qo‘rboshilar yashagan, qarorgoh qilgan joylar, u yerdagi oqsoqollar, bilimdonlar bilan tanishdim.

Fursat g‘animatligida ushbu risolamizni yuzaga kelishida beg‘araz ko‘mak, amaliy yordam bergen, menda qo‘rboshi Madaminbek, Shermuhammadbek haqida izlanayotganidan xabardor bo‘lib, yozing deb turki bergen jurnalist adib Alisher Ibodinovga, 1980 yillari suhbatlarimizni birida “Bosmachi va Qo‘rboshilar” haqida ko‘p bilgan va boy arxiviga ega bo‘lib, 1919—1923 yillarda “Nasha gazeta”, “Izvestiya” “Krasnoarmeyskaya” gazetalarida qo‘rboshilar to‘g‘risida chop etilgan va boshqa tarixiy manbalar bilan bu kitobni boyitib, ilk bor yozilishiga birinchi turkini bergen Namangan, Andijonda rahbar bo‘lib ishlagan do‘stimiz, akaxonimiz marhum Hamid Qodirovga, bu kitobni yozilishi bilan qiziqib, nodir hujjatlar bilan siylagan, undagi ilmiy jihatlarni yoritishda o‘z yordam va maslahatlarini ayamagan taniqli olim, tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Andijon Davlat Universiteti kafedra mudiri Rustambek Shamsutdinovga, Turkistondagи istiqlolchilik harakati tarixi bo‘yicha e’tirof etilgan taniqli mutaxassis, mashhur tarixchi olim, tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabovga, arxiv hujjatlarini chang yutib, tahlil etgan, eski yozuvlarni tarjima qilgan qadrdonim Yahyoxon Dadaboevga, “bosmachilikka” oid tarixiy hujjatlar bilan yordami tekkan tarixchi olim Sotimjon Xolboevga, B.Hayitning Turkistondagи milliy kurash haqidagi kitobining tegishli qismlarini nemischadan o‘girgan Toshkent Jahon tillari Universiteti kafedrasi mudiri Shavkat Karimovga, Shermuhammadbek bilan Zinovev o‘rtasida sulk muzokaralar olib borishga vositachilik qilgan marg‘ilonlik Saidumarxo‘ja avlodlaridan Abdumannonxon Azizxonovlarni topib, tanishtirgan farg‘onalik Abdumalik Murtazoev kabi fidoyi insonlarga tangridan ajr, sog‘liq-omonlik, baxt-iqbol, boqiy dunyoga rixlat etganlarni esa Allohnning

behisht rahmatiga olishini tilab qolaman.

Yana bir buyuk zot, iftixorimiz, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov shu ishga qo‘l urganimni bilib, yozuvchi Dadaxon Nuriy bilan u kishining huzurlarida bo‘lganimizda: “Judayam savobli, lekin murakkab vazifani zimmangizga olibsiz, barakalla, agar shu ishning uddasidan chiqsangiz, o‘zim shu kitobingizga bajonidil so‘z boshimi, taqrizmi yozib berardim”, deganlari hech qachon yodimdan chiqmaydi.

Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim... Sholi kurmaksiz bo‘lmaganidek, shonli tariximizda, aytsak tilimiz yonib ado bo‘ladigan, aytmasak dilimiz o‘rtanadigan holatlar borligidan iztirob chekaman. Tarixni o‘qigan, o‘rgangan, unga chuqur kirib borgan sari duch kelgan ayrim noxushliklar bizni qiynaydi. Bularning avvali— bizning bir yoqadan bosh chiqara olmaganimiz, bizning o‘zibek, o‘zim bekligimiz...

Shuningdek, Gegel aytganidek: “Sharq xalqlari tabiatida bir-biriga zid ikkita xususiyat mavjud: hammaning ustidan hukmronlik qilish uchun hokimiyatga intilish hamda har qanday qullikka mutelarcha bo‘ysunish.

“O‘zim bek” masalasiga qaytsak, bir hududda joylashgan, tomiri bir, udumi bir, tilu dili bir, daryo-u arig‘i bir uch sultanat bir yoqadan bosh chiqarish u yoqda tursin, bir-biri bilan urush qilmay tura olmadi: 1732—33-yillarda Qo‘qon xonlaridan Abdurahimxon Samarqandni ishg‘ol qildi; 1818 yilda Amir Umarxon yana bir bor Samarqandni egalladi; o‘n yildan so‘ng Muhammad Alixon Sharqiy Buxoro hududidagi bir qancha bekliklarni bosib oldi; 1842 yilda Buxoro amiri Nasrulloxon Xo‘qandni bosdi; 1865 yilda Qo‘qon xoni amirlashkari Alimquli Toshkentda—Chimkentda jon olib-jon berib rus istilochilari bilan kurashib yotganda Buxoro amiri Muzaffariddin tomoshabin bo‘lib turdi, ertaga Chernyaev o‘zini ham dog‘da qoldirishi mumkinligini o‘ylashni xohlamadi, Alimqul shahid bo‘lgach esa, Xo‘qandga qo‘sish surib keldi... Eh, bularning qaysi birini aytay?

Bularning hammasi biz turkistonliklarni Rusiya asoratiga tushishga, qariyb 130 yil podsho Rossiyasi va sovetlar zulmi ostida yashashga mahkum etdi. Biz axir inson farzandlarimiz-ku! Darvoqe, hayvonlar og‘ir paytda o‘zaro qirg‘inni to‘xtatishi tabiat qonunlaridan ma’lum: o‘rmonga o‘t ketsa, bo‘rilar kiyiklarni tinch qo‘yadilar.

Afsus, manmarchilik va o‘zbilarmonlik oqibatida tanazzulga yuz tutdik. Allohning inoyati, mehribonligi, taqdirning saxovati bilan ozodlikka chiqdik. Hech kimdan kam bo‘lmagan xalqimiz buyuk davlat qurish uchun intilmoqda.

Hurmatli kitobxonlar, biz qo‘rboshilar, Shermuhammadbek to‘g‘risida ushbu risolani baholi qudrat yaratdik. Avvallari ko‘plab risolalar yozgan bo‘lsakda, yashillik, tabiat va sargushtalik sohalariga bag‘ishlangan edi. Birinchi bor bu sohaga qo‘l urdik, shuning uchun xato va kamchiliklardan, albatta holi emas, zamonamiz tarixchilari, qalam ahllari bu borada bundan ham kuchliroq, bundan ham ilmiy dalillarga asoslangan asarlar yaratishlariga tilakdoshmiz.

Oxirgi nuqtani qo‘yar ekanmiz, ozodlik yo‘lida kurash olib borgan barcha fidoyilarning oxiratlari obod bo‘lishini Allohdan tilab qolamiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Komil Aliev.* Qovoqxona namoyondasi. “Yer yuzi” jurnali. 1928y. 15-son
2. *M.Abdurahmonov.* Madaminbekning rafiqasi yoki marg‘ilonlik Saodatxon aya xotiralari. Yosh leninchi. 1990 y. 11 aprel.
3. *Ali Bodomchi.* 1917—1934 yillarda Turkistonda Milliy istiqlol harakati va Anvar Posho. Qo‘rboshilar. 1-jild. Istanbul. 1975y.
4. *Alixonto‘ra Sog‘uniy.* Turkiston qayg‘usi. Toshkent, 2003y.
5. *Bobobekov Haydarbek.* Qo‘qon tarixi. Toshkent, “Fan” 1966 y.
6. *Boymirza Hayit.* Yorug‘ kunlar orzusida. “Jahon adabiyoti”. 1998y. 11-son.
7. *Boymirza Hayit.* “Bosmachi”. 1917—1934 y. KLYoN 1992y.
8. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. “Sharq yulduzi”. 1991y. 3-son.
9. *Vorin.* Mira i xleba. “Ferganskaya pravda”. 1922 g. №42.
10. *Sh.Doniyorov.* Madaminbek kim edi? “Yoshlik”. 1991 y. 4-son.
11. *Zaki Validiy.* To‘g‘on. Bugungi Turk eli—Turkiston va yaqin tarixi. 1-jild. Istanbul. 1949 y.
12. *Dadaboev Yahyoxon.* Qatag‘on deparasi. Farg‘ona 2006 y.
13. *Ibordinov.A.* Millatim—jonim mening: Xalq qahramoni Madaminbek hayot bo‘lganda 100 yoshga to‘lardi. “O’zbekiston ovozi”. 1992 y. 11-mart.
14. *Professor Ibrohim Yorqin.* Turkistonning buyuk mujohidi Shermuhammadbekni yo‘qotdik (1889—1970 yil 10 mart). “Turk kulturu” jurnali. Anqara. 1971 y. 99-son.
15. *Ibrohim Karim.* Madaminbek. Toshkent. 1993 y.
16. Istiqlolimizning tarixiy ildizlari. Davra suhbat. “Sharq yulduzi” jurnali. 1995 y. 11—12 sonlar.
17. Kokand-kishlakskaya tragediya. “Izvestiya”, № 82, 21 fevralya 1919 g. Kokand.
18. *Muso Turkistoniy.* Ulug‘ Turkiston fojiasi I—II qismlar. Madinai Munavvara. 1981 y.
19. *Majid Xasaniy.* Turkiston bosqini. Toshkent, 1992 y.
20. Prikaz Ferganskogo oblsoveta rabochix, soldatskix, krestyanskix i musulmanskix deputatov ob ob‘yavlenii Ferganskoy oblasti na voennom polojenii. 9 iyulya 1918 g. “Izvestiya”. Fergana. 1918 g. №139.
21. *Rajabov.Q.* Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash.
22. *Rajabov.Q. Haydarov.M.* Turkiston tarixi (1917—1924 y.) T.Universitet. 2002 y. 168-bet.
23. *Shamsutdinov Rustam.* Jasoratga to‘la hayot sohibi. Andijon, 1991 y.
24. *Shamsutdinov Rustam.* Shermuhammadbek hayotiga chizgilar. “Fan va turmush”. 24-sonlar. 1995 y.
25. *Shamsutdinov Rustam.* “Bosmachilikni qanday baholash kerak”. “Fan va turmush”. 3-son. 1995 y.
26. Shodmonqul Oston o‘g‘li. Milliy qahramonimiz kim? Turkiston. 1992 y. 21 fevral.
27. O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. Tom 1—12. Toshkent 2000—2006 y.
28. Mirnye peregovorы s basmachami. “Krasnoarmeyskaya gazeta”. 1921g. № 33.
29. “Ob uspexax Sovetskix otryadow v borbe s basmacheskimi bandami v Andijanskom uezde”. “Izvestiya” № 103. 11 aprelya 1919 g. g.Kokand.
30. Prikaz Ferganskogo oblsoveta rabochix, soldatskix, krestyanskix i musulmanskix deputatov ob ob‘yavlenii Ferganskoy oblasti na voennom polojenii 9 iyulya. 1918 g. “Izvestiya” Fergana 1918 g. №139.
31. *I.Solu.* Kurshermat i avtonomiya. “Ferganskaya pravda”. 1922g. № 70
32. *P.Georgievich.* Kurbashi i Sovetskaya vlast. “Krasnoarmeyskaya gazeta”. 1921 g. № 36.